

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

«Iqtisodiyot va boshqaruv» fakulteti

«Iqtisodiyot» kafedrası

«YO‘NALISHGA KIRISH»

fanidan

O‘QUV USLUBIY MAJMUA



**(“Kommunal infratuzilma uy-joy kommunal xo‘jaligini
tashkil etish va boshqarish” ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun)**

Namangan - 2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**


«Iqtisodiyot va boshqaruv» fakulteti

«Iqtisodiyot» kafedrası

«YO‘NALISHGA KIRISH»

fanidan

O‘QUV USLUBIY MAJMUA



**(“Kommunal infratuzilma uy-joy kommunal xo‘jaligini
tashkil etish va boshqarish” ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun)**

Namangan - 2021

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi (O'UM) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 202__ yil «__» __dagi __-sonli buyrug'ining __-ilovasi bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

«Yo'nalishga kirish» fanidan o'quv-uslubiy majmua. – Namangan, NamMQI, 2021 yil. 230 bet.

Tuzuvchi:

Aripov O.A. - NamMQI, «Iqtisodiyot» kafedrası mudiri, dotsent, DSc.

Taqrizchilar:

Sotvoldiyev N.J. - NamDU dotsenti, DSc.;


Sirojiddinov I.Q. - NamMQI «Iqtisodiyot» kafedrası dotsenti, i.f.n.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Ushbu sohasida boshqarishning bozor tizimiga xos muammolari talabalar e'tiboriga xavola etiladi. Har bir ma'ruzada talaba o'ziga xos muammoni yechishga harakat qilib, o'qituvchi tomonidan ushbu qo'yilgan muammoni yechimini topish, uning nazariy jihatlarini tushunib olishga imkon yaratiladi. Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo'jaligini tashkil etish va boshqarishda menejer faoliyatini tashkil etish uning bozor muhitida mavjud qonuniyatlari asosidagi xatti-harakatlari o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida mulohazalar berilgan.

E'tiborlisi shundaki, bunday O'UM talabalarga bilim berish jarayonida ularni mustaqil fikrlashini iqtisodiy jarayonlarga bo'lgan munosabatini, iqtisodiy dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Mazkur O'UMni yaratishda o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy asarlaridan keng foydalanilgan.

Namangan muhandislik-qurilish instituti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan. «__» __2021 yildagi __sonli majlis bayoni (__ - son bilan ro'yxatga olingan).



MUNDARIJA

1. O'quv materiallar.	4
1.1. Ma'ruzalar matni.	4
2. Amaliy mashg'ulotlar.	163
2.1. Amaliy mashg'ulot materiallari.	163
2.2. Modulni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.	166
3. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari.	175
3.1. Mustaqil ish mavzularini tayyorlash tartiblari.	175
4. Glossariy.	177
5. Ilovalar.	184
5.1. Ishchi fan dasturi.	184
5.2. Tarqatma materiallar (keyslar banki).	195
5.3. Testlar.	206
6. Adabiyotlar	228

1. O'QUV MATERIALLARI

1.1. MA'RUZALAR MATNI

1-Mavzu: “Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi haqida tushuncha.

1.1. Ta’lim yo‘nalishining mazmuni va mohiyati.

1.2. Kommunal xo‘jaligi sohasining jamiyatdagi roli va tarixi

1.1. Ta’lim yo‘nalishining mazmuni va mohiyati.

Hozirgi davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi aholi farovonligini, turmush darajasi va sifatini oshirishga yo‘naltirilganligidir. Mamlakatimiz Prezidenti SHavkat Miramonovich Mirziyoev “Islohotlarning asosiy maqsadi-aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta’minlashdir”¹ deb ta’kidladilar. SHu maqsadda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi qabul qilindi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning tub mazmun-mohiyati xalq farovonligini ta’minlashdan iborat ekan, eng avvalo ijtimoiy soha rivojini ta’minlash, uning muhim qismi bo‘lgan uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Ma’lumki, mamlakatimiz aholisini turmush darajasi va sifatini yaxshilashda kommunal xizmatlar sohasining o‘rni juda kattadir. Bu holat kommunal xizmatlar ko‘rsatish sohasi faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirishga alohida e’tibor berishni talab etadi. Ushbu sohani rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda bir qator huquqiy-me’yoriy hujjatlar xususan, Uy-joy, SHaharsozlik kodekslari, «Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to‘g‘risida», «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida», «Ijara to‘g‘risida», «Ipoteka to‘g‘risida», «Elektr energiyasi to‘g‘risida», «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida», «CHiqindilar to‘g‘risida»gi qonunlar shular jumlasidandir. Ushbu qonunlardan umumli foydalangan holda aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini oshirish ijtimoiy-iqtisodiy sohaning yuksalishini ta’minlaydi. SHuning uchun ham kommunal xizmatlar tizimi sohasidagi islohotlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi.

So‘nggi yillarda respublikada servis va xizmat ko‘rsatish sohalarini qo‘llab-quvvatlash borasida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar, bu sohadagi alohida olingan tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilinayotgan qator dasturiy yo‘nalishlar provardida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 14 yanvardagi Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. //Zarafshon, 18 yanvar 2017 yil.

rivojlanishiga, shuningdek uy-joy xo'jaligiga xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan o'sishiga olib kelmoqda.

Kommunal xo'jaligi sohasida hozirgi kunda olib borilayotgan islohotlarni o'rganib, ilmiy tahlil qilib bormasdan turib bu sohada ulkan muvoffaqiyatlarga erishib bo'lmaydi. Tarmoqda amalga oshirilayotgan jarayonlarni o'rganish va ilmiy tahlil qilib borishda hamda sohaga amaliy bilimlarga ega bo'lgan, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda "Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" ta'lim yo'nalishi bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashning ahamiyati katta.

Oliy ta'limning 53413000-"Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" ta'lim yo'nalishida o'qitilishi nazarda tutilgan fanlar sohaning quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish va mavjud muammolarni ilmiy asoslangan holda hal etishga xizmat qiladi:

- Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasining yagona tizim sifatida aholi hayot darajasini yaxshilashdagi rolini o'rganadi, uning nazariy va amaliy asoslarini shakllantiradi;

- kommunal xo'jaligi sohasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini belgilaydi hamda sohada yuzaga keladigan muammolarni hal qilishning ilmiy asoslangan yo'llarini belgilaydi;

- uy-joy kommunal xo'jaligi tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqadi;

- kommunal xizmatlar narxini shakllantirish, tannarxni kamaytirish va to'lov tizimini takomillashtirish masalalarini o'rganadi;

- kommunal xizmatlar ko'rsatishda shartnomaviy munosabatlarni keng joriy etish, turarjoy va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirishi yo'llarini o'rganadi;

- uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkiliy va iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish va uy-joy fondini boshqarishda progressiv usullar hamda fan va texnika yutuqlarini keng joriy etish masalalarini o'rganadi;

- xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish hamda yuzaga kelgan ehtiyojlar uchun moliyaviy mablag'larni (kredit, grantlar, homiylar mablag'larini) jalb etish yo'llarini izlab topish va boshqa uy-joy xo'jaligini boshqarish bilan bog'liq iqtisodiy masalalarni o'rganadi.

- Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo'jaligini tizimidagi korxona va tashkilotlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish, turar joy binolari va inshootlaridan foydalanish, ularni injenerlik kommunikatsiyalarini ekspluatatsiya qilishni tashkil etishni o'zlashtirish, turar joy binolaridan foydalanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish va turarjoy hududlarini obodonlashtirish jarayonini o'zlashtirish, turarjoy va noturar joy binolarini joriy va kapital ta'mirlash, rekonstruksiya, modernizatsiya va texnik ekspluatatsiya qilishni tashkil etish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Ta'lim yo'nalishi mazkur tizimning shakllanishi va uning faoliyati bilan bog'liq iqtisodiy masalalarni o'rganishda Qurilish texnologiyasi, Qurilish konstruksiyalari, qurilish materiallari, qurilish mashina va mexanizmlari, qurilish mexanikasi, materiallar qarshiligi, geodeziya, geologiya, gruntlar mexanikasi, ekologiya va hayot

faoliyati xavfsizligi, Iqtisodiyot nazariyasi, Mikroiqtisodiyot, Tarmoqlar iqtisodiyoti, Qurilish iqtisodiyoti, Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti, Statistika, Investitsiyalar va boshqa fanlarning nazariy bilimlariga asoslanadi.

1.2. Kommunal xo‘jaligi sohasining jamiyatdagi roli va tarixi

Insoniyatning tarixiy rivojlanishi davomida asosiy va muhim vazifalardan biri aholining turmush darajasini yaxshilash masalasi bo‘lib kelgan. Aholini turmush darajasi, hayot kechirishi bilan bog‘liq bo‘lgan moddiy ne‘matlar mavjudligi va ijtimoiy sohada ko‘rsatilayotgan xizmatlarning tashkil etilish darajasiga bog‘liq. O‘z navbatida ma‘naviy va moddiy ne‘matlar inson tafakkurining mahsuli, samarali mehnati natijasi hisoblanadi. Hozirgi kunda Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan qabul qilingan uslubga muvofiq dunyodagi mamlakatlarning taraqqiyot darajasi reytingi ularning iqtisodiy salohiyati yoki harbiy qudratiga qarab emas, balki, aholi turmush madaniyati va inson resurslarining rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi.

Aholining turmush darajasi mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat va ijtimoiy sohaning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘z navbatida ijtimoiy soha aholiga moddiy va ma‘naviy ne‘matlar etkazib beruvchi infratuzilmalardan tashkil topadi. Ta‘lim, madaniyat, san‘at, sport va sog‘liqni saqlash kabi sohalar aholini komil inson qilib tarbiyalash uchun xizmat qilsa, uy-joy xo‘jaligi va kommunal xizmatlar tizimining rivojlanishi aholining farovon hayot kechirishi va munosib turmush tarzining shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Dunyoda aholi statistikasi ma‘lumotlari o‘rganilganda, bundan bir asr oldin, 1900 yilda er yuzida 1608 million aholi yashaganligi qayd etilgan bo‘lsa, oradan bir asr o‘tib 2000 yilda esa aholi soni 5300 million kishiga etkanligini ko‘rish mumkin. Albatta aholi sonining ko‘payib borishiga fan va texnika taraqqiyoti, tibbiyot sohasining rivojlanishi natijasida aholiga qirg‘in soluvchi epidemiyalarni davolash imkoniyati topilganligi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, aholining yashashi uchun shart-sharoitni yaxshilanishi, turmush darajasining yuksalib borishi va sog‘lom farzand tarbiyasi uchun qulay imkoniyatni yaratib berishda uy-joy-kommunal xo‘jaligi sohasi muhim o‘rin egallaydi.

Uy-joy qurilishi va kommunal xo‘jaligi tarixiga nazar solganimizda bu sohada mamlakatimizda uzoq tarixga va cheksiz manbaga ega bo‘lgan maktab mavjudligining guvohi bo‘lamiz. Hattoki ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan, O‘rta Osiyoda eng qadimgi hisoblanuvchi (X-asr, 980-chi yillarda) bunyod etilgan tarixiy obida “Samoniylar maqbarasi”ga nazar tashlar ekanmiz uning noyob san‘at asari darajasida yaratilgan arxitektura yodgorligi ekanligi bilan birga unda yog‘ingarchiliklardan himoyalovchi tarnov yo‘li, oqavasuv tizimi va havo aylanishini ta‘minlovchi kommunikatsiyalarning mavjudligini ko‘ramiz. Bu esa o‘sha davrda O‘rta Osiyoda muxandislik tarmoqlari qurilishi sohasida ma‘lum tajriba mavjud ekanligini ko‘ramiz.

O‘zbek-yapon olimlari tomonidan, O‘rta Osiyodagi eng qadimiy hisoblangan, Surxandaryo viloyatidagi Dalvarzintepa shahri hududida o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasiga ko‘ra ushbu shaharga suv ta‘minoti maxsus sopol quvrlar orqali amalga oshirilganligi ma‘lum bo‘ldi.

SHahrisabzda Ulug' bobomiz Amir Temir tomonidan bunyod etilgan Oqsaroy ansambli tomida ko'rkam bog' bunyod etilgan va bog' o'rtasidagi favora (fontan)dan zilol suv taralib turgan. Mazkur favoraga suv quvuri tog' qoyasidan chiquvchi buloqdan sopol quvrlar orqali olib kelingan bo'lib, quvurlar bir-biriga qo'rg'oshinni eritib quyish orqali payvandlangan. SHuningdek, suv ta'minoti va oqava quvur tarmoqlarini Buxoro, Samarqand, Xiva kabi qadimiy shaharlarimizda saqlanib kelayotgan har bir tarixiy obidalarda uchratish mumkin. Ammo mamlakatimizda ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan tarixiy obidalarda saqlanib qolgan muxandislik-kommunikatsiya tizimlarining ilmiy jihatlarini hozirgi kunga qadar mukammal o'rganilmagan.

Samarqand viloyatining Nurota tumanida XV-XVI asrlarda bunyod etilgan umumiy uzunligi 10 km.dan ortiq er yuzasidan 10-35 metr gacha chuqurlikda o'tkazilgan suv ta'minoti inshooti hozirgi kunga qadar faoliyat ko'rsatmoqda.

Qadim zamonlardan (XI-XVII asrlar) O'rta Osiyo hududida suv manbalarining taqchilligi va tabiiy iqlim sharoitining quruq va issiqligi, suv resurslaridan oqilona foydalanish, tabiiy yog'ingarchilik davrlarida suv zahiralari katta miqdorda to'plash va uzoq muddatga saqlab turishga mo'ljallangan muxandislik inshootlari yaratilishiga olib kelgan. Qadimiy Buyuk ipak yo'li xaritasi bo'ylab olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ushbu tarixiy yo'lining aynan Markaziy Osiyo cho'llari bo'ylab o'tgan qismida Sardoba deb nomlangan, savdo karvonlarini ichimlik suvi bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi inshootlarining barpo etilganligi aniqlangan. Hozirgi kungacha saqlanib qolgan sardobalarni ilmiy tadqiqot natijalari ularda aynan bahorgi yog'ingarchiliklar mavsumi tugagunga qadar, keyingi, kuzgi yomg'irlar mavsumigacha etarli suv miqdorini yig'ilishi, quyosh nuri va ifloslanishdan himoyalash, yuqumli kasallik va zararli bakteriyalar tarqalishining oldini olish imkoniyatlarining mujassamligi bu inshootlar qurilishi o'ta mukammal ekanligidan va ilmiy asoslanganligidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo hududida tarixiy manbalarda qurib ishga tushirilgan muddatlari oldingi ming yillikgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oluvchi, o'nlab muxandislik inshootlari mavjud bo'lib, ularning barchasi uzoq o'tmishda O'rta Osiyo hududidagi qadimiy shaharlar va doimiy (o'troq) aholi yashash manzillarida uy-joy xo'jaligi va dehqonchilikda suv ta'minoti inshootlari barpo etilganligidan va uy-joy-kommunal xo'jaligi sohasining yaratilishida aynan O'rta Osiyoda asos solinganligidan dalolat beradi.

Mavzu-2. Davlatning uy-joy sohasidagi siyosati va kommunal xo‘jaligi sohasidagi islohotlar.

2.1. O‘zbekiston Respublikasida Davlatning uy-joy siyosati.

2.2. Kommunal sohadagi islohotlar

2.3. SHahar xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirishda kommunal xo‘jaligining o‘rni

2.1. O‘zbekiston Respublikasida Davlatning uy-joy va kommunal sohadagi siyosati

Respublikamizda davlatning uy-joy siyosati O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksida aks ettirilgan bo‘lib, u 1998 yil 24 dekabrda 713-II-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan qabul qilingan va Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 dekabrda 714-I-son Qaroriga muvofiq 1999 yil 1 apreldan amalga kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 11 ta bo‘lim va 141 ta moddadan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida uy-joy siyosati uy-joy to‘g‘risidagi qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi². Uy-joy to‘g‘risidagi qonun hujjatlari Uy-joy kodeksidan hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Ayrim uy-joy munosabatlari uy-joy to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida tartibga solinmagan bo‘lsa, ularni respublikamizda erga oid qonun hujjatlari hamda arxitektura va shaharsozlik sohasidagi qonun hujjatlarining ana shu munosabatlarni tartibga solishga taalluqli qismi qo‘llanadi.

Uy-joy to‘g‘risidagi qonun hujjatlari fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining quyidagi masalalar bo‘yicha munosabatlarini tartibga soladi³:

- turar joylarga mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqining yuzaga kelishi, amalga oshirilishi, o‘zgarishi hamda bekor bo‘lishi;
- uy-joy fondini hisobga olish;
- uy-joy fondini saqlash, qarash va ta‘mirlashni ta‘minlash;
- fuqarolarning uy-joy huquqlariga rioya etilishi va uy-joy fondidan maqsadli foydalanish ustidan nazorat qilish.

Uylarni qurish, turar joylarni qayta qurish va o‘zgartirish, muhandislik qurilmalaridan foydalanish, kommunal xizmatlar bilan ta‘minlash bilan bog‘liq munosabatlar Uy-joy kodeks va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Agar qonunda yoki O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, uy-joy to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining qoidalari chet el fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, chet el yuridik shaxslari ishtirokidagi uy-joy munosabatlariga nisbatan qo‘llaniladi.

² O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi, 1-moddasi.

³ O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi, 2-moddasi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining uy-joy munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlariga⁴ quyidagilar kiradi:

- uy-joy fondidan foydalanish va uning asralishini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini yuritadi, uy-joy sohasini rivojlantirishning davlat kompleks dasturlarini qabul qiladi⁵;
- uy-joy xo'jaligi va kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha davlat boshqaruv organlari faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- turar joylarni taqsimlash hamda ijara, ijara shartnomalari bo'yicha fuqarolarga berish, shuningdek ularni almashtirish hamda sotish tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;
- uy-joy va kommunal xizmatlar uchun haq to'lash tizimini tartibga soladi;
- kompensatsiya, kredit hamda ssudalar berish tartibi va shartlarini tartibga soladi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining uy-joy munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi⁶:

- uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash;
- uy-joy fondini va kommunal ob'ektlarni boshqarishni tashkil etish;
- o'z tasarrufidagi hududda kommunal xizmatlarga oid tarif siyosatini belgilangan tartibda shakllantirish;
- uy-joy fondini hisobga olish;
- davlat uy-joy fondidagi turar joylarni taqsimlash va fuqarolarga ijara shartnomasi shartlari asosida berish;
- davlat uy-joy fondidagi turar joylarni ulardan belgilangan maqsadda foydalanish uchun yuridik shaxslarga ijara shartnomasi shartlari asosida berish;
- uy-joy fondidan foydalanilishi va uning asralishi, aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar sifati ustidan nazoratni ta'minlash;
- aholining ijtimoiy jihatdan himoyalangan va kam ta'minlangan toifalari orasidan uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni hisobga olish hamda ularni aniq maqsadli kommunal uy-joy fondidan uy-joy bilan ta'minlash;
- fuqarolarning ijtimoiy jihatdan himoyalangan va kam ta'minlangan toifalari uchun uy-joy qurish;
- uy-joy quruvchilarga uy-joy qurish uchun, shuningdek xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlariga doimiy foydalanishga belgilangan tartibda er uchastkalari berish;
- uy-joy fondiga xizmat ko'rsatuvchi kommunal xizmat ko'rsatish, ijtimoiy va transport infratuzilmasi ob'ektlarining lozim darajada saqlanishi hamda rivojlantirilishini ta'minlash;

⁴ O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi, 3-moddasi.

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 12 maydagi 220-II-son Qonuniga muvofiq.

⁶ O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi, 5-moddasi.

- davlat uy-joy fondining turar joylarini bronlashtirish va almashtirish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari uy-joy munosabatlarini tartibga solish sohasida⁷:

- fuqarolarga uy-joy fondidan foydalanishda hamda uning saqlanishini ta'minlashda ko'maklashadi;
- qurish va uy yon atrofini saqlash qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;
- fuqarolarning maishiy-uy-joy sharoitlarini yaxshilash to'g'risida tegishli organlarga takliflar kiritadi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

2.2 Kommunal sohadagi islohotlar

Jamiyatda ijtimoiy sohaning rivojlanish darajasi aholining uy-joy xo'jaligi, turmush sharoiti va kommunal xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanganlik darajasiga beavosta bog'liq. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimining rivojlanish darajasi aholi turmush sharoitining ichki tashkillashtirilishi va hayot tarzini belgilab beradi. SHuning uchun ham respublikamizda aynan uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tarmog'ini isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan uyushmalar, korxonalar va tashkilotlarning yig'indisidan tashkil topadi va ular umumiy qonuniyatlar hamda oldilariga qo'yilgan maqsadga asoslangan holda yagona tizim sifatida faoliyat ko'rsatadilar.

Respublikamizda iqtisodiyotning barcha sohalari kabi uy-joy kommunal xo'jaligi sohasiga eski tizimdan konstruktiv ijro jihatidan nomukammal bo'lgan ko'p xonadonli uylar va ularni saqlash hamda ta'mirlashning samarasiz tizimi, sohani boshqarishning ma'muriy buyruqbozlik uslubiga asoslangan, byudjet mablag'lari hisobidan boqimanda kun ko'rishga o'rganib qolgan iqtisodiy samarasiz tizim meros bo'lib qoldi. Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab kommunal xizmat ko'rsatish tizimini isloh qilishga kirishildi. Davlat tasarrufida bo'lgan uy-joy fondi xususiylashtirildi, tarmoqning asosiy Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi⁸ qabul qilindi, kommunal xo'jaligi tizimi faoliyatini bozor mexanizmi tamoyillari asosida tashkil etishni ta'minlovchi qonuniy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va uni kompleks rivojlantirishga qaratilgan aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Konsepsiyasi⁹ hamda tegishli dasturlar ishlab chiqildi.

⁷ O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi, 6-moddasi.

⁸ O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda 713-I-son "O'zbekiston Respublikasi Uy-joy Kodeksini tasdiqlash to'g'risida" gi Qonuni.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 3 noyabrda 461-son Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Konsepsiyasi".

Kommunal xizmatlar sohasida faoliyatni samarali tashkil etish va yuritish ko‘p jihatdan optimal iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish bilan uzviy bog‘liqdir. SHu maqsadda 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasida “kommunal- maishiy xizmatlar bilan ta‘minlanganlik darajasini oshirish, eng avvalo, yangi suv o‘tqazish tarmoqlarini qurish, zamonaviy tejamkor va samarali texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarida aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanishini tubdan yaxshilash; hamda yangi elektr ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va aholini boshqa yoqilgi-energiya resurslari bilan ta‘minlashni yaxshilash”¹⁰ masalalariga alohida e‘tibor berilgan.

Hozirgi davrda mamlakatimizda kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyati samaradorligini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning tarmoqlari rivojini ta‘minlash maqsadida bir qator davlat dasturlari ishlab chiqilgan.

Xususan, “2017-2021 yillarda ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida 36 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, uni amalga oshirish maqsadida jami 4.8 trillon so‘m mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan.

Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyati samaradorligi uning tarmoqlari faoliyatini tashkil etish va yuritish bilan uzviy bog‘liqdir. Buning uchun “O‘zkommunalxizmat” agentligi va uning bo‘g‘inlarida tashkiliy boshqaruv tarkibini hamda mehnat faoliyatini tubdan yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. SHu maqsadda mamlakatimizda bir qator tadbirlar va dasturlar oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Bu borada davlat tomonidan kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida mazkur sohaga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni hamda texnologiyalarni kiritish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, mamlakatimizda kommunal tarmoqni rivojlantirish yo‘lida 2011-2016 yillar mobaynida 13 ming kilometrdan iborat yirik suv quvurlari va tarmoqlari, bino hamda inshootlarda 1 ming 600dan ortiq suv chiqarish quduqlari, 1400ta suv minoralari qurildi va rekonstruksiya qilindi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan birgalikda aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash ishlari ham amalga oshirilib kelmoqda. Bu borada ko‘plab aholi yashash punktlarida toza ichimlik suv inshootlari aholining ehtiyojini qondirish uchun barpo etilib kelinmoqda. Ammo keyingi yillarda aholining ko‘payishi, yangi uy-joylar qurilishi, aholi yashash joylarining kengayishi insonlarning toza ichimlik suviga bo‘lgan talabini yanada oshirmoqda hamda suv inshootlarini modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda. Bu borada qarorda ko‘zda tutilgan dastur va loyihalar ijrosi amalga oshirilmoqda.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “2018–2022 yillarda issiqlik ta‘minoti tizimini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida” gi qarori. O‘zbekiston, 24 aprel 2017 yil.

Xususan, 2017-2021 yillarda 26 ta ichimlik suvi ta'minoti ob'ektini qurish va rekonstruksiya qilish, 302 kilometrda iborat suv o'tkazish tarmoqlarini barpo etish bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Aholini **toza ichimlik suvi** bilan ta'minlash xalq salomatligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Xalq salomatligi nafaqat mamlakat farovonligi, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim jihatlaridan biridir. Aholini toza ichimlik suvi bilan to'laqonli ta'minlash mamlakat aholisining salomatlik ko'rsatkichlarini yuksaltirish, mehnat resurslari samaradorligini oshirish, aholi uchun qulay ijtimoiy sharoit yaratish hamda jismoniy va yuridik shaxslarga toza ichimlik suvi sohasida zamonaviy hisoblagich asboblari joriy etish kommunal to'lovlarni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda **issiqlik ta'minoti** sohasida bir qator dasturlar qabul qilingan bo'lib, samarali faoliyat olib bormoqda. Biroq, hozirgi davrga kelib issiqlik ta'minoti tizimida qator kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Xususan, iste'molchilar tomonidan issiq suv uchun to'lovlarni o'z vaqtida to'lamaslik xolatlari, issiqlik tizimi issiq suv bilan aholi ehtiyojlarini qondira olmayotganligi, bir qator shaharlarda issiqlik manbalarining samarali faoliyat ko'rsatmayotganligi, issiq suv ta'minoti tizimi tamir talab bo'lib qolgan holatlar kabi kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017–2021 yillarda issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish dasturi to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Qarordan ko'zlangan asosiy maqsad iste'molchilarga issiqlik energiyasi etkazib berish sifatini oshirish va uzluksizligini ta'minlash, zamonaviy tejamkor va energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, issiqlik ta'minoti tizimining asosiy fondlarini yangilash, modernizatsiyalash va yoqilg'i-energetika resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Keyingi yillarda mamlakatimizda aholi xaridining oshishi, xalq farovonligining yuksalishi quvonarli holatdir, ammo iste'mol jarayonidan so'ng vujudga keladigan maishiy chiqindilar hajmining oshib borishi kommunal sohaning dolzarb masalalaridan biridir.

Mamlakatimizda kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha zamonaviy bozorni shakllantirish yo'lida izchil sa'y-harakatlar ro'yobga chiqarilmoqda. Biroq shiddat bilan o'tib borayotgan davr uy-joy kommunal sohasini yanada takomillashtirish va rivojlantirishni taqozo etmoqda. Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev tomonidan joriy yil 18 aprel kuni imzolangan "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmon sohada olib borilayotgan ishlarni tubdan yaxshilashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Unga muvofiq, **O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi** hamda uning tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, viloyatlar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmalari va Toshkent shahar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bosh boshqarmasi hamda ularning tumanlar (shaharlar)dagi bo'limlari tashkil etilmoqda.

YAngi vazirlik huzurida Ko‘p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va ikkita davlat unitar korxonasi — “Ko‘p xonadonli uylar, issiqlik ta‘minoti ob‘ektlari qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi” va “Suv ta‘minoti va kanalizatsiya ob‘ektlari qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi” tashkil qilinadi. SHuni ta‘kidlash lozimki, ikkinchi davlat unitar korxonasi bevosita Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligiga bo‘ysunadi.

YUqorida ko‘rsatib o‘tilgan tashkilotlarning hududiy boshqarmalari, inspeksiyalari va mintaqalararo filiallarining faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

2.3. SHahar xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirishda kommunal xo‘jaligining o‘rni

Uy-joy kommunal xo‘jaligi – bu murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo‘lib, u aholi hayotiy ehtiyojlarini qondiradi. Uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo‘lgan korxona va tashkilotlar tomonidan aholi turmushida gaz, suv, issiqlik energiyasi kabi zarur bo‘lgan resurslar etkazib berilishi bilan birga ular katta miqdordagi mehnatga layoqatli aholini ish o‘rinlari bilan ta‘minlaydi.

Uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimi aholi turar joylari, ma‘muriy va ishlab chiqarish binolari, noishlabchiqarish va ijtimoiy sohada foydalanilayotgan binolar, inshootlar, hududlar va uzatuvchi magistrallarga xizmat ko‘rsatuvchi, foydalanishni tashkil etuvchi, qurilish-ta‘mirlash, transport, energiya ishlab chiqaruvchi va boshqa turli tovar va xizmatlarni amalga oshiruvchi korxonalardan tashkil topgan, keng qamrovli faoliyatining pirovard natijasi inson hayot faoliyatini tashkil etuvchi, shahar infratuzilmasini rivojlantiruvchi va ekologik muhitni yaxshilashga xizmat qiluvchi soha hisoblanadi.

Uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimining o‘ziga xos xususiyati uning ko‘p tarmoqliligi va turli-tuman xizmatlardan tashkil topganligidadir. Ko‘p soha va tarmoqlardan tashkil topgan uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimi o‘z navbatida, turli tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asosdagi ishlab chiqarish va noishlabchiqarish sohasi korxona va tashkilotlariga xizmat ko‘rsatadi, ular faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uy-joy kommunal xo‘jaligi aholini farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlarni yaratish bilan bog‘liq ekan albatta, aholi yashaydigan shahar va qishloqlarda turli xildagi kommunal xizmatlarga ehtiyoj mavjud bo‘ladi. Doimiy yashash joylarida aholi sonining ko‘payib borishi o‘z navbatida kommunal xizmatlarga ehtiyojning ortib borishiga olib keladi. Masalan, hozirgi kunda chekka xududlarda joylashgan kichik qishloqda faqat elektr energiyasi ta‘minoti tashkil etilgan, qishloq joylari va aholi yashash markazlarida (posyolkalar) elektr energiyasi, gaz va ichimlik suvi ta‘minoti tizimi faoliyat ko‘rsatsa, shaharlarda esa kommunal xizmatlarning turli-tuman shakllari mavjud. Kommunal xo‘jalik tizimi va kommunal xizmatlarning tashkil etilish darajasi aholiga farovon yashash uchun yaratilgan shart-sharoitni ko‘rsatadi. Aholi sonining ko‘payib borishi ma‘lum hudud chegaralarining kengayib borishiga, kommunal xizmatlar tizimining takomillashib borishiga va vaqt o‘tishi bilan qishloq joylarining aholi yashash markazlariga, aholi yashash markazlarini esa shaharlarga aylanishiga olib keladi.

SHahar bu yirik aholi yashovchi ma'muriy hudud bo'lib, u ishlab chiqarish, savdo va madaniyat markazi hisoblanadi. SHahar kommunal xo'jalik tizimi nafaqat aholining farovon yashashi uchun shart-sharoit yaratuvchi, balki barcha turdagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari, ijtimoiy soha va ma'muriy boshqaruv tizimi korxona va tashkilotlariga turli kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar majmuasidan tashkil topadi. YUridik mavq'ega ega bo'lgan har qanday korxona o'z faoliyatida kommunal xizmatlarning u yoki bu turlaridan foydalanadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar, ko'rsatadigan xizmat turlaridan kelib chiqib, asosan quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Uy-joy majmuasiga xizmat ko'rsatish va uy-joy fondini ta'mirlash-qurilish tashkilotlari;
2. Issiqlik energiyasi ta'minoti xo'jaligi;
3. Gaz ta'minoti xo'jaligi;
4. Elektr energetika ta'minoti va ko'chalarni yoritish xo'jaligi;
5. Suv ta'minoti va oqava-quvur xo'jaligi;
6. Muxandislik tizimlari va inshootlari (lift, havoni shamollatish - sovitish va boshqalar)ga xizmat ko'rsatish korxonalari.

Uy-joy kommunal xo'jaligi shahar xo'jaligining asosiy qismini tashkil etib, shahar xo'jaligi infratuzilmasida uy-joy kommunal xo'jaligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan va kommunal xo'jaligi tizimining ajralmas qismi hisoblanuvchi sohalarga quyidagilar kiradi:


1. Yo'l xo'jaligi va shahar aholi tashish transporti;
2. Aloqa xizmati va muhandislik kommunikatsiyalari, xabar beruvchi va yong'in xavfsizligini ta'minlovchi xizmatlar;
3. Ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish;
4. Sanitariya-gigiena va ekologik himoyani ta'minlash hamda nazorat qilish xizmatlari;
5. Istirohat bog'lari, xiyobonlar, cho'milish havzalari va basseynlari;
6. Haykallar va tarixiy obidalarni saqlash;
7. Mehmonxona xo'jaligi;
8. Hammomxona va kir yuvish xo'jaligi;
9. Ijtimoiy soha va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari.

Aholiga bevosta shartnoma asosida ko'rsatilayotgan xizmat turlari tarkibidan kelib chiqib kommunal xo'jaligi tizimi tashkilotlari asosan 8 guruhga bo'linadi (1.1.-rasm).

SHaharlar – bu iqtisodiy aloqalar, ko'p tarmoqli tarkibiy tuzulmalar va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ijtimoiy va boshqa ob'ektlar yig'indisidan iborat murakkab tizim hisoblanadi.

Bunday murakkab tizimning faoliyat ko'rsatishi uchun har xil turdagi tarqoq, idoraviy va iqtisodiy tuzilmasi turli-tuman bo'lgan korxona va tashkilotlarni yagona xo'jalik mexanizmiga aylantirish zarur.

SHaharning hududiy yaxlitligi barcha turdagi korxonalar, tashkilotlar va xo'jalik sub'ektlarini, ularning idoraviy tasarrufidan qat'iy nazar, yagona ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastruktura sifatida birlashtiradi.



1.1- rasm. Asosiy kommunal xizmatlar turlari

Mehnat va tabiiy resurslar, hudud, yo'llar, kommunikatsiyalar, xizmat ko'rsatish ob'ektlaridan hamkorlikda foydalanish jarayonlari shahardagi umumiy yaxlitligini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarish kuchlari, turar joy xududlari va transport tizimlarining joylashishi kommunal xo'jaligi korxonalarining tashkil etilishi va samarali faoliyat ko'rsatishga ta'sir ko'rsatadi. SHu sababli har bir shaharda o'ziga xos kommunal-xo'jaligi tizimi shakllanadi. Mazkur tizim faoliyati samaradorligini oshirish joylarda boshqaruv mexanizmining tashkil etilganligiga bog'liq bog'ladi.

Amaliyotda kommunal-xo'jaligi tizimi faoliyati mahalliy hokimiyat tomonidan koordenatsiya qilinadi. Har bir shahar, tuman hokimiyati huzurida uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi faoliyatini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi xizmatlar faoliyat ko'rsatadi. Masalan, Toshkent shahrida kommunal xo'jaligi tizimi faoliyati Toshkent shahar hokimiyati qoshidagi Kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan tartibga solinadi. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida mazkur xizmatlar faoliyati kommunal xo'jaligi tizimini ma'muriy boshqarishga emas, balki sohadagi korxona va tashkilotlar o'rtasida raqobat muhitini shakllantirishga, ular faoliyatini shartnoma munosabatlari asosida tashkil etishga yo'naltirilgan¹¹.

Mavzu-3. Uy - joy kommunal xo'jaligining tavsifi va uning O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotidagi o'rni

1.1. Uy - joy kommunal xo'jaligining o'rni, roli hamda uning ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyati

1.2. Uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarish va sohadagi iqtisodiy islohatlar

¹¹ Adabiyot: "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2017 yil 7 № 3, 2017 www.iqtisodiyot.uz

1.3. Uy-joy kommunal xo'jaligini boshqarishga va rivojlantirishga ta'sir etadigan omillar

1.1. Uy - joy kommunal xo'jaligining o'rni, roli hamda uning ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyati.

Iqtisodiy siyosatning asosiy masalasi bo'lib xalqning moddiy va ma'naviy turmush darajasining o'sishini ta'minlash hisoblanadi. Bu o'z navbatida uy-joy kommunal xo'jaligi korxonalari faoliyati bilan bog'liq. Uy-joy kommunal xo'jaligi tarmog'i uy xo'jaligidan va kommunal xo'jaligidan iboratdir.

Uy xo'jaligi insonlarning uy bilan bog'liq yashash sharoitlarini yaxshilash, uylarning qulayligini va turmush darajasini oshirish, uy fondining eksploatatsiyasini yaxshilash hamda saqlab qolish bo'yicha choralarni amalga oshirish, aholiga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, shahar va boshqa aholi punktlarini markazlashgan suv hamda gaz, elektr ta'minoti bilan ta'minlash va boshqalardan iboratdir.

Kommunal xo'jalik korxonalariga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya korxonalari, shahar elektr transporti (tramvay, trolleybus), mehmonxonalar, sanitar tozalash xizmati, yo'l xo'jaligi, ko'kalamzorlashtirish, issiqlik tarmog'i, mahalliy elektrstansiyalar, gaz xo'jaligi va boshqalar kiradi.

Kommunal xo'jalik korxonalarining ko'lamlari shahar aholisining soniga, uning joylashgan hududiga bog'liq bo'lib har-xil kattalikda bo'lishi mumkin.

Uy-joy kommunal xo'jalik va uning butun eksploatatsion faoliyati inson ehtiyojlarini qondirishga va uning barcha imkoniyatlarini amalga oshirish uchun sharoit yaratilishga qaratilishi lozim. Bu xo'jalik maishiy sharoitlarni ketma-ketlik bilan yaxshilab, xizmat qiluvchilarning moddiy va ma'naviy darajasini ta'minlab turish bilan birga, milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mehnat samaradorligining o'sishiga va nihoyat butun ishlab-chiqarish samaradorligining o'sishiga ko'maklashadi.

Uy-joy kommunal xo'jalik bilan milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'rtasida bevosita va bilvosita aloqalar mavjud. Masalan: gaz va issiqlik xo'jaligi energetikaning rivojlanishi bilan belgilanadi. Buning sababi shundaki, issiqlik va gaz ta'minoti mamlakat energota'minoti tuzilishining tashkiliy qismi bo'lib, aholi kommunal maishiy hamda sanoat iste'molchilarining elektro-energiyaga bo'lgai ehtiyojlarini qondirishga qaratilgai. Boshqa tarafdin esa, iste'molchilarni elektr hamda gaz bilan ta'minlashni rivojlantirish qonuniyatlari elektrenergetika va gaz sanoatining rivojlanishi orqali shakllanadi.

Gazdan sanoatda hamda kommunal xo'jalikda foydalanish mehnat unumdorligini o'sishiga, ishlab chiqarish quvvatining oshishiga, mahsulot ishlab chiqarishga ketgan harakatlarini kamayishiga, yoqilg'i harajatlarning pasaishiga olib keladi. O'z navbatida korxonalar esa gaz xo'jaligini texnika bilan ta'minlaydi. Bu holat gaz xo'jaligi bilan shahar sanoatining o'rtasida o'zaro kuchli iqtisodiy aloqalarni belgilab beradi.

Milliy iqtisodiyotda rejali hamda proporsional rivojlanishning ob'ektiv qonuni va undan kelib chiqadigan rejali xo'jalikning tizimi, yangi shaharlarni

barpo etishda hamda mavjud shaharlarni kengaytirishda uy - joy kommunal xo'jalikni kompleks rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Uy-joy fondining asosiy qismi, barcha kommunal korxonalar va mamlakatimiz faravonligini ko'rsatuvchi inshootlar davlat mulki va halq boyligi hisoblanadi. Bu holat umumiy yo'lovchi transporti shu jumladan, kommunal xo'jaligiga qarashli shahar elektr transporti ishini maqsadli yo'naltirishga, turli xil energiya tashuvchilarni (gaz, issiqlik, elektr quvvati) optimal hajmlarni qo'llash asosida mamlakatning yoqilg'i- energetik balansining harajat qismini optimallashtirishga hamda uy-joy kommunal xo'jaligiga kiritiladigan kapital qo'yilmalarini samarali ta'minlashga imkon beradi.

Bundan kelib chiqadiki, uy-joy kommunal xo'jalik ham iqtisodiyotning umumiy qonuniyatlarining tasiri asosida ham milliy iqtisodiyotning gaz sanoati, shahar xo'jaligi, energetika va shu kabi tarmoqlarining ta'siri asosida shakllanadi. Tarmoqda xususiyatlarning ko'rinishini belgilab beradi, ularni o'rganib chiqish va bilish esa uning oldiga qo'yilgan masalalarni samarali echishga imkon beradi.

Sanoat korxonalari va tashkilotlarning ishlab chiqarishning uzluksizligiga uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanishi katta ta'sir ko'rsatadi. Bu narsa ishchilarga kerakli yashash joylarini va aniq transportning taqdim etilishi orqali namoyon bo'ladi. Natijada mehnat harakatlari va uy xo'jaligidagi vaqt sarfi kamayadi. SHunday qilib, agar pechli issiqlik ta'minotini markazlashgan issiqlik ta'minotiga o'tkazilsa mehnat qiluvchilarning dam olish, rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bo'sh vaqti ko'payadi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, asosiy kommunal sharoitlar (markazlashgan issiqlik ta'minoti, kanalizatsiya, vodoprovod, elektroquvvat) bilan ta'minlangan uylarda yashovchi oilalar bu sharoitlarga ega bo'lmagan oilalarga nisbatan uy xo'jaligini yuritishga ancha kam vaqt sarflar ekan.

SHunday qilib, uy-joy kommunal xo'jalik, ishchi kuchining faoliyatiga ikki yo'nalishda ta'sir etar ekan: birinchidan, u ishchilarning ishdan tashqari bo'sh vaqtini ko'paytirib shu orqali ularga har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi; ikkinchidan, jamiyatning bosh ishlab chiqarish kuchi bo'lgan - ishchilarga rivojlanish imkonini berib, shu orqali ularni kasbiy-texnik o'sishini ta'minlab, natijada mehnat unumdorligini oshiradi. Undan tashqari, uy-joy kommunal xo'jalik ishlab chiqarishda yaratilgan moddiy ne'matlarni iste'molchilarga etkazib berib, bu bilan u ishlab chiqarish jarayonini taqsimlash bilan tugatib beradi. SHuningdek moddiy ne'matlarning iste'mol jarayoniga xizmat ko'rsatadi, aholi sog'lig'ini va atrof-muhit muhofazasini ta'minlaydi, shu jumladan aholining yuqoriroq umumta'lim, ma'naviy va texnik darajasining shakllanishiga ko'maklashib, shu bilan birga mehnat va dam olishni ratsional qo'llanilishi uchun sharoit yaratadi.

Uy-joy kommunal xo'jalikning rivojlanishi va qishloq turmush darajalari o'rtasidagi hamda alohida olingan aholi guruhlarining turmush darajasi o'rtasidagi farqlarni engib o'tish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalani echishga yordam beradi. Albatta, bu jarayon turli xil hududlarning urf-odatlarini, xususiyatlarini va ehtiyojlarini tenglashtirish degan emas. Aksincha, bu jarayon aholining o'sib

borayotgan ehtiyojlarini teng qondirish maqsadida ko'rsatilgan xususiyatlarni to'liq hisobga olish degani.

Uy-joy kommunal xo'jaligiga kiruvchi mayda tarmoqlarning turli xilligiga qaramasdan u boshqa tarmoqlardan qator xarakterli xususiyatlar bilan farq qiladi.

Uy-joy kommunal xo'jalik ko'p tarmoqli xo'jalik bo'lib, uning barcha tarmoqlari o'zaro bog'langan. SHunday qilib iste'molchilarni suv bilan ta'minlash jarayonida ularni kanalizatsiya bilan ta'minlash zaruriyati yuzaga keladi.

Markazlashgan issiqlik ta'minoti tizimi paydo bo'lishi bilan vodoprovod, kanalizatsiya yo'llarini, qozonxona va boylerlarning normal faoliyatini ta'minlovchi elektr tarmog'ini ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Suv omborlarining rivojlanishi, ularni elektroenergiya bilan ta'minlash uchun elektr tarmoqlarini qurish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Gazni yoqilg'i sifatida ishlatish esa gaz quvurlarni qurish zaruriyatini tug'diradi.

O'zaro bog'liqlik nafaqat tarmoqlar orasida balki ularni ichida ham bor. Iste'molchilarni suv bilan ta'minlash uchun er osti yoki suv omborlarini, tozalash asbob-uskunolari, etkazib berish vositalarini ya'ni quvurlarni, kanalizatsiya uchun oqizuvchi-tozalovchi uskunalarni, kanalizatsiya quvurlarni, issiqlik ishlab chiqarish uchun qozonlar, boyler, par va issiq suvni etkazib beruvchi truboprovodlarni qurish va o'rnatish zarur.

Iste'mol qilinayotgan xizmatlar soni iste'molchilarga bog'liq. Masalan: elektr quvvatining iste'mol qilinishi kechki paytda ortadi, suvning iste'moli sanoatda ish soatlarida ortadi va boshqalar.

Zaxiraning mavjud emasligi va xizmatlarning notekis iste'moli ko'payishiga olib keladi ya'ni bu holatlarda iste'mol maksimum darajaga etadi. Bu o'z navbatida, xizmatlarni ishlab chiqarish va uni etkazib berish quvvatining rivojlanishini nafaqat o'rta balki yuqori ko'rsatkichlar bo'yicha rejalashtirishni taqazo etadi.

Kommunal xo'jalik rivojlanishining hajmi va sur'ati mustaqil kattaliklar emas ular iste'molchilardan (sanoat, aholi, maishiy-madaniy qurilish va boshqalar) kelib chiqadi. Masalan: sanoatning rivojlanishi shaharsozlik omili bo'lib, shaharda aholi soni ko'payishi bilan belgilanadi. Mos ravishda, uy-joy hamda madaniy-maishiy qurilishlar soni ham ortadi. Boshqa tarafdin esa moddiy ishlab chiqarilish sohasi, uning dinamikasi, shahar kommunal xo'jalik xizmatlarining rivojlanishiga bog'liq bo'ladi, chunki ular insonlarning mehnati, turmushi va dam olish uchun normal sharoitlar yaratadi.

Ikki tomonlama bog'liqlikni amalga oshirmasligi natijasida yangi iste'molchilar (uy-joylar, sanoat korxonalari va boshqa.)ning vaqtincha quvvatliklarga ulanishiga yoki ob'ektlarning vaqtida ekspulatsiyaga topshirmasligiga olib keladi. Bu bilan uy-joy kommunal qurilish o'rtasida muvozanat buziladi.

SHunday qilib, uy-joy kommunal xo'jalik bu-iqtisodiy rivojlanishning umumiy qonuniyatlari asosida shakllanadigan va milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan tarmoq bo'lib, u ilmiy asoslangan me'yorlar asosida aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga hamda uning moddiy-maishiy ehtiyojlarini uzluksiz va sifatli qondirishga qaratilgan

bo'lib, mahalliy xarakterga ega bo'lgan hamda vaqt bo'yicha bir-biriga to'g'ri keluvchi yoki ketma-ket keluvchi mahsulot (xizmat) ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining bog'liqligini o'z ichiga oluvchi xo'jalikdir.

SHuni aytib o'tish kerakki, uy-joy kommunal xo'jalikning asosiy masalasining echimi-ya'ni aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatini va darajasini oshirish atrof-muhit muxofazasi bo'yicha chora-tadbirlar bilan birgalikda oshirilishi kerak.

Ilm va amaliyot oldida turgan muhim muammolardan biri atrof-muhitni muhofazalash hamda tabiiy resurslardan ratsional foydalanishdir. Buning sababi shundaki, xo'jalik yuritish oborotida nafaqat er, o'rmon, suvning katta hajmlaridan, balki jahon okeanlari, atmosfera xattoki, kosmik hududidan foydalaniladi. Bugungi kunda tabiiy resurslarni ratsional ishlatmasdan va qayta tiklanmasdan ishlab chiqarishni rivojlantirish mumkin emas. Bizning mamlakatimiz uchun bu masala butun xo'jalik - siyosiy faoliyatining asosiy qismi hisoblandi.

Atrof-muhitni ozoda saqlash uy-joy kommunal xo'jalik korxonalariga bog'liq bo'ladi: oqava suvlarini inson sog'lig'i uchun zarar bo'lgan ximik va toksik elementlardan, bakteriya va viruslardan tozalash; kelajakda asosan elektrtransportining ekspulatatitsiyasiga o'tish va boshqalar.

Kundalik turmushda tabiiy gazdan foydalanish, hududlarni sanitar tozalash, ko'kalamzorlashtirish va boshqalar bu chora-tadbirlar insonning atrof-muhitini yaxshilash va saqlab qolishga, ekologik balansini saqlab qolishga qaratilgan.

O'zbekistonning o'ziga xos tabiiy sharoitlari (issiq iqlimi, yil mavsumlariga qarab daryo suvlarining holati, suv iste'molining yuqori darajasi) ichimlik suvni tozalashning texnologik jaryonlarini takomillashtirish va o'rganishni doimo talab qiladi.

Afsuski hozirgi kunda, mamlakatimizdagi loyihalashtiruvchi va suv xo'jalik tashkilotlar er osti suvlarining topilgan va tasdiqlangan zahiralardan to'liq foydalaiish bo'yicha masalalarga kerakli ahamiyat berishmayapti. Respublikaning alohida hududlarida er osti suvlari maqsadsiz hamda ulardan foydalanishga asos bo'luvchi kerakli gidrogeologik ruxsatsiz ishlatilmoqda, bu esa er osti suvlari zaxirasining buzilishiga va kamayishiga olib keladi.

Atrof muhit muhofazasi bo'yicha chora tadbirlar kompleksida alohida o'rinda qattiq maishiy chiqindilarni zarar sizlantirish va yo'qotish muammosi turadi. Ularni chiqindi tashlash joylarda ko'mib tashlash, odatiy va keng tarqalgan usul bo'lishiga qaramasdan qoniqarsiz hisoblanadi. CHunki, buning uchun alohida katta hududlar ajratilishi kerak va ularni tashish uchun ko'p harakat qilinadi.

CHiqindilarni yoqib tashlash usuli orqali kamaytirish mumkin, lekin bu holda qayta ishlanishi mumkin bo'lgan qimmatli narsalar yonib ketadi. Hozirgi kunda Toshkentda shaharlarda qora metallarni ajratib olishga va qolgan qismini biotermik ishlov berishga moslashgan zavod ishlamoqda.

1.2. Uy-joy kommunal xo'jaligini boshqarish va sohadagi iqtisodiy islohotlar

Sobiq ittifoq parchalanishi natijasida barcha respublikalar kabi mamlakatimizga ham ma'muriy buyruqbozlik asosida boshqarishga asoslangan,

asosiy xarajatlari byudjet mablagʻlari hisobidan qoplanib kelgan, markazlashgan taʼminot tashkilotlari tomonidan xomashyo resurslari bilan taʼminlanib kelgan kommunal xoʻjaligi sohasi meros boʻlib qoldi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bozor munosabatlarining joriy etilishi uy-joy kommunal xoʻjaligi sohasini ham toʻliq isloh qilish zaruratini keltirib chiqardi. Bu tizimni isloh qilish va uning faoliyatini bozor munosabatlari asosida tashkil etish uchun asosan quyidagilar taʼsir koʻrsatardi:

- uy-joy kommunal xoʻjaligi tizimida barcha resurslar markazlashgan tartibda taqsimlanardi, shu jumladan yangi qurilib ishga tushirilayotgan uy-joy fondlari ham aholining turarjoyga boʻlgan ehtiyojidan kelib chiqib tashkil etilgan navbat asosida taqsimlanardi;
- uy-joy fondini ekspluatatsiya qilish va kommunal xizmatlar koʻrsatish ishlari monopol davlat korxonalari tomonidan amalga oshirilardi. Ish va xizmatlar uchun yuqoridan begilangan narxlar nomutannosib boʻlib korxona va tashkilotlar olgan foyda markazlashtirilardi hamda ular tomonidan zarar koʻrilgan taqdirda, bu zararni qoplash uchun davlat tomonidan dotatsiya ajratilardi;
- shaxsiy uy-joy mulkiga egalik qilish huquqi davlat uy-joy fondidan ajratilgan kvartiradan foydalanish huquqidan amalda kamdan kam farqqa ega edi;
- davlat korxona va tashkilotlariga oʻz xodimlarini uy-joy bilan taʼminlash va tegishli uy-joy fondini ekspluatatsiya qilish vazifalari yuklatilgan boʻlib, shahar (hudud) kommunal xoʻjaligi sohasini alohida tizimi sifatida boshqarish imkonini bermasdi.
- asosiy xarajatlarning byudjet tomonidan ajratilishi, tushum va xarajatlarning toʻliq rejalashtirilishi, iqtisodiy manfaatdor boʻlish imkoniyati mavjud emasligi kommunal xoʻjaligi tizimi korxonalarining samarali faoliyat koʻrsatishiga toʻsqinlik qilar edi;
- 1991 yilda aholidan 1 kv.m uy-joy fondidan foydalanganligi uchun belgilangan toʻlov (kvartplata) haqiqiy xarajatning 4-5 %ni tashkil etar edi, shuningdek 40% ortiq aholiga kommunal toʻlovlardan imtiyozlar joriy etilgan edi. Bunday holat aholida boqimandalik kayfiyatini yanada kuchaytirar edi;
- kommunal xoʻjaligi sohasi va xizmat koʻrsatuvchi korxona va tashkilotlarning mahalliy hokimiyat (partiya tashkilotlari) tomonidan boshqarilishi koʻrsatilayotgan xizmatlar sifatiga aholining taʼsir koʻrsatishi uchun imkon bermas edi.

Ushbu koʻrsatkichlarni inobatga olgan holda respublikamiz kommunal xoʻjaligi tizimida islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish va islohotlarning asosiy mohiyatini quyidagilarga qaratish lozim edi:

- fuqarolarda mulkka egalik hisini uygʻotish - davlat mulki boʻlgan uy-joy fondini xususiylashtirish, mulkka egalik huquqini beruvchi qonuniy meʼyoriy hujjatlar paketini shakllantirish;
- kommunal xizmatlar koʻrsatuvchi korxona va tashkilotlarni davlat tasarrufidan chiqarish, kommunal xoʻjaligi sohasida tabiiy monopoliyani tartibga solish, xizmat koʻrsatuvchilar oʻrtasida sof raqobatni rivojlantirish,

kommunal xo‘jalik sohasini davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan faoliyat ko‘rsatishini tugatish, sohaga ajratilayotgan dotatsiya miqdorini bosqichma bosqich kamaytirib borish;

- uy-joy xo‘jaligini boshqarishni takomillashtirish, turarjoy binolarini saqlash va ta‘mirlashda uy-joy mulkdorlar faolligini oshirish, mulkdorlarning o‘z-o‘zini boshqarish tamoyiliga asoslangan birlashma va shirkatlarini tashkil etish.

1.3. Uy-joy kommunal xo‘jaligini boshqarishga va rivojlantirishga ta‘sir etadigan omillar

Respublikaning ko‘p tarmoqli kommunal xo‘jaligi tarkibida uy-joy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatish va uni saqlash, suv ta‘minoti va kanalizatsiya, issiqlik va gaz ta‘minoti, aholi yashaydigan joylarni tozalash bilan shug‘ullanuvchi texnika tashkilotlari, shahar yo‘lovchilar tashish elektr transporti, elektr, gaz va taqsimlovchi tarmoqlar, shahar xo‘jaligini obodonlashtirish, sanoat, ta‘mirlash-qurilish, loyihalash korxonalari, tashkilotlari kabilarni o‘z ichiga oladigan ko‘p tarmoqli sohalar yig‘indisidir.

Kommunal xo‘jalik korxonalariga suv bilan ta‘minlash, suv oqava korxonalari, shahar elektr transporti, mehmonxonalar, sanitar tozalash xizmati, yo‘l xo‘jaligi, ko‘kalamzorlashtirish, issiqlik ta‘minoti tarmog‘i, mahalliy elektr stansiyalar, gaz xo‘jaligi va boshqalar kiradi.

Respublika kommunal xo‘jaligining yana bir muhim tarmog‘i shahar, shaharcha va tuman markazlari sanitariya holatini yaxshilash, qattiq va suyuq chiqindilarni o‘z vaqtida yig‘ish va ularni chiqindi maydonlariga olib borish, zararsizlantirishdir. Bu xizmatlar 115 ta shahar, 100 ta shaharchada yo‘lga qo‘yilgan. Bugungi kunda umumiy maydoni 1000 gektar bo‘lgan 180 ta chiqindi zararsizlantiriladigan maydon mavjud. Yiliga 10-13 mln m³ qattiq va 5-7 mln. m³ suyuq chiqindi yig‘iladi va ular 1067 ta, shu jumladan Janubiy Koreyadan olingan zamonaviy mashina va mexanizmlar orqali maxsus joylarga tashiladi. Yirik shaharlar-Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro, Namangan, Farg‘onada maxsus ixtisoslashtirilgan avtokorxonalar bor.

Kommunal xo‘jalik tarmog‘ida uy-joylar, ijtimoiy, madaniy-maishiy inshootlar, muxandislik tizimlarini kapital ta‘mirlash korxonalari ham bor. Chiqindilar uchun konteynerlar tayyorlash, zamonaviy gaz o‘lchagichlari va suv o‘lchagichlarini ishlab chiqaruvchi qo‘shma korxonalar kommunal xo‘jaligi talabini qondirishga qaratilgan.

Kommunal korxonalar rivojlanish dasturining asosiy qismi biznes reja hisoblanadi. Bu reja quyidagi bo‘limlardan iborat: ishlab chiqarish, mehnat va ijtimoiy rivojlanish, moliya-iqtisod, kapital qurilish va ta‘mirlash, yangi texnikani ishlab chiqish va uni ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish, moddiy texnika ta‘minoti. Ushbu bo‘limlarning ichida eng asosiysi ishlab chiqarish bo‘limidir. Bu bo‘limning tarkibiga ishlab chiqarish quvvatlarini hisob-kitoblari, ishlab chiqarish faoliyatining sifatini oshirish rejalarini ishlab chiqish dasturi kiradi. Bu dasturda ishlab chiqarishning pirovard natijasi, ya‘ni mahsulot va xizmatlarning natura va qiymat ko‘rsatkichlardagi hajmi ifodalanadi. Ishlab chiqarish dasturi kommunal

ishlab chiqarish korxonalarining quvvati hamda mavjud mehnat va moddiy resurslar asosida ishlab chiqiladi. Ishlab chiqarish bo'limi boshqa bo'limlar va ko'rsatkichlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki bozor iqtisodiyotiga o'tgungacha respublikada kommunal xizmat ko'rsatishni kommunal xizmat ko'rsatish Vazirligi va uning tegishli viloyat, shahar, tuman bo'g'inlari amalga oshirar edi. Ularning faoliyat doirasi shahar va shaharchalarda, qishloq joylarda kommunal xizmat ko'rsatishni qishloq xujaligi, yirik sanoat korxonalari va tashkilotlari ham amalga oshirar edi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kommunal xo'jaligi yirik sohaga aylandi, sanoat ishlab chiqarishining rivoji va aholining tez o'sishiga bog'liq holda ildam sur'atlar bilan rivojlandi. Qishloq joylarda aholi yashaydigan joylarni obodonlashtirishda loyihalash ishlari yo'lga qo'yildi, shaharchalar, ko'plab eksperimental agrosaharchalar qurildi.

Kommunal xo'jalikning mahsulotlari va xizmatlarining umumiy hajmini aniqlashda har bir tarmoqning rejalari yig'indisini olish kerak.

Kommunal xo'jalik korxonalari ekspluatatsiya faoliyatini rejalashtirishning vazifasi bo'lib shaharlar, shahar tipidagi qo'rg'onlar, qishloq aholisiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar darajasini ko'tarish va sifatini davr me'yorlariga mos holda va aholining sanitar-gigienik sharoitini hisobga olgan holda yaxshilashdan iboratdir. Bunda kommunal xo'jalikning yangi quvvatlarini ishga tushirish va mavjudlarini ish unumdorligini isloh qilish hisobiga orttirish, modernizatsiyani o'tqazish, mehnatni yaxshiroq tashkil etish, ko'p mehnat talab qiladigan ishlarni mexanizatsiyalash, o'z ehtiyojlari xarajatlari va qaytmas sarf-xarajatlarni qisqartirish hisobiga olinishi zarur.

Kommunal korxonalar ishlab chiqargan mahsulotini (xizmatlarni) natural va pul hisobida amalga oshiradi. Xizmatlar aholiga va kommunal maishiy ehtiyojlar bo'yicha ishlardan iboratdir.

Suv etkazish va kanalizatsiya xo'jaligi. Suv etqazish tarmog'ining asosiy ko'rsatkichi iste'molchilarga suv etqazishdir. Suv etkazish tarmog'ining ishlab chiqarish quvvati suv etqazishning me'yorlashtiruvchi elementlari - suv olish, birinchi va ikkinchi bosqich nasos stansiyasi, tozalash inshootlari va suv etkazish tarmog'ining udumdorligi bo'yicha aniqlanadi. Suv etkazish tarmog'ining quvvatini oshirishni suvning hosilaviy tartibga solishda yangi tarmoqlarni ishga tushirish va ishlayotganlarining quvvatini ulardan foydalanish koeffitsientini oshirish evaziga ko'tarish hisobga olinadi, shuningdek alohida inshootlar quvvatidagi nomutanosiblikni yo'qotish hisobiga amalga oshiriladi.

Tarmoqqa etqazilayotgan suv miqdori suv etkazish tarmog'i quvvatini inobatga olib, shu quvvatdan foydalanish koeffitsienti va chetdan olinayotgan suv miqdori yordamida hisoblab chiqiladi. Iste'molchilarga etqazilayotgan suv miqdori oqib ketgan va hisobga olinmagan suv sarfining miqdori bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich aholi va boshqa iste'molchilarning kommunal — maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun va alohida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish maqsadlari uchun korxonalarning spetsifik xususiyatlari va sanoat mahsulotlarini chiqarish bo'yicha rejali topshiriqlarni hisobga olgan holda limit asosida rejalashtiriladi.

Aholi manzilining suv etkazish tarmog'i bilan ta'minlangan ko'rsatkichiga, uning quvvatidan tashkari ko'chalar bo'ylab yotqizilgan tarqatuvchi tarmoqlar kiritiladi. Kanalizatsiya tarmog'ining ishlashini asosiy ko'rsatkichlari: chiqindi suvlarni bosh kollektor orqali o'tkazish va ularni tozalovchi inshoatlarda tozalashdir. Kollektorlar va tozalovchi inshoatlar orqali o'tkazilayotgan chiqindi suvlar miqdori har bir iste'molchi uchun ular foydalanayotgan suv miqdoriga teng deb qabul qilinadi. Suvdan xomashyo sifatida foydalanayotgan korxonalar uchun yoki suvni aylanish siklida ishlatuvchi korxonalar uchun chiqindi suvlar miqdori chiqarilayotgan suv bo'yicha yoki hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Aholi manzillari kanalizatsiya tarmoqlari holati ko'rsatkichlari tarmoqlar, ko'chalar uzunligiga foiz hisobida, suv o'tkazish qobiliyati tarqatilayotgan suv hajmiga foiz hisobida, chiqindi suvlar mexanik na to'liq biologik tozalanganligi kanalizatsiya tarmog'ining suv o'tkazish qobiliyatiga foiz hisobida belgilanadi.

Suv etkazish — kanalizatsiya tarmoqlari xo'jaligidagi joriy rejalashtirishning mavjud tamoyillari asosan iqtisodiy islohotlar talablariga mos keladi. **Asosiy kamchilik shundan iboratki**, yil davomida rivojlanish dasturiga bir necha marta o'zgartirishlar kiritiladi. Bu holat rejalashtirish bo'yicha tasdiqlangan uslubiy ko'rsatmalarning mavjud emasligi bilan izohlanadi.

Hozir qo'llanilayotgan uslubiyatlardagi jiddiy nuqson shundan iboratki, rejalashtirish jarayonida me'yoriy ma'lumotlar ko'rsatmalar mavjud emas. Mahalliy me'yoriy normalarni ishlab chiqish haqida ko'rsatmalar yo'q, xattoki eng murakkab ko'rsatkichlarni hisoblash namunalari ham mavjud emas.

Suv ta'minotini tartibga solishning jiddiy kamchiligi shahar xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi haqida ma'lumotlarning yo'qligi, bu soha rivojlanishini istiqbolli rejalashtirishda tartib yo'qligini bevosita oqibatidir.

Kommunal suv ta'minoti korxonalari xodimlarining ishlab chiqarish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari suvni harid qilish hajmi va balansli daromad bo'lib, ular yillik o'sish bilan hisoblanadi.

Suv ta'minoti korxonasi xodimi milliy iqtisodiyotni talablarini hisobga olishga qaratilgan ichimlik suvi ishlab chiqarishni ko'paytirish tashvishi bilangina band bo'lmasdan, shu bilan birga, suvdan oqilona foydalanish ustidan samarali nazorat va uni sarfini hisobga olishni amalga oshirish, suvning isrof bo'ishi bo'yicha zarur choralar ko'rilishi kerak.

SHu tufayli har bir toifadagi iste'molchiga, har qanday aholi manzili mahalliy sharoitiga mos holda belgilangan individual alohida ko'rsatkichlariga ega suv sarfi (me'yornoma) bo'yicha rejaviy topshiriqlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

SHunday tartib o'rnatish maqsadga muvofiq bo'lardiki, u bo'yicha suv harid qilish rejasini "oshirib bajargani" uchun, yoki boshqacha aytganda suvni me'yoridan ortiq sarflash uchun iqtisodiy rag'batlantirish o'tkazilmaydi.

Suv etkazish tartibi va abonentlar tomonidan suv iste'moli ustidan nazorat qilish muammosini ko'taradi, buni hal etish uchun suv ta'minotining uzluksizligi ustidan ishonchli nazorat yo'lga quyilishi kerak. Bu o'z navbatida suv ta'minlash tizimida qator nazorat nuqtalarida o'rnatilgan o'ziyozar asboblarda yordamida qayd etiladi.

Gaz xo‘jaligi. Gaz xo‘jaligi ishining asosiy ko‘rsatkichi, aholi va boshqa iste’molchilarga etqazilayotgan xizmatlar xajmidir. Aholining kommunal-maishiy talablari uchun gaz 1 ta yashovchiga mo‘ljallangan o‘rtacha me‘yor bo‘yicha hisoblanadi. Suyultirilgan gaz tarqatuvchi stansiyalar quvvati gaz to‘ldirilgan ballonlar sig‘imi bo‘yicha aniqlanadi. Stansiya quvvatini oshirishni rejalashtirilganda aholining suyultirilgan gazga talabi va gazni muddatida etkazishni hisobga oladi.

Qishloqlardagi xonadonlarni gazlashtirishni rejalashtirish muassasa belgisi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Gaz ta‘minoti yagona tizimga egaligi bilan izohlanadi, uning barcha tarkibiy bo‘laklari (konlar, gaz quvurlari, shahar ichidagi tarmoqlar) bir biri bilan bog‘langan va rejalashtirishda shu aloqalarni hisobga olinishi zarur. Hozirgi vaqtda tartibga solish tizimining jiddiy kamchiliklaridan biri rejada mo‘ljallangan xizmatlar hajmi zarur moddiy manbaalar bilan ta‘minlanmasligidir. Aholi talablarini qondirish uchun gaz xo‘jaliklari faqatgina gaz emas balki uskunalar, maishiy gaz apparatlari, gaz sarfini hisoblagichlar va boshqalarni ham oladilar. Bularning hammasini but holatda saqlab turish uchun etarlicha quvurlar, ehtiyot qismlar, o‘lchovlar talab etiladi. Bu bundan 20-30 yil avval tashkil etilgan gaz xo‘jaliklari uchun juda muhim, chunki ularga katta hajmda kapital ta‘mirlash talab qilinadi. Bularning barchasi moddiy-texnikaviy manbalarning yagona markazlashtirilgan fondini barpo etishni taqazo etmoqda, ayniqsa qishloq joylardagi gaz bilan ta‘minlash tizimini ta‘minlash uchun.

Hududlarni sanitariya jihatdan tozalash va yig‘ishtirish. SHahar hududlari maydonlarini chiqindi va qordan tozalash, chiqarish va yo‘q qilish, qattiq chiqindilar, chiqariladigan qor, assenizatsiya texnikasi yordamida tashib chiqariladigan suyuq chiqindilar rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Tozalash rejasi bo‘yicha ishlar hajmi asosida chiqindi yig‘uvchi, sug‘orish-yuvuvchi va qor tozalovchi mashinalarga, xonadon chiqindilari, shu jumladan oziq-ovqat chiqindilarini olib chiqishga, maxsus avtomashinalarga talab aniqlanadi, qattiq va suyuq chiqindilarni yo‘qotish uchun zarur hududlar, korxona va uskunalar tanlanadi.

Sanitariya jihatdan tozalovchi korxonalar faoliyatining ko‘rsatkichlari rejalashtirilgan ishlar birligi tannarxi, daromadlarning umumiy miqdori, ekspluatatsiya xarajatlari miqdori, xodimlar soni, shuningdek mashina va mexanizmlarni ishlatish bo‘yicha ko‘rsatkichlardir. Mazkur tizimda kamchiliklar mavjud. Ishlab chiqarish dasturlarida xonadonlardagi olib chiqib ketish grafigi, mashinalarning qatnash soni va boshqa qator ko‘rsatkichlar hamma joyda ham qayd etilmaydi, bu esa rejaviy ishlab chiqarish, moliyaviy rejaning alohida bo‘limlarini hisoblab chiqishda zarurdir. Ko‘chalarni tozalashda yo‘llarni va o‘tish joylarini tozalash davriyligi, mashinalarning ishda, navbatchilikda bo‘lish asosan rejalashtirilmaydi.

Ko‘pchilik xo‘jaliklarda tashkiliy texnikaviy tadbirlar ishlab chiqiladi, ularda esa tadbirlarning aniq ijrochilari, muddatlari, unga sarf bo‘ladigan xarajatlar, moliyalashtirish manbaalari, iqtisodiy samaradorlik hisob-kitoblari yo‘q.

Moddiy tsxnikaviy ta'minotni rejalashtirish o'tgan davr uchun xaqiqiy ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi, oqibatda materiallarning ortiqcha ishlatilishi yoki etishmasligi qonuniylashtiriladi. Masalan, Kattaqo'rg'on shahrida maxsus avtobazada texnika xizmati va to'plovchi texnikani ta'mirlash uchun materiallar miqdori va ehtiyot qismlar sonini aniqlashda o'tgan yildagi xaqiqiy sarfi va mashinalarning xizmatda bosib o'tgan yo'li asos qilib olingan. Mashinalarning yurgan har bir kilometr yo'lga ham sarf-xarajatlar xuddi shunday hisoblangan va joriy yilda bosib o'tgan yo'lga ko'paytirilgan va rejaga kiritilgan. Demak, o'tgan yili materiallar ortiqcha sarflangan bo'lsa (yoki barcha zarur ishlarni amalga oshirishga etmaydigan bo'lsa), bu holat baribir rejaga kiritiladi.

Yo'l xo'jaligining asosiy ko'rsatkichi yo'l qurish ishlarining bajarilgan hajmidir. Tahlillarning ko'rsatishicha, yo'l ishlari hajmi ajratilgan mablag' va bajarilgan xizmatiga ko'ra rejalashtiriladi.

Ko'kalamzorlashtirish xo'jaligi tarkibiga qo'yidagilar kiradi:

- Gullar va gul ko'chatlari etishtiruvchi gulchilik korxonalari;
- Bezakli daraxt-butali o'simliklar ko'chatlarini etqazib berish;
- SHahar yashil o'simliklarini parvarishlash korxonalari;
- Ko'pchilik foydalanadigan parklar, bog'lar, hiyobonlar, yo'laklar soni;
- Ko'kalamzorlashtirish manzillarini qurish va ta'mirlash bilan shug'ullanuvchi korxonalar (ta'mirlash-qurilish boshqarmalari, uchastkalari).

SHuningdek o'rmon-parklarda daraxtlarni sug'orish va parvarishlash bilan shug'ullanuvchi, o'rmonda o'sadigan daraxtlar ko'chatlarini etkazish bilan shug'ullanuvchi va o'rmonlarga qarab turuvchi o'rmon xo'jaliklari;

Uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanishi albatta mamlakatni iqtisodiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilar ekanmiz shuni aytish lozimki ohirgi yillarda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar oshirilib bajarildi.

Uy-joy kommunal xo'jalikni rivojlanishiga ta'sir etadigan asosiy omillar bo'lib aholini soni va uning daromadlari hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida aholi va mehnat resurslari barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

4-mavzu. O'zbekiston Respublikasi aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasining ahamiyati

4.1. Aholiga kommunal xizmat ko'rsatishning ahvoli va uni isloh qilish vazifalari

4.2. Kommunal xizmat ko'rsatishni boshqarish tizimini takomillashtirish

4.3. Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini rivojlantirish

4.4. Davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning ta'minlanishi

4.1. Aholiga kommunal xizmat ko'rsatishning ahvoli va uni isloh qilish vazifalari

Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi islohotlar respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy qayta o'zgartirishlarning uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi va u yaratilgan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy asosda ro'yobga chiqarilmoqda.

Aholiga uy-joy kommunal xizmati ko'rsatish tizimini isloh qilish «Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida», «Davlat uy-joy siyosati asoslari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonunlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida kommunal xizmat ko'rsatishni boshqarishni takomillashtirish to'g'risida», «Respublikada uy-joy qurilishini rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlarini Vazirlar Mahkamasining «Kommunal xizmatlarning o'z xarajatlarini o'zi qoplashiga bosqichma-bosqich o'tishi to'g'risida» 1994 yil 7 fevraldagi 54-son «Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida aholiga kommunal xizmat ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 1997 yil 25 apreldagi 211-son qarorlarini hamda boshqa qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ro'yobga chiqarish doirasida amalga oshirilmoqda.

Qabul qilingan qarorlarga muvofiq aholiga kommunal xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining bozor munosabatlariga o'tishi jarayoni boshlandi.

1. **Uy-joylardan foydalanish xo'jaligi** sohasida to'liq xo'jalik hisobida 109 ta uy-joylardan foydalanish korxonalari ishlarida 181 ta oilaviy va jamoa pudrati brigadalari faoliyat ko'rsatmoqda. Boshqaruvning oraliq bo'g'inlari — uy-joy trestlari amalda tugatildi, muqobil xizmatlarni tashkil etish uy-joylarga kirish joylarida sovuq va issiq suv, gaz, issiqlik energiyasini hisoblagichlar o'rnatish ishlari boshlab yuborildi.

2. **Suv ta'minoti va kanalizatsiya** sohasida «O'zsuvkanal» ishlab chiqarish birlashmasi tugatildi. Viloyatlar suv quvurlari kanalizatsiya boshqarmalari yangidan tashkil qilingan hududiy kommunal foydalanish birlashmalari tarkibiga o'tkazildi. Suvni hisoblash priborlari bilan sanoat ob'ektlarining 90 foizi va ijtimoiy-maishiy soha ob'ektlarining 68 foizi qamrab olingan.

3. **Gaz ta'minoti** sohasida «O'zbekgaz» ishlab chiqarish birlashmasi tugatilgan, tugallangan balansga ega bo'lgan gaz ta'minoti va gazlashtirish bo'yicha xo'jalik hisobidagi bosh boshqarmalar tashkil etilgan. Tarmoqlarda gaz isrofgarchiligiga ortiqcha yonishlar va shu kabilarga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlari ko'rilmoqda.

4. **Issiqlik ta'minoti** sohasida «O'zissiqlikkommunenergiya» RIB tugatildi uning viloyatlardagi bo'linmalari hududiy kommunal foydalanish birlashmalari tarkibiga o'tkazildi. Aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etilayotgan xo'jalik hisobidagi issiqlik ta'minoti tashkilotlarini shakllantirishga doir tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Issiqlik energiyasini ishlab chiqarish va etkazib berishdagi kapital foydalanish xarajatlarini kamaytirish bo'yicha tajriba ishlari olib borilmoqda.

5. **Obodonlashtirish** sohasida ahlatxonalarni ijaraga berish amalga oshirilmoqda. Toshkent shahrida yagona buyurtmachi xizmati tashkil qilingan

maxsus mashinalarning bir qismi haydovchilarga ijaraga berilgan. Ko'kalamzorlashtirish korxonalarini xususiylashtirish boshlandi.

6. Kommunal xizmat ko'rsatish tizimiga kiruvchi sanoat hamda boshqa korxona va tashkilotlar xususiylashtirilmoqda.

SHu bilan birga kommunal xizmat ko'rsatish sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish past sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Xizmatlar ko'rsatishda monopolizm va muqobilsizlik saqlanib qolmoqda, xizmatlar qiymatini shakllantirishda xarajat mexanizmiga xizmatlar ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish va sifatini oshirish uchun iqtisodiy rag'batlari bo'lmagan boshqaruvning ma'muriyatchilik usullariga boshqarish va xizmat ko'rsatish funksiyalarini qo'shib olib borish xususiyatiga ega bo'lgan davlat korxonalari hali ham ustunlik qilmoqda. Iste'molchilarning to'liq intizomi past resurslar sarfini hisobga olishning zarur darajasi ta'minlanmagan tarmoqdagi ko'plab korxonalarning moliyaviy ahvoli qoniqarsizligicha qolmoqda.

Quyidagilar kommunal xizmat ko'rsatishni **isloh qilishning asosiy vazifalari** hisoblanadi:

- tarmoqni o'z xarajatlarini o'zi qoplashga, zarar ko'rmasdan faoliyat ko'rsatish tartibiga bosqichma-bosqich o'tkazish, narx belgilashda xarajat mexanizmini bartaraf etish, raqobat muhitini va muqobil tuzilmalarni yaratish;
- mulkchilikning ko'p shaklliligini va tarmoq faoliyat ko'rsatishning bozor tamoyillarini ta'minlashga yo'naltirilgan institutsional qayta o'zgartirishlarni amalga oshirish;
- kommunal xizmat ko'rsatish sohasida munosabatlarni davlat tomonidan yanada takomillashtirish, uy-joy fondining, kommunal tizimlarning ahvoli va saqlanishi ustidan davlat nazoratining samarali mexanizmini ishlab chiqish;
- resurslardan oqilona foydalanishni, manbaalarni tejashni ta'minlash bo'yicha aniq maqsadli ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy siyosatini o'tkazish.
- Ko'rsatib o'tilgan vazifalarni bajarishni quyidagi **asosiy yo'llar** bilan amalga oshirish nazarda tutilmoqda:
- kommunal xizmat ko'rsatishning mavjud tizimini **bosqichma-bosqich qayta tashkil etish**, boshqarish va nazorat qilish tizimini ta'millashtirish, kommunal korxonalarning o'z funksional vazifalarni hal etishdagi iqtisodiy mustaqilligini va javobgarligini oshirish;
- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish jarayonlarinn **yanada chuqurlashtirish**, bajaruvchilarni tanlov bo'yicha tanlash va muqobil korxonalarni rivojlantirish asosida hamma joyda shartnomaviy munosabatlarga o'tish, narx belgilashning bozor tizimini shakllantirish;
- tarmoqning moddiy-texnika bazasini **mustahkamlash**, uni rivojlantirishga muqobil investitsiyalarni jalb qilish, xizmatlar ko'rsatishning iqtisodiy tizimlarini joriy etish;
- kommunal xizmat ko'rsatish xodimlari mehnatini pag'batlantirishning kuchli, asoslangan mexanizmini ishlab chiqish bilan uyg'un holda, aholi va xizmat

ko'rsatuvchi tashkilotlar o'zaro hamkorligining iqtisodiy shakllariga o'tishni davlat tomonidan tartibga solishning shakl va usullarini, uning me'yoriy-huquqiy negizini **takomillashtirish**;

- imtiyozlarning mavjud tizimini **tartibga solish**, uy-joy-kommunal munosabatlarni tartibga solib borishda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish.

4.2. Kommunal xizmat ko'rsatishni boshqarish tizimini takomillashtirish

Konsepsiyada kommunal xizmat ko'rsatishni boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishi sifatida **boshqarish va xizmat ko'rsatish funksiyalarini ajratish**, shu asosda:

- mulk egasi va (yoki) boshqaruvchi tashkilot (buyurtmachi);
- kommunal xizmatlarni amalga oshiruvchi pudrat tashkilotlari (etkazib beruvchilar);
- kommunal munosabatlar sohasida davlat nazoratini amalga oshirish vakolati berilgan organlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimini tashkil etish nazarda tutiladi.

Quyidagilar bunday mexanizmni yaratishning **asosiy tamoyillari** hisoblanadi:

- kommunal munosabatlar qatnashchilarining yuridik va xo'jalik mustaqilligini mulkiy javobgarligini ta'minlash;
- mulkchilik shakllarining ko'p xilligini rivojlantirish, shu jumladan uy-joy mulkdorlari shirkatlarini tuzish uy-joy fondi xizmat ko'rsatish va kommunal xizmatlar ko'rsatish bo'yicha muqobil pudrat tashkilotlarini tashkil etish;
- ko'chmas mulkni boshqarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarga narx belgilashning bozor tamoyillariga o'tish;
- kommunal munosabatlar qatnashchilari tomonidan yashash sharoitlari va ko'rsatiladigan xizmatlarning belgilangan standartlari ta'minlanishi, xizmatlarga o'z vaqtida haq to'lanishi, shartnoma majburiyatlariga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

Uy-joy fondi mulkdoriga quyidagi funksiyalar yuklanadi:

- uy-joy fondining saqlanishini ta'minlash va uy atrofini zarur darajada saqlash, ushbu maqsadlarga mo'ljallangan xarajatlarni o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlash;
- uy-joy fondini, yashab turgan shaxslarni hisobga olish, ro'yxatdan o'tkazish va pasport- hisobga olish ishlarini yuritish;
- uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish hamda kommunal xizmatlar ko'rsatish bo'yicha tegishli pudrat tashkilotlari bilan shartnomalar tuzish, ushbu ishlar uchun o'z vaqtida haq to'lanishini ta'minlash.

Mulkdor — uy egasi ushbu funksiyalarni o'zi bajarishga, yoxud boshqaruv funksiyasini shartnoma asosida ixtisoslashtirilgan **boshqaruvchi tashkilotga (buyurtmachi xizmati)** berishga haqlidir. Boshqaruvchi tashkilot davlat tashkiloti ham, mulkchilikning boshqa shaklidagi tashkilot ham bo'lishi mumkin.

Pudrat shartnomasida qayd etilgan ishlar va xizmatlar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi xizmat ko'rsatuvchi pudrat tashkilotining funksiyasi hisoblanadi. Bunda pudrat tashkilotlari ro'yxatdan o'tkazish hisobga olish funksiyalarini, pasport-hisobga olish ishlarini, aholidan to'lov yig'ishni, imtiyozlar va subsidiyalarni rasmiylashtirishni boshqaruvchi tashkilotga (buyurtmachi xizmatiga), fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bergan holda bu ishlardan ozod qilinadi.

Ushbu mexanizmni amalga oshirishni jadallashtirish maqsadida barcha uy-joylardan foydalanish tashkilotlarini, ularga davlat mulki bo'lgan mol-mulkni xo'jalik maqsadlarida yuritish huquqini bergan, keyinchalik mana shu asosda boshqaruvchi va pudrat tashkilotlari tuzgan holda, birinchi navbatda xo'jalik hisobiga o'tkazish tugallanadi. **Buyurtmachi va pudratchi funksiyalarini ajratishni** asosan 2000 yilda tugallash nazarda tutilmoqda.

Ko'chmas mulkka mulkchilik shakllarining ko'p xilliligini shakllantirish masalalarida ham uy-joy, ham uylardagi turar joy bo'lmagan binolar mulkdorlarini birlashtiruvchi **uy-joylar mulkdorlari shirkatlari (kondominiumlar)** tashkil etishga birinchi navbatda e'tibor beriladi. **Umumiy foydalaniladigan** joylar (zinapoyalar, yo'laklar, erto'lalar, tom, liftlar, uy atrofidagi hududdagi binolar va imoratlar) va uylarga tutash er uchastkalari ko'rsatib o'tilgan shirkatlarning ulushli mulki hisoblanadi.

Uy-joylar mulkdorlari shirkatlari mulkdorlarning ulushli mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bo'yicha huquqlari amalga oshirilishini, shirkatning har bir a'zosining uning mulki hisoblangan turar joy va (yoki) turar joy bo'lmagan binolar umumiy maydoni hajmiga mutanosib ravishda harajatlarda qatnashishi asosida umumiy foydalaniladigan joylarga xizmat ko'rsatilishi va ularni tuzatishni mablag' bilan ta'minlashga da'vat etilgandir.

Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlar uy-joy-kommunal munosabatlarda shartnomalar (kontraktlar)ning ahamiyatini keskin oshirish, ustun darajada tanlov asosida iqtisodiy asoslangan tariflar va narxlarni shakllantirishni ta'minlash imkonini beradi.

Konsepsiyada «Uy-joylar mulkdorlari shirkatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ishlab chiqish mo'ljallanmoqda. Ushbu Qonunning qabul qilinishi o'zlariga tegishli mulkni boshqarishda va unga xizmat ko'rsatishda va sifatli xizmatlarga imkoni boricha pastroq narxlarda haq to'lashda resurslardan oqilona foydalanishdan manfaatdor bo'lgan shirkatlar tuzilishini tashkil etish imkonini beradi.

Uy-joy fondini boshqarish va unga xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirishga oid ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlarning hayotga joriy etilishi davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish mahalliy organlariga yuklanadi.

4.3. Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini rivojlantirish

Eng maqbul narxlar bo'yicha bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning zarur hajmi va sifatini ta'minlash, xizmat ko'rsatuvchilar monopol mavqeining salbiy oqibatlarini bartaraf etish imkonini beruvchi kommunal

munosabatlarda **raqobat muhiti yaratilishi** kommunal xizmat ko'rsatishni isloh qilishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Ushbu vazifalar hal etilishini quyidagi yo'llar bilan ta'minlash nazarda tutilmoqda:

- tarmoq korxonalarini monopoliyadan chiqarish chora-tadbirlarini kuchaytirish bilan birgalikda ularni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish;
- uy-joylar mulkdorlari va boshqaruvchi tashkilot (buyurtmachi) tomonidan uy-joy-kommunal maqsadlardagi ob'ektlarga xizmat ko'rsatishga va ularni rivojlantirishga buyurtmalar berish, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, pudrat tashkilotlarini kommunal xizmatlar ko'rsatishga tenglik asosida jalb qilish;
- bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun shartnomalar asosida hisob-kitob qilish tizimini tashkil etish, shuningdek shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun iqtisodiy va ma'muriy jazolarni qo'llash.

Kommunal xizmat ko'rsatish tizimi ayrim kichik tarmoqlari ob'ektlarini **xususiylashtirishga** yondashuvlar ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilangan.

Tarmoqning ayrim faoliyat sohalarida hozirning o'zidayoq raqobatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjuddir. Bunday sohalarga quyidagilar kiradi:

- uy-joy fondiga va shahar obodonchiligi ob'ektlariga (yo'l-ko'priklar xo'jaligi, ko'kalamzorlashtirish va irrigatsiya, hududlarni sanitariya jihatidan tozalash va boshqalar) xizmat ko'rsatish;
- kommunal xizmat ko'rsatishning muqobil shakllaridan foydalanuvchi tashkilotlar, shu jumladan ob'ektlarning tarmoqli muhandislik infratuzilmasi bilan bog'liq bo'lmagan hayot ta'minotining avtonom tizimlari (lokal bug' qozonxonalari, idishlardan va gaz ballonidan gaz bilan ta'minlash va boshqalar);
- kommunal xo'jaligi ob'ektlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarning ayrim turlarini bajaruvchi korxonalar (tarmoqlarni tuzatish va tozalash, axlatlarni yig'ishtirish, lift xo'jaligini ishlatish va boshqalar);
- uy-joy-kommunal maqsadlardagi ob'ektlarni rivojlantirish bo'yicha loyiha-qidiruv, tuzatish-qurilish va qurilish-montaj ishlari.

Ushbu soha tashkilotlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni jadallashtirish tanlov asosida tegishli shartnomalar tuzishda ularning real teng huquqliligini ta'minlash vazifasi turibdi. Birinchi navbatda joriy yildayoq uy-joy fondini mukammal tuzatish sohasida band bo'lgan tuzatish qurilish tashkilotlarini xususiylashtirish, 1999 yilda esa qolgan tashkilotlarni xususiylashtirish tugallanadi.

Tabiiy monopoliyaga tegishli bo'lgan issiqlik, suv ta'minoti, kanalizatsiya korxonalari va raqobat muhiti yaratish imkoniyati g'oyat cheklangan **monopol korxonalar** hisoblanuvchi gaz ta'minoti korxonalari boshqa toifani tashkil etadi.

Ushbu va shunga o'xshash korxonalarni maxsus dastur bo'yicha xususiylashtirish nazarda tutilmoqda.

Quyidagilar ushbu dasturga asos qilib olinadi:

- monopoliyaga qarshi ta'sir ko'rsatish usullarini saqlab qolgan holda maqbul narxlar bo'yicha zarur sifatdagi xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, har yilgi auditorlik tekshirishlarini tashkil etish;
- aksiyalarni taqsimlashda ehtimol tutilgan albatta turdosh korxonalarni jalb qilgan holda aksiyalarning nazorat paketini amaldagi tartib doirasida asosiy mulkdorda saqlash;
- moddiy, energetika, moliyaviy va mehnat resurslari xarajattari normativlari tizimidan foydalangan holda narxlar va tariflarni belgilash tartibi orqali narx belgilashni tartibga solish;
- tanlov savdolari asosida kommunal xizmatlar ko'rsatishning ayrim bosqichlarida (kapital tuzdagi mavsumiy tuzatish ishlari, qishki va materiallar xarid qilish va boshqalar) raqobat muhitini yaratish;
- suv ta'minoti, suv ajratish yoki issiqlik shoxobchalari tizimini ishonchli boshqarishga boshqaruvchi tashkilotni tanlov asosida jalb qilish;
- xorijiy sarmoyani jalb qilgan holda birgalikda xo'jalik yuritish asosida aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etish;
- davlat hokimiyati mahalliy organlariga aksiyadorlik jamiyatlarining ustav sarmoyasidagi davlat ulushini boshqarish huquqini berish.

Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan boshqaruvchi tashkilot bilan ishonchli boshqaruv yuzasidan shartnoma tuzilishi monopol tizimlardagi raqobat muhitini rivojlantirish yo'llaridan biri bo'lishi mumkin. Unda shartnomaning amal qilish vaqtida tashkilot faoliyati yuzasidan maqsadli yo'nalishlar belgilanadi. Boshqaruvchi tashkilot, odatda, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish bilan bog'liq majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Ushbu xizmatlar yo natura ko'rsatkichlari ko'rinishida, yoxud normativlar ko'rinishida shakllantiriladi.

Xizmatlar sifati standartlarini aks ettiruvchi indikatorlar ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda tarif siyosatini belgilash ishonchli boshqaruv shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ishonchli boshqaruvga ham mamlakatimizning, ham chet elning firmalari odatda tanlov asosida jalb qilinishi mumkin. Xorijiy kompaniyalar jalb qilinishidan oldin iqtisodiyotning ushbu sohasida milliy manfaatlarni himoya qilish uchun zarur huquqiy baza ishlab chiqilishi kerak.

4.4. Davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning ta'minlanishi

Quyidagilar uy-joy-kommunal munosabatlar sohasida **davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning** asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

- tarmoqni isloh qilish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratuvchi tegishli me'yoriy-huquqiy va uslubiy negizni

shakllantirish, ushbu hujjatlarga kommunal munosabatlar barcha ishtirokchilarining majburiy rioya qilishini ta'minlash;

- uy-joy-kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasida shartnoma munosabatlariga o'tish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy-huquqiy va moliyaviy-iqtisodiy mustaqilligini oshirish;
- raqobat muhitini yaratishning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xizmatlar ko'rsatishda teng huquqli ishtirokini ta'minlash, ana shu asosda narx belgilash siyosatini shakllantirish;
- xususiylashtirilgan kommunal korxonalar ixtisosining o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik;
- ushbu sohada faoliyatning ayrim turlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziyalash;
- shartnomaviy munosabatlar doirasida uy-joy-kommunal xizmatlar iste'molchilariga belgilangan standartlar darajasida kafolatli xizmat ko'rsatish ta'minlanishini nazorat qilish;
- majburiy xizmat ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar iste'molchilarining iste'mol normativlari va ustuvor guruhlarini va ko'rsatiladigan xizmatlarning eng kam darajasini belgilash;
- narxlarni shakllantirish uchun xarajatlar va foyda hisob-kitobi holisligini baholash yo'li bilan monopolist korxonalar tomonidan kommunal xizmatlarga tariflar belgilanishini nazorat qilish, ushbu ishda barcha manfaatdor tomonlarning ishtirokini ta'minlash;
- suv, issiqlik, gaz va boshqa energiya manbalarini yakka tartibda hisobga olish va ularning sarfini tartibga solish priborlarini joriy etish chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish;
- dasturiy-maqсадli yondashuvlar, tarkibiy qayta o'zgartirishlar, byudjetdan mablag' bilan ta'minlashni bosqichma-bosqich qisqartirish, chuqur o'ylangan soliq siyosatini o'tkazish, investitsiyalarning muqobil manbalarini, shu jumladan xorijiy investorlar investitsiyalarini keng jalb qilish asosida tarmoqning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish.

O'zbekiston «O'zkommunxizmat» agentligi huzurida hududiy tuzilmalarga ega bo'lgan Davlat uy-joy inspeksiyasi tashkil etish mo'ljallanmoqda. Unga quyidagi asosiy vazifalar yuklanadi:

- uy-joylar va kommunal ob'ektlar muhandislik tarmoqlari asbob-uskunalarini muntazam ko'rikdan o'tkazish va ulardan foydalanish sifatini tekshirish;
- uy-joyga va uy atrofidagi hududga qo'yiladigan sanitariya-gigiena talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- binolar va umumiy foydalaniladigan joylar o'z vaqtida va sifatli tuzatilishini, iste'molchiga kommunal xizmatlar ko'rsatilishini nazorat qilish;
- uy-joylar binolari mulkdorlari, uy-joy-kommunal tashkilotlar bilan energiya resurslarini (suv, gaz, elektr va issiqlik energiyasi va boshqalar) etkazib beruvchi korxonalar o'rtasidagi shartnomalar (kontraktlar) bo'yicha majburiyatlar bajarilishini nazorat qilish;

- uy-joylar mulkdorlari va kommunal-foydalanish korxonalarining uy-joylardan foydalanish, kommunal xizmatlar sifati va energiya manbalari masalalari bo'yicha shikoyatlari, arizalarini ko'rib chiqish.

Kommunal xizmat ko'rsatishning o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlashga o'tishi sharoitlarida dotatsiyani bosqichma-bosqich qisqartirish asosida tarmoqni mablag' bilan ta'minlash tizimini takomillashtirishga **asosiy ahamiyat beriladi**.

Mahalliy byudjetning ahamiyati oshib borayotgan bir sharoitda kommunal xizmat ko'rsatishni byudjet tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

- tarmoqni rivojlantirishning davlat dasturlarini amalga oshirish;
- mintaqalararo va magistral kommunal infratuzilma tizimini, yirik va muhim inshootlar va ob'ektlarni qurish va rekonstruksiya qilish;
- energiya ta'minotining muqobil manbalarini rivojlantirish.

Asosiy e'tibor joylarda tarmoqni rivojlantirishni mablag' bilan ta'minlashning, eng avvalo kommunal xizmatlardan foydalanuvchilarning to'lov intizomini mustahkamlash asosida byudjetdan tashqari manbalarini, shuningdek mablag' bilan ta'minlashning muqobil manbalarini, ayniqsa uzoq muddatli kreditlarni, shu jumladan xorijiy kreditlarni jalb qilishga qaratilishi keraq.

Uy-joy-kommunal xizmatlarga haq to'lash uchun uy atrofidagi hududdan binolarning erto'lalaridan va umumiy foydalaniladigan boshqa joylardan foydalanishdan uy-joy mulkdorlari daromadlarini shakllantirish tizimi rivojlanadi.

Eng yaqin vaqtlar ichida tegishli ravishda mablag' bilan ta'minlash manbalarini aniqlagan holda tarmoqning **asosiy fondlarini**, ayniqsa uy-joy fondini saqlash va mukammal tuzatishning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish nazarda tutilmoqda.

Tarmoqda **energiya ta'minoti** masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Quyidagilar uning asosiy yo'nalishlari bo'lishi kerak:

- issiqlik energetikasi, texnologik va asbob-uskunalarining boshqa turlari samaradorligini, energiya manbalarini uzatish va taqsimlashni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasini oshirish;
- uy-joy binolarining to'suvchi konstruksiyalarining issiqlikni saqlash xususiyatlarini kuchaytirish va qurilishda issiqlikni o'tkazish xususiyatlari past bo'lgan konstruksiyalar qo'llanilishini cheklash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- hisobga olish priborlari, yuqori sifatli sanitariya-texnika uskunalari, shu jumladan berkitish uskunalari, samarali suv taqsimlash priborlari ishlab chiqarilishini va hamma joyda qo'llanilishini tashkil etish.

Iste'mol qilinayotgan energiya manbalari va suvni yakka tartibda hisobga olish va sarflanishini tartibga solish priborlari birinchi navbatda ko'p kvartirali uy-joylarning kirish joylarida joriy etiladi. Keyinchalik ular bilan har bir xonadonni yoki yakka tartibdagi uyni jihozlash, **dispatcherlik boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish ko'zda tutilmoqda**, bu tegishli resurslardan foydalanishni hisobga olish bilan bir qatorda ularni taqsimlash va

ulardan foydalanish jarayonini maqbullashtirish, boshqaruvning barcha darajalari uchun axborot tarqatish imkonini beradi.

4.5. Uy-joy-kommunal xizmatlarga haq to'lash

Kommunal xizmat ko'rsatishni isloh qilishda tarmoqning o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga asta-sekin o'tishi doirasida tariflarni bosqichma-bosqich o'zgartirish ko'zda tutiladi.

Bunda uy-joylarni saqlash va kommunal xizmatlar ko'rsatish uchun **aholi tomonidan to'lanadigan xarajatlarning ulushini** bosqichma-bosqich ko'paytirishga quyidagilar:

- **energiya manbalarini hisobga olish priborlarini** hamma joyda joriy etish;
- bajaruvchilarni **tanlov asosida tanlash**;
- hamma joyda mehnatga **ishbay asosida haq to'lashga** o'tish, ma'muriy-boshqaruv va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonini **qisqartirish**;
- tabiiy monopol korxonalar **tariflarini tartibga solish**;
- aholi real daromadlari o'sishini hisobga olish bilan ayni bir vaqtda **xizmatlarning sifat standartlarini** ta'minlash asosida ushbu xarajatlarni nisbatan kamaytirish hisobiga erishiladi.

Quyidagilarni hisobga olgan holda uy-joy-kommunal xizmatlarga tabaqalashtirilgan haq to'lash tizimini shakllantirish ko'zda tutiladi:

- uy-joyning joylashgan o'ri, obodonlashtirilganligi va sifati, shuningdek uy-joy maydonining ijtimoiy normasi;
- **bittadan ortiq kvartiraga** ega bo'lgan ijarachilar va mulkdorlar tomonidan uy-joyni saqlash va kommunal xizmatlar uchun to'liq miqdorda haq to'lash.

Uy-joylarga haq to'lash sohasidagi siyosatni belgilashda **respublika standartlari** tizimiga muhim o'rin beriladi, quyidagilar ularning asosiylari hisoblanadi:

- aholini uy-joy bilan ta'minlashning sanitariya va ijtimoiy normalari asosida belgilanadigan **uy-joy maydoni ijtimoiy normasi standarti**;
- **uy-joy umumiy maydonining 1 kvadrat metriga va oilaning bir a'zosiga uy-joy-kommunal xizmatlar ko'rsatish qiymati standarti**, u uy-joy-kommunal xizmatlarning quyidagi zarur turlari asosida belgilanadi: uy-joyni saqlash va tuzatish, jumladan, asosli tuzatish, issiqlik ta'minoti, suv ta'minoti, kanalizatsiya, gaz ta'minoti, elektr energiyasi ta'minoti, shuningdek, respublika mintaqalari bo'yicha uy-joy-kommunal xizmatlar ko'rsatishning vujudga kelgan o'rtacha cheklangan qiymati;
- kommunal xizmatlar va uy-joy fondi uchun xarajatlarni qoplashga aholi to'lovlari tartibga solinadigan **uy-joy-kommunal xizmatlarning barcha turlari uchun xarajatlarni qoplashda aholi to'lovlarining standart ulushi**.

4.6. Aholining ijtimoiy himoya qilinmagan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning aniqligini oshirish

Uy-joy-kommunal xo'jaligini isloh qilishda quyidagilar aholini ijtimoiy himoya qilish siyosatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

- tarmoq monopol-korxonalarining uy-joy-kommunal xizmatlarga xarajatlarining iqtisodiy asoslanganligi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- xizmat ko'rsatish va uy-joy-kommunal xizmatlar ko'rsatish shartnomalarida ko'zda tutilgan xizmatlarning sifati asossiz ravishda pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik;
- maydoni bo'yicha ijtimoiy normadan ortiq bo'lgan uy-joydan va kommunal xizmatlardan normadan ortiq foydalanganlik uchun stavkalar va tariflar darajasiga rioya etilishini nazorat qilishni ta'minlash.

Kommunal xizmat ko'rsatishning ko'rsatiladigan xizmatlarga haq to'lashning bozor prinsiplariga o'tish, uning yuklamasini asta-sekin aholi hisobiga ko'paytirgan holda, kam ta'minlangan oilalar uchun uy-joy-kommunal xizmatlar qiymatining oshishini ko'rsatib o'tilgan toifaga fuqarolarning mahalla, qishloq, shaharcha va ovul yig'inlari orqali moddiy yordam berish yo'li bilan qisman qoplashni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Ushbu chora-tadbirlarning samaradorligi quyidagilarni ta'minlovchi tegishli tartib bilan ta'minlanadi:

- ushbu fondlardan maqsadli foydalanishni, ularning turli hisoblanishini, ularning asossiz tayinlanishiga yoki rad etish hollariga yo'l qo'ymaslikni nazorat qilish;
- ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lashdan bosh tortgan shaxslarga iqtisodiy va jamoat ta'sirining amaliy mexanizmi;
- muddati o'tib ketgan qarzlar bo'lgan fuqarolarga, ularning ushbu qarzlarni kelishilgan muddatlarda to'lashga roziligi bo'lgan taqdirda uy-joy-kommunal xizmatlarga haq to'lash bo'yicha kompensatsiyani rad etishga yo'l qo'ymaydigan tartibotlarni belgilash.

Xuddi shu maqsadlarda joylarda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari, uy-joy inspeksiyalari xodimlari, yuristlar, joylardagi davlat hokimiyati organlari vakillaridan iborat tarkibda **uy-joy masalalari bo'yicha jamoatchilik komissiyalari** tuzish nazarda tutilmoqda. Ularga kompensatsiya berish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, qarzdorlarga uy-joy-kommunal xizmatlar uchun haq to'lash yuzasidan **samarali ta'sir** ko'rsatish, **fuqarolarni** asoslanmagan sanksiyalardan **himoya qilish**, fuqarolarga malakali maslahat, shu jumladan uy-joyni almashtirish masalalari bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatish yuklanadi.

Respublika standartlarining joriy etilishi quyidagilar asosida fuqarolarning ayrim toifalariga uy-joy-kommunal xizmatlarga haq to'lash yuzasidan **imtiyozlar berish siyosatini qayta ko'rib chiqishni, tartibga solishni** nazarda tutadi:

- uy-joy-kommunal xizmatlarga haq to'lash yuzasidan kompensatsiyani mazkur imtiyozni olish huquqiga ega bo'lgan shaxs, hamda uni qaramog'ida bo'lgan shaxslar olishi uchun imkoniyat berish;

- boqimandalikka, uy-joy-kommunal xizmatlarga haq to'la yuzasidan imtiyozga ega shaxs hisobiga o'z moddiy ahvolini yaxshilashga intilishga yo'l qo'ymaslik.

Konsepsiyani amalga oshirish bosqichlari:

I-bosqich — 1998 - 1999 yillar:

- zarur qonunchilik asosini yaratish, «Uy-joylar mulkdorlar shirkati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi, uy-joy-kommunal munosabatlarni tartibga soluvchi zarur normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- aholiga va boshqa iste'molchilarga kommunal xizmatlar ko'rsatish, xizmatlar ko'rsatuvchilarning barcha darajasida shartnoma munosabatlariga o'tish;
- kommunal xizmat ko'rsatishning ayrim tarmoqlarini monopoliyadan chiqarish;
- obodonlashtirish ob'ektlarini va tuzatish-qurilish tashkilotlarini xususiylashtirishni nihoyasiga etkazish;
- xarajatlar darajasini pasaytirishni hisobga olgan holda narxlarni shakllantirishni takomillashtirish, uy-joy-kommunal xizmatlar ko'rsatish yuzasidan tariflar asoslanganligini va darajasini nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi amalga oshirilishini ta'minlash;
- barcha ko'p kvartirali uylarga suv, gaz va boshqa energiya manbalarini olib kirish joylarida ularni hisobga olish va sarflanishini tartibga solish priborlarini o'rnatish ishlarini keng ko'lamda amalga oshirish, bu priborlarning yangi qurilgan, rekonstruksiya qilingan va asosli tuzatilgan uylar har bir kvartirasida o'rnatilishini ta'minlash;
- O'zbekiston «O'zkommunxizmat» agentligi huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida tegishli bo'linmalari bo'lgan Davlat uy-joy inspeksiyasini tashkil etish;
- mavjud uy-joy binolarini rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va asosli tuzatish bo'yicha maqsadli respublika dasturini ishlab chiqish;
- uy-joy-kommunal tizimini boshqarish va xizmat ko'rsatish tashkilotlarida ishlash uchun kadrlarni qayta o'qitishni tashkil etish;

II-bosqich — 2000—2016 yillar:

- boshqaruv va xizmat ko'rsatish funksiyalarini ajratishni nihoyasiga etkazish, xizmat ko'rsatish, uy-joy fondini tuzatish va unga xizmat ko'rsatish korxonalarini tanlov asosida tanlab olish amaliyotidan keng foydalanish. Tanlov asosida xizmat ko'rsatiladigan uy-joy fondi ulushini 70 foizgacha etkazish;
- ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarishning ustuvor shakli sifatida uy-joylar mulkdorlari shirkatlarini tashkil etish va yanada rivojlantirish;
- shahar uy-joy-kommunal infratuzilmasini rivojlantirish uchun investitsiyalarning turli manbalaridan foydalangan holda kredit mablag'larini jalb qilish mexanizmini keng joriy etish;
- har bir kvartirada suv, gaz va energiyaning boshqa manbalarini hisobga olish priborlari o'rnatilishini asosan tugallash;

- uy-joyni tuzatish, saqlash va kommunal xizmatlar uchun aholi tomonidan to'liq haq to'lashga o'tish.

5-mavzu. Kommunal soha va uy-joy kommunal xo'jaligi tizimida boshqaruvni tashkil etilishi

- 5.1. Mamlakatimizda uy-joy xo'jaligini boshqarish masalalari
- 5.2. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining sohani boshqarishdagi ahamiyati
- 5.3. "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Prezident Farmonining mazmuni va ahamiyati

5.1. Mamlakatimizda uy-joy xo'jaligini boshqarish masalalari

Ma'lumki, mamlakatimizda izchil tarzda amalga oshirilayotgan islohotlar eng avvalo ijtimoiy yo'naltirilganligi, ayniqsa inson manfaatlarini himoyalashga, aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilganligi bilan e'tirofga molikdir. Bu jarayonda har bir fuqaroning hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan kommunal sohani isloh qilish, uy-joy fondini boshqarish, bu borada bozor mexanizmlarini joriy etishning o'ziga xos o'rni bor. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilib, normativ-huquqiy baza yaratildi, "Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq, o'zini o'zi boshqarish instituti sifatida xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari shakllantirildi.

Ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda respublikamizda 32076 ta ko'p kvartirali uylar mavjud bo'lib, shundan 29431 tasida 4785 ta xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari xizmat ko'rsatmoqda, 352 ta professional boshqaruvchi tashkilot mavjud, 57 ta Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari uyushmalari faoliyat yuritmoqda. Bunday shirkatlar faoliyatini rivojlantirish va a'zolari huquqlarining himoyasini ta'minlashga davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ko'mak berib kelinmoqda. Sohada ishlayotgan professional boshqaruvchi tashkilotlarga tegishli soliq imtiyozlari joriy etilgan. Imtiyozli tarzda ajratilgan kreditlar uylarni kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishlariga sarflanmoqda.

Xo'sh, bu kabi ishlar joylarda qay tarzda yo'lga qo'yilgan? Ayni shu savolga javob topish maqsadida qo'mitamiz ish rejasiga asosan Samarqand shahrida nazorat tahlil ishlari olib borildi. Bunda tuzilgan ishchi guruhi tomonidan "Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida"gi qonunning ijrosiga e'tibor qaratildi.

O'rganish paytida ma'lum bo'lganidek, shaharda 219 ta mahalla mavjud bo'lib, shundan 99 tasi hududida 108 ta shirkatga qarashli 1024 ta uy-joy va ularda 43910 ta xonadonda aholi yashab kelmoqda. SHahar hududi 6 ta sektorga bo'lingan bo'lib, uning har birida professional boshqaruv tashkilotlar tomonidan texnik servis xizmatlari ko'rsatilmoqda. Masalan, 2014 yilda ushbu tashkilotlar uy-joy fondini kuz-qish mavsumiga tayyorlash va xizmat kursatish bo'yicha 7,2 mlrd.

soʻmlik, 2015 yilda esa 12 mlrd. soʻmlik ishlarni bajarishgan. Natijada shaharning Sartepa mavzesi, Sugʻdiyona maskani, “Buyuk ipak yoʻli”, Rudakiy koʻchalari va Kimyogarlar shaharchasi qiyofasi tubdan oʻzgargan.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari shahar uyushmasiga mahalliy davlat hokimiyati tomonidan Sartepa mavzesidan bepul joy, yaʼni bino ajratilgan va 1,2 mlrd. soʻmlik xomiylik mablagʻlarini jalb qilish orqali zamonaviy tarzda taʼmirlanib, kerakli kompter va mebellar bilan jihozlangan. Joriy yilning oʻtgan davri mobaynida uyushma qoshida shirkatlarning buxgalteriya hisob-kitoblarini markazlashgan holda yuritish tizimi joriy qilingan. Bosqichma-bosqich tarzda qoʻllanilayotgan ushbu ishlar shirkatlarda “Billing” tizimining tashkil etilishiga va www.e-communal.uz portaliga shirkatlar boʻyicha maʼlumotlar bazasi kiritilishiga zamin yaratadi. Amalga oshirilgan ijobiy ishlarga mahalliy davlat hokimiyati organlari, shirkatlar va shirkatlar uyushmasi oʻrtasida oʻzaro hamkorlik munosabatlarining samarali tashkil etilgani asosiy omil boʻlib xizmat qilgan.

Ishchi guruhi tomonidan shahardagi “Murabod kommunal servis”, “SHaxjaxon sher madat”, “Xusan kommunal servis”, “Marxabo” xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari, bunday shirkatlarning shahar uyushmasi va 2 ta professioanal boshqaruvchi tashkilot faoliyati bilan tanishildi hamda ushbu hududlarda yashovchi xonadon mulkdorlari bilan uchrashib suhbatlashildi. Fuqarolarning taʼkidlashlaricha, oʻzlari yashayotgan koʻp qavatli uylarda ijobiy oʻzgarishlar roʻy bergan, 9 qavatli uylarda liftlar muntazam ishlab turibdi, sovuq suv tizimi taʼmirlanib, yuqori qavatlariga chiqishi taʼminlangan, ayrim koʻp qavatli uylarni issitish maqsadida mahalliy qozonxonalar qurilgan. Taʼkidlash joizki, bunday jarayon davom ettirilsa, barcha koʻp qavatli uylarni issitish tizimi qayta koʻrib chiqilsa, maqsadga muvofiq boʻlardi.

Oʻrganish davomida amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda hali oʻz echimini kutayotgan masalalar, foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligi maʼlum boʻldi.

CHunonchi, amaldagi qonun ijrosi Samarkand shahar xalq deputatlari kengashi tomonidan oʻrganilmagan va chora-tadbirlar belgilanmagan. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida etarlicha ish qilinmagan, jumladan shirkat raislari oʻz vazifalari va yuritiladagan xujjatlar toʻgʻrisida toʻlaqonli maʼlumotlarga ega emas.

Bir qator shirkatlarda uy-joy mulqdorlari yigʻilishlari oʻtkazilmagan, umumiy mol-mulkni saqlash, taʼmirlash ishlari rejasi va shu bilan bogʻliq daromadlar va xarajatlar smetasi tuzilmagan, oʻtkazilgan umumiy yigʻilishlarda qabul qilingan qaror va rejalar talabga javob bermaydi.

Bundan tashqari, mulkdorlarning majburiy toʻlovlardan qarzlari borligi, oʻrganilgan shirkatlar rahbariyati tomonidan qarzdorlikni undirish boʻyicha shirkat aʼzolari yozma ogohlantirmaganligi va sudga daʼvo arizalari orqali murojaat qilinmaganligi aniqlandi.

Ishchi guruhi tomonidan oʻrganilgan shirkatlarda koʻp-qavatli uylarda mulkdorlar tomonidan oʻziga tegishli xonadonlarni qayta qurish va ularni oʻzgartirish masalalari qonunning 15-moddasiga asosan shirkat bilan kelishilgan

holda va belgilangan tartibda amalga oshirilishi kerak bo'lsada, lekin bu normaga rioya qilinmayapti.

O'rganilgan shirkatlarda alohida har bir ko'p qavatli uy uchun ko'rsatilgan kommunal xizmatlarni (elektroenergiya, gaz, sovuq suv, issiq suv) hisobga olib boruvchi umumiy hisoblagich o'rnatilmagan, kommunal xizmatni taqdim etuvchi va shirkat o'rtasidagi javobgarlik chegaralari aniq belgilanmagan.

Aholining kommunal sohadagi savodxonligini, xususi uy-joy mulkdorlari shirkatlari a'zolarining o'z huquq va majburiyatlari hamda mas'uliyati haqida xabardorligini oshirish bo'yicha mavzular mahalliy ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilmagan.

Umuman, o'tkazilgan nazorat-tahlil natijalari bo'yicha tayyorlangan xulosada ko'p-qavatli uylarda yashaydigan va noturar joylarda faoliyat ko'rsatayotgan mulkdorlarga ko'proq tushuntirish ishlarini kuchaytirish, umumiy mulkni saqlashda va butlashda ularning ishtirokini faollashtirish, olinayotgan kredit mablag'lari mulkdorlar hisobidan qaytarilishi zarurligini ta'minlash, har qanday ta'mirlash ishlari katta mablag'ni talab qilgani bois, bu haqda faqat shirkat raisi, boshqaruv a'zolari yoki maxalliy davlat hokimiyat organlari emas, eng avvalo shu uyda istiqomat qilib kelayotgan xonadon mulkdorlari xabardor qilinishi, ushbu soha bilan bog'liq tadbirlarni, erishilgan yutuklarni, ko'zga tashlanayotgan muammolar va ularning echimini topish masalalari bo'yicha teleko'rsatuvlar tashkil qilish zarurligiga urg'u berildi.

Nazorat-tahlil faoliyati yakunlari bo'yicha sohaga oid qonun hujjatlarini, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

5.2. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining sohani boshqarishdagi ahamiyati

O'zbekiston Prezidenti Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qarorni tasdiqladi.

O'zbekistonda Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tashkil etildi. Bu Prezidentning 18 apreldagi «Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi farmonida belgilangan.

Farmonga berilgan rasmiy sharhda keltirilishicha, vazirlikni tashkil etishdan maqsad «uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan yaqin hamkorlik asosida ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, ko'p xonadonli uylarni saqlash qoidalariga rioya etilishini texnik nazorat qilish bo'yicha samarali tizimni shakllantirish, aholiga sifatli uy-joy kommunal xizmatlari ko'rsatishni tubdan yaxshilash, shuningdek, uy-joy mulkdorlari shirkatlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash"ga yo'naltirilgan. maqsadida tashkil etiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan 4000 dan ziyod xususi uy-joy mulkdorlari shirkati 32,4 mingdan ortiq ko'p xonadonli uylarga xizmat ko'rsatmoqda. O'tgan davr mobaynida aholi nufusi muttasil o'sib borishiga

qaramasdan aholini uy-joy bilan ta'minlash darajasi kishi boshiga 1991 yildagi 12,4 kvadrat metr o'rniga o'rtacha 15,2 kvadrat metrga oshdi.

Uy-joy kommunal sohasining bugungi holatini tahlil qilish asosida zudlik bilan hal etilishi lozim bo'lgan qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Joylardagi ijro hokimiyati organlari xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari faoliyatini etarlicha muvofiqlashtirmayapti. Ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanish borasida kompleks yondashuvning yo'qligi aholiga sifatli va kafolatli kommunal xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirishga to'siq bo'lmoqda.

Ko'p xonadonli uy-joy fondini tegishli darajada saqlashni nazorat qilish tashkil etilmagan, ko'p hollarda uy-joy fondini texnik ekspluatatsiya qilish va unda aholining xavfsiz yashashi bo'yicha belgilangan talablar buzilishiga yo'l qo'yilmoqda. Bino va inshootlarni ta'mirlash-tiklash ishlarini bajarishga oid qoida va muddatlarga rioya etilmayapti, eski uylarni buzish bo'yicha ishlar olib borilmayapti, ko'p xonadonli uylarga tutash hududlarning holati sanitariya normalari, qoidalari va gigiena me'yorlariga to'liq javob bermaydi.

Aholi sifatli ichimlik suvi va markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti bilan etarli darajada ta'minlanmayapti.

Farmonga muvofiq, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi va uning tarkibida Qoraqalpog'iston Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, viloyatlar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmalari va Toshkent shahar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bosh boshqarmasi hamda uning tuman (shahar) bo'limlari tashkil etildi.

Quyidagilar davlat boshqaruv organi sifatida mazkur vazirlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi:

- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosati yuritish va idoralararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish;
- ko'p xonadonli arzon uy-joylar qurish davlat dasturlarining hayotga tatbiq etilishini ta'minlash, bunday uy-joylarni, suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti ob'ektlarini barpo etish bo'yicha buyurtmachi vazifasini bajarish, eski va avariya holatidagi uylarni buzishni tashkil etish;
- uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash, undan foydalanish va ekspluatatsiya xarajatlarini belgilash talablariga, ko'p xonadonli uylardan texnik foydalanish qoidalari va normalariga rioya etilishini nazorat qilish, ko'p xonadonli uylarga tutash hududlarni sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga muvofiq holatda saqlash;
- aholi punktlarini rivojlantirish sxemalari va bosh rejalari bilan bog'liq holda, suv ta'minoti hamda kanalizatsiya ob'ektlarini rivojlantirish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish dasturlarini ishlab chiqish hamda ularning sifatli amalga oshirilishini tashkil etish, soha tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni ta'minlash;
- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimiga resurs va energiya tejaydigan texnologiya hamda uskunalarni joriy etish, jumladan, uy-joy kommunal

xo‘jalik ob‘ektlarini zamonaviy hisobga olish-o‘lchash priborlari bilan ta‘minlash, qurilish-montaj ishlari tannarxini kamaytirish imkonini beradigan mamlakatimizda ishlab chiqarilgan zamonaviy, sifatli qurilish materiallari va buyumlaridan keng foydalanish;

- uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasiga oid me‘yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi hisobga olingan holda, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning zamonaviy shakl va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;
- Moliya vazirligi bilan kelishgan holda suv ta‘minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta‘minoti bo‘yicha xizmat ko‘rsatish, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi tashkilotlarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga doir kompleks tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan tarif siyosatini shakllantirish;
- uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi uchun kadrlar tayyorlash bo‘yicha takliflar kiritish, ularni, jumladan, xorijda o‘quv stajirovkalarini o‘tkazish orqali qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy mahsulotlar, idoraviy axborot tizimlari va ma‘lumotlar bazasini joriy etish.

SHuningdek, Vazirlik tarkibida Ko‘p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va Qoraqalpog‘iston, viloyatlar va Toshkent shahrida uning hududiy inspeksiyalari tashkil etildi.

Quyidagilarni nazorat qilish Inspeksiyaning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- ko‘p xonadonli uy-joy fondi va unga tutash hududlar tozaligini tegishli ravishda saqlash hamda ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishi, ko‘chmas mulk egalarining binolarni o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- umumiy foydalaniladigan joylar, fasadlar, uylar ichidagi muhandislik-kommunikatsiyalarni ta‘mirlash-tiklash ishlarini tizimli amalga oshirish qoidalariga rioya etish;
- uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlarining tegishli kommunal xizmatlar ko‘rsatishda texnik tartibga solish sohasiga oid me‘yoriy hujjatlar talablariga rioya etishi;
- ko‘chmas mulk egalarining ko‘p xonadonli uylarni kapital ta‘mirlash uchun to‘planadigan mablag‘idan maqsadli foydalanish.

SHuni ta‘kidlash kerakki, Farmonda vazirlik tarkibida Uy-joy kommunal xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish va uning mablag‘larini, birinchi navbatda, ko‘p xonadonli arzon uy-joy fondi, suv ta‘minoti, kanalizatsiya va issiqlik ta‘minoti ob‘ektlarini qurish, kapital hamda joriy ta‘mirlash, maxsus texnika va uskunalar, mashina va mexanizmlar bilan ta‘minlash hamda boshqa maqsadlarga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Uy-joy kommunal xo‘jaligini rivojlantirish uchun jalb etiladigan kreditlar, jumladan, xalqaro moliya institutlari va banklarning imtiyozli kreditlari, Ko‘p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan solinadigan jarimalardan tushgan mablag‘lar, ichimlik suvi ta‘minoti xizmatlari

uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hududiy moliya organlari bilan kelishgan holda belgilaydigan maxsus ustamalar, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar Jamg‘arma manbalari hisoblanadi.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birga, xizmat ko‘rsatuvchi banklarda suv ta‘minoti tashkilotlariga ichimlik suvi ta‘minoti xizmatlari tariflariga maxsus ustama mablag‘larini to‘plash uchun maxsus hisobraqam ochishni va Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligining Uy-joy kommunal xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasiga mablag‘lar yo‘naltirishini ta‘minlash ko‘zda tutilgan.

SHu bilan birga, Farmonda Qoraqalpog‘iston Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, viloyatlar hokimliklari uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmalari, Toshkent shahar uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bosh boshqarmasi huzurida «Ta‘mirlash-tiklash xizmati» davlat unitar korxonalari va ularning shahar va tuman filiallarini tashkil etish ko‘zda tutilgan. Tashkil etiladigan ushbu unitar korxonalar zimmasiga xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari yoki turar joy va noturarjoy inshootlari mulkdorlari bilan shartnoma asosida ko‘p xonadonli uy-joy fondi va unga tutash hududlardan foydalanish hamda ularni saqlash bo‘yicha tizimli ishlarni samarali tashkil qilish, ko‘p xonadonli uy-joy fondini mavsumiy foydalanishga o‘z vaqtida va sifatli tayyorlash, ko‘p xonadonli uy-joy fondini kapital va joriy ta‘mirlash hamda unga tutash hududlarni obodonlashtirish vazifalari yuklatilgan.

5.3. "Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi Prezident Farmonining mazmuni va ahamiyati

Respublika aholisining sifatli uy-joy kommunal xizmatlari bilan qamrab olinishini tubdan yaxshilash, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida barcha tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi uyg‘unlashgan texnologik zanjirini shakllantirish asosida uy-joy fondidan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, ko‘p xonadonli uylarning saqlanishi talablariga rioya etilishi ustidan texnik nazoratning samarali tizimini yaratish, shuningdek, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining ish sifatini oshirish va moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash maqsadida 2017 yil 18 aprelda “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi.

Aholining barcha qatlamlari turmush darajasi va jamiyatimizdagi ijtimoiy muhit muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan uy-joy kommunal sohasining samarali faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liq. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kommunal xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha zamonaviy bozorni shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Yaratilgan mustahkam me'yoriy-huquqiy bazaga muvofiq tarkibiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanishning mutlaqo yangi tizimini shakllantirish imkonini berdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 4 mingdan ziyod xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati 32,4 mingdan ortiq ko'p xonadonli uylarga xizmat ko'rsatmoqda. Uy-joylarni, avvalo, ipoteka krediti asosida qurish va rekonstruksiya qilish ko'lamini kengaytmoqda. Bu o'tgan davr mobaynida aholi nufusi muttasil o'sib borishiga qaramasdan aholini uy-joy bilan ta'minlash darajasini kishi boshiga 1991 yildagi 12,4 kvadrat metr o'rniga o'rtacha 15,2 kvadrat metrga etkazish imkonini berdi.

Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish maqsadida markazlashtirilgan davlat kapital qo'yilmalarini yo'naltirish va xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan taqdim etilayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali suv ta'minoti, kanalizatsiya va issiqlik ta'minoti tizimlarini rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

SHu bilan birga, uy-joy kommunal sohasining bugungi holatini tahlil qilish asosida zudlik bilan hal etilishi lozim bo'lgan qator muammolar mavjudligi aniqlandi.

Joylardagi ijro hokimiyati organlari xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari faoliyatini etarlicha muvofiqlashtirmayapti. Ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanish borasida kompleks yondashuvning yo'qligi aholiga sifatli va kafolatli kommunal xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirishga to'siq bo'lmoqda va uy-joy mulkdorlarining haqli e'tiroziga sabab bo'lmoqda.

Ko'p xonadonli uy-joy fondini tegishli darajada saqlashni nazorat qilish tashkil etilmagan, ko'p hollarda uy-joy fondini texnik ekspluatatsiya qilish va unda aholining xavfsiz yashashi bo'yicha belgilangan talablar buzilishiga yo'l qo'yilmoqda. Bino va inshootlarni ta'mirlash-tiklash ishlarini bajarishga oid qoida va muddatlarga rioya etilmayapti, eski uylarni buzish bo'yicha ishlar olib borilmayapti, ko'p xonadonli uylarga tutash hududlarning holati sanitariya normalari, qoidalar va gigiena me'yorlariga to'liq javob bermaydi.

Aholi sifatli ichimlik suvi va markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti bilan etarli darajada ta'minlanmayapti. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan yaqin hamkorlik asosida ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, ko'p xonadonli uylarni saqlash qoidalariga rioya etilishini texnik nazorat qilish bo'yicha samarali tizimni shakllantirish, aholiga sifatli uy-joy kommunal xizmatlari ko'rsatishni tubdan yaxshilash, shuningdek, uy-joy mulkdorlari shirkatlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi va uning tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi Uy-joy

kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, viloyatlar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmalari va Toshkent shahar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bosh boshqarmasi hamda uning tuman (shahar) bo'limlari tashkil etildi.

Quyidagilar davlat boshqaruv organi sifatida mazkur vazirlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi:

- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosati yuritish va idoralararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish;
- ko'p xonadonli arzon uy-joylar qurish davlat dasturlarining hayotga tatbiq etilishini ta'minlash, bunday uy-joylarni, suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti ob'ektlarini barpo etish bo'yicha buyurtmachi vazifasini bajarish, eski va avariya holatidagi uylarni buzishni tashkil etish;
- uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash, undan foydalanish va ekspluatatsiya xarajatlarini belgilash talablariga, ko'p xonadonli uylardan texnik foydalanish qoidalari va normalariga rioya etilishini nazorat qilish, ko'p xonadonli uylarga tutash hududlarni sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga muvofiq holatda saqlash;
- aholi punktlarini rivojlantirish sxemalari va bosh rejalari bilan bog'liq holda, suv ta'minoti hamda kanalizatsiya ob'ektlarini rivojlantirish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish dasturlarini ishlab chiqish hamda ularning sifatli amalga oshirilishini tashkil etish, soha tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni ta'minlash;
- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimiga resurs va energiya tejaydigan texnologiya hamda uskunalarni joriy etish, jumladan, uy-joy kommunal xo'jalik ob'ektlarini zamonaviy hisobga olish-o'lchash priborlari bilan ta'minlash, qurilish-montaj ishlari tannarxini kamaytirish imkonini beradigan mamlakatimizda ishlab chiqarilgan zamonaviy, sifatli qurilish materiallari va buyumlaridan keng foydalanish;
- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasiga oid me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi hisobga olingan holda, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishning zamonaviy shakl va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti bo'yicha xizmat ko'rsatish, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi tashkilotlarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga doir kompleks tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan tarif siyosatini shakllantirish;
- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha takliflar kiritish, ularni, jumladan, xorijda o'quv stajirovkalarini o'tkazish orqali qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy mahsulotlar, idoraviy axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasini joriy etish.

SHuningdek, Vazirlik tarkibida Ko'p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi,

viloyatlar va Toshkent shahrida uning hududiy inspeksiyalari tashkil etildi. Quyidagilarni nazorat qilish Inspeksiyaning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- ko'p xonadonli uy-joy fondi va unga tutash hududlar tozaligini tegishli ravishda saqlash hamda ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishi, ko'chmas mulk egalarining binolarni o'zboshimchalik bilan o'zgartirishiga yo'l qo'ymaslik;
- umumiy foydalaniladigan joylar, fasadlar, uylar ichidagi muhandislik-kommunikatsiyalarni ta'mirlash-tiklash ishlarini tizimli amalga oshirish qoidalariga rioya etish;
- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlarining tegishli kommunal xizmatlar ko'rsatishda texnik tartibga solish sohasiga oid me'yoriy hujjatlar talablariga rioya etishi;
- ko'chmas mulk egalarining ko'p xonadonli uylarni kapital ta'mirlash uchun to'planadigan mablag'idan maqsadli foydalanish.

SHuni ta'kidlash kerakki, Farmonda vazirlik tarkibida Uy-joy kommunal xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish va uning mablag'larini, birinchi navbatda, ko'p xonadonli arzon uy-joy fondi, suv ta'minoti, kanalizatsiya va issiqlik ta'minoti ob'ektlarini qurish, kapital hamda joriy ta'mirlash, maxsus texnika va uskunalar, mashina va mexanizmlar bilan ta'minlash hamda boshqa maqsadlarga yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Uy-joy kommunal xo'jaligini rivojlantirish uchun jalb etiladigan kreditlar, jumladan, xalqaro moliya institutlari va banklarning imtiyozli kreditlari, Ko'p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan solinadigan jarimalardan tushgan mablag'lar, ichimlik suvi ta'minoti xizmatlari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hududiy moliya organlari bilan kelishgan holda belgilaydigan maxsus ustamalar, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar Jamg'arma manbalari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birga, xizmat ko'rsatuvchi banklarda suv ta'minoti tashkilotlariga ichimlik suvi ta'minoti xizmatlari tariflariga maxsus ustama mablag'larini to'plash uchun maxsus hisobraqam ochishni va O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining Uy-joy kommunal xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasiga mablag'lar yo'naltirishini ta'minlash ko'zda tutilgan.

SHu bilan birga, Farmonda Qoraqalpog'iston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, viloyatlar hokimliklari uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmalari, Toshkent shahar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bosh boshqarmasi huzurida «Ta'mirlash-tiklash xizmati» davlat unitar korxonalari va ularning shahar va tuman filiallarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Tashkil etiladigan ushbu unitar korxonalar zimmasiga xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari yoki turar joy va noturarjoy inshootlari mulkdorlari bilan shartnoma asosida ko'p xonadonli uy-joy fondi va unga tutash hududlardan foydalanish hamda ularni saqlash bo'yicha tizimli ishlarni samarali tashkil qilish, ko'p

xonadonli uy-joy fondini mavsumiy foydalanishga o'z vaqtida va sifatli tayyorlash, ko'p xonadonli uy-joy fondini kapital va joriy ta'mirlash hamda unga tutash hududlarni obodonlashtirish vazifalari yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu Farmon va qarori amalga oshirilishi:

birinchidan – uy-joy kommunal xizmatining sifatini tubdan oshirish, maqbul narxlarni ta'minlash uchun uy-joy kommunal sohasini davlat tomonidan boshqarishning yagona tizimini shakllantirish maqsadida zarur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;

ikkinchidan – iste'molchilarga sifatli va kafolatli kommunal xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash maqsadida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish va muhandislik infratuzilma ob'ektlarini boshqarish hamda ulardan foydalanish borasida samarali hamkorlik uchun respublika va mahalliy darajadagi barcha boshqaruv bo'g'inlarining mas'uliyatini oshirish;

uchinchidan – arzon uy-joylar qurish, ko'p xonadonli uylarni rekonstruksiya qilish, suv ta'minoti, kanalizatsiya va issiqlik ta'minoti ob'ektlarini barpo etish hamda rekonstruksiya qilish sohasida maqsadli davlat dasturlarini amalga oshirish uchun mablag'larni maqsadli va ishonchli yo'naltirishni ta'minlaydigan kompleks tadbirlar ko'rish;

to'rtinchidan – ko'p xonadonli uylarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, ko'chmas mulk egalarining xonalarni o'zboshimchalik bilan o'zgartirishiga yo'l qo'ymaslik;

beshinchidan – ko'p xonadonli uy-joy fondidan sifatli foydalanish va ta'mirlash-tiklash ishlari o'tkazilishini ta'minlash;

oltinchidan – uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarish sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

ettinchidan – aholini zamonaviy va sifatli kommunal xizmatlar bilan ta'minlash darajasini oshirish imkonini beradi.

6-mavzu. Kommunal xo'jaligi tarkibi va kommunal xizmatlarni tashkil etish

- 6.1. Kommunal xo'jaligi tizimining tashkiliy tuzulishi va tarkibi
- 6.2. Uy-joy kommunal xo'jaligida suv ta'minoti va oqava quvur xizmati
- 6.3. O'zbekiston Respublikasida energetika tizimi va iste'molchilarga elektr energiyasi etkazib berish
- 6.4. Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish va etkazib berish
- 6.5. Uy-joy kommunal xo'jaligida tabiiy gazdan foydalanish va gaz ta'minoti tizimi
- 6.6. Kommunal xo'jaligi tizimida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish xizmatlari tarkibi va ularni tashkil etish

6.1. Kommunal xo‘jaligi tizimining tashkiliy tuzulishi va tarkibi

Kommunal xo‘jaligi ma’lum bir chegaraga ega bo‘lgan hududda (shahar, shaharcha, aholi yashash markazlari va boshqalar) shakllangan, ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalari yig‘indisidan tashkil topadi. Uning tarkibiga aholi, korxona va tashkilotlar hayotiy ehtiyojini qondiruvchi muhandislik tizimlari (suv ta’minoti va oqavasuv tizimi, issiqlik, elektr energiyasi, gaz ta’minoti tizimlari), turarjoy binolari hududida sanitariya va ozodalikni ta’minlash (hududni tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash, tashish va qayta ishlash), ta’mirlash, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish (bino va inshootlarni ta’mirlash, yo‘l va yo‘laklar qurish-ta’mirlash, hududni ko‘kalamzorlashtirish va boshqalar) xizmatlari kiradi.

Har bir shahar kommunal xo‘jaligining tarkibiy tuzulmasi o‘ziga xos, shahar xususiyatidan kelib chiqib har xil bo‘lib, uning tuzilishiga ko‘plab ko‘rsatkichlar ta’sir ko‘rsatadi. Kommunal xo‘jaligi tizimining tarkibiy tuzilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlar qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- iqtisodiy faktorlar (moliyaviy mablag‘lar mavjudligi va aylanish tezligi, hududning iqtisodiy mustaqillik darajasi, iqtisodiy boqimandalik ko‘rsatkichlari, resurslar va ishlab chiqariladigan mahsulotlarga sarflanadigan o‘rtacha mehnat sig‘imi va ularning tannarxi, soliqlar va mahalliy yig‘imlarning miqdori, aholining o‘rtacha daromadi, korxonalarining moliyaviy imkoniyatlari va to‘lov qobiliyatlari, aholining to‘lov qobiliyati, kommunal xizmatlar qiymatining aholining o‘rtacha daromadidagi ulushi va boshqalar);
- ijtimoiy faktorlar (hududning ijtimoiy tinchligi, mehnatga layoqatli aholi tarkibida ishsizlik darajasi, aholining ijtimoiy tarkibi, milliy xususiyatlari, ananalari, urf-odatlar va boshqalar);
- demografik holat (aholining zichligi, yashash sharoitiga moslashganligi ya’ni asosan ko‘p qavatli uylar yoki mahallalarda yashashga ko‘nikkanligi, yoshi va jinsi bo‘yicha tabaqalanishi, oilalar soni, oilalarda o‘rtacha farzandlar soni);
- ishlab chiqarishning rivojlanganligi (ishlab chiqarishning tarmoq tarkibi, ma’lum sohalarga yo‘naltirilganligi, transport tarmoqlarining mavjudligi, ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalarning rivojlanganligi va boshqalar);
- geografik shart-sharoit (shaharning hududiy joylashuvi, tabiiy-iqlim, hudud va shahar atrofida foydali qazilmalar va xomashyo boyliklarning joylashuvi, suv hovzalari va daryolarning mavjudligi va joylashuvi, hududning ko‘kalamzorlashganligi, tabiiy sharoit va boshqalar);
- ekologik muhit (atmosfera va suv havzalariga chiqarilayotgan konsentratlarning mumkin bo‘lgan me’yori, ishlab chiqarish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotga qo‘yiladigan ekologik talab, atrof-muhitning ifloslanganlik darajasi, ichimlik suvi zahirasi hamda sifati va boshqalar).

YUqorida sanab o‘tilgan faktorlar aniq olingan shaharga nisbatan o‘rganilganda ular faqatgina kommunal xo‘jaligi infratuzilmasi shakllanishiga

ta'sir ko'rsatib qolmay, balki uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini ham belgilaydi.

SHahar uy-joy kommunal xo'jaligi tizimining o'ziga xosligi shundaki, u bir vaqtning o'zida ko'pgina chegaralangan imkoniyatlar majmuini qoniqtirishi zarur. Birinchidan, kommunal xo'jaligining hamma tarkibiy tuzilmasi mahalliy shart-sharoit, shaharning hududiy kattaligi va joylashuvidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Ikkinchidan, amalga oshiriladigan xizmatlar va ishlab chiqariladigan tovarlar qurilishning texnik-iqtisodiy me'yorlari (QMQ), texnik va ekologik talablar bilan chegaralanadi, bu esa texnologiyaga qat'iy rioya etishni va muhandislik jihozlarini soz holda saqlanishini talab etadi. Uchinchidan, kommunal xo'jaligining rivojlanishi moliyaviy resurslarga bog'liq bo'lib, u o'z navbatida aholining to'lov intizomi hamda korxona va tashkilotlarda moliyaviy muhitning yaxshiligiga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z vaqtida to'lovning amalga oshirilmasligi tezda korxonaning ish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. O'z vaqtida muhandislik jihozlari, filtrlar, nasoslar yoki qozonxona jihozlarining almashtirilmasligi kommunal xo'jaligi korxonalarida mehnat samaradorligining pasayishiga, kommunal xizmatlar qiymatining oshib ketishiga va texnik avariya holatlarining yuzaga kelishiga olib keladi.

Zamonaviy shahar xo'jaligida uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi tarkibiga kiruvchi xizmatlar yildan yilga ko'payib borayotgan bo'lsada, kommunal xizmatlarning umumiy hajmida asosiy ulushni quyidagi xizmatlar tashkil etadi:

1. Suv ta'minoti va oqava-quvur xizmati;
2. Issiqlik energiyasi ta'minoti;
3. Gaz ta'minoti;
4. Elektr energiya ta'minoti;
5. Sanitariya va tozalikni ta'minlash xizmatlari;
6. Qattiq maishiy chiqindilarni tashish va qayta ishlash;
7. Muhandislik tizimlari va inshootlari (lift, havoni shamollatish - sovitish va boshqalar)ga xizmat ko'rsatish korxonalari;
8. Ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish.

Mazkur xizmatlarni ko'rsatuvchi korxonalarining iqtisodiyotning turli tarmoqlari tasarrufida ekanligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonining texnologik jihatidan bir-biriga mutlaqo o'xshash emasligi ularni ma'lum guruhlariga bo'lib iqtisodiy faoliyatini o'rganish imkonini bermaydi. SHu sababli kommunal xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda alohida-alohida o'rganish maqsadga muvofiq.

6.2. Uy-joy kommunal xo'jaligida suv ta'minoti va oqava quvur xizmati

Suv bu hayot manbaidir. Uy-joy xo'jaligini hamda korxona va tashkilotlarda ishlab chiqarish jarayonini suv ta'minotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Suv xo'jaligi tarkibiga suv yig'ish havzalari, suvni tindirish va tozalash inshootlari, nasos stansiyalari, artizan quduqlar, suv yig'ish minoralari, suv magistrallari, uzatish tarmoqlari kiradi. Suv ta'minotida ushbu vazifalarni nisbatan alohida funksiyalarni bajaruvchi mustaqil korxonalar amalga oshiradi. Ularning hamjihatlikdagi faoliyati uzluksiz suv ta'minotini amalga oshirish imkonini beradi.

Suv etkazish tarmog'ining asosiy ko'rsatkichi iste'molchilarga suv etkazishdir. Suv etkazish tarmog'ining ishlab chiqarish quvvati suv etkazishning me'yorlashtiruvchi elementlari-suv etkazib berish, birinchi va ikkinchi bosqich nasos stansiyalari faoliyatini ta'minlash, tozalash inshootlari va suv etkazish tarmog'ining mehnat udumdorligi bo'yicha aniqlanadi. Suv etkazish tarmog'ining quvvatini oshirish suvning hosilaviy tartibga solish, yangi tarmoqlarni ishga tushirish va ishlayotganlarining quvvatini ulardan foydalanish koeffitsientini oshirish evaziga ko'tarish, shuningdek alohida inshootlar quvvatidagi nomutanosiblikni yo'qotish hisobiga amalga oshiriladi.

Tarmoqqa etkazilayotgan suv miqdori suv etkazish tarmog'i quvvatini inobatga olib, shu quvvatdan foydalanish koeffitsienti va chetdan olinayotgan suv miqdori yordamida hisoblab chiqiladi. Iste'molchilarga etkazilayotgan suv miqdori is'temolga etkazib berilgan va texnik sabablarga ko'ra hisobga olinmagan suv sarfi (yo'qotishlar)ning miqdori bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich aholi va boshqa iste'molchilarning kommunal - maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun va alohida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish maqsadlari uchun korxonalarning spesifik xususiyatlari va sanoat mahsulotlarini chiqarish bo'yicha rejali topshiriqlarni hisobga olgan holda shartnomalar asosida rejalashtiriladi.

Aholi turarjoy binolarining suv ta'minoti tarmog'i bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichiga, uning quvvatidan tashqari ko'chalar bo'ylab yotqizilgan tarqatuvchi tarmoqlar kiritiladi.

Suv ta'minoti korxonalarining quvvati, joylashuvi va texnologik tarkibi quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- suv manbalari;
- suv sifati;
- iste'mol me'yori;
- suv iste'moli grafigi (rejimi).

Suv manbalari suvni olish usuliga ko'ra ikki turga: er ostidan va er ustidan suv olish manbalariga bo'linadi;

Suv sifati suvning asosiy iste'molga yaroqlilik ko'rsatkichi hisoblanib, u suvning tarkibidagi mineral elementlarning miqdori, kimyoviy birikmalari, rangi va hidi kabi ko'plab ko'rsatkichlar tashkil topadi.

Suvning iste'mol me'yori ma'lum bir hududda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha sutkalik suv sarfi bilan o'lchanadi. Hozirgi kunda respublikamizda odam boshiga bir sutkada 300-550 litrgacha suv sarflanadi.

Suv iste'moli grafigi har bir suv ta'minoti alohida tizim hosil qiluvchi hudud uchun qo'llanilib, u sutka davomida suv iste'moli miqdorining o'zgarishiga qarab tuziladi. Ishlab chiqarish korxonalarida va uy-joy xo'jaligida sutka davomida bir me'yorda suv iste'mol qilinmaydi. Suv iste'moli grafigida keltirilgan suv iste'molining hajmiga qarab uni etkazib berish me'yorlanadi.

Suv ta'minoti tizimining qurilishida uni loyihalashtirish jarayonida suv iste'moli hajmini to'liq rejalashtirish lozim. Suv iste'molining hajmini quyidagilar tashkil etadi:

- Suv ta'minoti korxonalarida xo'jalik iste'moli uchun ehtiyoj;
- Korxona va tashkilotlar xo'jalik faoliyati uchun ehtiyoj;
- Ko'cha va ko'klamzorlashtirish ishlari uchun ehtiyoj;
- Texnologik ehtiyoj;
- YOng'inga qarshi suv ta'minoti tizimlari ehtiyoji;
- Favqulotda holatlarda sarf-xarajatlar uchun (suv ta'minoti tizimidagi avariya va boshqa yo'qotishlar) ehtiyoji.

Odatda shaharlarda markaziy suv tarmoqlari yagona bo'lib, ular vazifasini vaqtincha bajaruvchi tarmoqlar bo'lmaydi. SHu sababli yagona suv ta'minoti tizimi barcha sanitar-gigienik talablarga javob berishi hamda shaharning 10-15 yillik istiqboldagi qurilishi va taraqqiyotini ham hisobga olgan bo'lishi lozim.

Hozirgi kunda er sharining barcha qit'alarida industrial shaharlar atrofidagi hududlar ekologik ifloslanib bormoqda. Bu esa er usti suv manbalaridan etkazib beriladigan suvni ortiqcha tozalash xarajatlarini keltirib chiqarmoqda. SHu sababli rivojlangan mamlakatlarda ko'proq er osti suv zahiralaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Masalan: suv tarmoqlari AQSHda 67%, Germaniyada 92% suvni er osti suv manbalaridan oladi.

Respublikamizda jami 120 ta shahar va 8544 ta qishloqlar, aholi yashash markazlari ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Ichimlik suvi tarmoqlarining uzunligi shaharlarda 16214 km. va qishloq joylarida 32000 km.dan ortiq. Aholiga kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun ichimlik suvi berishning o'rtacha yillik darajasi 1,8 mlrd.m³ ni tashkil etmoqda. Hozirgi kunda tarmoqlarning bir sutkalik quvvati 13562,1 ming. m³ bo'lib, buning 43 % qishloq joylariga to'g'ri keladi.

O'tgan asrning oxirlarida Orol mintaqasining ekologik inqirozi O'zbekiston Respublikasida ichimlik suv ta'minoti manbalarida hisobga olingan chuchuk suv zahiralarining 30 % ga yaqini ishdan chiqishiga olib keldi. Suv havzalariga sug'oriladigan erlardagi zovur suvlari, yaxshi tozalanmagan sanoat va kommunal-maishiy oqava suvlarning tashlanishi natijasida daryolarning o'rta hamda quyi oqimlari suv havzalarida minerallar ko'paydi, uning qattiqligi ortdi, u fenol va pestitsidlar bilan ifloslandi. Ushbu daryolar va sug'orish kanallari suvining sizib chiqishi hisobiga yuzaga keluvchi erosti suvlari tarkibida tuzlarning miqdori va suvning qattiqligi ortib ketdi.

Natijada Qoraqalopog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro hamda Navoiy viloyatlarida shuningdek, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining g'arbiy tumanlarida sifati O'zbekiston Respublikasi standartlariga javob beradigan mahalliy ichimlik suv ta'minoti manbalari deyarli yo'qolib ketdi. Bundan tashqari, respublikamizdagi Jizzax, Sirdaryo, Surxandaryo, Farg'ona va Toshkent viloyatlarining ayrim tumanlaridagi suvning sifati va qattiqligi yuqorida aytilgan viloyatlardagidan ham birmuncha yomondir.

O'zbekiston hududida chuchuk suv zahiralarining notekis taqsimlanganligi suv ta'minotini rivojlantirishning dunyodagi boshqa mamlakatlarda qo'llaniladigan an'anaviy usulidan farqliroq o'ziga xos usulini yaratish zaruratini keltirib chiqardi. Xususan, O'zbekistonda mahalliy suv ta'minoti manbalari bilan bir qatorda mintaqalararo suv ta'minoti usuli ham keng qo'llanilmoqda. Bu usul bir

manbadan sifatli ichimlik suvini magistral suv quvurlari tizimi orqali bir necha tuman, hatto bir necha viloyatlar aholisiga ichimlik suvini etkazib berishga asoslangan. Hozirda respublikamizda Tuyamo'yin-Nukus-Taxtak'o'pir-Qo'ng'iro't, Tuyamo'yin-Urganch-Mang'it, Damxo'ja-Navoyi-Buxoro, Dehqonobod-Guliston-YAngier, Xonobod-YAngier, Xonobod-Andijon, Uch-ko'rqon-Namangan, SHahrisabz-Qarshi-Muborak, Xojaipak-Termiz mintaqalararo suv quvurlari ishlab turibdi. Mazkur viloyatlar suv ta'minotining umumiy tizimida ushbu mintaqalararo suv quvurlarning ulushi 40% dan oshiqdir.

Oqova-quvur tarmog'i ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari, uy-joy fondi, kommunal, ijtimoiy va boshqa barcha turdagi binolar, inshootlardan maishiy foydalanilgan oqava suvlarni, shuningdek shahar yuza qatlamidan yog'ingarchilik va boshqa sabablarga ko'ra hosil bo'luvchi suvlarni hududdan chiqarishni ta'minlaydi va ularni tozalash, qayta ishlash vazifasini bajaradi.

Oqova-quvur tarmog'ining ishlashini asosiy ko'rsatkichlari: oqava suvlarni bosh kollektor orqali o'tkazish va ularni tozalovchi inshootlarda qayta ishlashdir. Kollektorlar va tozalovchi inshootlar orqali o'tkazilayotgan oqava suvlar miqdori har bir iste'molchi uchun ular foydalanayotgan suv miqdoriga teng deb qabul qilinadi. Suvdan xomashyo sifatida foydalanayotgan korxonalar uchun yoki suvni aylanish siklida ishlatuvchi korxonalar uchun oqava suvlar miqdori tarmoqqa chiqarilayotgan suv miqdorini hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Aholi turar joylari oqava-quvur tarmoqlari holati ko'rsatkichlariga, ko'chalarda yotqizilgan quvur uzunligiga ko'chalarninig umumiy soniga nisbatan foiz hisobida, suv o'tkazish qobiliyati oqava suv hajmiga nisbatan foiz hisobida, oqava suvlarni mexanik va to'liq biologik tozalanganligi kanalizatsiya tarmog'ining suv o'tkazish qobiliyatiga nisbatan qayta tozalangan suv miqdorining nisbati foiz hisobida belgilanadi.

Oqova-quvur xizmatini tashkil etishning texnik iqtisodiy murakkablik tomonlari shundan iboratki, har bir shaharda oqava quvur tarmog'i tuzilishi oqava suvlarning hosil bo'lish manbalaridan kelib chiqib turlicha bo'ladi.

Oqova suvlar hosil bo'lish manbalaridan kelib chiqib quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- Maishiy (xo'jalik) oqava suvlari;
- Ishlab chiqarish jarayoni (texnologik jarayonlarga bog'liq bo'lgan, tarkibi murakkab, zaharli) oqava suvlari;
- Atmosfera orqali keluvchi (yog'ingarchiliklar) oqava suvlar.

Oqova-quvur tarmog'i tizimini tanlashda albatta har bir hududning mahalliy shart-sharoiti (relef tuzilishi va geodezik ko'rsatkichlar) maksimal darajada hisobga olinishi shart. Tizimning samarali faoliyati o'z navbatida, oqava suvlarni tozalash inshootlarini joylashuvi, quvvati, suv havzalarining joylashishi, oqava suvlarni tabiiy kamayish ko'rsatkichi va chiqitga chiqariladigan hajmiga bog'liq. Asosan oqava-quvur tizimi suv ta'minoti tizimiga teskari joylashadi, ya'ni suv ta'minoti tizimi hududning er reliefi baland tomonidan boshlanib pastga tomon yo'naltirilsa, oqava quvur tizimi relefnig pastki tomoniga to'planib boradi.

Katta va industrial shaharlarda qo'shimcha oqava-quvur tarmog'i tashkil etiladi. Qo'shimcha oqava quvur tarmog'i to'liq va qisman parallel yoki qisman

maxsus (shaharning ishlab chiqarish kuchlari joylashgan qismida) o'tkazilgan bo'lishi mumkin. Parallel quvur o'tkazishdan maqsad oqava suvlarni murakkablik darajasidan kelib chiqib alohida ajratishdir. Asosan ishlab chiqarish korxonalarining chiqindilari texnologik jihatdan murakkab, ularni qayta ishlash va tozalash alohida murakkab texnologiyalarni talab etadi. O'ta murakkab oqava suvi chiqaruvchi korxonalar alohida yopiq tozalash tizimiga ega bo'lishlari talab etiladi.

Ishlab chiqarish va maishiy oqava suvlarni aralash holda yagona quvurdan chiqarish iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi. Bunday oqava suvlarni ham biologik ham kimyoviy qayta ishlab, tozalangan suvdan texnik suv sifatida, ishlab chiqarish jarayonida foydalansa bo'ladi.

Hozirgi kunda dunyodagi ko'pgina mamlakatlarda sanoatning jadal rivojlanib borayotganligi, shaharlar hududini kengayib borayotganligi sababli oqava-quvur xo'jaligining quvvati o'sib borayotgan talabga to'la javob bermayapti. Natijada shaharlar atrofidagi ekologik muhitga sezilarli zarar etkazilmoqda.

Nazariy qaraganda ichimlik suvi ta'minotini rivojlantirish bilan bir qatorda oqava suvi tarmoqlarini rivojlantirish, mavjud inshootlar quvvatlarini oshirish va ochiq hovzalarga tashlanayotgan oqava suvlar sifatini oshirish masalalarini hal etish lozim.

Hozirgi kunda oqava quvur xizmati ko'rsatuvchi korxonalari hamda atrof muhitni muhofaza qilish organlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri oqava suvni asosan biologik usulda tozalash mo'ljallangan kommunal oqava suv tozalash inshootlariga sanoat oqava suvlarini tashlagani uchun sanoat korxonalaridan haq olishni joriy etish. Ayni paytda, bir vaqtni o'zida, sanoat oqava suvlarini kommunal oqava suv tozalash inshootlariga tashlash va tozalash ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda mavjud tozalash inshootlarini zamon talablariga moslashtirish masalalarini ham hal qilish zarur.

Respublika bo'yicha oqava suv tozalash inshootlarining quvvati sutkasiga 4493.7 mln m³ ni tashkil etadi, bundan 94,3% shaharlarga to'g'ri keladi. Hamon tozalash inshootlarining sutkalik tozalash quvvatlari Jizzax viloyatida 69,2 ming m³ ni, Qashqadaryoda 59 ming m³ ni, Surxondaryoda 48,2 ming m³ ni, Sirdaryoda 71,5 ming m³ ni va Qoraqolpog'iston Respublikasida 87,6 ming m³ ni tashkil etib pastligicha qolmoqda. Tarmoqlarning umumiy uzunligi 4314.7 km ga etdi. Tozalash inshootlari orqali oqava suvlarning o'rtacha yillik o'tkazilishi 835 mln. m³ ni tashkil etadi.

Toshkent shahrida oqava quvurlar uzunligi 1539,1 km.dan ortiq bo'lib oqava suvlarni qayta ishlash inshootlari quvvati bir sutkada 1945 ming m³ ni tashkil etadi. Oqova-quvur tarmoqlarining respublikamiz bo'yicha eskirish darajasi 31% ni, Toshkent shahrida esa 22%ni tashkil etadi. Oqova suvlarni qayta ishlash inshootlarining eskirish darajasi quvurlarnikiga nisbatan yuqori bo'lib, yaqin kelajakda mazkur sohaga qo'shimcha investitsiyalar kiritishni talab etadi.

6.3. O'zbekiston Respublikasida energetika tizimi va iste'molchilarga elektr energiyasi etkazib berish

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab energetika mustaqilligiga erishish ustuvor vazifalardan biri qilib belgilandi. Mamlakatimizda

energiya ishlab chiqarish manbalari faoliyati samaradorligini oshirish, energetika tarmog'ini korxonalarini monopoliyadan chiqarish, xususiyashtirish va aksiyalashtirish jarayonlarini yanada rivojlantirish, elektr energetikasi tizimida boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish, elektr energetikasi va ko'mir sanoati korxonalarini rivojlantirish, texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish uchun investitsiyalarni, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish maqsadida Respublika Hukumatining ko'plab qonuniy-me'yoriy hujjatlari qabul qilindi.

Energetika sohasida bozor islohotlarini chuqurlashtirish, energetika tarmoqlari korxonalarini boshqarishni takomillashtirish va ularning ish samaradorligini oshirish hamda shu asosda mamlakat energetika tizimining barqaror ishlashini ta'minlash, iqtisodiyot va aholining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 22 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi energetikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish to'g'risida"gi PF-2812 sonli Farmoniga hamda Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 24 fevraldagi "O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 93-sonli Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi energetika va elektrlashtirish vazirligi tugatilib, uning tarkibiy bo'linmalari negizida ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi "O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi "O'zbekenergo" DAK tashkil etildi va uning tarkibiga mustaqil yuridik shaxs huquqlari bilan "Ko'mir" aksiyadorlik birlashmasi kiritildi.

"O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tuzilmasida elektr energiyasi uzatish bo'yicha yuqori kuchlanishli tarmoqlar sho'ba korxonasi "O'zelektrtarmoq" tashkil etildi.

"O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining elektr energiyasini taqsimlash va sotish bo'yicha mintaqaviy sho'ba korxonalari tashkil etildi.

Respublikada energetika korxonalarini monopoliyadan va davlat tasarrufidan chiqarish hamda aksiyalashtirish pirovardida quyidagilar energetika sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlari deb belgilandi:

- energetika tarmoqlarini monopoliyadan chiqarish tadbirlarini izchil amalga oshirish, davlat tomonidan tartibga solish darajasini pasaytirish, elektr energiyasini sotish sohasida raqobat muhitini yaratish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning elektr uzatish liniyalariga bog'lanishlari uchun teng imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratish;
- energetika tarmog'ining yirik korxonalari - issiqlik elektr stansiyalari, markazlashtirilgan issiqlik-elektr qurilmalari, elektr tarmoqlari korxonalari va boshqalarni bosqichma-bosqich aksiyalashtirish;
- ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini, loyihalash, qurilish-montaj va tuzatish ishlarini olib boruvchi korxonalar va tashkilotlarni jadal sur'atlarda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, ular negizida mulkchilikning nodavlat shakllaridagi korxonalar, shu jumladan xususiy korxonalar tashkil etish;

- energetika korxonalarini aksiyalashtirish, ishlab chiqaruvchi quvvatlar va elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish jarayonlariga chet el investitsiyalarini keng jalb qilish;
- elektr ishlab chiqarish, uni uzatish va sotish bo'yicha boshqaruv tizimiga va xo'jalik aloqalariga bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish;
- energetika quvvatlari va ko'mir sanoatining o'zaro bog'liq va mutanosib rivojlanishini ta'minlash maqsad qilib qo'yildi.

Respublikamizdagi issiqlik elektr stansiyalari, issiqlik elektr markazlari, elektr tarmoqlarining viloyat korxonalari aksiyalarning nazorat paketini "O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasida saqlagan holda bosqichma-bosqich aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi.

Mamlakatimizning energetika siyosati "O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan amalga oshirilib, uning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- respublika iqtisodiyoti va aholisini elektr energiyasi bilan barqaror ta'minlash, respublika energetika tizimi ish rejimlarini boshqarish va muvofiqlashtirish;
- elektr energetikasi va ko'mir sanoatini rivojlantirishning qisqa muddatli va uzoq muddatli prognozlarini hamda maqsadli dasturlarini ishlab chiqish, elektr energiyasi va ko'mir ishlab chiqarish va iste'mol qilish balanslarini shakllantirish;
- ishlab chiqaruvchi quvvatlar va elektr tarmoqlarini, ko'mir sanoati korxonalarini zamonaviy asbob-uskunalar va ilg'or texnologiyalar asosida, shu jumladan xorijiy investitsiyalar hisobiga rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish, texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish;
- ko'mir qazib olish bo'yicha geologiya-razvedka ishlarini muvofiqlashtirish, ko'mir konlarini ochish va ko'mir qazib olishning samarali tizimlari va usullarini joriy etish, uni ishlab chiqarishni kengaytirish hamda elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarishda undan ustun darajada foydalanish, energiyaning qayta tiklanadigan, shu jumladan noan'anaviy manbalarini rivojlantirish va joriy etish;
- respublika korxonalari va tashkilotlari bilan birgalikda elektr energiyasi va ko'mirni tejash, ulardan oqilona foydalanish va nobudgarchilikni kamaytirish chora-tadbirlari ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etish.

Respublikada energiya ta'minoti va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish va nazorat qilish maqsadida Respublika elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat agentligi ("O'zdevenergonazorat" agentligi) tashkil etildi va unga quyidagi asosiy vazifalarni bajarish yuklatildi:

- elektr energiyasi va ko'mir ishlab chiqarish, tashish va iste'mol qilish sohasidagi normativ hujjatlar va qoidalarni ishlab chiqish, tasdiqlash hamda ularning bajarilishini nazorat qilish;
- elektr energiyasi va ko'mir ishlab chiqarish, tashishda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va ularning amalga oshirilishini tashkil etish;

- loyihalarni ekspertizadan o'tkazishda hamda elektr energiyasi ishlab chiqarish, tashish va iste'mol qilish xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangidan qurilgan ob'ektlarni qabul qilish ishlarida qatnashish;
- yagona elektr tizimiga ulanadigan doimiy elektr stansiyalarida elektr energiyasi ishlab chiqarishni belgilangan tartibda litsenziyalash ishini tashkil etish.

Respublikamizda yuqori quvvatli elektr energiyasi magistrallari "O'zelektrtarmoq" korxonasi balansida bo'lib, elektr energiyasini taqsimlash quvvati 35 - 110 kilovoltgacha bo'lgan taqsimlash tarmoqlari mintaqaviy korxonalar balansiga berildi va elektr energiyasini iste'molchilarga shartnomalar asosida sotish ular orqali amalga oshiriladigan bo'ldi.

Respublikamizda uy-joy kommunal xo'jaligi tizimini elektr energiyasi bilan ta'minlash elektr energiyasini taqsimlash mintaqaviy (rayon, shahar) korxonalari tomonidan amalga oshiriladi. elektr energiyasi bilan ta'minlovchi tashkilotlarning elektr energiyasi istemchilari bilan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 16 iyundagi 271-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalariga" asosan tashkil etiladi. Mazkur qoidaga ko'ra iste'molchilarga elektr energiyasi etkazib berishni tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- Sanoat mahsuloti turi sifatida elektr energiyasi berish energiya bilan ta'minlovchi tashkilot bilan energiya qurilmasi energiya bilan ta'minlovchi tashkilotning tarmoqlariga bevosita ulangan iste'molchi (abonent) o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalariga" muvofiq amalga oshiriladi. Namunaviy shartnomalar shakllari O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqiladi va belgilangan tartibda elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat agentligi ("O'zdavenergonazorat" agentligi) tomonidan tasdiqlanadi.

Subabonentlar abonent bilan elektr energiyasidan foydalanish uchun shartnomani energiya bilan ta'minlovchi tashkilotning roziligiga ko'ra tuzadilar.

- Energiya bilan ta'minlovchi tashkilotlarga, iste'molchida hisobga olishning ko'ptarifli priborlari mavjud bo'lgan taqdirda, elektr energiyasiga tariflarni sutka vaqti zonalari (tig'iz soatlar, yarim tig'iz soatlar, tungi nagruzka) va yil fasllari (yozgi va qishki davr) bo'yicha tabaqalashtirish huquqi beriladi.

Iste'molchi tomonidan foydalanilgan elektr energiyasini hisobga olish uchun "O'zstandart" agentligi yoki uning o'lchov vositasi turini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasining sertifikatiga ega bo'lgan hududiy bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda elektr energiyasini har bir sutkaning kamida to'rtta vaqti davri bo'yicha alohida hisobga olish imkonini beradigan ko'p tarifli hisoblashlar yoki hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimlari qo'llanilishi mumkin.

- Energiyaga tarif o'zgargan taqdirda, sanasidan qat'iy nazar, shartnoma o'z kuchida qoladi va iste'molchi olingan energiya uchun yangi tarif joriy etilgan kundan boshlab xaq to'lashga majburdir.

- Tomonlar shartnoma tuzish, uni o'zgartirish, bekor qilish yoki uning muddatini uzaytirish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlariga va "Elektr energiyasidan foydalanish qoidolari"ga amal qiladi.

- YAngi energiya qurilmalarini foydalanishga topshirish va yangi subabonentlarni ulash energiya qurilmasini foydalanishga yo'l qo'yish "O'zdavenergonazorat" agentligi bilan kelishilgandan keyin energiya bilan ta'minlovchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

- Energiyani qayta sotuvchi yoki o'z tarmoqlari orqali beruvchi tashkilotlar (ulgurji iste'molchilar - qayta sotuvchilar, blok-stansiyalar, abonentlar) oxirgi yillarda energiyaning o'rtacha iste'moli tahlili asosida aniqlanadigan o'z elektr tarmoqlariga ulangan boshqa ob'ektlarning energiya iste'molini hisobga olgan holda energiyaning umumiy (yig'ma) miqdori yuzasidan energiya bilan ta'minlovchi tashkilot bilan shartnoma tuzadilar.

- Iste'molchi (aholidan tashqari) o'ziga tegishli tarmoqlarga ruxsat berilgan quvvat doirasida 1000 Voltgacha kuchlanishli o'z elektr uskunalarini birlashtirishi mumkin (binoni elektr bilan isitish va reklamadan tashqari).

- Energiyani qayta sotuvchi tashkilotlarning energiya bilan ta'minlovchi tashkilot va qayta sotuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlari "Elektr energiyasidan foydalanish qoidolari" va ular o'rtasida energiya berish uchun tuzilgan shartnoma bilan tartibga solinadi.

- Energiya bilan ta'minlovchi tashkilot abonentga (aholidan tashqari) energiyani birlashtirilgan tarmoq orqali energiya ta'minoti shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va tomonlar o'zaro kelishgan energiya berish rejimiga rioya qilgan holda berishga majburdir, Iste'molchi "O'zdavenergonazorat" agentligi tomonidan energiyadan nooqilona foydalangan (imzolangan dalolatnomaga muvofiq), energiyani tejash bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlar rejasini bajarmagan taqdirda, energiya bilan ta'minlovchi tashkilot energiyadan nooqilona foydalanishning aniqlanish holatlaridan kelib chiqib energiya iste'molining shartnomaviy miqdorini kamaytirishga haqlidir.

- Energiya bilan ta'minlovchi tashkilot tizimidagi avariylarning oldini olish va ularni tugatish yoki odamlarning xavfsizligini ta'minlash ishlari bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lganda va foydalanilgan energiya uchun haq to'lanmaganda iste'molchi bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan, biroq uni darhol xabardor qilgan holda energiya berishda tanaffusga yoki cheklashga yo'l qo'yiladi.

- Ob'ektning elektr ta'minoti loyihasida nazarda tutilgan elektr ta'minotining o'zaro zahiralanuvchi manbalari ishida yoki asosiy ta'minotni takroran avtomatik ta'minlashda avtomatik ishga tushirish paytida elektr energiyasini uzib qo'yish (sabablaridan qat'i nazar) elektr ta'minotidagi tanaffus hisoblanmaydi.

- Iste'molchilarning elektr qurilmalari ustidan davlat nazorati qonun hujjatlariga muvofiq "O'zdavenergonazorat" agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

- Elektr energiyasi isrof qilib sarflanganligi va iste'molchining avariya xavfi tug'diradigan yoki odamlarning hayotiga xavf soladigan energiya qurilmalarining qoniqarsiz texnik holati uchun "O'zdavenergonazorat" agentligi energiya berishni to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

- Maxsus qoidalar bo'yicha foydalaniladigan elektr qurilmalari ustidan energetika nazorati amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

- Davlat energetika nazorati amalga oshirilishi abonentlarni foydalanilayotgan energetika tarmoqlari, priborlar va asbob-uskunalarining zarur texnik holati va xavfsizligi ta'minlanishi, energiya iste'molining belgilangan rejimiga rioya qilinishi uchun javobgarlikdan, shuningdek energiyadan foydalanish paytida paydo bo'ladigan avariylar, yong'inlar, energiyani hisobga olish priborlarining nosozliklari va boshqa qoidabuzishlar to'g'risida energiya bilan ta'minlovchi tashkilotlarni darhol xabardor qilish majburiyatidan ozod qilmaydi.

- Energetika tarmoqlari, priborlar va asbob-uskunalarining texnik holatiga va ulardan foydalanishga nisbatan qo'yiladigan talablar, shuningdek, ularga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi qonun hujjatlari va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

- Ushbu Qoidalar buzilganligi uchun javobgarlik "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Fuqarolik kodeksiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq energiya bilan ta'minlovchi tashkilot bilan iste'molchi o'rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Uy-joy fondida elektr energiyasini iste'mol qilishning asosiy turlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Turar joy binolarini yoritish; mayda maishiy va kichik motorli nagruzkalar; ovqat tayyorlash; turar joylarda havoni konditsionerlashtirish.

2. Uy-joylar, kvartiralarini yoritish.

Turar joylarda, kvartiralarda uy-joylar va qo'shimcha joylarni yoritishga elektr energiyasining yillik sarfi oila hisobiga (kompensatsiyalar uchun) quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- 1 kv. m. maydonda nur manbaining quvvatiga;

bir yilda chiroqlarning yonib turish soatlari miqdoriga;

ular ishining bir vaqtdaligi koeffitsientiga.

3. Mayda maishiy va mayda motorli nagruзка.

Iste'molning ushbu turi bo'yicha elektr energiyasining yillik sarfi ro'zg'or elektr priborlari va madaniy-axborot maqsadidagi priborlarning bir oila hisobiga eng kam zarur o'rtacha yillik miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

4. elektr energiyasidan imtiyozli tarif bo'yicha foydalanadigan aholi uchun uni iste'mol qilish normasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

6.4. Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish va etkazib berish

Energiya resurslari - issiqlik energiyasi, elektroenergiya va tabiiy gaz qiymati kommunal xizmatlar tannarxining asosiy qismini tashkil etadi. Respublikamizda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida etkazib berilayotgan issiqlik energiyasining qiymati umumiy kommunal xizmatlari qiymatining 35-40 foizini tashkil etmoqda.

Issiqlik energiyasi ta'minotida issiqlik ta'minoti tizimini yuqori sifatli qilib loyihalashtirish, qurish va ishlatish orqali ishlab chiqarish xarajatlari va yoqilg'ini maksimal darajada tejashga erishish mumkin. Ammo hozirgi kunda issiqlik energiyasi ishlab chiqarish xarajatlari tizimning texnik iqtisodiy asoslari va loyiha quvvatida belgilangan ko'rsatkichga nisbatan 25-30 % ga ko'p sarflanmoqda. Tizimda me'yordan ortiq sarf-xarajatlarga yo'l qo'yilishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- qozonxonalarning foydalilik koeffitsientining belgilanganidan past ko'rsatkichlarda ishlatilmoqda. Bunga asosan tarmoqda eski texnologiyalar asosida, sobiq ittifoq davrida ishlab chiqarilgan, yoqilg'i iste'mol qilish darajasi yuqori bo'lgan qozonxona uskunalaridan foydalanilayotganligi, ularning eskirish darajasi yuqoriligi va texnik nuqsonlar mavjudligi sabab bo'lmoqda;
- quvur va uzatish jihozlarining himoya qobig'i (izolyasiya) bilan qoplash ishlarining sifatsiz bajarilganligi va texnologik xatolarga yo'l qo'yilganligi sababli uzatish tarmoqlarida issiqlik energiyasini me'yorga nisbatan ko'p yo'qotilishiga yo'l qo'yilishi;
- isitish tizimida uylarni bir maromda issiqlik bilan ta'minlash balansining buzilishi. Binolarda isitish tizimini kapital va joriy ta'mirlash jarayonlarida loyihada belgilangan quvvatini ta'minlovchi o'tkazgich va jihozlarni kattaroqlariga almashtirish;
- issiq suvdan tejamkorlik bilan foydalanmaslik. Issiq suv haroratining me'yorga nisbatan pastligi, uzatish tizimlarining etarli darajada issiqlikni chiqarmaydigan himoya qobig'i bilan qoplanmaganligi sababli uzatish tizimidagi suvning sovib qolishi va iste'molchilarning issiq suvdan foydalanishda suvni etarli haroratga etgunga qadar oqizib qo'yishlari.
- binolar devorlari hamda jihozlarining (deraza romlari, eshiklar) eskirishi tufayli issiqlikni ushlab qolish qobiliyatining pasayishi;
- shamollatish jihozlarining eskirishi oqibatida xonaga kiruvchi sovuq havoni isitish uchun me'yordan ortiqcha energiya yo'qotish;
- turarjoy hududida faoliyat ko'rsatayotgan isitish tizimiga yangi qurilgan binolarni ulanishi, tizimning loyiha quvvatidan ortiqcha iste'molchilarga xizmat ko'rsatishi va boshqalar.

O'tgan asrning 90 yillariga qadar markazlashgan qozonxona orqali binolarni isitish tizimi eng samarali texnologiya hisoblangan. Bu tizimning samarali tomonlari: ishlab chiqarilgan issiqlik tannarxining arzonligi, har xil turdagi va turli sifat ko'rsatkichiga ega bo'lgan yoqilg'ilardan foydalanishga moslashganligi, yoqilg'ini markazlashgan holda bir manzilga etkazib berilishi, ishlab chiqarish va omborxona binolari hajmining chegaralanganligi, ishchi-xodimlar sonining

kamligi, yong'in xavfsizligi choralarining yuqoriligi hisoblangan. Ammo markazlashgan qozonxona tizimining o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud bo'lib hozirgi kunda ularni hisobga olmaslikning iloji yo'q. Bunday kamchiliklar qatoriga issiqlik ta'minoti tizimining katta hududni qamrab olishi va o'nlab kilometr uzunlikdagi issiqlik trassalarini ekspluatatsiya qilish xarajatlarining yuqoriligi, issiq suv uzatish tizimida to'rt yo'lakli (isitish tizimi uchun issiqlik uzatuvchi, iste'molchilarga issiq suv uzatuvchi va ulardan qozonxonalarga qaytuvchi) quvurlardan foydalanishda ko'p sonli nasoslardan foydalangan holda katta bosim ostida uzatish, texnik nazorat qilish, uzluksiz faoliyatini ta'minlash va ta'mirlash xarajatlarining kattaligi issiqlik quvvati tannarxining oshib ketishiga olib keladi.

Hozirgi kun amaliyoti katta hajmli qozonxonalardan foydalanish har doim ham samarali emasligini ko'rsatmoqda. Barcha sohalar kabi issiqlik ta'minotida ham zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, uzoq masofada joylashgan turarjoylarni isitishda lokal tarmoqlardan foydalanish katta samara bermoqda.

So'nggi yillarda shaharlardagi xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga tegishli bir yoki bir nechta turarjoy binolari uchun alohida kichik qozonxonalardan foydalanish amaliyotga qo'llanilmoqda. Albatta, bunday lokal isitish tizimiga o'tishdan oldin texnik-iqtisodiy imkoniyatlarni tahlil qilib ko'rish va real iqtisodiy samara berishiga ishonch hosil qilish lozim. Maxsus muhandislik-loyihalash xizmati tomonidan tahlil qilinmagan isitish tizimi doimo yuqori iqtisodiy samara beradi degan xulosaga kelish qiyin. Birinchidan, lokal tarmoq asosan gaz va elektr energiyasi quvvatida ishlaydi. SHahar hududidagi barcha turarjoylarda bunday yoqilg'i tarmog'i mavjud emas, ikkinchidan turarjoy binosining joylashgan hududidan kelib chiqib havoga chiqariladigan tutunlar ekologiyaga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Binolarni isitishda qanday tizimidan foydalanishdan qat'iy nazar yoqilg'ini iqtisod qiluvchi va foydalilik ko'effitsenti yuqori bo'lgan (yoqilg'ini yonish jarayonida hosil bo'layotgan issiqlikni maksimal darajada isitish tizimidagi suvga o'tkazib beruvchi) qozonxonalardan foydalanishgina issiqlik quvvati tannarxini arzonlashishiga olib keladi.

Respublika bo'yicha shahar aholisi taxminan 14435,9 ming Gkal issiqlik energiyasini ishlatadi, bu ko'rsatgichning asosiy ulushi Toshkent shahriga 8083,3 ming Gkal to'g'ri keladi. Ishlab chiqariladigan issiqlik energiyasining bir kishi hisobiga to'g'ri keladigan miqdori 1.6 Gkal ga, Toshkent shahri bo'yicha esa 3,8 Gkal ga tengdir.

Kommunal xo'jaligi tizimida energiyadan samarali foydalanishni joriy etish masalasiga Respublikamiz Hukumati tomonidan alohida e'tibor qaratilib kelmoqda va sohaga energiyani tejovchi texnologiyalarni joriy etish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 5 noyabrdagi "Kommunal xo'jaligida energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 241-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 17 yanvardagi "Respublika budjetidan va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan korxonalar va tashkilotlarning ma'naviy eskirgan va tejamsiz bug' qozoni agregatlarini 2007-

2008 yillarda respublika mintaqalari bo'yicha almashtirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 7-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 3 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi uy-joy fondini sovuq va issiq suv hisoblagich asbob-uskunalar bilan jihozlash, investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-553 sonli Qarorlari aynan shu dolzarb masalani hal etishga qaratilgan.

Amalga oshirilayotgan mazkur tadbirlarning pirovard maqsadi uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida energiyani tejash, ya'ni energiya resurslari va suvni ishlab chiqarish, uzatish hamda iste'mol xarajatlarini kamaytirish va shuning hisobiga tarmoqniig zarar ko'rmasdan ishlashga o'tish shartlarini aholi uchun yumshatishdir ya'ni narxini arzonlashtirishdir. Ushbu vazifani hal qilish maqsadida Respublikamizda 2010 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan energiyani tejash dasturi ishlab chiqildi. Dastlabki tadqiqotlar va ayrim mintaqalar monitoringi respublikamizning bir qator mintaqalarida resurslarni tejash imkoniyatlari: issiqlik bo'yicha 30-60 %, ichimlik suvi bo'yicha 20-40 %, gaz bo'yicha 10-30 % ni tashkil etishini ko'rsatdi.

Energiya resurslarini tejashga oid eng maqbul takliflar ushbulardan iborat: ishlab turgan qozonxonalar va nasos stansiyalarini zamonaviylashtirib, ularga foydali ishlash koeffitsienti (FIK) 92 % dan kam bo'lmagan yuqori unumli uskunalar o'rnatish; noan'anaviy energiya manbalari (issiqlik nasoslari, biogaz, geotermal suv, quyosh energiyasi, shamol energiyasi va boshqalar)dan foydalanish; uy-joy fondida foydalanilayotgan binolarning devor panellarini penopoliuritan purkash yo'li bilan sovuq o'tkazmaydigan qilish; tomlar, erto'lalar va zina xonalarining muzlab qolish sabablarini izlab topish hamda sovuq o'tkazmaydigan qilish; issiqlik nobudgarchiligini 2-3 barobar kamaytirish imkonini beruvchi penopoliuretan qoplamali quvurlardan foydalanib yangi issiqlik magistrallari yotqizish yoki eskilarini to'liq tamirlash; binolarning tashqi devor to'sinlarini qattiq plitalar va egiluvchan matolar yordamida sovuq o'tkazmaydigan qilish; deraza va eshiklarni yangilash natijada issiqlik energiyasi 20-40 % tejaladi; ichiga metall qoplangan plastmassa quvurlardan foydalanib yangi ichimlik suvi tarmoqlari qurish yoki eskilarini to'liq tamirlash resurslarni 40 % gacha tejaydi; issiqlik va gazdan foydalanish hisoblagichlarini o'rnatish, issiqlik ta'minoti tizimlarini tejimli boshqarish usullariga o'tkazish, jahon sifat talablariga javob beruvchi zamonaviy gaz uskunalaridan foydalanish, bu esa o'z navbatida 40 % gacha tabiiy gazni tejash imkonini beradi.

Ushbu energiya resurslarini tejash tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashni uy-joy egalarining to'lovlari bilan bir qatorda, kutilayotgan resurslar iqtisodi hisobidan, bevosita chet el sarmoyalari, tijorat banklarining imtiyozli kreditlari evaziga amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Energiyani tejash va energiyani iste'mol qilish jarayonida qatnashuvchi barcha ishtirokchilarning asosiy vazifasi resurslarga bo'lgan talabni boshqarishning hamma mexanizmlaridan har tomonlama foydalanishdan hamda energiya resurslarining tejalishini rag'batlantirishdan iborat. Bunda ommaviy axborot vositalari, radio, televidenie, energiya va resurslar iste'molchilari katta rol o'ynashlari kerak.

Kelgusidagi uy-joy kommunal xizmatlarga bo'lgan talabni aniqlash uchun mavjud quvvatlar va moddiy bazadan foydalanish samaradorligini, shuningdek, uy-joy kommunal xo'jalik xizmatlari foydalanuvchilari ehtiyojlariga qanchalik to'liq javob berishini ko'rib chiqish zarur.

Har bir tarmoqda o'zining muammolari bo'lishiga qaramay, tizimda umumiy tushdagi qiyinchiliklar mavjud - bu qiyinchiliklarga tarmoqda ishning yomon tashkil etilishini, xizmat ko'rsatish saviyasi pastligini, mablag' bilan taminlash manbalaridan o'ta bog'liqlikni, iste'molchilar talablari bilan etarlicha hisoblashmaslikni, shuningdek atrof-muhitga munosabatda mas'uliyatning etarli emasligini keltirish mumkin.

Ko'rsatkichlardagi farq katta bo'lgani bois, uy-joy kommunal xo'jalik xizmatlari samaradorligini oshirish natijasida olinishi mumkin bo'lgan foyda va naf bir xil bo'lmaydi. Ammo umuman tarmoq bo'yicha katta ijobiy potensial mavjudligi islohotlarni zarur va o'zini oqlaydigan qilib qo'ymoqda. Islohotlar natijasida uch turdagi foydani kutish mumkin: subsidiyalar kamayishi, kommunal xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining texnik qulayliklarga ega bo'lishi va istemolchilarga samara keltirishi. Uy-joy kommunal xizmatlarni takomillashtirish natijasida ko'riladigan foydalar sof samarasizlik va moliyaviy yo'qotishlarning kamayishi bilangina cheklanib qolmaydi. Unumdorlikning o'sishi va narx belgilashning mukammalroq tizimi mavjud ehtiyojni hisobga olgan holda uy-joy kommunal xo'jaligi samaraliroq ishlashi uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa iqtisodiy o'sishga va raqobat rivojlanishiga yordam beradi.

Respublikamizda 2001 yilda 470 ta aholiga issiqlik energiyasi etkazib beruvchi markazlashgan korxonalar faoliyat ko'rsatib, yil davomida jami 54,7 mln. Gkal issiqlik etkazib berilgan bo'lsa, 2006 yilda korxonalar soni 395 taga, etkazib berilayotgan issiqlik quvvati 47, 1 Gkal.ga kamaygan. Buning sababi birinchidan, issiqlik etkazib beruvchi korxonalarni birlashtirish va foydalilik koeffitsienti past bo'lgan qozonxonalardan voz kechish bo'lsa, ikkinchidan, yuqori texnologiyalarni qo'llash (quyosh energiyasi va boshqa energiya manbalaridan) va kichik-lokal qozonxonalardan foydalanishdir.

6.5. Uy-joy kommunal xo'jaligida tabiiy gazdan foydalanish va gaz ta'minoti tizimi

Dunyoda uy-joy kommunal xo'jaligi tizimida tabiiy gazdan foydalanish masalasini o'rganish natijalari gazdan foydalanish eng avvalo shu mamlakatlar hududida tabiiy gaz zahiralar mavjudligiga bog'liqligini ko'rsatadi. Gazni import qilishda esa mamlakatlar iqtisodiy imkoniyatlaridan va davlatlar aro gaz magistrallari mavjudligidan kelib-chiqib yondashadilar. So'nggi yillar tajribasiga ko'ra gaz eksporti masalasida tranzit qiluvchi davlatlar tazyiqi kuchayganini ham alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Bu masalada misol qilib evropa davlatlariga gaz sotish jarayonidagi Rossiya-Ukraina munosabatlarini keltirish mumkin.

Tabiiy gaz zahirasi mavjud bo'lmagan, yoki miqdori cheklangan davlatlarda gaz o'rnida boshqa turdagi energiya manbalaridan (elektr energiyasi, ko'mir, torf, neft mahsulotlari va boshqa energiyaning noan'anaviy turlaridan) foydalanishni

yo'lga qo'yish ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, evropa Ittifoqi mamlakatlarida kommunal xo'jaligi tizimida o'tgan asrning 70 yillariga qadar ko'mir, neft va torf mahsulotlaridan keng foydalanilgan. So'nggi yillarda bu yoqilg'i turlaridan asosan elektr energiyasi va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishda (qozonxonalarda) foydalanilib, aholi iste'moliga ko'proq elektr energiyasidan foydalanilmoqda. SHu sababli, evropa mamlakatlarida aholi turarjoylarini gaz bilan ta'minlanishi 20-45% ni tashkil etadi. Statistik ma'lumotlardan esa AQSHning Nyu-York shahridagi turarjoy binolarining 11% tabiiy gaz bilan ta'minlanganligini va 80% ortiq turarjoy binolarida gaz o'rniga elektr energiyasidan foydalanish yo'lga qo'yilganligini ko'rish mumkin.

Sobiq sovet tuzimida yoqilg'i sanoatining barcha turlari kabi tabiiy gaz ishlab chiqarish sohasi ham strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu sohaning faoliyati markazdan turib boshqarilgan. Gaz ishlab chiqarish hajmi va undan foydalanish, shu jumladan aholi yashash joylarini tabiiy gaz bilan ta'minlash rejasi ham markazdan tasdiqlangan. SHu sababli respublikamiz hududidan katta miqdodagi tabiiy gaz qazib olinsada mahalliy aholi turarjoylarini gaz bilan ta'minlashga, ayniqsa qishloq joylariga, imkoniyat berilmagan. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab, Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan respublikamiz iqtisodiyotida bozor munosabatlarini joriy etishda kuchli ijtimoiy himoyaga alohida e'tibor qaratildi. Aholini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturi ishlab chiqildi. Mazkur Dasturda 2010 yilga qadar aholi turarjoylarini tabiiy gaz bilan ta'minlashni asosan yakunlash ko'zda tutilgan.

Gaz ta'minoti yagona tizimga egaligi bilan izohlanadi, uning barcha tarkibiy bo'laklari (konlar, gaz quvurlari, shahar ichidagi tarmoqlar) bir biri bilan bog'langan va rejalashtirishda shu aloqalarning hisobga olinishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida tabiiy gazni qazib olish va uni yirik magistrallar orqali transparterovka qilish ishlari "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi. Iste'molchilar shu jumladan, kommunal xo'jaligi tizimi ham mazkur tizim orqali tabiiy gaz bilan ta'minlanadi. 2003 yilga qadar kommunal xo'jaligi tizimida tabiiy gazni sotish va is'temolchilar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish, gaz tarmoqlaridan foydalanishni tashkil etish, ularni ta'mirlash va qurish ishlari "Boshkommungaz" korxonasi tomonidan amalga oshirilib kelgan. To'qsoninchi yillarning oxiriga kelib mamlakatimizda kommunal xo'jaligi sohasiga tabiiy gaz etkazib berish bo'yicha iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishda jiddiy kamchiliklar ko'zga tashlandi. SHu sababli tabiiy gaz etkazib berishni takomillashtirish, xizmat ko'rsatuvchi va iste'molchilar o'rtasida erkin bozor munosabatlarini joriy etish bo'yicha Respublikamiz Hukumati tomonidan katta ishlar amalga oshirildi. Sohada islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 1 iyundagi "Uy- joy fondini suv va gazni hisobga olish priborlari bilan jihozlash, ularni O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida"gi 280-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 21 sentyabrdagi "Tabiiy gaz etkazib berish va uning uchun hisob-kitob qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 439-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 15 yanvardagi "Xitoy Xalq Respublikasi Hukumatining foizsiz krediti doirasida gazni hisobga olish priborlari sotib olish to'g'risida"gi 21-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 20 martdagi "Tabiiy gaz etkazib berish va uning uchun hisob-kitob qilish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 90-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 28 martdagi "2002-2004 yillarda uy-joy fondini gazni hisobga olish priborlari bilan jihozlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 99-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'ztransgaz" aksionerlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2006 yil 8 avgustdagi PQ-438-sonli Qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar chiqarildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 2 oktyabrdagi "Respublika gaz ta'minotini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 421-sonli Qaroriga muvofiq respublikada tabiiy gaz sotishning bozor mexanizmlarini joriy etish, respublika gaz ta'minoti tizimini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish, hisob-kitob-to'lov intizomini yanada mustahkamlash borasida yangi boshqaruv mexanizmini yaratishga asos bo'ldi. Mazkur Qarorga muvofiq yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarib kelgan "Boshkommungaz" korxonasi va uning "O'ztexgaz" sho'ba korxonasi tugatildi.

"Boshkommungaz" korxonasi tasarrufida bo'lib kelgan "Gazta'minot" hududiy sho'ba korxonalari, "Texgaz" sho'ba boshqarmalari yuridik shaxs huquqiga hamda tuman (shahar) filiallariga ega bo'lgan hududiy gaz ta'minoti korxonalariga ("Qoraqalpoqgaz", "Andijongaz", "Buxorogaz", "Jizzaxgaz", "Qashqadaryogaz", "Navoiygaz", "Namangangaz", "Samarqandgaz", "Surxondaryogaz", "Sirdaryogaz", "Toshkentviloyatgaz", "Farg'onagaz", "Xorazmgaz" va "Toshkentshahargaz") aylantirildi. "Gazta'minot", "Texgaz" hududiy gaz ta'minoti korxonalari "O'zkommunxizmat" agentligiga hisobot beruvchi bo'lib bu korxonalarining asosiy vazifalari etib:

- gaz tarmoqlari va uskunalaridan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatishni ta'minlash;
- "O'ztransgaz" aksiyadorlik kompaniyasi bilan tabiiy gaz etkazib berish yuzasidan shartnomalar tuzish, iste'molchilarni tabiiy va suyultirilgan gaz bilan ta'minlash, sotilayotgan gaz hajmlarining qat'iy hisobini olib borish;
- gaz tarmoqlarini joriy ta'mirlash, shuningdek tasdiqlangan aniq ro'yxatlarga muvofiq ularni mukammal ta'mirlash;
- sotilgan tabiiy gaz uchun o'z vaqtida oldindan haq to'lash hamda mablag'lar yig'ib olish ishlarini tashkil etish;
- qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ob'ektlarni gaz quvurlari tarmoqlariga ulash uchun texnik shartlarni berish va ulash;
- tasdiqlangan dasturlarga muvofiq iste'molchilarga gazni hisobga olish priborlarini o'rnatish, ularni hisobga olish va ulardan foydalanilishini nazorat qilish;

- gaz tarmoqlari va uskunalaridan xavf-xatarsiz foydalanish qoidalari normativ talablariga rioya etishni nazorat qilish belgilandi.

Etkazib berilayotgan tabiiy gaz uchun hisob-kitob qilish tizimini takomillashtirish va o'z vaqtida haq to'lanishi uchun javobgarlikni kuchaytirish maqsadida hududiy gaz ta'minoti korxonalari apparati tuzilmasida sotilgan tabiiy gaz uchun iste'molchilardan mablag'lar yig'ilishini nazorat qilish tumanlararo inspeksiyalari tashkil etildi. Inspeksiyaga:

- sotilgan tabiiy gaz uchun aholidan va iste'molchilarning boshqa toifalaridan mablag' to'planishining to'liqligi ta'minlanishini nazorat qilish;
- amaldagi gaz tarmoqlariga ruxsatsiz ulanib olish hollarini aniqlash va qonun hujjatlariga muvofiq ularning oldini olish chora-tadbirlarini ko'rish;
- haqini to'lamagan va ruxsatsiz ulanib olgan iste'molchilarni gaz tarmoqlaridan uzib qo'yish to'g'risida tuman (shahar) gaz ta'minoti tashkilotlariga yozma ko'rsatmalar berish vazifalari yuklatildi.

SHuningdek, gaz ta'minoti bo'yicha nazorat-taftish boshqarmasining asosiy vazifalari etib:

- hududiy gaz ta'minoti korxonalari tarkibida tashkil etiladigan inspeksiyalar faoliyatini;
- sotilgan gaz uchun aholidan va ulgurji iste'molchilardan mablag'lar to'liq yig'ilishini;
- hududiy gaz ta'minoti korxonalari tomonidan "O'ztransgaz" aksiyadorlik kompaniyasi bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilinishini;
- gaz tarmoqlariga ruxsatsiz ulanib olishga yo'l qo'yilmasligini doimiy nazorat qilish belgilansin.

Respublikada 2003 yil 1 noyabrdan boshlab, aholidan tashqari, iste'molchilarning barcha toifalari uchun hududiy gaz ta'minoti korxonalari tomonidan etkazib beriladigan tabiiy gaz uchun bir oylik iste'mol hajmining 15 foizi haqini majburiy ravishda oldindan to'lash joriy etildi, iste'mol qilishning hisob-kitob qilinadigan davri boshlangungacha haqni oldindan to'lamagan yoki yakuniy hisob-kitobni shartnomalarda belgilangan muddatlarda o'z vaqtida amalga oshirmagan ulgurji tabiiy gaz iste'molchilariga tabiiy gaz etkazib berishni to'xtatish kiritilib, 2004 yil 1 yanvardan boshlab kichik va xususiy biznes korxonalariga tabiiy gaz etkazib berish iste'mol qilish limiti belgilanmasdan, to'g'ridan-to'g'ri tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiradigan bo'ldi.

Respublikamizda 2004-2005 yillarda hamma joyda tuman (shahar) gaz xo'jaliklarining bo'linish chegaralarida, shuningdek shaharlarning turar joy mavzellaridagi gaz tarmoqlarining kirish joylarida gazni hisobga olish priborlari o'rnatildi, xonadonlarda gazni hisobga olish priborlari o'rnatish ishlari yakuniga etkazilmoqda.

Gazni hisobga olish priborlarini o'rnatish orqali eng avvalo iste'molchilar bilan xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida erkin shartnomaviy munosabatlarni tashkil etilishiga erishilsa, ikkinchi tomondan tabiiy gaz sarfi hisobini aniq olib borish va undan tejamkorlik bilan foydalanishga olib keladi.

Gaz xo‘jaligi ishining asosiy ko‘rsatkichi, aholi va boshqa iste’molchilarga etkazilayotgan xizmatlar hajmidir. Aholining kommunal-maishiy talablari uchun gaz 1 ta yashovchiga mo‘ljallangan o‘rtacha me‘yor bo‘yicha hisoblanadi. Suyultirilgan gaz tarqatuvchi stansiyalar quvvati gaz to‘ldirilgan ballonlar sig‘imi bo‘yicha aniqlanadi. Stansiya quvvatini oshirishni rejalashtirilganda aholining suyultirilgan gazga talabi va gazni muddatida etkazishni hisobga oladi. Qishloqlardagi xonadonlarni gazlashtirishni rejalashtirish gaz ta‘minoti muassasasi me‘yorlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

6.6. Kommunal xo‘jaligi tizimida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish xizmatlari tarkibi va ularni tashkil etish

Kommunal xo‘jalik tizimi korxonalarini faoliyat xarakteridan kelib chiqib asosan uchta guruhlariga ajratish mumkin. Birinchi guruhga uy-joy fondi va ijtimoiy ob‘ektlarni boshqarish xizmatlari kirsa, ikkinchi guruh muhandislik qurilmalari, inshootlar va kommunikatsiyalar (shu jumladan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarining ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatish) faoliyatini ta‘minlash, energiya, gaz, suv ta‘minoti, oqavaquvur xizmatlaridan tashkil topadi. Uchunchi guruh obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ish va xizmatlaridan tashkil topadi. Bu guruh faoliyat turlari ko‘pligi va xilma-xilligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Obodonlashtirish ishlari aholi yashash joylarini obodonlashtirish, ko‘kalamzordashtirish va ekologik musaffoligini ta‘minlash bilan bog‘liq murakkab va turli tuman faoliyat turlaridan tashkil topgan jarayonlarni birlashtiradi. Obodonlashtirish ishlari shahar xo‘jaligi uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lib ular asosan besh yo‘nalishdagi faoliyat turlariga bo‘linadi. Obodonlashtirish ishlari quyidagicha klassifikatsiyalanadi:


1. Qurilish va ta‘mirlash ishlari:
 - ✓ yo‘l qurilishi va ta‘mirlash;
 - ✓ ko‘prik, tonnellar va er osti o‘tish yo‘llari qurilishi va ta‘mirlash;
 - ✓ sun‘iy inshootlar arxitektura elementlari qurilishi va ta‘mirlash;
 - ✓ devor, panjara va cho‘yan to‘siqlar qurish va ta‘mirlash;
 - ✓ yo‘lovchi tashish transporti bekatlarini qurish va ta‘mirlash;
 - ✓ irrigatsiya va tabiiy suv ta‘minoti shahobchalarini qurish va ta‘mirlash;
 - ✓ fontanlar va suv inshootlarini qurish, ta‘mirlash va ishlatish;
 - ✓ axlat qutilari o‘rnatish va maxsus chiqindi tashlash joylarini qurish va ta‘mirlash va boshqalar.
2. Hududdan foydalanish va tozaligini ta‘minlash ishlari:
 - ✓ yo‘llar va sun‘iy qoplamali hududlarni yuvish, tozaligini ta‘minlash va ulardan foydalanishni tashkil etish;
 - ✓ markaziy ko‘chalar va yo‘laklarni supirish va tozaligini ta‘minlash;
 - ✓ ma‘ishiy chiqindilarni tashish va utilizatsiya qilish;
 - ✓ xiyobon va istirohat bog‘lari obodonligini ta‘minlash va joriy ta‘mirlash;
 - ✓ tarixiy obidalar, yodgorliklar haykallarni va obodonlashtirish va joriy ta‘mirlash;
3. Badiiy bezash va ko‘rkamlashtirish ishlari:
 - ✓ shahar ko‘chalarini hamda bino va inshootlarni tashqi bezash;
 - ✓ rassomchilik mahsulotlari va arxitekturaviy loyihalarni tayyorlash va o‘rnatish;
 - ✓ shaharda toponomik ishlarni amalga oshirish;

- ✓ shiorlar, plakatlar va pannolar tayyorlash va joylashtirish;
- ✓ shaharni bayram va tadbirlarga tayyorlash va boshqalar;
- 4. Ijtimoiy soha xizmatlari:
 - ✓ ziyoratgohlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlari;
 - ✓ aholiga marosim xizmatlarini tashkil etish;
 - ✓ dezinfeksiyalash va zararsizlantirish ishlari;
 - ✓ shaharni daydi hayvonlardan tozalash kabi faoliyat turlari.
- 5. Ko'kalamzorlashtirish ishlari:
 - ✓ manzarali va mevali dov-daraxtlar ko'chatlarini etishtirish va o'rmonchilik xo'jaligi;
 - ✓ gullar va manzarali o'simliklar etishtirish;
 - ✓ shahar hududida daraxtlar va gullar ekish va parvarishlash;
 - ✓ shahar erlarida agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish;
 - ✓ shaharda bog'dorchilik va gulzorlar yaratish;
 - ✓ suv quyish shaxobchalari, drenajlar ariq-zovurlar qurish va ta'mirlash;
 - ✓ quduqlar va suv ta'minoti inshootlari qurish va ta'mirlash kabi ishlar kiradi.

SHaharlar va yirik aholi yashash markazlarida yuqorida keltirilgan ish va xizmatlar ko'plab shu yo'nalishga ixtisoslashgan mustaqil korxona va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Ammo hozirgi kunda sohadagi ish va xizmatlarning barchasida ham ularni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxs o'rtasida sof raqobat muhiti mavjud deb bo'lmaydi. Hozirgi kunda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar o'rtasida sof raqobat muhitini shakllantirish, ish va xizmatlarni bajarishda bahosini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish va mahalliy budjetdan ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanishni tashkil etish hozirgi kunda o'z echimini kutayotgan muammolardan bo'lib hisoblanadi. SHu sababli shahar hududda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish, ularni amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, obodonlashtirish ishlarini belgilangan muddatlarda va sifatli qilib bajarilishini ta'minlash mahalliy hokimiyat tomonidan nazorat qilishni va muvofiqlashtirib borishni taqozo etadi. SHu sababli, har bir shahar va aholi yashash markazlarida mahalliy hokimiyat qoshida obodonlashtirish ishlarini boshqarish tuzilmalari faoliyat ko'rsatadi.

Respublikamiz poytaxti Toshkent shahrida ham shahar hokimiyati qoshida obodonlashtirish bosh boshqarmasi faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur boshqarma faoliyati bevosita shahar hokimining birinchi o'rinbosari tomonidan nazorat qilib boriladi. Toshkent shahrida obodonlashtirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarda 35 mingdan ortiq xodim faoliyat ko'rsatadi.

Respublika kommunal xo'jaligining yana bir muhim tarmog'i shahar, shaharcha va tuman markazlari sanitariya holatini yaxshilash, qattiq va suyuq chiqindilarni o'z vaqtida yig'ish va ularni chiqindi maydonlariga olib borish, zararsizlantirishdir. Bu xizmatlar 115 ta shahar, 100 ta shaharchalarda yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda respublikamizda umumiy maydoni 1000 gektar bo'lgan 180 ta chiqindi zararsizlantiriladigan maydon mavjud. Yiliga 10-13 mln. m³ qattiq va 5-7 mln. m³ suyuq chiqindi yig'iladi va ular 1067 ta, shu jumladan Janubiy Koreyadan olingan zamonaviy mashina va mexanizmlar orqali maxsus joylarga tashiladi. Yirik shaharlar-Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro, Namangan, Farg'onada maxsus ixtisoslashtirilgan avtokorxonalar bor.



6.2-rasm. Viloyatlar Obodonlashtirish bosh boshqarmasining tashkiliy tuzulmasi

7-mavzu. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida uy-joy kommunal xo‘jaligining rivojlanishi va uni boshqarishda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi.

- 7.1. O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xo‘jaligining rivojlanish imkoniyatlari va hozirgi kundagi holati tahlili.
- 7.2. O‘zbekistonda Uy-joy kommunal xo‘jalik korxonalarini joylashtirish va ularning mintaqaviy xususiyatlari.
- 7.3. Respublikada elektr energetika ishlab chiqarish va resurstejamkorligi tahlili

7.1. O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xo‘jaligining rivojlanish imkoniyatlari va hozirgi kundagi holati tahlili.

Hozirgi kunda respublikamizda aholini turar joy bilan ta‘minlash va uy-joydan foydalanish muammolariga etarli darajada e‘tibor berilmoqda. SHu o‘rinda Respublika Prezidentining ko‘plab farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarini keltiramiz (1993 yil 7 may «Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida», 1994 yil 5 mart «Respublikada uy-joy qurilishini roag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 1996 yil 31 yanvar «Toshkent shahrida uy-joy qurilishini Davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashni kuchaytirish to‘g‘risida», 1996 yil 27 dekabr «Davlat uy-joy siyosatining asoslari to‘g‘risida», 1997 yil 24 mart «O‘zbekiston Respublikasi uy-joy qurilishida islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2007 yil 16 fevral «Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2006 yil 12 aprel «Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmatlar ko‘rsatishning aniq bozorini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»)

Bu xujjatlarning asosiy maqsadi uy-joy muammosini echishda aholining muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash va ijtimoiy himoyani ta‘minlash, korxona, birlashma tashkilotlar va aholi mablag‘i hisobiga amalga oshirilgan uy-joy qurilishini kelgusida rivojlantirishlari uchun qo‘shimcha rag‘batlantirishdir.

O‘zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal xo‘jalik tarmog‘ini «O‘zkommunxizmat» Agentligi boshqaradi. Bu agentlik 05.03.2006 yil 110-sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga binoan tashkil etilgan.

Agentlik tarkibiga hududlararo suv quvurlarini ishlatish buyicha 5 direksiya va Tuyamuyun-Nukus, Tuyamuyun-Urgench, Damxo‘ja, Dehqonobod, Toshkent viloyati, Jizzax viloyati quvurlarini ishlatish boshqarmalari va "O‘zkommunallizing" korxonasidan tashkil topgan. Agentlik tarkibiga "O‘zkommunloyiha", "O‘zgazloyiha" institutlari, Agentlik obektlarini qurish injiniring kompaniyasi va "O‘zkommuno‘kuvtashkilotchi " markazi ham kiradi. SHuningdek agentlikka "Qoraqalpog‘gaz", "Navoiygaz", "Namangangaz", "Samarqandgaz", "Surxondaryogaz", "Sirdaryogaz", "Toshkentviloyatgaz",

"Toshshahargaz", "Farg'onagaz", "Xorazmgaz" hududiy gaztaminot korxonalari o'zining shahar va tumanlardagi filiallari bilan birgalikda hisobot topshiradilar.

Hududiy gaztaminot korxonalari agentlikka hisobot topshiradi va 02.10.2005y. 421-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan hujjat asosida faoliyat yuritadi.

Hududiy gaztaminot korxonalari rahbarlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar hokimlari va Toshkent shahar hokimi takliflariga binoan agentlik bosh direktori tomonidan tayinlanadi. Agentlikning asosiy vazifalari quyidagilar:

- Respublika kommunal ko'rsatish sohasida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarini bajarilishini nazorat qilishni amalga oshirish.

- Respublika kommunal xizmat ko'rsatish tizimida davlat siyosati va hukumat qabul qilgan chora -tadbirlarni amalga oshirish;

- Kommunal xizmat tizimini shakllantirish, kommunal xizmat sohasida belgilangan tartibda meyoriy-huquqiy hujjatlar va texnik - iqtisodiy shartlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- Hududlararo suv quvurlarini ishlatish, gaz sotish yo'li hamda chiqindilarni qayta ishlash sohalarida yagona texnik siyosatni shakllantirish va yuritish;

- Tarmoqqa xorijiy iinvestitsiyalar va texnologiyalarni jalb qilish, shuningdek qo'shma korxonalar tashkil etish.

Agentlikka yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalar amalga oshiriladi:

- Kommunal sohaning iqtisodiy tahlili bo'yicha qonunlar loyihasi va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun taklif qiladi;

- Kommunal gaz sotish xo'jaligi va hududlararo suv quvurlari rivojlanish qonuniyatlarini birlashtirib, shu sohada yagona texnik siyosat olib boradi;

- Texnik shart-sharoitlar va kommunal xizmat sohasidagi qonunlarni mahalliy hokimiyat organlari, boshqarmalar, nazorat qiladi;

- Balans ishlab chiqish uchun ulgurji istemolchilar va respublika aholisining tabiiy va yoqilgan gazga bo'lgan ehtiyojini belgilangan tartibda aniqlaydi;

- Har chorakda yuridik shaxslar daromad solig'i bo'yicha hududiy gaz taminot korxonalaridan hisobotlar yig'ib, ularni birlashtirib, soliq organiga taqdim etadi;

- Belgilangan tartibda hududlararo suv quvurlar qurilishi bo'yicha buyurtmalar oladi, shuningdek hukumat topshirig'i bo'yicha shu sohada boshqa obektlar qurilishini amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasi kommunal xo'jaligi ehtiyojlari uchun, shu tarmoq texnologiyalari, asbob-uskunalar, mashinalar va mexanizmlar yaratib, ularni ishlab chiqarishni tashkil etadi;

- Uy-joy kommunal xo'jalik sohasida injiniring, konsalting, auditor va boshqa korxonalar o'rtasida kommunal xizmat ko'rsatish sohasida raqobat muhitini yaratishga ko'maklashadi;

- Kommunal xo'jaligida yangi texnologiyalar, asbob-uskunalar, mashinalar ishlab chiqarish bo'yicha xorijiy mamlakatlar va halqaro tashkilotlar bilan ilmiy

va iqtisodiy hamkorlikni amalga oshiradi, shuningdek ular bilan mahalliy korxona va tashkilotlar o'rtasida aloqalarni o'rnatishiga yordam beradi.

7.2. O'zbekistonda Uy-joy kommunal xo'jalik korxonalarini joylashtirish va ularning mintaqaviy xususiyatlari.

Uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanishi ko'pincha mamlakatning mintaqaviy xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Bunday xususiyatlarning hisobini olib borish shu sohaning rivojlanish sur'atlarini va darajalarini asoslash uchun zarur bo'ladi, shuningdek, shahar va qishloq hududlari hamda respublika ichidagi alohida viloyatlar o'rtasidagi tafovutlarni yo'qotish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalani echish uchun zarur bo'ladi.

Bunda hududlararo tafovutlar (makroiqtisodiy darajadagi tafovutlar) uy-joy kommunal xo'jalikni alohida respublika ichidagi viloyatlar bo'yicha rivojlanishni tavsiflaydi, masalan, shahar va qishloq hududlari o'rtasida.

Alohida respublikalarda uy-joy kommunal xo'jalikning rivojlanish darajasidagi tafovutlarni belgilab beruvchi barcha omillar 2 guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh ijtimoiy-iqtisodiy omillarga: jamiyatning ishlab chiqarish tizimi, sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi nisbiylik, ijtimoiy tuzilma va aholining tuzilmasi kiradi. Bu guruh omillarning rejalashtirish jarayonida hisobga olinishi uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanish darajasini oshirishga ta'sir qilish imkonini beradi. Ikkinchi guruhni tabiiy iqlimiy omillar uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanish darajasiga turli xil shartlar bilan ta'sir etadi. Ularga ko'ra ishchi kuchini ishlab chiqarilishi amalga oshiriladi, natijada hududlar bo'yicha turmushning moddiy taminoti har xil baholarda bo'ladi.

Hududlararo uy-joy kommunal xo'jalikning rivojlanish darajasi o'tasidagi tafovutlar quyidagi xususiyatlar orqali aniqlanadi: hududning tarixiy rivojlanishi, asosiy fondlar zahirasining hajmi, qurilishning zichligi va ko'p qavatligi, aholi punkti hududlarning rejasi, uning konfiguratsiyasi, uy-joy va sanoat zonalarining ketma-ket joylashganligi va boshqalar. Bu omillarning ta'siri birinchi navbatda ishlab chiqarish jarayonida va ishchi kuchiga bo'lgan talabda namoyon bo'ladi. Bunda soha xizmatlariga bo'lgan talabdagi farqlarni aniqlash uchun sharoitlar yuzaga keladi. Bu farqliklar soha va uning tuzilmasining rivojlanishiga, sur'atlariga ma'lum ta'sir ko'rsatadi.

SHunday qilib, ko'rib chiqilgan omillar guruhidan har biri ma'lum darajada uy-joy kommunal xo'jalikning rivojlanish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarda nomayon bo'ladi. Bu daraja sohaning rivojlanishida va xizmatlariga bo'lgan talabni qondirishda erishilgan pog'onani ishlab chiqarish rivojlanishidagi erishilgan darajasi bilan aloqadorligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal xo'jalik notekis rivojlangan. Bu holat tarixiy, iqtisodiy, tabiiy, demografik hamda milliy xarakterdagi sabablarga ega. Ba'zi tafovutlarning sababi esa rejalashtirishning notekisligidan kelib chiqadi.

Mamlakat ichidagi hududlar bo'yicha kommunal xizmatlar ko'rsatish darajasi orasidagi tafovutlarni kamaytirish uzoq muddatli va qiyin jarayondir.

Bu jarayon xar doim ham Respublikalarning iqtisodiy rivojlanishi va zarur moddiy sharoitlarni yaratish asosida, ham hududiy rejalashtirishni takomillashtirish asosida kechadi. Har qanday respublika, iqtisodiy hudud kommunal xo'jaligining rivojlanishi mintaqaviy xususiyatlarga ega. O'zbekiston respublikasining xususiyatlariga quyidagilar kiradi: aholining nisbatan kata zichligi (bir km kv.ga 42,1 kishi), xizmat doirasini noratsional joylashtirilishi natijasida aholi tarkibida yosh bolalarni o'limining ancha kattaligi.

Bunday holatlarda aholiga xizmat ko'rsatishning ma'lum darajasiga erishish uchun mayda korxonalarining ko'p soni zarur bo'ladi. Bu esa kapital qo'yilmalarni nisbatan oshirish zaruriyatini va boshqa nosozliklarni keltirib chiqaradi.

Aholining turmush darajasini oshirishga ta'sir etuvchi mintaqavim omillar orasidagi muhim o'rinni quyidagilar egallaydi: respublikaning ixtisosligi, bo'sh mehnat resurslarining mavjudligi, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning xususiyatlari, tabiiy iqlim xususiyatlari.

Aholining kommunal xo'jalik xizmatlariga bo'lgan talabiga iqlim sharoitlari sezilarli ta'sir ko'rsatadi. SHunday qilib, issiq iqlim natijasida respublikada vodoprovod - kanalizatsiya korxonalarining xizmatlariga talab oshadi. SHimoliy tumanlarga nisbatan issiqlik ta'minotiga talab kamayadi. Masalan, Uzbekiston Respublikasida 2006-yilda bir kishi boshiga suv iste'molining darajasi 400 litrgacha o'sdi, bu esa me'yoridan ancha oshib ketdi. SHunindek, O'zbekiston Respublikasida vaqtincha o'rnatilgan me'yordan (o'rtacha yillik 250 litr, yozga 300 litr) ham.

Aholining tug'ilishi va tabiiy o'sish darajalari uning yosh va jins tuzilmasiga ta'sir ko'rsatadi. Respublika aholisining asosiy qismi yoshlar va bolalardir, bu holat O'zbekiston kommunal xo'jaligining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmay o'tmaydi.

SHu kungacha kelajakda xizmat doirasini rivojlantirishini belgilab bergan, shu jumladan kommunal xo'jalikni ham, O'zbekistonning muhim xususiyatlariga etarlicha e'tibor berilmagan. Bu erda gap tabiiy — iqlimiy xususiyatlari, dam olish va tabiat maskanlarining ko'pligi, tarixiy madaniy yodgorliklarning mavjudligi xaqida ketmoqda.

SHuni aytib o'tish kerakki, har yili respublikaga 100 mingdan ortiq chet el mamlakatlaridan turistlar (sayyoxlar) keladi. Lekin, turistlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash uchun kommunal xo'jalikni rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ko'p islohotlarni o'tkazish kerak.

O'zbekistonning yana bir xususiyatlaridan biri er osti suvlarining er qatlamiga yaqin joylashganligi bo'lib, ular turli xil tuzlarning yuqori konsentratsiyasiga ega bo'lganligi tufayli inshootlarning poydevorlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sirni yo'qotish uchun er qatlamining drenaji o'tqaziladi va bu shahar hududlarida drenaj inshootlarning buzilishini kamaytiradi, ko'chatlarning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

SHuni aytib o'tish kerakki drenaj xo'jaligi respublikaning uy-joy kommunal xo'jalikning mayda tarmoqlaridan biri bo'lib, boshqa mamlakatlarning masalan Rossiya, Ukraina, Belorussiya, uy-joy kommunal xo'jaliklari tuzilmasiga kirmaydi.

Kommunal xo'jaligining samaradorlik darajasi milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi, ko'pincha korxonalarning ratsional joylashtirilishiga bog'liq bo'ladi.

Korxonalarning soni doimiy o'sib borishi, ular orasida tor aloqaning mavjud bo'lishini taqazo etadi. Bunday sharoitlarda gap nafaqat korxonalar joylashuvining ratsionalligi haqida balki kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotining hududiy ratsional joylashuvi haqida ham borishi kerak. Bu narsa kengroq tushuncha bo'lib korxonalarni ratsional joylashtirish, ular orasidagi aloqalarni takomillashtirish, ularni muayyan hududda joylashtirishda kompleksligi kabilarni o'z ichiga oladi.

Respublika hududida kommunal xo'jalik korxonalarini joylashtirish tahlili jarayonida birinchi navbatda aholi bilan aloqasini, ya'ni aholi kommunal ishlab chiqarish mahsulot (xizmat) larining hududiy konsentratsiyasining bir-biriga to'g'ri kelishini aniqlash maqsadida bo'ladi.

Respublikada kommunal xo'jalik korxonalarini joylashtirishning muhim tamoyili bo'lgan korxonalarni aholiga maksimal yaqinlashtirish va ularning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirishga katta e'tibor qaratilgan.

Respublika viloyatlari bo'yicha xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarning kondirilmaganligi hozirgi paytda nafaqat korxonalarning etishmasligi va ularning xizmat shaklining mukammal emasligi bilan, balki muayyan darajada milliy iqtisodiyotda bu tarmoq hududiy tuzulmasi kamchiliklari bilan bog'liq.

Hudud bo'yicha korxonalarni joylashtirishni o'rganishda ularning aholiga to'g'ri kelishi va qulayligini aniqlash zarur. Lekin respublikaning u yoki bu viloyatida joylashtirilgan korxonalarning soni kommunal xizmatlari darajasi haqida to'la tavsif bera olmaydi chunki bu holatda bu korxonalarning kattaligi hisobga olinmaydi. SHuning uchun joylashtirishni o'rganish jarayonida bir korxonaning o'rtacha kattaligi kabi ko'rsatkichdan foydalanish foydaga muvofiq bo'lardi.

7.3. Respublikada elektr energetika ishlab chiqarish va resurstejamkorligi tahlili

Axborot uchun, respublikamizda bir yillik o'rtacha elektr energiyasi resursining bir foizi 0,5 mlrd. kVt.soatga yaqin elektr energiya miqdorini tashkil etadi.

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan va uzatilayotgan elektr energiyasini hisobga olish uchun, hozirgi vaqtda barcha nuqtalarda zamonaviy elektron hisoblagichlar o'rnatilgan bo'lib, elektr energiyasini iste'molchilarga etkazib berishda elektr, energiyasini hisobga olish uchun elektron hisoblagichlarni joriy etishda bir qator kamchiliklar mavjud.

Hozirgi vaqtga kelib, respublika bo'yicha 5 mln. ga yaqin elektr energiya iste'molchilari mavjud bulib, ularning 4,5 mln. dan ortig'i bu aholi iste'molchilaridir.

Energetika har qanday mamlakat xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib hisoblanadi, uning rivojlanish darajasi va potensial imkoniyatlariga qarab mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga baho berish mumkin.

Elektr energiyasidan oqilona foydalanish, tejab-tergab sarflash faqat xalq mulkini asrab-avaylanishi uchungina emas, balki elektr energiyaning tannarxini oshirilmaligi uchun imkon yaratadi, ya'ni elektr energiyaga talab kamaygan sari uni ishlab chiqarishga ketadigan yoqilg'i sarfi kamayadi. SHunday ekan, ishxonadami, xonadonimizdami yoki jamoat joylaridami elektr energiyasidan foydalanishda isrofgarchilikka yo'l qo'yilmasligini o'z burchimiz deb bilmog'imiz kerak.

Agarda 1 kVatt elektr energiyasining qiymati 43 so'm 70 tiyin bo'lsa, quvvati 100 Vattli bo'lgan lampochkani bir kecha-kunduz behuda yonishi oqibatida, sutkasiga 104 so'm 88 tiyin, oyiga 3251 so'm 28 tiyin, yiliga esa 39015 so'm 36 tiyin behuda isrof bo'layotganligini guvohi bo'lamiz. Internet sahifalarida yozilishicha, suv va yadroviy manbalardan foydalanish hisobiga energiyani ishlab chiqarish uch barobar oshganligiga qaramay, 1990 yillarda jahon energiya balansidagi ularning ulushi atigi 5-6 foizni tashkil qilgan.

Qazib chiqariladigan yoqilgi turlarini hozirgi zamon itse'mol qilish sur'atlariga ko'ra neft zahiralari - kamida 75 yilga, tabiiy gaz -zahiralari - 100 yildan ko'proqqa va ko'mir zahiralari - 200 yildan ko'proqqa etishi mumkin. Xalqaro energetika agentligining taxminlari bo'yicha jahon energetikasida bugungi kundagi tendensiyalari saqlanib qolgan taqdirda 2020 yilgacha bo'lgan davrda birlamchi energiya resurslarining umumiy iste'moli 65 foizgacha ko'tarilishi mumkin. Jahon energiya balansida qazib chiqariladigan yoqilgi turlarining ulushi 2020 yilgacha - 76 foizgacha, 2050 yilga kelib esa 45 foizgacha kamayishi kutilmoqda.

Quyosh va shamol energiyasi, bioenergiya, geotermal energiya va energiyaning boshqa shu kabi yangi yoki muqobil turlaridan foydalanish bilan bog'liq umidlarni hali amalga oshirish imkoni bo'lmay jahon energiya balansi tuzulmasiga tub o'zgarishlar kiritilayotgani yo'q. YAngi yoki muqobil energiya, gidroelektr energiyasidan tashqari, manbalarining solishtirma ulushi 2020 yilda uning umumiy ishlab chiqarishida 2 foizdan kamroqni tashkil qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, elektr energiya iste'molining biz xohlagandek samarali va oqilona bo'lishi uchun o'z hissamizni qo'shmog'imiz zarur. Ana o'shandagina energetikada progressiv darajada taraqqiyotga erishish mumkin.

YUrtimizda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining qariyb 37 foizi sanoatda, 30 foizi xalq va qishloq xo'jalikda, 3 foizi transport va qurilish sohasida ishlatilsa, taxminan 15 foizi aholi extiyoji va tungi chiroqlarning yoritilishi uchun ishlatiladi. Buni qarangki elektr energiyasi ishlab chiqarilgan ob'ektdan to iste'molchiga etib borguncha bo'lgan oralikda 15 foiz sarflanar ekan.

Hozirda Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 90 foizi ko'mir, gaz, mazut quvvati bilan ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalariga to'g'ri keladi. Mamlakatimizda 2007 yil xolatiga jami bo'lib 38 ta elektr stansiyalari mavjud, undan 10 tasi issiqlik va 28 tasi gidroelektr stansiyalaridir. Ularning umumiy quvvati 12, 6 mln.kilovattidan ortadi.

Yiliga o'rtacha 52 mlrd kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Mamlakatimizning bir kunlik iste'moli, deylik 155 mln kVt soat elektr energiyasi

va buni ishlab chiqarish uchun 312 mln m³ gaz, 8200 tonna ko'mir, 309 tonna mazut sarflanadi. YUkorida keltirilgan bu raqamlar orqali tunimizni yorug', ishimizni oson qilayotgan elektr energiyasini ishlab chiqarish qanchalik mashaqqatli mehnat va katta harajat evaziga ekanligini xis qilish imkonini beradi.

Ana shunday zahmatli mehnat evaziga vohamizda bir kecha kunduzda 4800 kVt soat elektr energiya ishlab chiqarilib iste'molchilarga etkaziladi. Xozirda odatiy xolga aylanib qolgan elektr energiyasining uzilishiga to'lovlarda bo'layotgan muammolar sabab bo'lmoqda. Bunga aniqroq to'xtalsak yuqorida keltirganimizdek bir kunlik elektr energiyasining to'lovi 230 mln so'mni tashkil etadi. Lekin bir kunlik to'lov jami bo'lib aholi va tashkilotlar hisobiga 38 mln so'mni tashkil etadi.

Qolgan 190 mln so'm esa debitor karzdorlikning yanada oshishiga xizmat qilayapti. Darvoqe, elektr nafaqat charaqlab turgan chirog'imizda emas, balki barcha joylarda guvillab ishlayotgan gigant mashinalar, qudratli nasos stansiyalari, metro va elektr poezdlari, shuningdek maishiy xizmatdagi turli tuman elektr priborlari va kompyuter tizimlari ko'z o'ngimizda nomoyon bo'ladi. Xozirda eng olis tog'li qishloqlarda ham elektr energiyasi kirib borganki, bu aholining madaniy turmush tarzini shakllantirish, xalq farovonligini ta'minlashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Unda elektrni ishlab chiqarishdagi mashaqqat va harajatlarni ko'z o'ngimizga keltirib, sharaflari va ayni paytda mas'uliyatli kasb egalarining xizmati ila tunimizni yorug', ko'nglimizni ravshan, yumushimizni engil qilayotgan elektrning qadriga etib, to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshiraylik. Bu bilan yuksak iste'mol madaniyatiga ega ekanligimizni namoyon qilgan xolda yurt ravnaqida munosib hissa qo'shayotganligimizni ko'rsatgan bo'lamiz.

Hozir O'zbekiston elektr stansiyalarining jami o'rnatilgan quvvati 12,3 mln kVtga tengdir. Uning tuzilmasida gidroelektrostansiyalar 11,5% ni, issiqlik elektr stansiyalari 86% ni tashkil etadi, bu "O'zbekenergo" kompaniyasining qudratidan dalolat berib turibdi, jami elektr stansiyalarning faqatgina 2,5% boshqa idoralar qaramog'ida ishlatilmoqda.

Elektr energiyasining asosiy qismini ekologiya nuqtai nazaridan qaraganda juda qulay yoqilg'i balansiga ega bo'lgan issiqlik elektr stansiyalari ishlab chiqaradi, unda gazning salmog'i 85% ni tashkil qiladi.

Energetika tizimining asosini quvvati 3000 MVt bo'lgan Sirdaryo IESi, 1860 MVt bo'lgan Toshkent IESi, 2100 MVt bo'lgan Yangi Angren IESi va 1250 MVt bo'lgan Navoiy IESi kabi yirik elektr stansiyalar tashkil qiladi. Bu nurxonalarda bir yo'la quvvati 150 MVtdan 300 MVtga etgan necha o'nlab energetika bloklari o'rnatilgan.

Mamlakatning gidroenergetikasi beshta kaskadga birlashgan 28 ta GESdan iborat. Bular orasida eng yiriklari - suv omborlari bo'lgan, stansiyalar quvvatni tartibga solib turish rejimida ishlay oladigan, quvvati 600 MVtli CHorbog' va quvvati 165 MVtli Xo'jakent GESlaridir. Qolgan GESlar suv oqimi bo'yicha bazis rejimda ishlaydi. Energiya ta'minoti va irrigatsiyaga oid kompleks masalalarni xal etayotgan bu nurxonalar nisbatan arzon elektr energiyasini hosil qilmoqdalar.

Elektr energetikasi tarmog‘i taraqqiyotining asosiy nizomlari va yo‘nalishlari, respublika Hukumati ma’qullagan, "2010 yilga qadar bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi energetikasining ravnaqi va energiya ishlab chiqarayotgan quvvatlarning rekonstruksiya Dasturi"da o‘z aksini topgan. Elektr stansiyalari va tarmoqlarini texnikaviy jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiyalash - shu yaqin orada va o‘rta muddatli davrda tarmoqning bosh strategik vazifasidir. Dasturdagi eng muhim vazifalar qatoriga elektr energetikasi taraqqiyotining asosiy son va sifat parametrlarini aniqlab olish hamda shu parametrlarga erishishning aniq mexanizmlarini belgilash kiradi.

So‘nggi davrlarda elektr energetikasi ravnaqining strategik maqsadi quyidagilardan iborat:

- mamlakat energetika mustaqilligini asrash va mustahkamlash;
- energetika quvvatlarining ishonchli va barqaror ishlashini ta’minlash, iste’molchilarga sifatli elektr va issiqlik energiyasi etkazib berish;
- yoqilg‘i - energetika resurslaridan foydalanishning samaradorligini ko‘tarish maqsadida energetika ishlab chiqarishini bundan buyon ham takomillashtirish;
- energetika ishlab chiqarishining atrof muhitga texnogen bosimini ancha kamaytirish.

Elektr energetikaning negizi doimgidek IESlar bo‘lib qolaveradi, uning ulushi o‘rnatilgan quvvat tuzilmasida 86% tashkil qiladi.

Toshkent va Navoiy IESlari, Muborak va Toshkent IEM laridagi bug‘-gaz turbinalar negizida rekonstruksiya va modernizatsiyalash yo‘li bilan energiya hosil qiluvchi quvvat ehtiyojini o‘stirib borishga erishiladi.

500-220 kVli nimstansiyalarda 2500 MVAli transformator quvvatlarini ishga tushirish mo‘ljallangan, ayni vaqtda 110-500 kV kuchlanishdagi 700 kmdan ko‘proq elektr uzatish liniyalari quriladi.

Istiqboldagi davrda elektr energetikasining investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyoji elektr energiyasini ishlab chiqarishning ko‘zda tutilgan o‘sib borishiga erishish va iste’molchilarning energiya ta’minoti ishonchligini etarli darajada bo‘lishini ta’minlash, shuningdek ishlatilayotgan elektr stansiyalari va tarmoqlarini texnikaviy qayta jihozlashni o‘tkazishning sur‘atlari va muddatiga muvofiq tarzda belgilanadi.

"O‘zelektrtarmoq" UKning magistral elektr tarmoqlari negizida elektr energiyasini uzatish bo‘yicha 5ta mintaqaviy filial tuzildi, bular - Markaziy, SHarqiy, Janubiy, Janubi-G‘arbiy va SHimoli-G‘arbiy METlaridir. 35 va 110 kVli taqsimlash tarmoqlari "O‘zelektrtarmoq" UK balansidan elektr energiyasini taqsimlash va sotish bo‘yicha mintaqaviy korxonalar balansiga o‘tkazildi.

Hozirgi bosqichda kompaniya tarkibiga 53 korxona, shu jumladan 37 ochiq aksiyadorlik jamiyati (shu qatorda "O‘zbekko‘mir OAJ), 12 unitar korxona, 3 ta ma’suliyati cheklangan jamiyat va "Energosotish" filiali kiradi. Hozir tarmoqda islohot jarayoni davom etmoqda: faoliyatning monopoliya (dispetcherlash va elektr energiyani uzatish) va raqobat (sotish va ishlab chiqarish) turlari ajratilmoqda va elektr energetika tarmog‘iga bozor munosabatlari elementlari joriy etilmoqda.

O‘zbekiston qidirib topilgan ko‘mirning 1900 mln. tonna miqdoridagi zahiralariga egadir, shu jumladan qo‘ng‘ir ko‘mir zahiralar - 1853 mln. tonnani,

toshko‘mir zahiralari - 47 mln. tonnani tashkil etadi. Prognoz resurslari 5,7 mlrd. tonnadan ko‘proqdir. Toshko‘mirning katta zahiralari respublikaning janubiy hududlarida – Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida to‘plangan. Hozirgi paytda 3ta konda: Angren, SHarg‘un va Boysun konlarida ko‘mir qazib chiqarilmoqda.

O‘zbekistonda ko‘mir qazib chiqarishni «O‘zbekenergo» DAK tarkibiga kiruvchi «O‘zbekko‘mir» OAJ, shuningdek «SHarg‘unko‘mir» OAJ va «Apartak» OAJ amalga oshiradi. Angren konidagi «Angren» ko‘mir razrezi ko‘mir zahiralari ochiq usulda qazib oladi, bundan tashqari «Erostigaz» OAJ tomonidan er ostida gazlashtirish usuli bilan qo‘ng‘ir ko‘mirdan gaz ishlab chiqariladi.

O‘zbekko‘mir» OAJ har yili 3 mln.tonnaga yaqin ko‘mir qazib chiqaradi. Ko‘mir yoqilg‘isining asosiy iste‘molchisi elektr energetikasi sektori bo‘lib, uning ulushiga umumiy iste‘mol qilinadigan ko‘mirning 85 foizi to‘g‘ri keladi. Sanoat, ijtimoy va kommunal soha korxonalari ham ko‘mir yoqilg‘isiga bo‘lgan talabni shakllantiradilar.

Ko‘mir sanoatini ustuvor rivojlantirish uchun asosiy omillar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- qimmatroq energiya resurslarini mamlakat iqtisodiyotining ehtiyojlari uchun bo‘shatish maqsadida, ularni ko‘mir bilan almashtirishning maqsadga muvofiqligi;
- mamlakatning yoqilg‘i – energetik balansi tarkibida ko‘mir ulushini oshirish zarurati.

Ko‘mir sanoatini yanada rivojlantirish dasturi korxonalarni texnik jihatdan qayta jihozlash, modernizatsiya qilish, kon ishlarining samaradorligini oshirishga yordam beradigan, resurslarni tejaydigan yangi, progressiv texnologiyalarni joriy etishning 6 bosqichini o‘z ichiga oladi.

Ko‘mir sanoatini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash bo‘yicha belgilangan tadbirlarni amalga oshirish ishlab chiqarishning talab etilgan o‘sish sur‘atlariga erishishni, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda respublikaning qattiq yoqilg‘iga bo‘lgan ehtiyoji qoplanishini ta‘minlaydi, energiya ishlab chiqarishda ko‘mirni asosiy yoqilg‘i sifatida tasdiqlashga imkon beradi.

8-mavzu. Jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida uy-joy kommunal xo‘jaligida resurstejamkorligini oshirish

- 8.1. O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xo‘jaligida resurslarni boshqarishni takomillashtirish
- 8.2. Uy-joy kommunal xo‘jaligida resurstejamkorligini oshirish va korxonalarining ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyatini yaxshilash
- 8.3. Uy-joy kommunal xo‘jaligini joriy ekspluatatsiya qilishni takomillashtirish va xarajatlarni kamaytirish

8.1. O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xo‘jaligida resurslarni boshqarishni takomillashtirish

Respublikada hozirgi vaqtdagi muhim vazifalaridan biri bo‘lib iqtisodiyotni hamma tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishdan iborat bo‘lib, shulardan biri boshqarishni takomillashtirishdir.

Ishlab chiqarishni boshqarish-ishlab chiqarish natijalari va alohida jarayonlarning faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishdan iboratdir. U korxona ichida, soha chegarasida, korxonalararo va oxir oqibatda, yaxlit milliy iqtisodiyot miqyosida amalga oshiriladi.

Jamoat ishlab chiqarishning hozirgi bosqichdagi rivojlanishida boshqaruv ahamiyatining oshib borishi ishlab chiqarish miqyosining ancha kengayishi, iqtisodiyotdagi moddiy siljishlar bilan bog‘likdir.

So‘nggi yillarda boshqaruvning yaxshilanishi imkoniyatlari ancha kengaydi. Bu xodimlar va mehnatkashlar keng ommasining kasbiy tayyorgarligi ortishi, boshqaruv ilmining va boshqaruvning texnikaviy vositalarining jadal rivojlanishiga bog‘likdir.

Boshqarish masalalarining muhimligi faqat iqtisodiyotning o‘sishi miqyosi bilangina emas, balki boshqaruvning jamoat ishlab chiqarishi samaradorligiga bevosita ta’sirini ham belgilaydi.

Boshqarish jarayonida turli tuman boshqaruv munosabatlari yuzaga keladi. Bunga boshqaruv apparati va bevosita ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilari (masalan, usta va ishchi) aloqalari, ishlab chiqarishni boshqarish doirasining ichida turli-tuman aloqalar (masalan, Vazirlar Mahkamasi va «O‘zkommunaxizmat» agentligi), bir biriga bevosita bo‘ysunmagan boshqaruv tarmoqlari orasidagi munosabatlar (masalan, O‘zbekiston Respublikasi «O‘zkommunxizmat» agentligi, «Iqtisodiyot Vazirligi» va Moliya Vazirligi va boshqalar), har bir boshqaruv organining ichidagi aloqalar. Ishlab chiqarishdagi boshqaruv munosabatlari ishlab chiqarish munosabatlarining tarkibiy qismidan iborat bo‘ladi, demak, boshqaruvning tarkibi ishlab chiqarish tarkibi bilan belgilanadi. Masalan, korxonalarni yiriklashtirish, ishlab chiqarish birlashmalarini barpo etish, ishlab chiqarish tarkibida chuqur o‘zgarishlar, ishlab chiqarish bo‘limlarida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiya qilishga olib keldi.

O‘z navbatida, boshqaruv shakli ishlab chiqarish shakliga aksincha ta’sir qiladi. Ishlab chiqarish birlashmalarini barpo etilishi birlashma ichida korxonalar ixtisoslashishining chuqurlashishi yo‘nalishida va ular orasida yangi ishlab

chiqarish aloqalarini rivojlantirish, ishlab chiqarish shakllarini o'zgartirishda muhim omil bo'ladi.

SHunday qilib, boshqarish shakllari o'zgarayotgan ishlab chiqarish shakllariga mos kelishi, ularning yanada rivojlanishiga imkon berishi kerak.

Ishlab chiqarishni boshqarishning tashkiliy tarkibi bu boshqaruv faoliyati va vazifalarini amalga oshirilishini ta'minlovchi turli o'zaro bog'langan boshqaruv shaxobchalarining majmuidir.

Hozirgi vaqtda korxona va birlashma halq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lib, birlamchi ishlab chiqarish xo'jalik birligidir. Ularning huquq va vazifalari maxsus qoidalarda bitilgan. Ularning boshqariluvni markazlashtirilgan boshqaruvni korxona (birlashma)ning o'z xo'jalik mustaqilligi va tashabbuskorligi asosida olib boriladi.

Boshqarish tizimida korxona (birlashma) faqat ijrochi sifatida emas balki ishlab chiqarish xo'jalik birligi bo'lgan korxonaning faoliyatini ta'minlovchi o'zaro aloqador organ (bo'lim, boshqarma, alohida rahbarlar)ning faol qatnashchisi sifatida boshqaruvda qatnashadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi boshqaruvining tashkiliy tarkibini takomillishtirilishi milliy iqtisodiyotning bu sohasi faoliyatining samaradorligini yanada oshirishning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Ma'lumki, xo'jalikning holatini yanada rivojlanishi uchun va respublikaning kommunal xizmatlar (mahsulotlar)ning barcha turlariga ehtiyojini to'liq badastur qondirish bo'yicha «O'zkommunaxizmat» agentligi o'z takliflarini beradi. Bu xizmatlar shaharlarda, tuman markazlarida, shahar tipidagi qo'rg'onlarda va qishloq hududlarida amalga oshiriladi. Qishloq hududlaridagi xizmatlarni O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi bajaradi.

Uy-joy kommunal xo'jalik alohida tarmoqlariga rahbarlik qilish uchun tarkibida ishlab chiqarish, tarmoqni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va sug'orish, issiqlik bilan ta'minlash, shahar elektr transporti shuningdek Respublika uy-joy xo'jalik ishlab chiqarish boshqarmalari tuzildi. Ushbu boshqarmalar ilmiy texnikaviy taraqqiyot va yagona davlat texnika siyosati talablariga mos holda tegishli sohalar rivojlanishi uchun to'liq ma'suldirlar. O'zbekiston Respublikasining faoliyat ko'rsatayotgan boshqarma (bo'lim)lari Agentlik tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar chegarasida o'z faoliyatini amalga oshiradilar. Ular agentlikka bo'ysungan korxona va tashkilotlarga nisbatan farmoyish berish xuquqiga ega emaslar. Bular: aholi va korxonalarni gaz bilan ta'minlash bosh boshqarmasi; gaz ta'minoti bo'yicha tekshiruv boshqarmasi; kommunal xizmatlarni shakllantirish va islohotlarni olib borish monitoringi boshqarmasi; iqtisodiy tahlil va prognozlash bo'limi; xususiylashtirish va xususiylashtirishga ko'maklashishi bo'limi; tashqi iqtisodiy aloqalar bo'limi.

«O'zkommunxizmat» O'zbek agentligi tarkibiga «O'zkommunloyiha» instituti, «O'zkommuno'quvtashkilotchi» markazi, «O'zgazloyiha» instituti, «O'zkommunxizmat» injiniring kompaniyasi, «Kommunallizing» korxonasi kiradilar.

Agentlikning respublika miqyosidagi korxonalari va tashkilotlariga ushbu vazifalar yuklatilgan: kapital qurilish buyurtmachisi, suv etkazish kanalizatsiya

korxonalarini, tuman qozonxonalarini, trolleybus xo'jaligi korxonalarini, ishlab chiqarish bazalarini (Toshkent shaxridan tashqari) qurish ekspluatatsiya va moliyaviy xo'jalik faoliyatini rejalashtirish, buxgalteriya balanslarini qabul qilish va topshirish.

Ushbu boshqaruvning o'rta shaxobchasiga 14 ta viloyat va shahar gaz korxonalari va boshqarmalari, mintaqalararo suv bilan ta'minlash boshqarmalari kiradi.

Uy-joy kommunal xo'jaligining tashkiliy tarkibining farqlovchi xususiyati ikki tomonlama bo'ysunishdir. Bir tomondan u mahalliy hokimiyatlarga, boshqa tomondan ishlab chiqarish bo'yicha o'zidan yuqori ma'muriy organga buysunadi. Bo'ysunishdagi ikki taraflamalik qo'yidagicha izohlanadi, birinchidan, UJKXning mahalliyliigi, ikkinchidan, rejalashtirish, texnikaviy rivojlanish, moddiy-texnikaviy ta'minot va boshqalarni markazlashtirish zarurati bilandir.

Viloyat xalq deputatlari kengashining uy-joy kommunal xo'jalik va obodonlashtirish sohasidagi huquq va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqori Kengashi va viloyatlar xalq noyiblari kengashlarining asosiy vakolatlari haqidagi bandi bilan belgilanadi. Viloyat xalq deputatlari kengashi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga binoan, uy-joy kommunal xo'jalik va obodonlashtirish, viloyat tasarrufidagi UJKX korxonalari, muassasalari tashkilotlari ustidan rahbarlik qiladi; UJKXni majmuaviy rivojlanishini, mahalliy kengashlar ihtiyoridagi uy-joy fondining to'g'ri ekspluatatsiya qilinishini, kapital va joriy ta'mirlashni ta'minlaydi; muassasa uy-joy fondi, kommunal korxonalar va inshoatlar ahvoli va ekspluatatsiyasini, fuqarolar shaxsiy mulki bo'lgan uylar ahvolini nazorat qiladi; muassasalar ihtiyoridagi uy-joy fondini mahalliy organlar ihtiyoriga berilish choralari ko'radi; boshpanaga muhtoj fuqarolar tizimi holatini, maydonlari taqsimlanishining to'g'riligini nazorat qiladi; shaharlar, korxonlar va boshqa aholi manzillarini elektrlashtirish, suv, gaz, issiqlik va kanalizatsiya bilan ta'minlash bo'yicha tadbirlarni ishlab va o'tkazilishini tashkil etadi, ularni kommunal xizmatlar va yonilg'i bilan ta'minlaydi; tozalash inshoatlari va kurilmalarni qurilish va ekspluatatsiyasini, shuningdek aholi manzillarini obodonlashtirishga yuqori darajada bo'ysungan korxona, muassasa va tashkilotlarni jalb qilish bo'yicha ishlarni nazorat qiladi.

Viloyat UJKX korxonalari kapital qurilishini, shuningdek viloyat ijroiya quo'mitalari tasdiqlaydigan ekspluatatsiya xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarini rejalashtirish bilan shug'ullanadi. Viloyatlarda UJKX balanslari viloyat ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Respublika trest va boshqarmalarning tuman shahar va viloyat bo'limlari tezkorlik jihatdan viloyat va shahar UJKXlariga buysunadi.

Respublika uy-joy kommunal xo'jalikda xizmat ko'rsatish sifati bo'yicha ma'lum ishlar bajarilmoqda. Ammo uni yanada takomillashtirishni rejalashtirish amaliyotiga joriy etishda tegishli sifat ko'rsatkichlarini kiritish yo'li bilan amalga oshirishni, shuningdek ishning sifat ko'rsatkichlari uchun iqtisodiy rag'batlantirishning samarali tizimini ishlab chiqilishini talab etadi.

UJKX samaradorligini yanada oshirish uchun soha korxonalari ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyatini baholash uslubini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.


Ijtimoiy ishlab chiqarish tizimida boshqaruvga muhim ahamiyat beriladi. Uni takomillashtirish, shu jumladan tashkiliy tarkibi hozirgi davrdagi iqtisodiy siyosatning bosh masalalaridan biri hisoblanadi.

Respublika uy-joy kommunal xo‘jalik boshqaruv tarkibining tahlili natijasida sohaning boshqaruvini tashkil etishda aniqlangan kamchiliklar O‘zbekiston Respublikasi UJKX boshqaruv tarkibini tashkiliy jihatdan takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflarni ishlab chiqish va asosiy yo‘llarini aniqlash imkonini berdi. Ularni ishlab chiqishda boshqaruv tarkibining faoliyat ko‘rsatishining maqbulligi va samaradorligini belgilovchi asosiy vazifa va omillar hisobga olingan. Ularning eng muhimi turli faoliyatlar bo‘yicha tarmoqli va hududiy tarzda boshqaruvni ixtisoslashtirish va konsentratsiyalashni maqbul birga qo‘shishdan iboratdir.

Viloyat darajasida boshqaruvni takomillashtirishning asosin yo‘li xo‘jalikning kichik tarmoqlari bo‘yicha ishlab chiqarish — ekspluatatsiya birlashmalarini viloyat uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasiga bo‘ysundirish bilan tashkil etish va uning modellasuvi asosida UJKXni boshqarishning samarali sxemasini asoslash hisoblanadi.

UJKX ning kichik tarmoqlari farqlanishiga qaramay, ular qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi: tizimni shakllantiruvchi muhim hududiy bo‘linish va elementlar sonining ko‘pligi; muhit (hudud bo‘yicha) va vaqtda uzluksiz rivojlanishi; boshqaruv chizig‘ida sub’ektlargshng bevosita soni hamda boshqariluvchi va boshqariladigan tizimlarni ierarxik tuzilmasi; boshqaruv jarayonlarining vaqtdagi uzluksizligi; boshqaruv markazlashuvining yuqori darajasi bilan texnologik jarayonlarni tezkor boshqarishni bir vaqtning o‘zida nomarkazlashtirish, boshqaruv jarayonlarining sekinlashuvi.

2-chizmada UJKX boshqaruv tizimining blok-sxemasi keltirilgan



8.2. Uy-joy kommunal xo‘jaligida resurstejamkorligini oshirish va korxonalarining ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyatini yaxshilash

O‘zbekiston Respublikasida aholini toza ichimlik suv ta‘minotini yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari. So‘nggi yillarda Respublika Hukumati tomonidan ichimlik suv ta‘minotini rivojlantirish, aholini toza va sifatli ichimlik suvi bilan ta‘minlashni yaxshilash masalalariga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 1 iyun 278-sonli «Qishloq aholi yashash joylarini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta‘minlashni

yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2005 yil 7 sentyabr 405-sonli «Qishloq aholi yashash joylarini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari hamda chet el investitsiya mablag'lari hisobidan respublika hududlarida suv ta'minotini yaxshilash yuzasidan qabul qilingan bir qator qarorlari ushbu fikrimizning dalilidir. Hozirda respublikadagi 265 ta shahar va tuman markazlarida hamda 11844 ta qishloq aholi yashash punktlaridan 8647 tasida markazlashgan ichimlik suv ta'minoti mavjud. Respublika suv inshootlarining 9213 ming mZ/sut quvvati mavjud bo'lib, 5496 ming mZ/sut dan foydalanilmoqda.

Hozirgi kunda respublika statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra shahar aholisining 86,5%, qishloq aholisining 75,3% toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan, bir kishiga o'rtacha suv iste'moli shaharda 318 l/sut, qishloqda 70 l/sutkani tashkil etadi. Ammo, «O'zkommunxizmat» agentligi tomonidan 2008 yilning sentyabr oyida o'tkazilgan xatlov natijalariga ko'ra respublika aholisining 69,2% (Toshkent shahridan tashqari) markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlangan, jumladan, quyidagi hududlarda ushbu masalada ahvol ayniqsa og'ir - Buxoro viloyati 53,3%, Navoiy viloyati 56%, Qoraqalpog'iston Respublikasi 57,9%, Samarqand viloyati 64%, Namangan viloyati 64,3%.

Respublika aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilashning asosiy yo'nalishlaridan biri - bu sohaga investitsiyalarni keng jalb qilishdir.

Hozirgi kunda ushbu masalada ma'lum ishlar qilinmoqda. Jumladan, 1998 yildan shu kungacha respublikada ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini yaxshilashga jami 257,2 mln AQSH dollari miqdoridagi investitsiya mablag'lari jalb qilingan bo'lib, shu kungacha 155,5 mln AQSH dollari o'zlashtirilgan.

SHulardan, Jahon Banki hamda Arabiston iqtisodiy rivojlantirish Quvayt fondining 81,0 mln AQSH dollari miqdoridagi kredit mablag'lari hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisini ichimlik suv ta'minoti tizimini yaxshilash bo'yicha 1998-2007 yillarga belgilangan «O'zbekiston, toza suv, sanitariya va aholi salomatligi» investitsiya loyihasi amalga oshirilayotgan bo'lib, hozirgi kungacha 50,2 mln AQSH dollariga Nukus shahrida quvvati sutkasiga 44,9 ming mZ suv taqsimlash inshooti, To'rtko'l, Beruniy, Kegeyli va CHimboy shaharchalarida sutkasiga 19,4 ming mZ suv uzatish inshootlari, 86,7 km suv quvurlari va tarmoqlari qurib bitkazilgan va 59 ta suv taqsimlash uzellari rekonstruksiya qilingan, 9 ta suvni chuchuklashtiruvchi inshootlar qurib bitkazilgan. Ushbu ishlar natijasida jami 625,4 ming aholi sifatli ichimlik suv bilan ta'minlangan.

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida Guliston, Jizzah va Qarshi shaharlari suv ta'minoti tizimini yaxshilash bo'yicha 2002-2007 yillarga belgilangan investitsiya loyihasi yakunlanmoqda. Ushbu loyihaga muvofiq umumiy quvvati sutkasiga 401,5 ming mZ bo'lgan suv inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish hamda 276 km suv quvurlarini qurish mo'ljallangan bo'lib, buning natijasida 400 mingga yaqin aholining suv ta'minoti yaxshilanadi.

Guliston shahrida quvvati sutkasiga 10 ming mZ bo'lgan toza suv rezervuari qurib bitkazildi va foydalanishga topshirildi, Qarshi shahrida 15 km suv quvurlari qurib bitkazildi, bundan tashqari etkazib berilayotgan ichimlik suvining hisobini

yo'lga qo'yish maqsadida jami 38 mingta maishiy sovuq suv o'lchash asboblari, suv ta'minoti korxonalari uchun muxandislik kommunikatsiyalariga xizmat ko'rsatadigan maxsus texnika va jihozlar keltirildi.

Ajratilgan grant mablag'lari hisobidan Tuyamo'yin-Nukus va Tuyamo'yin-Urganch mintaqalararo suv quvurlaridagi texnologik jihozlar, xlirlash xonalari, reagent xo'jaliklari va filtrlash stansiyalari, shuningdek Nukus suv taqsimlash tarmog'idagi eski nasoslarni zamonaviy, elektr energiyasini tejaydigan nasoslarga almashtirgan holda modernizatsiya qilish ishlari yakunlandi.

Jahon Banki ishtirokida Samarqand va Buxoro shaharlari suv ta'minotini yaxshilash loyihasi bo'yicha 240 km uzunlikdagi suv quvurlarini rekonstruksiya qilish ko'zda tutilgan, buning natijasida jami 680 ming aholining suv ta'minoti yaxshilanadi.

Buxoroda 15 km, Samarqandda 39 km suv quvurlari qurildi, 22 ta quduq nasoslari o'rnatilib, foydalanishga topshirildi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 9 oktyabr PQ-484 sonli qaroriga muvofiq 2007 va keyingi yillarga belgilangan 370 mln AQSH dollari mablag'lariga 20 ga yaqin ustuvor investitsiya loyihalarining ro'yhati tayyorlanib, hozirgi kunda ushbu loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tayyorlov ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasining umumiy qiymati 62 mln AQSH dollaridan iborat kredit mablag'lari hisobiga «Farg'ona, Marg'ilon shaharlari va suv quvurlari yaqinida joylashgan aholi yashash punktlarining suv ta'minotini tubdan yaxshilash» loyihasi, Osiyo Taraqqiyot Bankining kredit mablag'larini jalb qilgan holda «Qashqadaryo va Navoiy viloyatlari aholi yashash punktlari suv ta'minoti va sanitariyasini yaxshilash» loyihasi, Osiyo Taraqqiyot Bankining 25 mln AQSH dollaridan iborat kredit mablag'lari hisobidan «Jizzah va Surxondaryo viloyatlari qishloq aholi yashash punktlari suv ta'minoti va sanitariyasini yaxshilash» loyihasini amalga oshirish ishlari bo'yicha dastlabki tayyorlash ishlari yakunlanmoqda.

2007 yilda Xitoy Xalq Respublikasining kredit mablag'lari hisobidan umumiy qiymati 33 mln AQSH dollaridan iborat «CHirchiq shahridagi kanalizatsiya tozalash inshootlarini rekonstruksiya qilish va rivojlantirish» va «Namangan shahridagi kanalizatsiya tozalash inshootlarini rekonstruksiya qilish va rivojlantirish» loyihalari, «Damxo'ja mintaqalararo suv quvurlarini modernizatsiya qilish», «Toshkent viloyatining CHinoz, Zangiota, Toshkent va YAngiyo'l tumanlari aholisini suv ta'minotini yaxshilash maqsadida (VU-1, VU-3) suv olish inshootlarini rekonstruksiya qilish» loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tayyorgarlik ishlarini tugallash ko'zda tutilmoqda.

SHu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan qarorda belgilangan loyihalardan 198 mln AQSH dollari mablag'lariga amalga oshirilishi ko'zda tutilgan 14 ta loyihalar bo'yicha moliyalash manbalari aniqlanmagan.

Ushbu loyihalarning loyiha-smeta hujjatlari va dastlabki hisob-kitob ishlarini bajarish uchun 400 mln so'mdan ortik, mablag'lar zarur bo'lib, hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan, tashqi iqtisodiy aloqalar va savdo vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ushbu mablag'larning manbalari

aniqlanishi, shuningdek ularning amalga oshirilishi uchun potensial investorlarni tanlashga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

YUqoridagi investitsiya dasturlarining amalga oshirilishi natijasida respublika aholisining suv ta'minoti yanada yaxshilanib, markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlangan aholining qamrovini 92-95 % gacha etkazish ko'zda tutilmoqda.

Respublikada ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini yaxshilashning yana bir yo'nalishi bu - avvalgi yillarda ichimlik suvi bilan ta'minlangan qishloqlardagi nosoz va ishdan chiqqan tarmoqlar, ichimlik suvi inshootlarini ish faoliyatini tiklashdir.

Ushbu masalada 2008 yilda bir qator ishlar amalga oshirildi, jumladan: qishloq joylarda shirkat xo'jaliklari tugatilishi va ularning o'rnida fermer xo'jaliklari tashkil etilishi munosabati bilan suv inshootlari egasiz holga kelib, ulardan ko'pi ichimlik suvi uzatishni to'xtatdi. 2008 yilda ularning bir qismini tiklash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hozirgacha 807,8 km quvurlar ajratilgan, shulardan 792,0 km montaj qilingan, 1163 ta nasos o'rnatilgan.

Moliyalashtirish manbalari xisobidan rejalashtirilgan 15,17 mlrd. so'mdan 8,52 mlrd. so'm (56%) mablag'lar o'zlashtirilgan. SHu jumladan, Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat byudjetidan 6 mlrd.so'm kapital mablag'lar ajratilgan.

Namangan va Farg'ona viloyatlarida «Suvoqava» korxonalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, fermer xo'jaliklari, MMTP va mahalliy tadbirkorlar ta'sischiligida ma'suliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilib, tiklangan suv inshootlari eksperiment tariqasida ularning boshqaruviga berildi. Ushbu eksperiment natijalariga ko'ra shu kabi jamiyatlarni, respublikaning boshqa hududlarida tashkil etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining topshirig'i zarur hujjatlar namunalari bilan birga, joylarga yuborildi.

«O'zkommunxizmat» agentligi tomonidan, respublika suv ta'minoti korxonalari bilan birgalikda 2008 yilning noyabr va dekabr oylarida O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga muvofiq aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash uchun birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo'lgan ish hajmlari hamda suv ta'minoti korxonalarining moliyaviy - iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun kerakli bo'lgan mashina, mexanizmlar, jihozlar va asbob-uskunalar, ushbu ish va metariallarga zarur bo'lgan pul mablag'larining miqdori aniqlanib, alohida dastur tayyorlandi. Ushbu dasturga muvofiq, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra 855 mlrd. so'm mablag'lar zarurligi aniqlandi.

Dasturda ko'zda tutilgan ishlarni amalga oshirish uchun loyiha-smeta hujjatlari, zarur uskuna va materiallar ro'yhati hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan kelishilgan holda manzilli dasturlarining loyihalari tayyorlandi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu dasturni amalga oshirish uchun mablag'larning manbalari aniqlanmoqda.

Iste'molchilarga ichimlik suvini etkazib berishda uning hisobini yuritish, behuda yo'qotishlarni keskin kamaytirish masalalari ham dolzarbligicha qolmoqda.

Hozirgi kunda respublika bo'yicha jami 2,0 mln.dan ziyod aholi abonentlari mavjud bo'lib, shulardan atigi 795,7 mingta yoki 38,2%ga suv o'lchash asboblari o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 3 yanvar PQ-553 sonli «O'zbekiston Respublikasi uy-joy fondini sovuq va issiq suv o'lchash asboblari bilan ta'minlash» bo'yicha investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori ushbu masalani echish imkonini beradi.

Qarorga asosan 2008 yilning 1 iyuligacha Xitoy Xalq Respublikasining imtiyozli krediti hisobidan, aholi tomonidan haqi to'langan holda respublikadagi barcha aholi xonadonlariga sovuq suv o'lchash asboblari o'rnatishni yakunlash belgilangan.

Respublikadagi suv ta'minoti korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashda iste'molchilar tomonidan etkazib berilgan ichimlik suvi uchun haqini o'z vaqtida va to'liq to'lanishi katta ahamiyatta egadir.

Respublika bo'yicha etkazib berilgan ichimlik suvi uchun barcha iste'molchilarning umumiy debitorlik qarzdorligi 25 mlrd so'mni tashkil etadi. SHu jumladan, aholining debitor qarzdorligi 8878 mln so'mni tashkil qilib, 2008 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 177 mln so'mga qisqartirilgan bo'lsa ham hali bu ko'rsatkich yuqoriligicha qolmoqda.

Debitor qarzdorlik o'tgan yili Toshkent shahrida 405,5 mln so'mga, Xorazm viloyatida 92,2 mln so'mga va Qoraqalpog'iston Respublikasida 68,0 mln so'mga qisqartirilgan, lekin shu bilan birga Sirdaryo viloyatida 229,2 mln so'mga, Jizzah viloyatida 133,1 mln so'mga, Surxondaryo viloyatida 32,6 mln so'mga oshishiga yo'l qo'yilgan.

Bundan tashqari ichimlik suvini ishlab chiqarishda elektr energiyasining sarfi yuqori bo'lib, amalda barcha xarajatlarning 45-50% tashkil etadi. SHuni alohida ta'kidlab o'tish joizki oxirgi yillarda elektr energiyasi uchun tariflar 5-6 marta oshganligi, shu davrda ichimlik suvi uchun tariflarning oshmaganligi va etkazib berilgan ichimlik suvining haqini iste'molchilar tomonidan o'z vaqtida to'lanmasligi sababli suv ta'minoti korxonalarining elektr energiyasidan qarzdorligi yuqori bo'lib qolmoqda va elektr ta'minoti korxonalari shu sababli vaqti-vaqti bilan elektr energiyasini o'chirib qo'ymoqdalar, bu esa o'z navbatida texnologik jarayonning buzilishiga, elektr dvigatellarining kuyishiga, nasoslarning ishdan chiqishiga hamda iste'molchilarga ichimlik suvini etkazib berishda uzilishlarga olib kelmoqda.

Hozirgi kunda Respublikamizning barcha hududlarida Moliya vazirligi bilan kelishilgan va sarf-harajatlarni asoslagan holda ichimlik suvi uchun tariflar bir muncha oshirildi. Takliflar:

- barcha iste'molchilarga suv etkazib berish va oqava suv xizmatlari uchun 100% shartnomalar tuzilishini ta'minlash.

- suv inshootlarining barchasiga ishlab chiqarilayotgan suv hajmini aniq hisobini yuritish maqsadida hisoblash asboblari o'rnatish.

- barcha ulgurji iste'molchilarga 100% suv o'lchash asboblari o'rnatilishini ta'minlash.

- iste'molchilarga etkazib berilgan ichimlik suvi va ko'rsatilgan oqava suv xizmatlari uchun tushumlarni keskin oshirish buyicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqib, bajarilishini ta'minlash.

- kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish hamda ularni joy - joyiga qo'ygan holda, ularga nisbatan talabchanlikni oshirish.

- eskirgan jixozlar, uskunalar va suv tarmoqlarini ta'mirlash hamda almashtirish uchun mablag'lar to'plash maqsadida tushumning 10 %ni boshqarmaning maxsus (depozit) hisob raqamida jamlash.

Kommunal xizmatlarning barcha sohasiga, ayniqsa suv va issiqlik energiyasi ta'minoti tizimiga bevosita investitsiyalarni jalb qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish orqali sifatli xizmat ko'rsatuvchi xususiy korxonalarni tashkil qilish va ularning faoliyatini litsenziyalash yo'li bilan muvofiqlashtirish tavsiya etiladi. Bu tadbirlarni amaliyotga qo'llash orqali Respublika kommunal xo'jaligi tizimida raqobat muhitini shakllantirish mumkin. Buning natijasida o'z-o'zidan kommunal xizmatlarning aniq bozori kelib chiqadi. SHu ishlar bajarilganidan keyingina bu tarmoqni tartibga solish va kichik korxonalarni birlashtirish uchun Kommunal Xizmatlar Departamenti tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

8.3. Uy-joy kommunal xo'jaligini joriy ekspluatatsiya qilishni takomillashtirish va xarajatlarni kamaytirish

Kommunal xo'jalik korxonalarini ekspluatatsiya faoliyatini rejalashtirishning vazifasi bo'lib shaharlar, shahar tipidagi qo'rg'onlar, qishloq aholisiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar darajasini ko'tarish va sifatini davr me'yorlariga mos holda va aholining sanitar-gigienik sharoitini hisobga olgan holda yaxshilashdan iboratdir. Bunda kommunal xo'jalikning yangi quvvatlarini ishga tushirish va mavjudlarini ish unumdorligini isloh qilish hisobiga orttirish, modernizatsiyani o'tqazish, mehnatni yaxshiroq tashkil etish, ko'p mehnat talab qiladigan ishlarni mexanizatsiyalash, o'z ehtiyojlari xarajatlari va qaytmas sarf-xarajatlarni qisqartirish hisobiga olinishi zarur.

Kommunal korxonalar ishlab chiqargan mahsulotini (xizmatlarni) natural va pul hisobida amalga oshiradi. Xizmatlar aholiga va kommunal maishiy ehtiyojlar bo'yicha ishlardan iboratdir.

Suv etkazish va kanalizatsiya xo'jaligi. Suv etqazish tarmog'ining asosiy ko'rsatkichi iste'molchilarga suv etqazishdir. Suv etkazish tarmog'ining ishlab chiqarish quvvati suv etqazishning me'yorlashtiruvchi elementlari - suv olish, birinchi va ikkinchi bosqich nasos stansiyasi, tozalash inshootlari va suv etkazish tarmog'ining udumdorligi bo'yicha aniqlanadi. Suv etkazish tarmog'ining quvvatini oshirishni suvning hosilaviy tartibga solishda yangi tarmoqlarni ishga tushirish va ishlayotganlarining quvvatini ulardan foydalanish koeffitsientini oshirish evaziga ko'tarish hisobga olinadi, shuningdek alohida inshootlar quvvatidagi nomutanosiblikni yo'qotish hisobiga amalga oshiriladi.

Tarmoqqa etqazilayotgan suv miqdori suv etkazish tarmog'i quvvatini inobatga olib, shu quvvatdan foydalanish koeffitsienti va chetdan olinayotgan suv miqdori yordamida hisoblab chiqiladi.

Iste'molchilarga etqazilayotgan suv miqdori oqib ketgan va hisobga olinmagan suv sarfining miqdori bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich aholi va boshqa iste'molchilarning kommunal — maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun va alohida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish maqsadlari uchun korxonalarning spetsifik xususiyatlari va sanoat mahsulotlarini chiqarish bo'yicha rejali topshiriqlarni hisobga olgan holda limit asosida rejalashtiriladi.

Aholi manzilining suv etkazish tarmog'i bilan ta'minlangan ko'rsatkichiga, uning quvvatidan tashkari ko'chalar bo'ylab yotqizilgan tarqatuvchi tarmoqlar kiritiladi

Kanalizatsiya tarmog'ining ishlashini asosiy ko'rsatkichlari: chiqindi suvlarni bosh kollektor orqali o'tkazish va ularni tozalovchi inshootlarda tozalashdir. Kollektorlar va tozalovchi inshootlar orqali o'tkazilayotgan chiqindi suvlar miqdori har bir iste'molchi uchun ular foydalanayotgan suv miqdoriga teng deb qabul qilinadi.

Suvdan xomashyo sifatida foydalanayotgan korxonalar uchun yoki suvni aylanish siklida ishlatuvchi korxonalar uchun chiqindi suvlar miqdori chiqarilayotgan suv bo'yicha yoki hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Aholi manzillari kanalizatsiya tarmoqlari holati ko'rsatkichlari tarmoqlar, ko'chalar uzunligiga foiz hisobida, suv o'tkazish qobiliyati tarqatilayotgan suv hajmiga foiz hisobida, chiqindi suvlar mexanik na to'liq biologik tozalanganligi kanalizatsiya tarmog'ining suv o'tkazish qobiliyatiga foiz hisobida belgilanadi.

Suv etkazish - kanalizatsiya tarmoqlari xo'jaligidagi joriy rejalashtirishning mavjud tamoyillari asosan iqtisodiy islohotlar talablariga mos keladi. Asosiy kamchilik shundan iboratki, yil davomida rivojlanish dasturiga bir necha marta o'zgartirishlar kiritiladi.

Bu holat rejalashtirish bo'yicha tasdiqlangan uslubiy ko'rsatmalarning mavjud emasligi bilan izohlanadi.

Xozir qo'llanilayotgan uslubiyatlardagi jiddiy nuqson shundan iboratki, rejalashtirish jarayonida me'yoriy ma'lumotlar ko'rsatmalar mavjud emas. Mahalliy me'yoriy normalarni ishlab chiqish haqida ko'rsatmalar yo'q, xattoki eng murakkab ko'rsatkichlarni hisoblash namunalari ham mavjud emas.

Suv ta'minotini tartibga solishning jiddiy kamchiligi shahar xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi haqida ma'lumotlarning yo'qligi, bu soha rivojlanishini istiqbolli rejalashtirishda tartib yo'qligini bevosita oqibatidir.

Kommunal suv ta'minoti korxonalari xodimlarining ishlab chiqarish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari suvni harid qilish hajmi va balansli daromad bo'lib, ular yillik o'sish bilan hisoblanadi.

Suv ta'minoti korxonasi xodimi milliy iqtisodiyotni talablarini hisobga olishga qaratilgan ichimlik suvi ishlab chiqarishni ko'paytirish tashvishi bilangina band bo'lmasdan, shu bilan birga, suvdan oqilona foydalanish ustidan samarali nazorat va uni sarfini hisobga olishni amalga oshirish, suvning isrof bo'ishi bo'yicha zarur choralar ko'rilishi kerak.

SHu tufayli har bir toifadagi iste'molchiga, har qanday aholi manzili mahalliy sharoitiga mos holda belgilangan individual alohida ko'rsatkichlariga ega

suv sarfi (me'yornoma) bo'yicha rejaviy topshiriqlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

SHunday tartib o'rnatish maqsadga muvofiq bo'lardiki, u bo'yicha suv harid qilish rejasini "oshirib bajargani" uchun, yoki boshqacha aytganda suvni me'yoridan ortiq sarflash uchun iqtisodiy rag'batlantirish o'tkazilmaydi.

Suv etkazish tartibi va abonentlar tomonidan suv iste'moli ustidan nazorat qilish muammosini ko'taradi, buni hal etish uchun suv ta'minotining uzluksizligi ustidan ishonchli nazorat yo'lga quyilishi kerak. Bu o'z navbatida suv ta'minlash tizimida qator nazorat nuqtalarida o'rnatilgan o'ziyozar asboblardan yordamida qayd etiladi.

Gaz xo'jaligi. Gaz xo'jaligi ishining asosiy ko'rsatkichi, aholi va boshqa iste'molchilarga etqazilayotgan xizmatlar xajmidir. Aholining kommunal-maishiy talablari uchun gaz 1 ta yashovchiga mo'ljallangan o'rtacha me'yor bo'yicha hisoblanadi. Suyultirilgan gaz tarqatuvchi stansiyalar quvvati gaz to'ldirilgan ballonlar sig'imi bo'yicha aniqlanadi. Stansiya quvvatini oshirishni rejalashtirilganda aholining suyultirilgan gazga talabi va gazni muddatida etkazishni hisobga oladi.

Qishloqlardagi xonadonlarni gazlashtirishni rejalashtirish muassasa belgisi bo'yicha amalga oshiriladi.

Gaz ta'minoti yagona tizimga egaligi bilan izohlanadi, uning barcha tarkibiy bo'laklari (konlar, gaz quvurlari, shahar ichidagi tarmoqlar) bir biri bilan bog'langan va rejalashtirishda shu aloqalarni hisobga olinishi zarur. Hozirgi vaqtda tartibga solish tizimining jiddiy kamchiliklaridan biri rejada mo'ljallangan xizmatlar hajmi zarur moddiy manbaalar bilan ta'minlanmasligidir. Aholi talablarini qondirish uchun gaz xo'jaliklari faqatgina gaz emas balki uskunalar, maishiy gaz apparatlari, gaz sarfini hisoblagichlar va boshqalarni ham oladilar. Bularning hammasini but holatda saqlab turish uchun etarlicha quvurlar, ehtiyot qismlar, o'lchovlar talab etiladi. Bu bundan 20-30 yil avval tashkil etilgan gaz xo'jaliklari uchun juda muhim, chunki ularga katta hajmda kapital ta'mirlash talab qilinadi. Bularning barchasi moddiy-texnikaviy manbalarning yagona markazlashtirilgan fondini barpo etishni taqazo etmoqda, ayniqsa qishloq joylardagi gaz bilan ta'minlash tizimini ta'minlash uchun.

SHahar hududlari maydonlarini chiqindi va qordan tozalash, chiqarish va yo'q qilish, qattiq chiqindilar, chiqariladigan qor, assenizatsiya texnikasi yordamida tashib chiqariladigan suyuq chiqindilar rejalashtirilgan ko'rsatkichlar hisoblanadi. Tozalash rejasi bo'yicha ishlar hajmi asosida chiqindi yig'uvchi, sug'orish-yuvuvchi va qor tozalovchi mashinalarga, xonadon chiqindilari, shu jumladan oziq-ovqat chiqindilarini olib chiqishga, maxsus avtomashinalarga talab aniqlanadi, qattiq va suyuq chiqindilarni yo'qotish uchun zarur hududlar, korxona va uskunalardan tanlanadi.

Sanitariya jihatdan tozalovchi korxonalar faoliyatining ko'rsatkichlari rejalashtirilgan ishlar birligi tannarxi, daromadlarning umumiy miqdori, ekspluatatsiya xarajatlari miqdori, xodimlar soni, shuningdek mashina va mexanizmlarni ishlatish bo'yicha ko'rsatkichlardir. Mazkur tizimda kamchiliklar

mavjud. Ishlab chiqarish dasturlarida xonadonlardagi olib chiqib ketish grafigi, mashinalarning qatnash soni va boshqa qator ko'rsatkichlar hamma joyda ham qayd etilmaydi, bu esa rejaviy ishlab chiqarish, moliyaviy rejaning alohida bo'limlarini hisoblab chiqishda zarurdir. Ko'chalarni tozalashda yo'llarni va o'tish joylarini tozalash davriyligi, mashinalarning ishda, navbatchilikda bo'lish asosan rejalashtirilmaydi.

Ko'pchilik xo'jaliklarda tashkiliy texnikaviy tadbirlar ishlab chiqiladi, ularda esa tadbirlarning aniq ijrochilari, muddatlari, unga sarf bo'ladigan xarajatlar, moliyalashtirish manbaalari, iqtisodiy samaradorlik hisob-kitoblari yo'q.

Moddiy texnikaviy ta'minotni rejalashtirish o'tgan davr uchun xaqiqiy ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi, oqibatda materiallarning ortiqcha ishlatilishi yoki etishmasligi qonuniylashtiriladi. Masalan, Kattaqo'rg'on shahrida maxsus avtobazada texnika xizmati va to'plovchi texnikani ta'mirlash uchun materiallar miqdori va ehtiyot qismlar sonini aniqlashda o'tgan yildagi xaqiqiy sarfi va mashinalarning xizmatda bosib o'tgan yo'li asos qilib olingan. Mashinalarning yurgan har bir kilometr yo'lga ham sarf-xarajatlar xuddi shunday hisoblangan va joriy yilda bosib o'tgan yo'lga ko'paytirilgan va rejaga kiritilgan. Demak, o'tgan yili materiallar ortiqcha sarflangan bo'lsa (yoki barcha zarur ishlarni amalga oshirishga etmaydigan bo'lsa), bu holat baribir rejaga kiritiladi.

Yo'l xo'jaligining asosiy ko'rsatkichi yo'l qurish ishlarining bajarilgan hajmidir. Tahlillarning ko'rsatishicha, yo'l ishlari hajmi ajratilgan mablag' va bajarilgan xizmatiga ko'ra rejalashtiriladi.

Ko'kalamzorlashtirish xo'jaligi tarkibiga qo'yidagilar kiradi:

- Gullar va gul ko'chatlari etishtiruvchi gulchilik korxonalari;
- Bezakli daraxt-butali o'simliklar ko'chatlarini etqazib berish;
- SHahar yashil o'simliklarini parvarishlash korxonalari;
- Ko'pchilik foydalanadigan parklar, bog'lar, hiyobonlar, yo'laklar soni;
- Ko'kalamzorlashtirish manzillarini qurish va ta'mirlash bilan shug'ullanuvchi korxonalar (ta'mirlash-qurilish boshqarmalari, uchastkalari).

SHuningdek o'rmon-parklarda daraxtlarni sug'orish va parvarishlash bilan shug'ullanuvchi, o'rmonda o'sadigan daraxtlar ko'chatlarini etkazish bilan shug'ullanuvchi va o'rmonlarga qarab turuvchi o'rmon xo'jaliklari.

9-mavzu. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimida bahoni shakllantirish va kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlari

9.1. Kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarda uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash xarajatlarning qiymatini shakllantirish

9.2. XUJMSHning uy-joy maydoniga qilinadigan foydalanish xarajatlari qiymatini aniqlash tartibi

9.3. Aholining kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlari va ularni hisoblash uslubi

9.4. Uy-joy xo'jaligida suv iste'moli me'yori va oqavasuvni chetlashtirish

9.5. Uy-joy xo'jaligida issiqlik energiyasi iste'moli me'yorini aniqlash uslubi.

9.6. Uy-joy xo'jaligida tabiiy gaz ta'minoti me'yori

9.1. Kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarda uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash xarajatlarining qiymatini shakllantirish

Uy-joy fondidan foydalanish va uni talab darajasida saqlash xarajatlari "Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash xarajatlarining tarkibi" to'g'risidagi Nizomga asosan shakllantirilib, uy-joy umumiy maydonning 1 m²ga qilinadigan foydalanish xarajatlari tariflarini shakllantirish asosida tuziladi.

Uy-joyga texnikaviy xizmat ko'rsatish va ta'mirlash tarifining miqdori, uy-joy fondining mulk shaklidan qat'iy nazar:

1. Xarajatlarning ishlab chiqarish tannarxi;

2. Davr xarajatlari;

3. Moliyaviy faoliyatga oid xarajatlardan tashkil topadi.

Xarajatlarning ishlab chiqarish tannarxi o'z ichiga:

1. Uy xo'jaligini saqlash xarajatlari;

2. Hamma foydalanadigan joylar (kvartiradan tashqaridagi xonalar, muhandislik tarmoqlari)ni joriy ta'mirlash, nosozliklarni bartaraf etish va rejalashtirilgan oldini olish ishlarini amalga oshirish xarajatlari;

3. Uy-joy fondidan foydalanuvchi yuridik shaxsning asosiy fondlariga kiruvchi mashinalar, uskunalar, anjomlar va boshqa mulkni to'liq tiklashga amortizatsiya ajratmalari;

4. Uy-joyning hamma foydalanadigan joylarini va uy atrofidagi hududni mukammal ta'mirlash xarajatlarini oladi.

Davr xarajatlariga esa xizmatlarni sotish, boshqaruv, boshqa operatsion chiqim va zararlar kiradi.

Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash tariflariga kiritilgan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar turlari xarajatlarining hisobi har bir uy, uy-joydan foydalanish korxonasiga oid shartnomaga, uning umumiy maydonidan hamda amalda bo'lgan uy umumiy maydonining 1 m² ga 1 oylik tarifdan kelib chiqqan holda ilova qilinadi.

Turar joy xonalariga texnikaviy xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun to'lov bo'yicha uzil-kesil hisob-kitob yil oxirida, amalda bajarilgan ishlar hajmi, ularning sifati va bajarish muddatlari asosida amalga oshiriladi. Xarajatlar asoslab berilgan taqdirda to'lovlar qayta hisoblanadi: kamomadlar hisobot yilidan keyingi davrda uy-joy umumiy maydonining 1 m² iga tariflarni shakllantirishda hisobga olinadi, aholidan ortiqcha olingan to'lovlar esa kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

Xarajatlarning ishlab chiqarish tannarxini hisoblab chiqarish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash tarifini shakllantirishda ishlab chiqarish tannarxining tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

tomonidan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom"ga muvofiq aniqlangan xarajatlar kiritiladi.

2. Ishlar va xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxini tashkil etuvchi xarajatlar iqtisodiy tarkibiga qarab quyidagi qismlar bo'yicha guruhlanadi:

- ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar;
- ishlab chiqarish bilan bog'liq mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- ishlab chiqarish bilan bog'liq asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

3. Ishlab chiqariladigan va sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga muvofiq haqini aholining o'zi to'laydigan uy-joy fondidan foydalanish va saqlash, sanitariya jihatidan tozalashga, lift xo'jaligi, hamma foydalanadigan antennalar o'rnatish xo'jaligiga oid xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi.

Ushbu imtiyoz fuqarolar nomidan ish ko'radigan va aholiga ko'rsatgan xizmatlari uchun yuqorida keltirilgan xo'jaliklar bilan hisob-kitob qiladigan uy-joydan foydalanish boshqarmalari (UFB) yoki uy-joy mulkdorlari shirkatlariga ham tatbiq etiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan uy-joydan foydalanish korxonalari moddiy resurslar (ishlar, xizmatlar)ni qo'shilgan qiymat solig'i bilan sotib oladi. Sotib olingan moddiy resurslar (ishlar, xizmatlar)ga solinadigan qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarish xarajatlariga kiritiladi.

Pudrat usulida amalga oshiriluvchi joriy va mukammal ta'mirlash xarajatlari uy-joydan foydalanish tashkilotlarining xarajatlarida qo'shilgan qiymat solig'isiz hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar tarkibi quyidagicha shakllantiriladi:

1. Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

a) uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash ishlarini bajarishda, xizmatlar ko'rsatishda zarur bo'ladigan, chetdan sotib olinadigan materiallar.

Tannarxni xomcho't kalkulyasiyalashda moddiy xarajatlar materiallar sarflashning belgilangan me'yorlari bo'yicha hisobga olinadi;

b) uy joy fondini yaxshi holatda saqlash va ta'mirlash uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonida foydalaniladigan, sotib olinadigan materiallar, shuningdek uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, asosiy fondlarga kirmaydigan asbob uskunalar, moslamalar, anjomlar va boshqa mehnat vositalarining eskirishi, jomakor hamda o'zga arzonbaho buyumlarning eskirishi;

v) mazkur xo'jalik yurituvchi sub'ektda keyinchalik montaj qilinadigan yoki qo'shimcha ishlovdan o'tkaziladigan sotib olinuvchi butlash buyumlari va yarim tayyor mahsulotlar;

g) chetdan xarid qilinadigan yoqilg'ining barcha turlari;

d) xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning transporti bilan amalga oshiriluvchi, ishlab chiqarishga ko‘rsatiladigan transport xizmatlari;

e) sotib olinadigan energiya hamda turlari (uy-joy fondining foydalanadigan joylarini yoritish, lift xo‘jaligi hamda uy xo‘jaligining uskunolari ishlashini ta‘minlash uchun elektrenergiyasi), isitish qurilmalarini yuvib tozalash va isitish mavsumiga tayyorlash uchun foydalaniladigan suv;

j) chet yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan, ishlab chiqarish bilan bog‘liq ish hamda xizmatlar (ko‘chadagi iflosliklarni olib ketish, ko‘p kvartirali uylarning erto‘lalariga kimyoviy ishlov berish, uy-joy fondini mukammal ta‘mirlash va b.);

2. “Moddiy xarajatlar” qismida aks ettiriluvchi moddiy resurslar qiymati xarid narxlaridan, shu jumladan barter bitimlaridagi narxlardan, qo‘shimcha narxlar(ustamalar)dan, ta‘minlovchi, tashqi iqtisodiy tashkilotlarga to‘lanadigan vositachilik haqidan, tovar birjalari xizmatlari, shu jumladan brokerlik xizmatlari qiymatidan, bojxona bojlaridan, chet yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriluvchi tashish, saqlash va etkazib berish haqidan tashkil topadi.

Ishlab chiqarish bilan bog‘liq mehnatga haq to‘lash xarajatlariga:

1. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq mehnatga haq to‘lash xarajatlari uy-joy fondini saqlash va xizmat ko‘rsatishda qatnashuvchi ishlab chiqarish xodimlari (ko‘cha tozalovchilar, farroshlar, axlat kameralari va axlat quvurlarini tozalovchilar, ta‘mirlovchilar brigadalarining ishchilari, liftyorlar hamda liftlarga dispetcherlik xizmatlarini ko‘rsatuvchi operatorlar, reja asosida-oldini olish maqsadida joriy ta‘mirlovchi ishchilar, chaqiriqlarga ko‘ra nosozliklar va ishdan chiqishlarni bartaraf etuvchi ishchilar, yukchilar va hokazo) mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlardir.

2. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq amalda bajarilgan ish uchun ishbay narxlar, tarif stavkalari, lavozim maoshlaridan kelib chiqqan holda, korxonada qabul qilingan mehnatga haq to‘lash shakllari va tizimlariga muvofiq holda hisoblab chiqilib yozilgan ish haqi, shuningdek bajarilgan ishni hisobga olishga oid birlamchi hujjatlarda ko‘zda tutilgan rag‘batlantiruvchi to‘lovlar;

Ish tartibi va mehnat sharoiti bilan bog‘liq bo‘lgan tovon tarzidagi to‘lovlar, shu jumladan:

a) bir yo‘la bir necha kasbda ishlaganlik, xizmat ko‘rsatish sohalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

b) og‘ir, zararli mehnat sharoitida ishlaganlik uchun ustamalar, xususan:

mexanizatsiyalashtirilgan asboblarda yordamida tosh, beton hamda temir-beton konstruksiyalarda teshiklar, ariqchalar, tokchalar va shu kabilar ochadigan ishchilarga to‘lanadigan ustamalar;

yuzaga qorishmani dastaki usulda chaplab va ishqalab suvaydigan, beton yuzalarni dastaki usulda yoki pnevmatik asboblarda yordamida o‘yadigan suvoqchilarga to‘lanadigan ustamalar;

v) suvsiz, baland tog‘li, cho‘l joylarda ishlaganlik uchun amaldagi qonun xujjatlariga binoan, shu jumladan mehnatga haq to‘lashni hududiy tartibga solish koeffitsientlari asosida amalga oshiriladigan to‘lovlar;

g) ishlanmagan vaqt uchun to‘lanadigan haq, ya‘ni;

amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo'shimcha ta'tillarga to'lanadigan haq, foydalanilmagan navbatdagi (har yilgi) hamda qo'shimcha ta'tillar uchun to'lanadigan haq, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani boqish uchun onaning ishidagi tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko'riklardan o'tish bilan bog'liq vaqtga to'lanadigan haq;

donor xodimlarga tekshiruvdan o'tgan, qon topshirilgan kunlar va har bir qon topshirilgan kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun to'lanadigan haq;

davlat oldidagi burchlarni bajarganlik (harbiy yig'inlar, favqulodda vaziyatlar tufayli yig'inlar va hokazo) uchun to'lanadigan mehnat haqi.

3. Ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi xodimlarning mehnatiga haq to'lash fondiga belgilangan tartibda kiritiladigan to'lovlarning boshqa turlari kiradi.

Ishlab chiqarishga aloqador ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar tarkibiga qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlar bo'yicha, mehnatga haq to'lash fondiga majburiy tartibdagi ijtimoiy ajratmalarga hisoblangan xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisoblashda:

1. Asosiy ishlab chiqarish vositalari, shu jumladan lizing bo'yicha xarid qilingan asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymatidan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan me'yorlardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan amortizatsiya (eskirish) ajratmalari, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan tezlashtirilgan amortizatsiya.

2. Ishlab chiqarish bilan bog'liq nomoddiy aktivlarning eskirishi (amortizatsiyasi) har oyda, xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblab chiqargan me'yorlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga qo'shiladi. Bunda ularning boshlang'ich qiymati va unumli foydalanish muddati (lekin xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyat muddatidan oshib ketmasligi kerak) inobatga olinadi. Agar nomoddiy aktivlarning unumli foydalanish muddatini aniqlashning imkoni bo'lmasa, ularning eskirish me'yorlarini besh yil qilib, ammo ko'pi bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyati muddati hisobida belgilanadi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlar jumlasiga yuqoridagi guruhlariga kirmaydigan barcha turdagi ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari kiritiladi va bularga:

a) ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asbob-uskunalar, moslamalar, boshqa mehnat vositalari va qurollari bilan ta'minlash xarajatlari;

b) asosiy ishlab chiqarish vositalarini ishlaydigan holatda saqlash xarajatlari (texnikaviy ko'zdan kechirish va qarov, o'rta, joriy hamda mukammal ta'mirlash tuzatish xarajatlari). Xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z kuchi bilan amalga oshiriladigan ta'mirlash-tuzatishning barcha turlari (o'rta, joriy, mukammal) mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli qismlari (moddiy xarajatlar, mehnatga haq to'lash xarajatlari va b.) bo'yicha qo'shiladi;

v) yong'inga qarshi qo'riqlashni ta'minlash va xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan texnikaviy foydalanishning, ularning faoliyatini nazorat qilish qoidalarida nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni bajarish xarajatlari.

Idoradan tashqari qo'riqlash xarajatlari ana shunday qo'riqlash shartligini belgilab beruvchi maxsus talablar mavjud bo'lgandagina mahsulot (ishlar, xizmatlar) ning ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladi;

g) texnikaviy boshqaruv vositalari, aloqa uzellari, signalizatsiya vositalarini, ishlab chiqarish jarayoniga aloqador boshqa texnikaviy boshqaruv vositalari, hisoblash markazlarini saqlash va xizmat ko'rsatish xarajatlari;

d) xodimlarni ishlab chiqarish jarayoniga taalluqli belgilangan me'yorlar doirasidagi xizmat safarlariga yuborish xarajatlari;

e) ishlab chiqarishdagi shikastlanish tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotganlik uchun tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida yoki bu qarorlarsiz to'lanadigan nafaqalar. Kasb kasalliklari munosabati bilan to'lanadigan nafaqalar;

j) hamma foydalanadigan yo'lovchi tashish transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga transportda olib borish va olib kelish bilan bog'liq chiqimlar;

z) ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan yaxshi mehnat sharoiti yaratish hamda xavfsizlik texnikasini ta'minlash xarajatlari;

i) qonun hujjatlariga muvofiq tekinga beriladigan va doimiy shaxsiy foydalanishda qoladigan narsalar (shu jumladan formal kiyim-bosh, kiyim-kechak, maxsus oziq-ovqat mahsulotlari)ning qiymati (yoki ularni arzonlashtirilgan narxlarida sotish bilan bog'liq imtiyozlar summasi).

Davr xarajatlari ikki guruhga bo'linadi:

1. Davr xarajatlariga ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan quyidagi xarajat va chiqimlar kiradi:

xizmatlarni sotish chiqimlari;

xo'jalik yurituvchi sub'ektni boshqarish xarajatlari;

boshqa umumxo'jalik chiqimlari.

2. Uy-joy fondidan foydalanish, saqlash va ta'mirlash-tuzatish bilan shug'ullanuvchi korxonalar xizmatlarining tariflarini shakllantirishda zarur foydani aniqlash uchun «Davr xarajatlari»ning quyidagi moddalari hisobga olinadi.

Xizmatlarni sotish chiqimlariga quyidagilar kiradi:

a) sotish bozorini o'rganish uchun belgilangan me'yorlar doirasidagi xarajatlar (marketing, reklama xarajatlari);

b) kassa xo'jaligini yuritish va tushumni inkassatsiya qilish xarajatlari;

v) sotishga oid boshqa chiqimlar.

Ma'muriy chiqimlarga ushbular kiradi:

a) mazkur Nizom II bobining 4-paragrafida keltirilgan, boshqaruv xodimlariga taalluqli mehnatga haq to'lash chiqimlari;

b) boshqaruv xodimlarining mehnatiga haq to'lash fondiga taalluqli bo'lgan, qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlardagi ijtimoiy sug'urtaga majburiy tartibdagi ajratmalar;

v) xo'jalik yurituvchi sub'ektni va uning tarkibiy bo'linmalarini tashkil qilish hamda boshqarish xarajatlari;

g) xizmat engil avtotransportini saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari;

d) hisoblash markazlarini hamda ishlab chiqarishga aloqasi bo'lmagan boshqa texnikaviy boshqaruv vositalarini saqlash va xizmat ko'rsatish xarajatlari;

e) ko'rsatgan xizmatlari uchun aloqa uzellariga to'lanadigan haq;

j) shaharlararo va xalqaro telefon orqali so'zlashuvlar uchun belgilangan me'yorlar doirasidagi to'lovlar;

z) ma'muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun ijaraga olingan bino va xonalar haqi;

i) asosiy ma'muriy vositalarni saqlash va ta'mirlash-tuzatish, shuningdek ularning eskirishi (amortizatsiyasi) bilan bog'liq xarajatlar;

k) yuqori tashkilot, birlashma va yuridik shaxslarni saqlashga ajratmalar;

l) belgilangan me'yorlar doirasidagi boshqaruv xodimlarini xizmat safarlariga yuborish xarajatlari;

m) belgilangan me'yorlar doirasidagi taqdimot chiqimlari.

Boshqa operatsion xarajatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash uchun belgilangan me'yorlar doirasidagi xarajatlar. YAngi ishga tushiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektda ishlash uchun kadrlar tayyorlash hamda qayta tayyorlash bundan mustasnodir;

b) maslahat va axborot xizmatlari haqi;

v) auditor xizmatlari haqi;

g) ishlab chiqarish jarayonida xodimlarning bevosita ishtiroki bilan bog'liq bo'lmagan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlari;

d) tovon va rag'batlantiruvchi to'lovlar:

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlariga binoan amalga oshiriladigan tovon to'lovlari;

- majburan ishda bo'linmagan (progul) yoki kam haq to'lanadigan ishni bajargan vaqt uchun qonun hujjatlariga yohud xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zining qaroriga binoan to'lanadigan haq;
- mehnat qobiliyati vaqtincha yo'qotilgan taqdirda qonun hujjatlariga muvofiq haqiqiy ish haqi miqdorigacha ko'shimcha to'lanadigan haq;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishchi va mutaxassislari ishdan ajralgan holda malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimida o'qiyotgan vaqtda ularga asosiy ish joyidan to'lanadigan ish haqi;
- 12 yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq farzandi yoki 16 yoshga to'lmagan nogiron bolasi bo'lgan ayollarning qo'shimcha ta'tiliga qonun hujjatlariga binoan to'lanadigan haq;

e) ish haqi yozishda hisobga olinmaydigan to'lovlar va xarajatlar:

- bola 2 yoshga to'lguncha unga qarash uchun qonun hujjatlariga ko'ra har oyda nafaqa to'lash xarajatlari;
- pensiyaga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir marta to'lanadigan nafaqalar;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar qayta tashkil etilishi, xodimlar soni va shtatlar qisqartirilishi munosabati bilan ular ishdan bo'shatgan xodimlarga qonun hujjatlariga binoan amalga oshiriladigan to'lovlar;

j) sog'liqni saqlash ob'ektlari, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, sog'lomlashtirish oromgohlarini, shuningdek turar joy ob'ektlarini saqlash uchun joylardagi davlat hokimiyati organlari belgilagan me'yorlar doirasidagi xarajatlar (shu jumladan barcha ta'mirlash turlarini amalga oshirish uchun amortizatsiya ajratmalari va xarajatlari);

z) to'xtatib qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va ob'ektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalar hisobga qoplanadigan chiqimlardan tashqari);

i) bank va depozitoriy xizmatlari haqi;

k) amaldagi qonun hujjatlariga binoan amalga oshiriladigan va xo'jalik yurituvchi sub'ektning xarajatlariga kiritiladigan budjetga majburiy to'lovlar, soliqlar, yig'imlar, budjetdan tashqari maxsus fondlarga ajratmalar.

Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanadigan hisobot davri xarajatlariga quyidagilar kiradi:

Turkumlab va ko'plab ishlab chiqariladigan yangi mahsulot turlari ishlab chiqarishni hamda texnologik jarayonlarni o'zlashtirishga tayyorlanish va o'zlashtirish xarajatlari:

- ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish texnologiyasi va tashkil etilishini takomillashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash, ishonchliligi, uzoqqa chidamliligini va boshqa foydalanish xususiyatlarini oshirish bilan bog'liq nokapital xarajatlar;
- tajriba-eksperimental ishlarni olib borish, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflari asosida model hamda namunalar tayyorlash va sinash, ixtirochilik hamda ratsionalizatorlikka oid ko'rgazma va ko'riklar, tanlovlar, sertifikatlashtirish hamda boshqa tadbirlar uyushtirish, mualliflik haqi to'lash bilan bog'liq ixtirochilik va ratsionalizatorlik uchun qilinadigan ishlab chiqarish xarajatlari va boshqa chiqimlar.

Moliyaviy faoliyatga oid xarajatlar quyidagilardir:

- qisqa muddatli va uzoq muddatli bank kreditlari bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lanadigan haq;
- mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo'yicha foyda (foiz) to'lash xarajatlari;
- moliyaviy faoliyatga oid boshqa xarajatlardan tashkil topadi.

Kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarining faoliyati bo'yicha moliyaviy natijalari quyidagi tartibda shakllantiriladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining moliyaviy natijalari ushbu ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

- mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotishdan olingan yalpi foyda (mahsulot sotishdan tushgan pul bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi);
- asosiy faoliyatdan olingan foyda (mahsulot sotishdan olingan yalpi foydadan davr xarajatlarini ayirish va boshqa daromadlarni qo'shish yoki asosiy faoliyatdan ko'rilgan zararni ayirish yo'li bilan aniqlanadi);
- umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (asosiy faoliyatdan olingan foydaga daromadlarini qo'shish va moliyaviy faoliyatga oid xarajatlarini ayirish orqali hisoblab chiqariladi);
- soliq to'lanmasdan oldingi foyda umumxo'jalik faoliyatidan olingan foydaga favqulodda foydani qo'shib va favqulodda zararlarni ayirib aniqlanadi;
- sof foyda, u soliq to'lanmasdan oldingi foydadan daromad (foyda) solig'ini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliq hamda to'lovlarni ayirish yo'li bilan aniqlanadi;
- asosiy faoliyatning rentabelligi (sof foydani ishlab chiqarish tannarxiga bo'lish orqali aniqlanadi).

9.2. XUJMSHning uy-joy maydoniga qilinadigan foydalanish xarajatlari qiymatini aniqlash tartibi

Turar joy xonasi umumiy maydonining 1 m²ini saqlash va undan foydalanish xarajatlari xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tomonidan yig'ilib, ushbu mablag'lar shirkat daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi. Uy-joy mulkdorlaridan undiriladigan to'lov shirkatning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar smetasi asosida shakllantirilib, uning yig'indisi smetaning daromad qismida ko'rsatilgan tushumlari miqdorini hosil qiladi.

Turar joy xonasi umumiy maydonining 1 kv.m maydonini saqlash va foydalanish bilan bog'lik to'lovlarni hisoblashda O'zbekiston Respublikasi «O'zkommunxizmat» agentligining 2004 yil 9 avgustdagi 86-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Uy-joy mulkdorlari shirkatlari uchun foydalaniladigan 1 m² maydonga qilinadigan foydalanish xarajatlari miqdorini aniqlash yuzasidan uslubiy tavsiyalar» asos bo'lib hisoblanadi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining turar joy xonasidan foydalanish xarajatlari smetasiga kiritiladigan xarajatlar quyidagi uch qismga ko'ra guruhlanadi:

a) ishlab chiqarish xarajatlari, ular quyidagi besh guruhdan iborat xarajatlarni o'z ichiga oladi:

- ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar;
- ishlab chiqarishga oid mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- ishlab chiqarish bilan bog'liq asosiy vositalar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar.

b) davr xarajatlari:

- boshqaruv xarajatlari (rais, boshqaruv a'zolari, buxgalter);
 - boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.
- v) moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar;
- qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar bo'yicha xizmat ko'rsatish xarajatlari.

Turar joy xonasi umumiy maydonining 1 m² ini saqlash va ta'mirlash tariflarini hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Turar joy fondini saqlash va ta'mirlash tarifini aniqlash uchun ta'mirlash-foydalanish xizmatlarining me'yoriy tannarxi boshlang'ich asos sifatida olinadi.

Tarif miqdorini belgilash uchun xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati muayyan hisobot davrida uy-joy fondining foydalaniladigan jami maydoni bo'yicha oladigan daromadlarini aniqlashi lozim. Bu daromadlar tarkibi xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxi (energiya manbalari, materiallarning narxi, lavozim maoshlari va shu kabilar o'zgarishi inobatga olinadi) hamda rejalashtirilgan foydadan tashkil topadi. Bunda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining xarajatlarini qoplash uchun belgilangan tartibda yo'naltiriladigan boshqa daromad manbalari chiqarib tashlanadi. Tarif miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$T = \frac{(S + \Phi) - Q}{N} c_{\Sigma}$$

Bunda: T - turar joy xonasi umumiy maydonining 1 m² ini saqlash ta'mirlash haqi (tarif);

S - xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxi;

F - uy-joy fondidan foydalanish korxonasi (xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati) foyda ko'rib ishlashi uchun zarur bo'lgan foyda (davr xarajatlari va moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar);

Q - uy-joy fondidan foydalanish tashkilotlarining xarajatlarini qoplash uchun belgilangan tartibda yo'naltiriladigan boshqa daromad manbalari. Mazkur daromad tarkibiga uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish uchun fuqarolar tomonidan to'lanadigan mablag'lar hisobga olinmaydi va uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalariga uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash haqida imtiyozlar berilgani munosabati bilan daromadning kamomadini budjetdan qoplash uchun ajratilgan mablag'lar;

- kommunal xizmatlarni sotib daromad oladigan korxonalarga binolar ichidagi suvquvur, oqavaquvur, issiqlik va elektr tarmoqlari hamda qurilmalarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha kelib tushadigan qoplama mablag'lari;

- turar joy binolaridagi ijaraga olingan noturar joy xonalari ijarachilaridan kelishilgan tariflarda, ammo shirkat a'zolari uchun belgilangan foydalanish xarajatlari tarifidan kam bo'lmagan tariflarda undiriladigan yig'imlar;

- uy-joy mulkdorlari shirkati hududida joylashgan sport-sog'lomlashtirish markazlaridan pullik xizmat ko'rsatish asosida foydalanuvchilardan kelib tushadigan mablag'lar;

- budjetdan tashqari mablag'lar va boshqa manbalardan kelgan mablag'lar, jumladan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq homiylar tomonidan ajratiladigan mablag'lar;

- kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalardan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga kelib tushadigan ajratmalar. Bu mablag'lar rejalashtirilgan aholi to'lovlari tushumi 75 foizdan ortiq hajmda bajarilganda 7% miqdorida va 100% bajarilgan taqdirda 15% miqdorida ajratiladi hamda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatiga birlashtirilgan uylarni ta'mirlash va hududlarni obodonlashtirishga yo'naltiriladi;

- xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga qarashli hududdagi fuqarolar tomonidan o'rnatilgan shaxsiy avtomobil garajlari va boshqa imoratlar egalaridan olinadigan foydalanish xarajatlari;

- uylarni mukammal ta'mirlash uchun mahalliy budjetdan ajratilgan mablag'lar;

N – shirkatga tegishli uy-joy fondining foydalaniladigan umumiy maydoni (noturarjoy fondi sifatida ijaraga beriladigan maydon bu hisobga kirmaydi).

Uy-joy umumiy maydonining 1 m² ini tarifini aniqlashda quyidagi koeffitsientlardan foydalaniladi:

1) qulay-shinamlilikning barcha turlariga, shu jumladan liftlar, maishiy chiqindi quvurlariga ega bo'lgan ko'p qavatli turar joy uylarida	K1 = 1,2
2) qulay-shinamlilikning hamma turlari mavjud bo'lgan, ammo liftlar va maishiy chiqindi quvurlari bo'lmagan uylarda	K2 = 1,0
3) markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta'minlanmaydigan, liftlar, ma'ishiy chiqindi quvurlari bo'lmagan uylar	K3 = 0,9
4) liftlar bo'lmagan, issiq suv bilan ta'minlanmaydigan, markazlashtirilgan tartibda isitilmaydigan muhimligi past uylar	K4 = 0,8
5) markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta'minlanmaydigan, markazlashtirilgan tartibda isitilmaydigan, oqavaquvur, liftlar va maishiy chiqindi quvurlari bo'lmagan uylar	K5 = 0,7

Mazkur koeffitsientlar uy-joyning turi, iste'mol sifatleri va boshqa mahalliy sharoitga bog'liq ravishda o'zgartirilishi mumkin.

Iste'mol sifatleri har xil bo'lgan turar joy uylarida turarjoy xarajatlari tariflarni aniqlash uchun, avvalo turar joy uylari uchun asos qilib olinadigan tarifni aniqlash va umumiy maydonning 1 kv.m sathini tarifi miqdoriga tuzatish kiritish (o'zgartirish) uchun mazkur koeffitsientlarni qo'llash lozim.

Turar joy xonasi umumiy maydonining 1 kv.m sathinini saqlash va foydalanish tarifini hisoblashga misol:

9.1-jadval.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tasarrufidagi turarjoy binosi bo'yicha quyidagi ma'mumotlar

S - ishlab chiqarish tannarxi	- 300 so'm
F - zarur foyda	- 100 so'm
Q - boshqa daromad manbalari:	
a) texnikaviy xizmat ko'rsatishga doir qoplama miqdori	- 500 so'm
b) ijarachilardan undirilgan yig'im	- 500 so'm
v) hududdagi shaxsiy garajlar va boshqa imoratlar egalaridan olinadigan foydalanish xarajatlari	- 200 so'm
N - turar joy fondining kontrakt va shartnomalar asosida foydalaniladigan umumiy maydoni	- 5675 m ²

Berilgan ma'lumotlarga asosan uyning 1 kv.m sathi uchun tarifi miqdorini (T) aniqlaymiz:

$$T = \frac{(S + \Phi) - Q}{N} = \frac{(300 + 100) - 120}{5675} = \frac{280}{5675} = 49,33 \text{ so'm}$$

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari ixtiyorida foydalanish tavsiflari bir xil bo'lmagan uylar mavjud bo'lganda umumiy maydonning 1 kv.m sathini tarifi miqdoriga tuzatish kiritish uchun tegishli koeffitsientlar qo'llaniladi. YUqorida aniqlangan tarif miqdori T=49,33 so'm bo'lganda turli toifadagi uy-joy binolari uchun to'lov miqdorini hisoblash tartibi 9.2-jadvalda keltirilgan.

9.2-jadval.

Turli toifadagi uy-joy binolari uchun to'lov miqdori hisoblash tartibi

1) qulay-shinamlilikning barcha turlariga, shu jumladan liftlar, maishiy chiqindi quvurlariga ega bo'lgan ko'p qavatli uylarda	K ₁ =1,2x49,33=59,20 so'm
2) qulay-shinamlilikning hamma turlari bo'lgan, ammo liftlar va maishiy chiqindi quvurlari bo'lmagan uylarda	K ₂ =1,0x49,33=49,33 so'm
3) markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta'minlanmaydigan, liftlar va maishiy chiqindi quvurlari bo'lmagan uylarda	K ₃ =0,9x49,33=44,40so'm
4) liftlar bo'lmagan, markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta'minlanmaydigan, markazlashtirilgan tartibda muhimligi past uylarda	K ₄ =0,8x49,33=39,46 so'm
5) markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta'minlanmaydigan, isitilmaydigan oqavaquvur, liftlar va maishiy chiqindi quvurlari bo'lmagan muhimligi past uylarda	K ₅ =0,7x49,33=34,53 so'm

9.3. Aholining kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlari va ularni hisoblash uslubi

Uy-joy kommunal xujaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar bugungi kunda davlatimiz ijtimoiy va iqtisodiy siyosatining ustuvor yonalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Kommunal xo'jaligini isloh qilish jarayonida sohada erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy mexanizmni shakllantirish bo'yicha 1990-2001 yillar davomida me'yoriy-huquqiy jihatdan va xo'jalik yuritishning yangi mexanizmlarini sinovdan o'tkazish bo'yicha etarli darajada katta hajmdagi ishlar bajarildi. Iqtisodiyotning ushbu sohasidagi o'zgarishlarning asosiy maqsadlari sohada bozor tamoyillariga o'tishning zarur shart-sharoitlarini yaratish, iste'molchi va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida shartnomaviy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan. Kommunal xizmatlar qiymatini sohada ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini kafolatlangan holda ular tannarxini tashkil etuvchi real sarf-xarajatlar asosida shakllanishiga erishish soha oldida turgan muhim iqtisodiy vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirishda mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ijtimoiy himoya tamoyillariga amal qilgan holda, kommunal to'lovlar miqdorini aniqlashda fuqarolarning kam daromadli toifalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi munosabatlarni erkin bozor tamoyillari asosida tartibga solish va real xarajatlar jamlanmasidan iborat bo'lgan, har tomonlama mukammal me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan bahoni shakllantirish mexanizmini yaratish quyidagilarni ta'minlaydi:

- fuqarolarga ularning ehtiyojlari va moliyaviy imkoniyatlariga ko'ra uy-joy qurish, uni xususiy mulk qilib sotib olish, ijaraga olish (aholiga kelgusi sarf-xarajatlarini inobatga olgan holda uy-joy qurish, uy-joyni sotib olish, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga ijara shartnomalari asosida uy-joyni ijaraga olish va hokazo);

- fuqarolarning uy-joy fondiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini kafolatlash (uy-joy fondlari texnik holatlariga xizmat ko'rsatishning davlat standartlarini belgilash, sanitariya, ekologik va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash hamda ularni nazorat qilish);

- kommunal xizmatlarga bo'lgan zarur ehtiyojlarning qondirilishi va ularni iste'mol qilish xavfsizligi (kommunal xizmatlarni iste'mol qilish me'yorlarini, ular sifati andozalarini va foydalanish qoidalarini belgilash);

- kam daromadli oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;

- uy-joy, kommunal xizmatlar bozorining rivojlanishi va erkin shartnomaviy munosabatlarni joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- kommunal xo'jaligi sohasidagi tabiiy monopoliyalar xizmatlari narxlarini tartibga solish va narx-navoni asossiz o'sib ketishining oldini olish va boshqalar.

Kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlarini ishlab chiqish aholining ehtiyojlarini qondirish uchun ularga ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlar hajmini belgilash va ko'rsatilayotgan xizmatlar bahosini shakllantirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amaliyotda qo'llanilayotgan aholining kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlarini hisoblashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 18 apreldagi «Aholiga kommunal xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 178-sonli Qaroriga muvofiq "O'zkommunxizmat" agentligi tomonidan ishlab chiqilgan hamda 2004 yilning avgust oyidan buyon amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan uslubiy ko'rsatmalarga asoslanadi.

Mazkur ko'rsatmalar asosida ishlab chiqilgan me'yorlar sovuq suv ta'minoti, uy-joyni isitish, issiq suv bilan ta'minlashda ishlatiladigan sarf-xarajatlar miqdori o'lchovi, (asosan issiqlik energiyasini, tabiiy gazni hisobga olish asboblari bo'lmaganda) aholini kommunal xizmatlardan foydalanish (iste'mol) me'yorlarini ishlab chiqish va to'lov qiymatini belgilash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Me'yorlar aholini xizmatlardan foydalanishning eng kam, ammo hayot faoliyatini ta'minlashga etarli miqdordagi hajmidan tashkil topadi va ular minimal talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan tegishli sifatdagi xizmatlarning moddiy manbai quyida keltirilgan miqdorlari bilan o'lchanadi:

- isitish - 1m^2 turar joy maydoniga sarflanadigan Gkal hisobidagi issiqlik energiyasi;
- sovuq va issiq suv - bir sutkada (oyda) 1 kishi hisobiga sarflangan suv, litr hisobida;
- tabiiy gaz - bir oyda 1 kishi hisobiga sarflangan gaz m^3 hisobida;
- tabiiy gaz bilan ichki tartibda isitish - isitiladigan xonaning 1 m^3 hajmiga m^3 hisobida;
- ovqat tayyorlash uchun suyultirilgan gaz - bir oyda 1 kishiga kg hisobida o'lchanadi.

Uy-joy xo'jaligida ijtimoiy - iqtisodiy imkoniyatlarning o'sish suratiga, demografik xarakterdagi o'zgarishlarga, resurslarni tejash borasida amalga oshiriladigan chora - tadbirlarga qarab me'yorlarning miqdoriy ko'rsatkichlari o'zgarib (ortishi yoki kamayishi) turadi. Respublika miqyosida tasdiqlangan me'yorlar kommunal xizmatlarni ko'rsatuvchilarning yoki iste'molchilarning takliflariga binoan, ammo kamida bir yilda bir marta qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Me'yorlar miqdori muayyan mahalliy sharoitni inobatga olib aniqlanadi. Mahalliy sharoitga iqlim, iqtisodiy shart-sharoit, uy-joy fondining shinamlilik va qulayliklari, muhandislik tizimining holati va boshqa kommunal ko'rsatkichlar kiradi. SHuning uchun kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlarini (gazdan foydalanish me'yori bunga kirmaydi) joylardagi mahalliy hokimiyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadi. Aholi uchun gaz iste'moli me'yorlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

9.4. Uy-joy xo‘jaligida suv iste‘moli me‘yori va oqavasuvni chetlashtirish

9.4.1. Uy-joy xo‘jaligida suv iste‘moli me‘yorini aniqlash uslubi

Uy-joy xo‘jaligida suvni iste‘mol qilish (ishlatish) me‘yorlari kommunal xo‘jaligida suvga bo‘lgan amaldagi ehtiyojni hisoblash, suv ta‘minoti xarajatlarini shakllantirish va kommunal xo‘jaligida suv ta‘minotini tashkil etish uchun xizmat qiladi. Uy-joy xo‘jaligida suv sarfi aholining fiziologik, sanitar-gigiena, xo‘jalik ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog‘liq xonadon ichidagi suv sarfini, shuningdek, uy-joy fondidan foydalanishni ta‘minlash bilan bog‘liq xonadonlardagi suv sarfidan tashqari sarflarni hamda suv ta‘minoti tizimdagi ichki santexnika uskunalarining texnik me‘yorga muvofiq ruxsat etilgan miqdorda cheklangan suv yo‘qotishini o‘z ichiga oladi.

Xonadon ichidagi suv sarfining eng kam miqdori – kommunal xo‘jaligida foydalaniladigan iqtisodiy kategoriya bo‘lib, undan uy-joy xo‘jaligida foydalanishning eng ko‘p uchraydigan asosiy turlari hisoblanib, u iste‘mol qilish, ovqat tayyorlash, yuvinish, kir yuvish va uylarning tozaligini ta‘minlash va boshqa xonadondagi eh‘tiyojlarni qondirish maqsadida sarflanadigan suv miqdori yig‘indisidan tashkil topadi.

Turarjoy binolariga suv etkazib berish tizimi aholi yashaydigan hududning hamda alohida binoning, obodonlashtirilganlik darajasiga va eng avvalo, aholiga kommunal-maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanganlik darajasi hamda tabiiy-iqlim sharoitiga bog‘liq. Turar joy binolaridagi suv sarfi suvning sarflanish mohiyatidan kelib chiqib bir necha tarkibiy guruhlariga bo‘linadi:

Birinchi guruhga suvning foydali sarfi ko‘rsatkichlari kiradi;

Suv iste‘molining ikkinchi guruh tarkibiy ko‘rsatkichlarini suvdan nooqilona foydalanish hisobidan yuzaga keluvchi sarf-xarajatlar tashkil etib, u suv ta‘minoti tizimida ta‘minlanishi zarur bo‘lgan bosimning me‘yordan oshib ketishi oqibatida yuzaga keladi;

Suv sarfining uchinchi guruhini turarjoy binolarining suv ta‘minoti tizimida foydalaniladigan yuvish bakchalari va boshqa suv ta‘minoti santexnika jihozlaridan suv sizishi oqibatida kelib chiqadigan yo‘qotishlar tashkil etadi.

Aholining suv iste‘mol qilish me‘yorlari monitoring asosida har bir bino bo‘yicha alohida, uning obodonlashtirilganlik, qulay va shinamlik darajasi, binoning qavatlar soni va aholi zichligiga qarab aniqlanadi. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatida turarjoy binolari soni kam bo‘lganligi uchun har bir turarjoy binosi uchun suv sarfi me‘yorini alohida hisoblash hamda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish imkoniyati mavjud.

Suvning iste‘mol qilish me‘yorlarni suv ta‘minoti korxonalari, suvdan foydalanish bo‘yicha mas‘ul tashkilotlar va iste‘molchilar hamkorlikda ishlab chiqadilar.

Hududda suv sarfi me‘yorini aniqlash uchun monitoring o‘tkazilishi lozim bo‘lgan obodonlashtirilganlik darajasi bir xil turarjoy binolarining umumiy soni 30 tadan kam bo‘lmasligi lozim. Bunga sabab har bir ko‘rsatkichni aniqlash uchun shu ko‘rsatkichni aniqlash maqsadida o‘rganiladigan manbalar soni o‘ntadan kam bo‘lmasligi lozim. Agar aholi yashaydigan hududdagi obodonlashtirish darajasi bir

xil binolarning umumiy soni 30 tadan kam bo'lsa o'lchash ishlari shu hududdagi hamma binolarda amalga oshirilmog'i lozim.

O'lchash ishlarini olib borish uchun tanlab olingan binolarda suv ta'minotida uzilishlar bo'lmasligi, ularda tegishli kalibrlardagi suv sarfini hisobga olish asboblari o'rnatilgan bo'lishi kerak. Suv ta'minoti tizimida o'rnatilgan kalibrning mosligi tungi suv sarfi bo'yicha tekshirilishi mumkin.

Aholining uy-joy xo'jaligida suvni oqilona iste'mol qilish darajasi uy ichidagi suv ta'minoti quvurlaridan amalda sarf bo'layotgan suvni, suv ta'minoti tizimida suvni kirish joylarida o'rnatilgan suv sarfini o'lchash asbobining ko'rsatgichlari bo'yicha batafsil o'rganish va tahlil qilish yo'li bilan aniqlanadi.

Turarjoy binolarida suv iste'moli hajmining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ish kunlari, dam olish kunlari hamda yilning turli mavsumlarida aholining uy-joy xo'jaligida suv ishlatilishida katta tafovut hosil bo'ladi. SHu sababli o'lchash ishlari yilning turli mavsumlarida bir oy mobaynida uzluksiz, bino (binolar)dagi suv quvurlarining kirish tarmoqlaridagi suv o'lchash uzellarida ishlab turgan suvni hisobga olish asboblari o'rnatilgan istalgan turdagi o'zi qayd qiluvchi asboblari (schetchiklar) yordamida amalga oshiriladi.

Monitoring jarayonida suv iste'moli hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi uch omil: tungi suv sarfi, suvni samarali bosim ostida ta'minlanishi va aholi zichligining suv iste'moliga ta'siri baholanadi.

Har bir monitoring o'tkazish uchun tanlab olingan bino bo'yicha olingan ma'lumotlar to'planib, jadval ko'rinishida bir tizimga keltiriladi.

SHundan so'ng vaqt birligi (1 soat) ichida suv sarfi ko'rsatkichlarining impulslari soni deogrammada hisoblab chiqiladi va belgilangan davr mobaynida suvni hisobga olish priborlari orqali o'tgan suv hajmi aniqlanadi.

Suv iste'moli me'yorlarini aniqlashda turli yumushlar bo'yicha suv sarfini o'rganish asosida hisoblangan suv sarflari butun bino bo'yicha suv sarfiga oid ma'lumotlar asosida hisoblab topilgan ko'rsatkichdan kam bo'lishini inobatga olish kerak. Turli yumushlar bo'yicha suv sarfidan binodan noturarjoy fondlari sifatida ijaraga olingan ijarachilar va bino atrofidagi hududlarni sug'orish uchun sarflangan suv chiqarib tashlanadi. SHuningdek, bu ko'rsatkichning kam bo'lishiga texnologik me'yorlar bo'yicha ruxsat etilgan va bartaraf etib bo'lmaydigan yo'qolishlar mavjudligi sabab bo'ladi.

SHu munosabat bilan, suv iste'moli me'yorlarini ishlab chiqishda binoda amalda sarflagan suv miqdoridan foydalanish hamda suv sizishining aholini suv bilan me'yorida ta'minlangan taqdirda turli tashkiliy-texnik chora-tadbirlar evaziga qisqartirilishi mumkin bo'lgan qismi chiqarib tashlanadi. Haqiqiy solishtirma suv sarfi miqdorida turli omillarga bog'liq holda katta farq borligini inobatga olinib, me'yorlar har bir shaharda yoki aholining suvdan foydalanish xarakteriga ko'ra o'xshash bo'lgan shaharlar guruhida aniqlanmog'i va belgilanmog'i darkor.

Hozirgi kunda har bir xonadonda suv sarfini hisobga olish priborlari o'rnatilishi bir tomondan aholida suvdan tejamkorlik bilan foydalanishiga intilish hosil qilsa, ikkinchi tomondan xonadonlarda o'rnatilgan suv sarfini hisobga olish priborlari ma'lum vaqt mobaynidagi ko'rsatkichlari yig'indisi bino bo'yicha foydali suv sarfi yig'indisini tashkil etadi. Bu ko'rsatkichni esa turarjoy binosi

bo'yicha umumiy suv sarfi bilan taqqoslash orqali suvdan nooqilona foydalanish N_f ko'rsatkichini aniqlash mumkin.

$$N_f = U_s - F_s$$

Bunda:

N_f - suvdan nooqilona foydalanish ko'rsatkichi;

U_s - umumiy suv sarfi;

F_s - foydali suv sarfi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatida suvdan nooqilona foydalanish ko'rsatkichidan ijaraga berilgan va noturarjoy fondi sifatida foydalanilayotgan xonalarga va bino atrofidagi hududlarni sug'orish uchun sarflangan suv miqdorini ayirish orqali samarasiz suv sarfi S_s aniqlanadi.

$$S_s = N_f - S_{im} - S_{sug}$$

N_f - suvdan nooqilona foydalanish ko'rsatkichi;

S_{im} - ijaraga berilgan va noturarjoy xonalardagi suv sarfi;

S_{sug} - bino atrofidagi hududlarni sug'orish uchun sarflangan suv miqdori.

Samarasiz suv sarfi texnik me'yor bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar, suv ta'minoti tizimidagi nosozliklar va tizimda me'yordan ortiq bosim hosil qilish natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlardan tashkil topib uning miqdori shirkat uchun muhim hisoblanadi. Aynan samarasiz suv sarfi uchun to'lov shirkat tomonidan amalga oshiriladi. SHirkat tomonidan noturarjoy fond sifatida foydalaniladigan maydon va bino atrofidagi erlarni sug'orish uchun sarflangan suv uchun to'lov ham amalga oshiriladi. Ammo, noturarjoy fondidan foydalanayotgan ijarachilardan ularga tegishli suv sarfi shirkat tomonidan alohida undiriladi.

SHinamlik darajasi past bo'lgan uy-joy fondida yashovchi aholi uchun suv iste'moli me'yorlari xonadon ichida suvquvur yoki ko'cha (hovli) larda kolonkalar (jo'mraklar) borligi hisobiga kam bo'ladi.

Aholining suv iste'mol qilish me'yorlari uylarning sanitariya texnikasi bilan jihozlanganlik darajasiga qarab shartli tabaqalashtirilgan tarzda belgilanadi.

Respublikamizda xo'jalik hamda istemol suvi normalari "Kommunal xizmatlardan foydalanish normativlarini aniqlash Metodikasi" asosida shakllantiriladi va u O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 30 iyuldagi 271-son Qaroriga muvofiq amaliyotga joriy etilgan.

Mazkur metodika tavsiyanoma tusida bo'lib, aholi tomonidan kommunal xizmatlardan foydalanish normativlarining ishlab chiqilishi uchun asos hisoblanadi va hozirgi kunda ham amalda bo'lgan mazkur Metodikaga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 18 maydagi 127-son Qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

**Uylarning sanitariya texnikasi bilan jihozlanganlik darajasiga qarab
suv iste'mol qilish me'yorlarining tabaqalanishi.**

T.r.	Uylarning sanitariya texnikasi bilan jihozlanish darajasi	Bir sutkada 1 kishi uchun umumiy suv sarfi me'yorlari (litrd)	Bir oyda bir kishi uchun suv iste'moli me'yorlari (m³-oy)
1	2	3	4
1	Suvquvur, oqavaquvur, issiq suv bilan ta'minlangan, vannalar bilan jihozlangan uylar		
2	Ichki suvoqava quvuri va rakovinasi bo'lgan oqavaquvurli uylar		
3	Rakovinasi va unitazi bo'lgan oqavaquvurli uylar		
4	Rakovinasi, vannasi (hammomi), yoki dushi, mahalliy suv isitish asboblari bo'lgan oqavaquvurli uylar		
5	Rakovinasi, unitazi, vannasi (hammomi), yoki dushi, mahalliy suv isitish asboblari bo'lgan oqavaquvurli uylar		
6	Markazlashgan issiq suv ta'minoti, oqavaquvuri, yuvinish, idish tovoq yuvish, kir yuvish xonalari bo'lgan yotoqxonalar		
7	Markazlashgan issiq suv ta'minoti, oqavaquvuri, yuvinish, idish tovoq yuvish, umumiy dushxonalari bo'lgan seksiyali uylar		
8	Suv hovlidagi kolonkalar (jo'mraklardan olinadigan uylar)		
9	Hojatxonasi suv bilan ishlaydigan uylar		
10	Ichki suvquvurli, rakovinali, idish-tovoq yuvish joylari mavjud uylar		
11	Ichki suv quvurli, rakovinali, idish-tovoq yuvish joylari mavjud, unitazli uylar		
12	Ichki suv quvurli, rakovinali, idish-tovoq yuvish joylari mavjud, vannasi yoki dushi, mahalliy suv isitish asboblari bo'lgan uylar		
13	Ichki suv quvurli, rakovinali, idish-tovoq yuvish joylari mavjud, vannasi yoki dushi, unitazli, mahalliy suv isitish asboblari bo'lgan uylar		

Normativlar - hayot faoliyatini ta'minlash uchun aholi tomonidan xizmatlardan foydalanishning eng kam darajasi turlicha qulaylikdagi va tipdagi uy-joy fondi uchun ishlab chiqiladi. Bular uy-joyning umumiy maydoni doirasida

aholi uchun zarur bo'lgan kommunal xizmatlardan foydalanishning joriy davrdagi eng kam hajmini tavsiflovchi ko'rsatkichlar guruhi bo'lib hisoblanadi.

Normativlar darajasi o'zgaruvchan miqdor bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga, demografik tuzdagi o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi va vaqti-vaqti bilan, biroq har chorakda ko'pi bilan bir marta qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Davriy normativlar miqdori Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Suv iste'mol qilish normativi aholining fiziologik, sanitariya-gigienik, xo'jalik ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan kvartira ichki suv sarflari, shuningdek, uy-joy fondi doirasida kvartiradan tashqaridagi suv sarflari va ichki sanitariya-texnika asbob-uskunolari tizimlarida isrof bo'ladigan suv miqdori.

Suv iste'mol qilish normativi turmushda suvdan foydalanishning quyidagi asosiy turlari bo'yicha bir kishiga litr/sutka hisobidagi suv sarfidan shakllanadi (taxminiy ma'lumotlar):

9.4-jadval.

Xonadonda suvdan foydalanishning asosiy turlari.

kir yuvish, dush, vanna	98,4 l/sutka
kunlik tualet (yuvinish, oyoqni yuvish)	28 l/sutka
ovqat tayyorlash va ichimlik sifatida foydalanish	10 l/sutka
pol yuvish va namiqtirib artish	12 l/sutka
unitazlarni yuvish	32 l/sutka
idish-tovoq yuvish	10 l/sutka
Hisobga olinmagan sarflar	19,6 l/sutka
santexnika asboblari isrof bo'lish	60 l/sutka
Jami:	270 l/sutka

Iste'mol qilinadigan suv miqdori Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlangan suv iste'mol qilish normalari bo'yicha, kvartira suv o'lchagichlari mavjud bo'lgan taqdirda esa ularning ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi uy-joy fondida aholining xo‘jalik-ichimlik suv ehtiyojlari uchun suv iste’mol qilishning normativlari

Turar joylarning sanitariya-texnik jihozlanganlik darajasi		1 sutka 1 kishi hisobiga umumiy suv sarfi normasi (l/sutka)	Bir oyda bir kishi hisobiga suv iste’mol qilish normativi (kub m/oy)
1.	Vodoprovod, kanalizatsiya o‘tkazilgan, vannali, markaziy issiq suv ta’minotiga ulangan turar joylar	270	8,2
2.	Kanalizatsiya o‘tkazilgan uylarda ichki vodoprovod va rakovina moykasi	117	3,5
3.	O‘shaning o‘zi, rakovina va unitazli	147	4,4
4.	O‘shaning o‘zi, rakovina, vanna (hammom) yoki dushli, mahalliy suv isitish priborlari bo‘lgan turar joylar	203	6,1
5.	O‘shaning o‘zi, rakovina, unitaz, vanna (hammom) yoki dushli, mahalliy suv isitish priborlari bo‘lgan turar joylar	233	7,0
6.	Markaziy issiq suv ta’minotiga ulangan, kanalizatsiya o‘tkazilgan, yuz-qo‘l yuvgich, moyka, kirxonasi bo‘lgan yotoqxonalarda (yo‘lakli tizim)	140	4,2
7.	Markaziy issiq suv ta’minotiga ulangan, kanalizatsiya o‘tkazilgan, yuz-qo‘l yuvgich, moyka, umumiy dushli yotoqxonalarda (seksiyalar)	230	6,9
8.	Hovlidagi kolonka (krandan suv olinadigan uylar)	77	2,3
9.	O‘shaning o‘zi, yuviladigan hojatxonali	127	3,8
10.	Ichki vodoprovodli, rakovinali, moykali uylar	100	3,0
9.	O‘shaning o‘zi, unitazli	150	4,5
12.	Mahalliy suv isitish priborlari bo‘lgan ichki vodoprovodli, rakovina, moyka, vanna (hammom) yoki dushli uylar	177	5,3
13.	O‘shaning o‘zi, unitazli	227	6,9

YUqorida keltirilgan normativlar asosida o'tkazilgan monitoringlar natijasiga ko'ra hozirgi kunda Toshkent shahrida turarjoy binolarida aholi jon boshiga sarflanadigan suv me'yori 330 litrni (9.6-jadval) tashkil etmoqda. Jadval ma'lumoti asosida suvdan foydalanish bo'yicha to'lov qiymati amalda qo'llanilmoqda

9.6-jadval.

Toshkent shahrida suv ta'minoti va oqava-quvur tarmog'i mavjud turarjoylarda suvdan foydalanish me'yorlari

№	Turarjoyning obodonlashganlik darajasi	1 kishi hisobiga suv sarfi me'yori (litrda)	1 kishi hisobiga oqava suv me'yori (litrda)	Ummumi to'lov miqdori (so'mda)
Oqova quvurlari mavjud bo'lmagan turarjoylarda				
1.	Ko'chadagi suv tarmog'i (kran) dan suv oluvchi	49	-	110,29
2.	Hovliga tortilgan suv tarmog'i (kran)dan suv oluvchi	155	-	348,88
3.	Ichki suv tarmog'i, rakovina, unitaz va alohida suv isitish usukunasi o'rnatilgan vanna (hammom)ga ega bo'lgan uyda	277	-	628,40
Oqova quvurlari mavjud bo'lgan turarjoylarda				
4.	Ichki suv tarmog'i, rakovina, unitazga va alohida suv isitish usukunasi o'rnatilgan vanna (hammom)ga ega bo'lgan uyda	389	389	1301,53
5.	Suv tarmog'i, oqava quvuri, unitazi mavjud va markazlashgan issiq suv ta'minoti tizimiga ulangan turarjoy binolari, seksiyali yotoqxonalar	330	429	1212,53
6.	Suv tarmog'iga, oqava quvurga va markazlashgan issiq suv ta'minoti tizimiga ulangan yotoqxonalar	171	222	627,98
7	Ko'p xonadonli kvartiralarda o'lchov schetchiklari bo'yicha sarflangan 1 m ³ suv uchun	Markaziy issiq suv ta'minoti tizimiga ulangan		120,80
8	Ko'p xonadonli kvartiralarda o'lchov schetchiklar bo'yicha sarflangan 1 m ³ suv uchun	Markaziy issiq suv ta'minoti tizimiga ulanmagan		110,00
8	Xususiy uy-joylarda	Oqova quvurga ulangan		110,00
9	Xususiy uy-joylarda	Oqova quvur mavjud bo'lmagan		74,00

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 8 avgustdagi 166-sonli Qaroriga muvofiq "Uy-joy fondini (ko'p qavatli uylar va shaxsiy xonadonlarni) sovuq va issiq suv hisoblagich asbob-uskunalarini bilan ta'minlash dasturi" qabul qilinib, mazkur Dastur asosida suv iste'moli bo'yicha elektron schetchiklar o'rnatish ishlari olib borildi. Natijada foydalanilayotgan resurslardan, jumlayan suvdan tejamkorlik bilan foydalanishga erishildi. Bunga misol qilib amalda me'yor bo'yicha foydalashish ko'rsatkichi hisoblanganda va hisoblash uskunasi (elektron schetchik) o'rnatilgan erishilgan natijalar 2,4 martaga kamayganligini ko'rish mumkin (9.7-jadval).

9.7-jadval.

Uch xonali xonadonda sarflangan suvning taqqoslama hisobi.

Toshkent shahridagi 3 xonalik 4 kishi yashaydigan xonadonning suv iste'moli bo'yicha hisobi			
Suv hisoblash uskunasi o'rnatilganga qadar	Narxi (so'm)	Suv hisoblash uskunasi o'rnatilgan so'ng	Narxi (so'm)
Sovuq suv ta'minoti		Sovuq suv ta'minoti	
1 kishiga 1 kunda 330 L x 30 kun=1 kishiga 9.9 m ³ oyiga	514.8	1 kishiga 1 kunda 120 L x 30 kun= 3.6 m ³	187.2
9.9 m ³ X 4 kishi = 39.6 m ³ X 52 so'm	2059.2	3.6 m ³ X 4 kishi = 14.4 m ³ X 52 so'm	748.8
Oqava suv		Oqava suv	
12.6 m ³ X 4 kishi = 50.4 m ³ X 33 so'm	1663.2	1.56 m ³ x 30 kun= 4.6 m ³ X 33 so'm X 4 kishi	607.2
JAMI:	3722.4		1356

9.4.2. Oqova suvni chetlashtirish xizmatidan foydalanish me'yorlari

Oqovasuv quvuri xizmatidan foydalanish me'yorlari bir yashovchi hisobiga to'g'ri keladigan sutkali o'rtacha oqava suvlar miqdori bilan o'lchanadi.

Oqova suvlarni sutkalik o'rtacha suv chetlatish me'yorlari tajriba o'tkazib aniqlanadi va uylarning qulay-shinamlik darajasiga, shuningdek iqlim, sanitariya-gigiena va boshqa mahalliy sharoitga qarab aniqlanadi.

Aholi yashaydigan joylarning suv chetlatish me'yorlarini aniqlashda sovuq va issiq suv bilan ta'minlash me'yorlari asos qilib olinadi.

Turar joy binolarining oqava suvlarini sutkalik o'rtacha (bir yil uchun) suv iste'moliga (sug'orishga suv sarfi hisobga olinmaydi) teng qilib olinadi.

Suvni chetlatish me'yorlarini ovqat tayyorlash xona va hududlarni tozalash, dov-daraxtlarni sug'orish va boshqa ishlarda yo'qoladigan, oqavaquvurga tushmaydigan bir kishiga teng suv sarfini, bundan tashqari, aholi tomonidan suv ta'minotidagi suv iste'moli me'yorlarining taxminan 30% iga teng miqdorda iste'mol qilinadigan issiq suvni chiqarib tashlagan holda suv iste'moli me'yorlari darajasida qabul qilish lozim.

Sutkasiga (oyiga) 1 kishi hisobiga suvni chetlatish me'yorlari (m³da) uylarning sanitariya texnikasi bilan jihozlanganlik darajasiga qarab

tabaqalashtirilgan tarzda belgilanadi. Suvni chetlatish me'yorlarini tabaqalanishi uylarning sanitariya texnikasi bilan jihozlanganlik darajasiga qarab, suv iste'mol qilish me'yorlarining tabaqalanishi bilan bir xilda bo'ladi va u yuqoridagi jadvalda keltirilgan.

“Kommunal xizmatlardan foydalanish normativlarini aniqlash Metodikasi” asosida Respublikamiz shaharlarida uy-joy xo'jaligi sohasida suv ajratish normalari 9.8-jadvalda keltiriladi.

9.8-jadval.

Uy-joy xo'jaligida oqava suvni chetlashtirish normalari.

Turar joylarining sanitariya-texnik jihozlanganlik darajasi		1 sutka 1 kishi hisobiga umuiy suv sarfi normasi (l/sutka)	Bir oyda bir kishi hisobiga suv iste'mol qilish normativi (kub m/oy)
1.	Markaziy issiq suv tarmog'iga ulangan ichki kirishli, rakovina, unitaz, vanna, dushi bor bo'lgan, kanalizatsiya o'tkazilgan uylarda	350	10,64
2.	Ichki vodoprovod va rakovina (moyka) bor bo'lgan, kanalizatsiya o'tkazilgan uylarda	117	3,5
3.	O'shaning o'zi, rakovina va unitazli	147	4,4
4.	O'shaning o'zi, rakovina, vanna (hammom) yoki dushli, mahalliy suv isitish priborlari bo'lgan turar joylar	203	6,1
5.	O'shaning o'zi, rakovina, unitaz, vanna (hammom) yoki dushli, mahalliy suv isitish priborlari bo'lgan	233	7,0
6.	Markaziy issiq suv ta'minotiga ulangan, kanalizatsiya o'tkazilgan, yuz-qo'l yuvgich, moyka, kirxonasi bo'lgan yotoqxonalarda (yo'lakli tizim)	182	5,53
7.	Markaziy issiq suv ta'minotiga ulangan, kanalizatsiya o'tkazilgan, yuz-qo'l yuvgich, moyka, umumiy dushli yotoqxonalarda (seksiyali)	299	9,09

9.5. Uy-joy xo'jaligida issiqlik energiyasi iste'moli me'yorini aniqlash uslubi.

Issiqlik iste'moli me'yorlari qulay-shinam uy-joy fondini isitish va issiq suv bilan ta'minlash uchun zarur bo'ladigan issiqlik energiyasi miqdori hisobidan aniqlanadi.

Isitishga ishlatilayotgan issiqlik energiyasi me'yorlari darajasi kommunal xizmatlar ko'rsatish qoidalarida nazarda tutilgan, uylar ichidagi turli xonalarning

harorat rejimini, issiq suv iste'moli me'yorlari esa aholining sanitariya-gigiena talablari qanoatlantirilishini ta'minlamog'i lozim.

Issilik energiyasi va issiq suv iste'moli me'yorlari iqlim sharoitiga, uylarning turi va qurilish tuzilmasiga bog'liq bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadi.

Issiqlik iste'moli me'yorlarini aniqlash uchun suv iste'molini aniqlash monitoringiga o'xshash monitoring o'tkaziladi.

Isitish mavsumining nazorat qilinadigan davrida (kamida bir oy) issiqlik iste'moli me'yorlarini hisoblash ishlari bitta markaziy issiqlik punktidan (MIP) xizmat ko'rsatiladigan uylar guruhi uchun amalga oshiriladi. Bunda turarjoy binolarining isitiladigan hajmi, shu binolarda yashovchilar soni, issiq suv ta'minoti tizimining hisoblab topilgan quvvati va amaldagi iqlimiy sharoit haqidagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

Nazorat qilinayotgan vaqt ichida binolarning amaldagi issiqlik iste'moli uyga kirish tarmog'iga o'rnatilgan issiklik o'lchagichlarining ko'rsatishlari bo'yicha aniqlanadi. Monitoring o'tkazishdan oldin isitish tizimlari dahalar ichidagi issiqlik tarmoqlari, yakka tartibdagi issiqlik punktlari, binolardagi issiqlik o'tkazmaydigan qoplama (izolyasiya), ularning to'siq konstruksiyalari (devorlar, derazalar, parto'sinlar), kirish eshiklari va zina xonalari yaxshilab sozlanmog'i lozim.

Binoni bir oyda isitish uchun ishlatiladigan issiqlik me'yorlarini hisoblab topishda ushbu formuladan foydalanamiz:

$$Q_{oy} = Q_i^s \times \frac{t_{ich} - t_{tash}^{oy}}{t_{ich} - t_{tash}^{xt}} \times n \times 24(soat)$$

bu erda: Q_i^s - binoni isitish uchun bir soatda sarflanadigan issiqlik (Gkal/soat).

t_{ich} - xonalar ichidagi havo harorati, $^{\circ}S$;

t_{tash}^{oy} - tashqi havoning o'rtacha harorati, $^{\circ}S$;

t_{tash}^{xt} - tashqi havoning hisobiga topiladigan oylik harorati, $^{\circ}S$;

n - oydagi sutkalar soni;

24 - sutkadagi soatlar miqdori.

Misol: Turar joy binosini isitishga issiqlik iste'moli issiqlik o'lchagichlarining ko'rsatishlariga ko'ra isitish mavsumining oylari bo'yicha quyidagilarni tashkil etdi (Gkal/m³):

Yanvar - 804537,792;

Fevral - 41900,095;

Mart - 588927,664;

Noyabr - 658916,452;

Dekabr - 710675,05;

Jami: - 3404051,052.

1. Isitiladigan 1 m² maydonni bir yil mobaynida isitilish solishtirma issiqlik iste'molini ushbu formula orqali aniqlaymiz:

$$Q_{sol}^{oy}(\text{isitish.mavsumi}) = \frac{Q_{yil}}{S_{umum}} = \frac{3404951,052}{23494400,25} = 0,144926 Gkal.m^2$$

bu erda: Q_{yil} - yillik issiqlik iste'moli isitish mavsumi mobaynida turarjoy binosini isitishga - 3404951, 052 Gkal;

S_{umum} - isitiladigan uylarning umumiy maydoni - 234494400.25 m²;

n - isitish mavsumi – 5 oy.

2. Isitish mavsumining bir oyda 1m² maydoni isitishga solishtirma issiqlik iste'molini quyidagi formula bilan topamiz:

$$Q_{sol}^{oy} = \frac{Q_{sol}^{yil}}{n} = \frac{0.144926}{5} = 0.028985 Gkal / m^2 oy$$

To'lovning yil mobaynida bir tekis taqsimlanishini ta'minlash maqsadida bir oyda 1 m² maydonni isitishga solishtirma issiqlik iste'moli ushbu formuladan aniqlanadi:

$$Q_{sol}^{oy} = \frac{Q_{sol}^{yil}}{12} = \frac{0.144926}{12} = 0.012077 Gkal / m^2 oy$$

bu erda 12 - yildagi oylar soni.

Misol: bir nafar yashovchini issiqlik bilan ta'minlash uchun oylik solishtirma issiqlik iste'molini aniqlaymiz:

Q_{sol}^{yil} - issiq suv bilan ta'minlash uchun bir yilda issiqlikka bo'lgan ehtiyoj bo'lib, 3925814,568 Gkal/yilni tashkil etadi;

m - issiq suv ta'minotidan foydalanadigan yashovchilar soni - 1295004 kishi;

n - yildagi oylar soni (12);

1. Bir kishi hisobiga yillik issiqlik iste'moli quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q_{ist}^{yil / kishi} = \frac{Q_{ist}^{yil}}{m} = \frac{3925814,568}{1295004} = 3,0315076 Gkal / yil.kishi$$

2. Bir nafar yashovchi hisobiga oylik issiqlik iste'moli quyidagicha hisoblab topiladi:

$$Q_{\text{уст}}^{\text{ой/киши}} = \frac{Q_{\text{уст}}^{\text{йил}}}{n} = \frac{3,0315076}{12} = 0,252625 \text{ Gkall/oy.kishi}$$

9.6. Uy-joy xo‘jaligida tabiiy gaz ta‘minoti me‘yori

Turar joylarida gazning asosiy istemoliga oshxona ishlari (gaz plitalari), issiq suv ta‘minoti (gaz kolonkalari), gaz pechkalar yordamida yakka tartibda isitishga va uy ichidagi alohida (avtonom) isitish asboblari bilan isitish uchun gaz sarfi kiradi.

Ovqat tayyorlash va issiq suv ta‘minoti uchun gaz sarfi suv iste‘molini o‘rganish kabi monitoring o‘tkazish orqali o‘rganiladi. Aholining gaz iste‘mol qilish me‘yorlari monitoring asosida har bir bino bo‘yicha alohida, uning obodonlashtirilganlik, qulay va shinamlik darajasi, binoning qavatlar soni va aholi zichligiga qarab aniqlanadi. Me‘yorlarni gaz ta‘minoti korxonalari ulardan foydalanish bo‘yicha mas‘ul tashkilotlar bilan hamkorlikda aniqlaydi.

Me‘yorlarni aniqlash uchun monitoring o‘tkazilishi lozim bo‘lgan obodonlashtirilganlik darajasi bir xil turarjoy binolarining umumiy soni 30 tadan kam bo‘lmasligi lozim. Bunga sabab bir ko‘rsatkichni aniqlashga shu ko‘rsatkichni aniqlash uchun o‘rganiladigan manbalar soni o‘ntadan kam bo‘lmasligi kerak. Agar aholi yashaydigan hududdagi obodonlashtirish darajasi bir xil binolarning umumiy soni 30 tadan kam bo‘lsa, o‘lchash ishlari shu hududdagi hamma binolarda amalga oshirilmog‘i lozim.

O‘lchash ishlarini olib borish uchun tanlab olingan binolarda gaz ta‘minotida uzilishlar bo‘lmasligi, ularda tegishli kalibrlardagi gaz sarfini hisobga olish asboblari o‘rnatilgan bo‘lishi kerak.

Aholining gazni oqilona iste‘mol qilish darajasi uy ichidagi gaz quvurlaridan amalda sarf bo‘layotgan gazni, gaz sarfini o‘lchash asbobining ko‘rsatgichlari bo‘yicha batafsil o‘rganish va tahlil qilish yo‘li bilan aniqlanadi.

Turar joy binolarida gaz iste‘moli hajmining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, kun davomida (asosan kechki payt), ish kunlari, dam olish kunlari hamda turli mavsumlarda (yoz, qish va hokazo) aholi tomonidan gaz ishlatilishida katta farq bo‘ladi. SHu sababli o‘lchash ishlari turli mavsumlarda bir oy mobaynida uzluksiz, bino (binolar)dagi gaz quvurlari kirish tarmoqlaridagi gaz o‘lchash uzellarida ishlab turgan gazni hisobga olish asboblariga o‘rnatilgan istalgan turdagi o‘zi qayd qiluvchi asboblari (schetchik) yordamida amalga oshiriladi.

Monitoring jarayonida ushbu uch omil: kechki sarf, samarali bosim va aholi zichligining gaz iste‘moliga ta‘siri baholanadi.

Har bir tanlab olingan bino bo‘yicha olingan ma‘lumotlar to‘planib, jadval ko‘rinishida bir tizimga keltiriladi.

Gazni hisobga olish asboblari bo‘lmaganda kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun aholiga beriladigan amaldagi oylik tabiiy gaz sarfi me‘yorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 28 martdagi «2002 - 2004 yillarda uy-joy fondini gazni hisobga olish asboblari bilan ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 99 - sonli Qarori bilan tasdiqlangan. Hozirgi kunda

respublikamiz shaharlarida xonadonlar asosan gaz sarfini hisobga olish asboblari bilan ta'minlangan.

Issiq suv ta'minoti uchun tabiiy gazga bo'lgan yillik ehtiyoj quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_{yil}^{i.s.t.} = \frac{Q_{1yil}^{i.s.t.} + Q_{2yil}^{i.s.t.}}{2} = \frac{192 + 180}{2} = 186 \text{ m}^3 \text{ yil / kishi}$$

bu erda: 192 m³ yil/kishi - gaz bilan suv isitish mavjud bo'lganda;

180 m³ yil/kishi - gaz bilan suv isitish mavjud bo'lmaganda.

QMQ 2.04.08.96 "Gaz ta'minoti» loyihalash me'yorlariga ko'ra bir yilda gazdan foydalanish soatlarining soatlik maksimum koeffitsienti ($K_{\max}$) aniqlangan bo'lib, u 1800 soat/yilga (isitishsiz) teng.

U holda tabiiy gazga bo'lgan bir soatlik ehtiyoj quyidagini tashkil etadi:

$$\frac{P_{yil}^{i.s.t.}}{K_{\max}^n} = \frac{186}{1800} = 0,1033 \text{ m}^3 / \text{kishi}$$

Isitish uchun tabiiy gazga bo'lgan ehtiyoj ham xonaning isitiladigan hajmining 1 m³ iga gaz sarfini aniqlash usulida topiladi.

Misol: Isitiladigan xonaning 1 m³ uchun tabiiy gazga bo'lgan ehtiyojni aniqlaymiz:

Tashqi havoning harorati -1⁰S bo'lganda 1m³ maydonni isitishga 68,5 Kkal/soat issiqlik sarflanishi tajriba o'tkazib aniqlangan.

Tabiiy gazning issiqlik hosil qilish xossasi 8700 Kkal/m³ ga teng.

1. Isitiladigan xonaning 1m³ iga bir soatlik tabiiy gaz sarfini aniqlaymiz:

$$68,5 : 8700 = 0,00787 \text{ m}^3/\text{soat}$$

2. Isitiladigan xonaning 1m³ iga bir sutkada (24 soatda) tabiiy gaz sarfi quyidagini tashkil etadi:

$$0,00787 \times 24 = 0,18888 \text{ m}^3/\text{sutka}$$

3. Oylik gaz sarfi:

$$0,18888 \times 30 = 5,6664 \text{ m}^3/\text{oy}.$$

4. Isitish davrida (5-oyda) gaz sarfi:

$$5,6664 \times 5 = 28,332 \text{ m}^3 \text{ (isitish davri)}$$

To'lovning yil mobaynida bir tekis taqsimlanishini ta'minlash maqsadida isitishga tabiiy gaz sarfi me'yori taqvimiy yil mobaynida 12 oy hisobiga bir tekis hisoblangan. U holda bir oyda tabiiy gaz sarfi quyidagini tashkil etadi:

$$28,332 : 12 = 2,4 \text{ m}^3/\text{oy}$$

Respublikada 1 kishi uchun isitiladigan xona me'yori 43 m³ qilib belgilangan, agar isitiladigan xonaning maydoni 43 m³ bo'lsa, u holda bir oyda tabiiy gazga bo'lgan ehtiyoj $43 \times 2,4 = 103,2 \text{ m}^3$ oy/kishini tashkil etadi.

Markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta'minlanmaydigan, balonlardagi gaz ishlatiladigan xonadonlarda yashovchi aholining 1 kishi hisobiga faqat ovqat tayyorlash uchun gazdan foydalanish solishtirma me'yorlari 1240 ming kkalni tashkil qiladi (QMQ 2.04.08-96).

Suyultirilgan gaz (propan) ning issiqlik hosil qilish quvvati 21800 kkal/m³ ga teng.

Bir kishi hisobiga yillik gaz sarfi quyidagini tashkil etadi:

$$Q = \frac{1240000}{21800} = 57 \text{ m}^3 / \text{yil}. \quad \text{yoki} \quad G = Q \times J = 57 \times 2,0 = 114 \text{ kg} / \text{yil}$$

bu erda: J - gaz (propan) ning solishtirma og'irligi = 2,004 l/kg.

Markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta'minlanadigan kvartiralarda faqat ovqat pishirish uchun bir yilda bir kishi hisobiga issiqlik sarfi me'yorlari 860 ming Kkalni tashkil etadi (QMQ 2.04.08 - 96).

$$Q = \frac{860000}{21800} = 39 \text{ m}^3 / \text{yil}. - \text{yoki} \quad G = 39 \times 2,0 = 78,0 \text{ kg} / \text{yil}$$

Demak bir kishi uchun bir yilda sarflanadigan gaz miqdori 78,0 kg/yilni tashkil etadi. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimiga etkazib berilayotgan gaz sarflari me'yoriga katta ta'sir ko'rsatuvchi ko'rsatkich bu tizimda gazning yo'qotilishidir. Gaz ta'minoti tizimida yo'qotishlar:

- gaz o'tkazish tarmoqlariga gazni me'yordan ortiq bosim ostida uzatish;
- nosoz gaz asboblari va uskunalaridan foydalanish va gaz uzatish tizimida nosozliklarning yuzaga kelishi;
- iste'molchilarning tabiiy gazdan yashirin foydalanishlari va gaz hisoblagich ko'rsatkichlarini o'zgartirishlari natijasida ro'y beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 11 fevraldagi "Kommunal xizmat ko'rsatish sohasiga zamonaviy hisobga olish priborlarini va resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish dasturi to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq maxsus dastur qabul qilingan. Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 5 noyabridagi "Kommunal xo'jaligida energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlariga muvofiq energiya ta'minoti sohasida resurslardan oqilona foydalanish va energiya yo'qotishlarining oldini olish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda uy-joy xo'jaligida elektr energiyasi, gaz va issiqlik energiyasi sarfini hisoblovchi elektron hisoblagichlarni o'rnatish ishlari yakunlanmoqda.

10-mavzu. Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatishda "Yagona buyurtmachi xizmati" va professional boshqaruv kompaniyasi

10.1. Yagona buyurtmachi xizmati va uning vazifalari

10.2. Davlat uy-joy-fondini yagona buyurtmachi xizmatiga berish tartibi

10.3. Yagona buyurtmachi xizmatini boshqarish va xo'jalik-moliyaviy faoliyatini tashkil etish

10.4. Professional boshqaruv kompaniyasi belgilari, funksiyalari va vazifalari

10.1. YAgona buyurtmachi xizmati va uning vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 1998 yil 3 noyabrdagi 461-son Qaroriga muvofiq "Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha YAgona buyurtmachi xizmati to'g'risida"gi Vaqtinchalik Nizom ishlab chiqilgan. Ushbu nizom Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha YAgona buyurtmachi xizmatining asosiy vazifalari hamda funksiyalarini, uning huquqiy maqomini, tashkil etilishini, faoliyat ko'rsatishi va tugatilishini belgilab beradi.

YAgona buyurtmachi xizmati uy-joy fondini, turar-joy bo'lmagan binolar va imoratlarni, muhandislik asbob-uskunalarini, uylarga yondosh hududlarni zarur darajada saqlash va tuzatishni, barcha to'lovlarni hisob-kitob qilish va yio'ishni, pudrat tashkilotlari va xizmat ko'rsatuvchilar bilan hisob-kitob qilishni hamda fuqarolarning yashashi uchun shart- sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan uy-joy fondini boshqarishni amalga oshirishga vakolatli tashkilot hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 2000 yil 24 yanvardagi 22-sonli "O'zbekiston Respublikasining uy-joy kodeksini amalga oshirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiklash to'g'risida"gi Qaroriga asosan quyidagi shahar va tumanlarda YAgona buyurtmachi xizmatini tashkil etish bo'yicha eksperiment o'tkazildi:

1. Asaka shahri, Andijon viloyati
2. Buxoro shahri, Buxoro viloyati
3. Denov shahri, Surxondaryo viloyati
4. Samarqand shahri, Samarqand viloyati
5. Qo'qon shahri, Faro'ona viloyati
6. Sirdaryo shahri, Sirdaryo viloyati
7. Taxiatosh shahri, Qoraqalpoo'iston Respublikasi
8. Qarshi shahri, Qashqadaryo viloyati
9. Kosonsoy shahri, Namangan viloyati
10. Olmaliq shahri, Toshkent viloyati
11. Xiva shahri, Xorazm viloyati
10. YUnusobod tumani, Toshkent shahri

Qoraqalpoo'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari va Toshkent shahar hududiy kommunal-foydalanish birlashmasi YAgona buyurtmachi xizmatiga uslubiy, texnikaviy va boshqa zarur yordam ko'rsatadi, uni tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlaydi.

Yagona buyurtmachi xizmati tegishli shahar (tuman) hokimi qarori asosida davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etiladi, hokim, shuningdek, Yagona buyurtmachi xizmatining ushbu Nizomga muvofiq ishlab chiqilgan Ustavini ham tasdiqdaydi.

Mulkdorlar, shuningdek, uy-joy ijarachilari va ijarachilari uy-joy fondini boshqarish, unga xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash hamda kommunal xizmatlar ko'rsatish yuzasidan pudratchilar bilan o'z munosabatlarini ham Yagona buyurtmachi xizmati orqali, ham bevosita yo'lga qo'yishlari mumkin.

Yagona buyurtmachi xizmati faoliyatini mablao' bilan ta'minlash mahalliy budjet mablao'lari, aholi va korxonalarning uy-joy-kommunal xizmatlar uchun to'lovlari, shuningdek, markazlashtirilgan davlat subsidiyalari hisobiga amalga oshiriladi.

Quyidagilar Yagona buyurtmachi xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- uy-joy fondini boshqarish, unga xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash hamda kommunal xizmatlar ko'rsatish yuzasidan pudratchilar oldida uy-joy va uy-joy bo'lmagan binolar mulkdorlari (ijarachilar va ijarachilar) manfaatlarini ifodalash;
- uy-joy mulkdorlari (ijarachilari va ijarachilari)ning uy-joy-kommunal xizmatlar ko'rsatishni hamda ta'mirlash ishlarini pudratchilar bilan tanlov asosida o'tkazishni tashkil etish yuzasidan buyurtmachilarni shakllantirish va umumlashtirish;
- aholidan tushadigan moliyaviy mablao'larni, shuningdek, pudratchi tomonidan bajarilgan ishlarga va ko'rsatilgan xizmatlarga, ularning sifatiga qarab hamda shartnomaga muvofiq, to'lash uchun davlat tomonidan markazlashtirilgan tartibda va mahalliy darajada ajratiladigan subsidiyalarni jamlash va tasarruf etish.

Uy-joylar mulkdorlari, ijarachilari va ijarachilarining ixtiyoriy birlashmalari, shu jumladan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari xam uy-joylarni saqlash bo'yicha davlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalarning mustaqil oluvchilari bo'lishi mumkin.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari umumiy mulkni boshqarish, ularga xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash, shuningdek, kommunal va boshqa xizmatlar ko'rsatish yuzasidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan mustaqil ravishda shartnomalar tuzishlari mumkin.

Yagona buyurtmachi xizmati foydalanuvchilarga markazlashtirilgan tartibda issiklik, gaz, elektr energiyasi etkazib berish bo'yicha tuman va shahar kommunikatsiyalarini boshqarish, ularga xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash yuzasidan, shuningdek, jamoat hududlari va kommunikatsiyalarida kommunal xizmatlar ko'rsatish va ta'mirlash ishlari yuzasidan pudratchilar bilan ustuvor tartibda shartnomalar tuzadi.

SHahar (tuman) hokimligi davlat uy-joy fondini (uy-joylarni ularga yondosh hududlar, ichki muhandislik kommunikatsiyalari suv, issiklik, kanalizatsiya, gaz, elektr energiyasi bilan birga, Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati boshqaruviga berilgan davlat uy-joy fondi bundan mustasno) joylardagi ijro etuvchi hokimiyat organlaridan xo'jalik yuritish va boshqarish uchun Yagona buyurtmachi xizmati balansiga beradi. Yagona buyurtmachi xizmatiga, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat uy-joy fondini boshqarish bo'yicha funksiyalari ham beriladi.

Xususiy mulk bo'lgan ko'p kvartirali uy-joylar, ularga yondosh hududlar va ichki muhandislik kommunikatsiyalari (suv, issiklik, kanalizatsiya, gaz, elektr energiyasi) ko'chmas mulk butun kompleksidan shartnoma bo'yicha foydalanishni ta'minlash uchun mulkdorlar tomonidan Yagona buyurtmachi xizmati boshqaruviga berilishi mumkin.

Yagona buyurtmachi xizmatiga uy-joy mulkdorlari bilan shartnomaviy shartlarda quyidagi asosiy funksiyalarni bajarish yuklanadi:

- uy-joy fondini va muhandislik infratuzilmasi ob'ektlarini (suv oqizish-kanalizatsiya xo'jaligi, issiklik, elektr energiyasi, gaz ta'minoti, tashqi obodonlashtirish ob'ektlari hamda foydalanuvchilarga kommunal xizmatlar ko'rsatishni bevosita amalga oshiruvchi boshqa ob'ektlarni) saqlash va ta'mirlash yuzasidan pudrat korxonalari bilan tanlov asosida shartnomalar tuzish;
- aholi va boshqa foydalanuvchilarning uy-joyini saqlash va ta'mirlash hamda uy-joy-kommunal xizmatlar uchun to'lov sifatida tushadigan mablao'larini, shuningdek, mahalliy budjetdan ajratilgan mablao'larni to'plash;
- uy-joy fondi mulkdorlari bilan birgalikda ishlar pudratchisini, uy-joy-kommunal xizmatlar ko'rsatuvchini tanlash, shu jumladan, to'liq ta'mirlash va rekonstruksiya qilishni amalga oshirish yuzasidan tanlovlar o'tkazishni tashkil etish, ular tugallangach, ishlarni qabul qilib olishda qatnashish;
- bajarilayotgan ishlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va puxtaligini nazorat qilish hamda tuzilgan shartnomalarga muvofiq amalga oshirilgan ishlar va xizmatlar uchun haq to'lash;
- kvartiralar ichidagi asbob-uskunalarini ta'mirlash va almashtirish, muhandislik tarmoo'laridagi halokatli holatlarni va ularning oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan uy-joy fondi mulkdorlaridan, shu jumladan, Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlaridan tushadigan buyurtmanomalarining bajarilishi to'g'risidagi axborotlarni yio'ish va tahlil qilish;
- pudrat tashkilotlari tomonidan Yagona buyurtmachi xizmati mijozlarining tezkor buyurtmalari bo'yicha xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari, shuningdek kommunal xizmatlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini, shu jumladan, tushayotgan shikoyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va paydo bo'layotgan muammolarni hal etish yo'li bilan, doimiy nazorat qilish;
- shartnoma shartlarini bajarishmagan taqdirda uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash, kommunal xizmatlar ko'rsatish bo'yicha pudrat korxonalarini almashtirish, tanlov asosida yangi korxonalarini tanlash;
- uy-joy fondining, muhandislik infratuzilmasi va tashqi obodonlashtirish ob'ektlarining texnik holatini rejali nazorat qilish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tavsiyalar va texnik echimlar ishlab chiqish;
- Yagona buyurtmachi xizmatiga qarashli hududda foydalanuvchilarga uy-joy-kommunal xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash uchun zarur bo'lgan yangi pudrat korxonalari tashkil etishda qatnashish;
- yangi ishga tushirilgan uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlarini qabul qilib olish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- pudratchining uy-joyini, erto'lalarda, shaxtalarda joylashgan muhandislik tarmoo'larini, bittadan ko'p kvartirani birlashtiruvchi tarmoo'larni, texnika asbob-uskunalarini, yondosh hududni zarur darajada saqlash hamda unda yashovchi aholiga shartnomada nazarda tutilgan haq to'lanadigan ish va

xizmatlar turlari ro'yxatiga muvofiq xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyatini nazorat qilish, shuningdek, tushayotgan buyurtmanomalar bo'yicha aholiga xizmat ko'rsatish ishlarini tezkorlik bilan tashkil etish.

Yagona buyurtmachi xizmati:

- pudrat korxonalarini tomonidan xizmat ko'rsatish yuzasidan shartnomalar shartlari buzilgan taqdirda ulardan nazarda tutilgan iqtisodiy jarimalar tarzidagi mablaolarni undirish maqsadida sud organlariga murojaat qilish;
- ko'rsatilgan uy-joy-kommunal xizmatlar uchun mablaolar to'lanmagan taqdirda ularni o'z mijozlaridan undirish maqsadida sud organlariga murojaat qilish.

Yagona buyurtmachi xizmati uy-joy-kommunal xizmatlar ko'rsatish yuzasidan buyurtmani shakllantirish uchun:

- ta'mirlash-qurish ishlari va uy-joy-kommunal xo'jaligi xizmatlari ko'rsatish bo'yicha bozorlar kon'yunkturasini;
- uy-joy-kommunal xizmatlar hajmlari hamda xizmatlar qiymatining mumkin bo'lgan o'zgarishlar prognozini va pudrat shartnomalari tuzishda inflyasiya omillarini hisobga olishni;
- shartnoma asosida uy-joy-kommunal xizmatlar ko'rsatish huquqiga tanlovlar tashkil etishni o'rganish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi.

Ustavga ko'ra Yagona buyurtmachi xizmatiga uning asosiy vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa funksiyalar va huquqlarni amalga oshirish yuklanishi mumkin.

10.2. Davlat uy-joy-fondini yagona buyurtmachi xizmatiga berish tartibi

SHahar (tuman) hokimligi qabul qilish-berish maxsus dalolatnomasida sanab o'tilgan va berishning haqiqiy sanasidagi holatiga ko'ra mulkdor balansida aks ettirilgan ko'char va ko'chmas mulkni (asosiy va aylanma mablaolar hamda ularning manbalarini) to'liq xo'jalik yuritish huquqi bilan Yagona buyurtmachi xizmatiga biriktirib ko'yadi.

Yagona buyurtmachi xizmati O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq unga to'liq xo'jalik yuritish huquqi bilan biriktirilgan davlat mulkiga ega bo'ladi va undan foydalanadi.

Yagona buyurtmachi xizmatiga to'liq xo'jalik yuritish huquqi bilan biriktirilgan davlat mulki, shuningdek, u yaratgan va sotib olgan mulk shahar (tuman) mulki hisoblanadi.

Yagona buyurtmachi xizmati, asosiy faoliyat turlariga zarar etkazmagan holda, jismoniy va yuridik shaxslarga amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan qo'shimcha o'zaro bog'liq xizmatlar ko'rsatganlik uchun daromadlar olish huquqiga ega.

Yagona buyurtmachi xizmatiga to'liq xo'jalik yuritish huquqi bilan berilgan ko'chmas mulk, mashina va asbob-uskunalar:

a) faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mulkdorning qaroriga ko'ra sotilishi yoki boshqa usulda begonalashtirilishi;

b) mulkdorning roziligi bilan va uning bilan kelishilgan shartlarda garovga berilishi;

v) faqat mulkdorning qaroriga ko'ra ijaraga topshirilishi mumkin. Yagona buyurtmachi xizmati berilgan davlat uy-joy fondiga nisbatan:

a) to'liq xo'jalik yuritish huquqi bilan o'ziga biriktirilgan davlat mulkidan foydalanish qoidalari buzilishiga yo'l qo'ymaslik va uning saqlanishini ta'minlash xamda uni o'z mablao'lari, shu jumladan, amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari hisobiga tiklash;

b) to'liq xo'jalik yuritish huquqi bilan o'ziga biriktirilgan davlat mulkini o'z mablaglari hisobiga kapital va joriy ta'mirlash;

v) o'z ixtiyoriga topshirilgan uy-joy fondini binolar konstruksiya bardoshlilikini saqlash jihatdan muntazam nazorat qilish;

g) bino konstruksiyalarining shikastlangani aniqlangan taqdirda shaxar(tuman) hokimligini xabardor kilish, konstruksiyalarning fuqarolar yashashiga va uy-joy fondining bundan keyingi saqlanishiga xavf soluvchi shikastlanishlari darajasini tezkorlik bilan aniqlash uchun loyihalash institutlari mutaxassislarini jalb etish;

d) shahar(tuman) xokimligiga uy-joy fondini saqlash chora-tadbirlari ko'rish to'grisida takliflar kiritish;

e) har yili fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bilan birgalikda o'ziga biriktirilgan davlat uy-joy fondi kvartiralarini tekshirib chiqish;

j) o'zboshimchalik bilan xonalar joylashishi o'zgartirilganda, to'siqlar olib tashlanganda, o'yilganda, konstruksiya elementlari, konstruksiyalar qisman yoki to'liq ko'chirilganda va foydalanishning texnik normalariga muvofiq bo'lmagan muhandislik kommunikatsiyalari o'rni o'zgartirilganda hamda fuqarolar tomonidan uydagi boshqa yashovchilar yashashiga xavf tug'diruvchi boshqa barcha xatti-harakatlar sodir etilganda ko'rsatib o'tilgan buzilishlar to'grisida darhol dalolatnoma tuzish va konstruksiyalarni aybdor hisobiga tiklash chora-tadbirlarini ko'rish uchun materiallarni shahar(tuman) hokimligiga yoki sud organlariga berish;

z) belgilangan soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni budjetga to'lash majburiyatlarini oladi.

Xo'jalik yuritish huquqi bilan yagona buyurtmachi xizmatiga biriktirilgan davlat mulki:

a) mulkdorning qaroriga ko'ra:

Yagona buyurtmachi xizmati qayta tashkil etilganda;

belgilangan maqsadga ega bo'lgan, o'zining va mahalliy budjet hisobiga barpo etilgan yoki sotib olingan binolar, inshootlar va boshqa mulklar belgilangan maqsad bilan boshqa yuridik shaxsga berilganda;

b) sud qaroriga ko'ra:

mulqdor yagona buyurtmachi xizmatidan mulkni undirish to'g'risida murojaat qilganda to'liq yoki qisman olib qo'yilishi mumkin.

10.3. Yagona buyurtmachi xizmatini boshqarish va xo‘jalik-moliyaviy faoliyatini tashkil etish

Yagona buyurtmachi xizmatiga viloyat va shahar hokimliklari bilan kelishilgan holda shahar(tuman) hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadigan boshliq rahbarlik qiladi. Yagona buyurtmachi xizmati boshligi:

- Yagona buyurtmachi xizmati faoliyatiga rahbarlik qiladi va unga yuklangan funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

- Yagona buyurtmachi xizmatining shtat jadvali yuzasidan shahar (tuman) hokimligiga takliflar kiritadi;

- barcha korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda Yagona buyurtmachi xizmati manfaatlarini ifodalaydi;

- pudrat tashkilotlari, elektr energiyasi va suv bilan ta'minlovchi hamda ixtisoslashtirilgan boshqa tashkilotlar bilan shartnomalar tuzadi, komissiyalar tarkibini tasdiqlaydi, bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa hisob raqamlari ochadi;

- xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, xizmat xodimlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan bo'shatadi;

- o'z vakolati doirasida buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi. Yagona buyurtmachi xizmati faoliyatini nazorat qilish

Qoraqalpoo'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi.

Yagona buyurtmachi xizmati belgilangan tartibda statistika va buxgalteriya hisobotini yuritadi, belgilangan muddatlarda tegishli organlarga balans hisobotlari topshiradi, soliq solish uchun zarur bo'lgan axborotlarni hamda iqtisodiy axborotlarni to'plash va ishlab chiqish umumdavlat tizimi ma'lumotlarini davlat statistika organlariga taqdim etadi.

Mudkorlar, ya'ni xonodon (kvartira) egasi va ijrochi -yagona buyurtmachi xizmati o'rtasidagi moliyaviy-xo'jalik munosabtlarini uy-joy (kvartira)ni boshqarish, unga xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash hamda unga kommunal xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnoma asosida tartibga solinadi.

Uy-joy mulkdori uy (kvartira)ga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yagona buyurtmachi tomonidan kommunal xizmatlar va uy-joyi ta'mirlash xizmatlari uchun belgilangan tariflarga muvofiq har oyning 10-kunidan kechiktirmay o'z vaqtida haq to'laydi.

Tariflar "1 kv. m. umumiy maydondagi turar joylarni ta'minlash va ishlatish uchun to'lov tariflarini shakllantirishda xarajatlar tarkibini aniqlash hamda rentabellikning cheklangan darajasini joriy etish bo'yicha Nizomni tasdiqlash to'g'risidagi Qaror" va "Kommunal xizmatlarga tariflarni shakllantirishda xarajatlar tarkibini aniqlash va rentabellikning cheklangan darajasini joriy etish bo'yicha Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorga asosan belgilanadi.

Uy-joy (kvartira)ni saqlaganlik, xizmat ko'rsatganlik va ta'mirlaganlik, kommunal xizmatlar ko'rsatganlik uchun uy (xonodon) tomonidan har oyda xisob-kitob qilinadi. To'lovlar o'tgan oydan keyingi oyning 10 kunigacha to'lanadi. Kommunal xizmatlar haki belgilangan shakldagi to'lov hujjati bo'yicha ijrochi-yagona buyurtmachi xizmati orqali to'lanadi.

Uy-joy (kvartira)ni boshqarish, unga xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash hamda unga kommunal xizmatlar ko'rsatish bo'yicha hak amaldagi Qonun hujjatlariga muvofiq, mahalliy hokimiyat organlari (Qorakalpoo'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaxar, tuman va Toshkent shaxar xokimliklari) tomonidan tasdiqlangan tariflar bo'yicha to'lanadi.

Uy-joy-kommunal xizmatlar haki o'z vaqtida to'lanmagan taqtirda "Mulkdor" "Ijrochiga" muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun 0,1 foiz mikdorida penya to'laydi, muddati o'tkazib yuborilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda.

10.4. Professional boshqaruv kompaniyasi belgilari, funksiyalari va vazifalari

"Professional boshqaruv kompaniyasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati Ta'sis shartnomasi va Ustav asosida hamda Boshqaruv kompaniyasi Ishtirokchilarining mablao'larini birlashtirish asosida ishlab chiqarish, tadbirkorlik, tijorat va boshqa turdagi xo'jalik faoliyatini yuritish maqsadida tashkil etildi.

O'z faoliyatida Boshqaruv kompaniyasi Fuqarolik kodeksi, Uy-joy kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Uy -joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida"gi Qonuni, "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 fevraldagi PQ 5-sonli qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari, Ta'sis shartnomasi va mazkur Ustavga asoslanadi.

Boshqaruv kompaniyasi faoliyatining asosiy maqsadi uy-joy sohasida ko'chmas mulk mulkdorlariga yoki mulkdorlar tomonidan vakolat berilgan organlar, xususiyy uy -joy mulkdorlari shirkatiga, ko'p kvartirali uylardagi turar joy va noturar joy mulkdorlariga va boshqa, tashkilotlar yoki shaxslarga ko'chmas mulkni boshqarish sohasida xizmat ko'rsatish orqali daromad olishdan iborat.

Boshqaruv kompaniyasi faoliyati predmeti quyidagi turdagi xizmatlarni ko'rsatishdan iborat:

Ko'chmas mulkka xizmat ko'rsatilishini boshqarish bo'yicha,

- inventarizatsiya o'tkazish;

- texnik holatni ko'rikdan o'tkazish;

- xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha bajariladigan ishlarning ustuvorligini baholash;

- xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, mulkning ayrim ob'ektlarini (qismlari) modernizatsiya qilish ishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan nuqsonlar dalolatnomasi va boshqa turdagi texnik hujjatlarni tuzish;

- mulkni saqlash bo'yicha yillik va istiqbolli rejalar loyihasini ishlab chiqish;

- texnik va sanitariya xizmatlarini ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha ishlar rejalari va jadvallarini tayyorlash;

- yangi jihozlar va muhandislik tizimlarini o'rnatish, mulkni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

- mulkka avariya-dispatcherlik xizmati ko'rsatilishini uyushtirish.

Moliyaviy boshqaruv bo'yicha:

- mulkni saqlash rejalarini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni baholash;

- ayrim ish turlari, ta'mirlash bo'yicha smetalarni ishlab chiqish;

- daromadlar va xarajatlar smetalari loyihasini ishlab chiqish;

- uy-joy mulkdorlarining (uy-joy mulkdorlari shirkati a'zolarining) mulkni saqlash xarajatlarini qoplash bo'yicha to'lovlari (badallari) miqdorini hisoblab chiqish;

- daromadlar smetasi moddalariga mos holda to'lovlar (badallar) tushumi hisobini yuritish va nazorat qilish;

- uy-joy mulkdorlari shirkatlari, mulkdorlar va ular tomonidan vakolat berilgan organlar, tashkilotlar va shaxslar uchun daromadlar va xarajatlar smetasining ijrosi bo'yicha hisobotlarni tayyorlash;

- xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha bajarilgan ishlar uchun to'lovlarni tasdiqlash bo'yicha chiqim hujjatlarini tekshirish;

- uy-joy mulkdorlari shirkatlarining buxgalterlik hisobini va hisobotini yuritish;

- uy-joy mulkdorlari va uy-joy mulkdorlari shirkatlari uchun soliqlar, yio'implar va majburiy to'lovlarni hisob-kitob qilish;

- auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish.

Ma'muriy boshqaruv bo'yicha:

- davlat organlari va boshqa organlarda mulkdorlar, xususi uy-joy mulkdorlari shirkatlari nomidan ish yuritish;

- xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha malakali ijrochilar, pudratchilarni izlash;

- mulkdorlar yoki ular tomonidan vakolat berilgan organlar, tashkilotlar yoki shaxslarga ishlarni bajarish (xizmat ko'rsatish) bo'yicha tanlovlar (tenderlar) o'tkazish uchun tanlov hujjatlari to'plamini ishlab chiqish yoki bu borada yordam berish;

- uy -joy mulkdorlari shirkatlari va boshqa mijozlar uchun lavozim yo'riqnomalarini va ishlarni bajarish bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqish;

- mulkdorlar yoki ular tomonidan vakolat berilgan organlar, tashkilotlar yoki shaxslar uchun ishlarni bajarish (xizmat ko'rsatish) bo'yicha shartnomalar loyihalarini ishlab chiqish;

- ijrochilar, pudratchilar tomonidan shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish, bajarilgan ishlar hajmi va sifatini baholash;

- uy-joy mulkdorlari shirkatida mulkdorlarning to'lovi (badallari) yig'imini tashkil etish;

- muddati o'tgan to'lovlar va qarzlar tushumini ta'minlash;

- uy-joy mulkdorlari shirkatlari va har bir mulkdor uchun mulkni saqlash hamda daromadlar va xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash;

- aholi va tashkilotlardan avariya holatlarini bartaraf etish va ta'mirlash-tiklash ishlarini bajarish bo'yicha buyurtmalar olinishini ta'minlash.

Maxsus xizmatlar ko'rsatish:

- mulkni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha, xususan, resurslarni tejash va mulkni saqlash xarajatlarini kamaytirish yuzasidan takliflarni tayyorlash;

- ko'p kvartirali uylarda xonalarni qayta rejalashtirish, qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish bo'yicha ekspert xulosalarini tayyorlash;

- mulkdan foydalanishda qo'shimcha daromad olish uchun takliflar ishlab chiqish;

- mulkdorlar yoki ular tomonidan vakolat berilgan organlar, tashkilotlar yoki shaxslar topshirio'iga ko'ra ijarachilarni (ijaratorlar) izlash, ijara (ijara) shartnomalarini tayyorlash va ularning ijrosi ustidan nazorat o'rnatish;

- moliyaviy mablaolarni saqlash va qo'shimcha daromad olish uchun bank depozitlarida joylashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

- xonalar mulkdorlari va XUJMSHga kapital ta'mirlash, rekonstruksiya va modernizatsiya ishlari uchun banklardan va boshqa kredit tashkilotlaridan kreditlar olish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishga ko'maklashish;

- sudlarda xonalar mulkdorlari, ijarachilar, yollovchilarga nisbatan uy-joy mulkdorlari shirkati nomidan ish yuritish.

Boshqaruv kompaniyasi asosiy faoliyat turlaridan tashqari faoliyatning quyidagi turlari bilan shug'ullanishi mumkin:

- ilmiy va loyiha ishlanmalari, ilmiy tadqiqot natijalarini joriy etish;

- vakillik, agentlik, reklama, marketing, maslahat xizmatlarini ko'rsatish;

- qonunchilikda belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyat yuritish, xom ashyo, materiallar, mahsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlar eksporti va importi bo'yicha amaliyotlarni, savdo-vositachilik amaliyotlarini amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida tijorat tashkilotlari uchun taqiqlanmagan har qanday boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanish.

Mazkur Ustavda ko'zda tutilgan, litsenziya (ruxsatnoma) talab qilinadigan faoliyat turlari bilan shug'ullanish Boshqaruv kompaniyasi tomonidan faqat belgilangan tartibda litsenziya (ruxsatnoma) olinganidan so'ng amalga oshiriladi.

Boshqaruv kompaniyasi alohida mulkka, mustaqil balansga ega, banklarda hisob-kitob, valyuta va boshqa hisob raqamlarni ochadi, o'z nomidan ish yuritishi, bitimlar, shartnomalar, kontraktlar tuzishi, mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi, majburiyatlarga ega bo'lishi, sudda, xo'jalik va hakamlik sudlarida da'vogar va javobgar sifatida ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra Boshqaruv kompaniyasi o'z majburiyatlari bo'yicha butun mulki va aktivi bilan javobgar bo'lib qarzarlar ana shu mulk hisobidan undirilishi mumkin. Boshqaruv kompaniyasi Ishtirokchilar majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, Ishtirokchilar esa Boshqaruv kompaniyasi majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi. Ishtirokchilar zararlarni qoplashda o'zlarining Boshqaruv kompaniyasi Ustav jamg'armasidagi ulushlari qiymati doirasida javob beradi. O'z ulushini to'liq qo'shmagan Ishtirokchilar Boshqaruv kompaniyasi majburiyatlari bo'yicha har bir Ishtirokchi ulushining to'lanmagan qismi doirasida birgalikda javobgardir.

Boshqaruv kompaniyasi o'z nomi bitilgan dumaloq muhrga, tovar belgisiga, to'rtburchak muhrga, blankalarga va yuridik shaxsning boshqa rekvizitlariga ega.

Boshqaruv kompaniyasi o'ziga tegishli mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega. Boshqaruv kompaniyasi o'z mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday harakatlarni amalga oshirishi, mulkidan qonunchilikda taqiqlanmagan va Boshqaruv kompaniyasining Ustav maqsadlari va vazifalariga mos bo'lgan har qanday xo'jalik va boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin.

Boshqaruv kompaniyasi qonunchilik talablariga va Ustav moddalariga rioya qilgan holda yirik bitimlar tuzishi va Boshqaruv kompaniyasi mansabdor shaxslari va ayrim Ishtirokchilari manfaatdorligi mavjud bo'lgan har qanday bitimlar tuzishi mumkin.

Boshqaruv kompaniyasi boshqa yuridik shaxslarning muassisi bo'lish yoki boshqa yuridik shaxslarning ustav jamg'armasida boshqa shaklda ishtirok etish, shu bilan korxonalar, vakolatxonalar, filiallar va qonunchilikda belgilangan tartibda joriy va hisob-kitob hisob raqamini ochish huquqiga ega bo'lgan alohida bo'linmalar tuzish huquqiga ega.

Mazkur Ustavga va boshqa ta'sis hujjatlariga kiritiladigan har qanday o'zgartish va qo'shimchalar ular yozma tarzda rasmiylashtirilgan, Ishtirokchilar tomonidan tegishli tartibda imzolangan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda haqiqiy deb hisoblanadi. Ta'sis hujjatlariga o'zgartishlar kiritilishi va ularning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi Boshqaruv kompaniyasi umumiy yig'ilishida bunday o'zgartishlar tasdiqlanganidan so'ng bir oydan kechiktirilmagan holda amalga oshirilishi kerak.

Boshqaruv kompaniyasi quyidagi huquqlarga ega:

- yuridik va jismoniy shaxslar bilan ushbu Ustavga muvofiq ravishda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan taqiqlanmagan turli xil xizmatlar ko'rsatilishi bo'yicha xo'jalik shartnomalarini tuzish;

- shartnomaviy asosda u yoki bu turdagi xizmat, yoxud xizmatlar to'plamiga narxlarini mustaqil belgilash;

- mustaqil ravishda bevosita yoki uy-joy mulkdorlari shirkatlari, mulkdorlar topshirig'iga ko'ra kommunal xizmatlar ta'minotchilari bilan shartnomalar tuzish;

- tadbirkorlik faoliyatidan qonunchilikda belgilangan tartibda soliqqa tortiladigan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;

- o'z ixtiyoriga ko'ra olingan daromadni (foydani) tasarruf etish, bankdagi hisob raqamlaridagi pul mablaolarni mustaqil tasarruf etish;

- aksiyalar va boshqa qimmatli qo'ozlarni xarid qilish;

- kreditlar olish, ixtiyoriy tarzda va shartnomaviy asosda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning mablaolarni jalb etish va ularni o'z ixtiyoriga ko'ra yo'naltirish;

- kredit olish maqsadida o'z mulkini garovga qo'yish;

- kichik va xususiy korxonalarga beriladigan barcha turdagi imtiyozlar va afzalliklardan foydalanish;

- qonunchilikda belgilangan tartibda xodimlarni ishga yollash (doimiy va vaqtinchalik asosda) va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilish;

- zarur asboblarni, ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish, ijaraga olish, bino va inshootlar qurilishini amalga oshirish, shuningdek ulardan mustaqil foydalanish;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ravishda mulkni sug'urtalash, tavakkalchilikdan sug'urtalash va boshqa turdagi sug'urtalarni amalga oshirish;

- ixtiyoriy asosda, shu jumladan, ulushbay (hissadorlik) asosda birlashish, hamjamiyatlarni, ittifoqlar, assotsiatsiyalar va boshqa birlashmalarga a'zo bo'lish.

Boshqaruv kompaniyasi quyidagi majburiyatlarga ega:

- uy-joy sohasida ko'chmas mulkni boshqarishga oid xizmatlarni ko'rsatishda belgilangan me'yorlar, qoidalar va standartlar, amaldagi moliyaviy va xo'jalik qonunchiligi talbalariga rioya qilish;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ravishda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lash.

Boshqaruv kompaniyasining ustav jamg'armasi. Boshqaruv kompaniyasining Ustav jamg'armasi (ustav sarmoyasi) ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymatidan tashkil topgan. Ustav jamg'armasini shakllantirish manbalarini ishtirokchilarning pul va moddiy qo'yilmalari, beo'araz va hayriya badallari, yuridik va jismoniy shaxslarning hayriyalari, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar tashkil etadi. Boshqaruv kompaniyasi Ustav jamg'armasi eng kam ish haqining 50 baravari miqdoridan kam bo'lmagan miqdorda tashkil etiladi. Ishtirokchi ulushining haqiqiy qiymati Boshqaruv kompaniyasi sof aktivlarining uning ulushi miqdoriga proporsional bo'lgan miqdoriga teng.

Boshqaruv kompaniyasi davlat ro'yxatidan o'tayotgan paytda ishtirokchilarning har biri o'z ulushining 30 foizdan kam bo'lmagan qismini kiritgan bo'lishi kerak. Boshqaruv kompaniyasi davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab bir yil ichida har bir Ishtirokchi o'z ulushini to'liq kiritishi lozim. Ishtirokchilar tomonidan ulush tariqasida Ustav jamg'armasiga kiritiladigan mulk va mulkiy huquqlarning puldagi qiymati Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi qarori bilan bir ovozdan (100%) tasdiqlanadi.

Agar ishtirokchi ulushi mulkiy huquqlar shaklida kiritilsa, Boshqaruv kompaniyasi tomonidan bunday mulkdan foydalanish huquqi muddatidan avval tugallangan taqdirda, amaldagi qonunchilikka muvofiq avval mulkiy huquqlarni bergan ishtirokchi Boshqaruv kompaniyasi talabiga ko'ra qolgan muddat davomida bunday mulkdan xuddi shu sharoitlarda foydalanganlik uchun to'lov haqqiga teng tovon pulini to'lashi shart.

Boshqaruv kompaniyasi o'zining ustav jamg'armasidagi ulushini ko'paytirishga haqli. Ustav jamg'armasining ko'paytirilishi Boshqaruv kompaniyasi mulki va ishtirokchilarning qo'shimcha qo'yilmalari, va uchinchi shaxslar qo'yilmalari hisobidan amalga oshiriladi.

Boshqaruv kompaniyasi o'z ustav jamg'armasini qisqartirish to'g'risida qaror qabul qilgan paytdan boshlab 30 kun ichida bu haqda o'ziga ma'lum bo'lgan qarzdorlarni yozma ravishda ogohlantirishi, ommaviy axborot vositalarida xabar e'lon qilishi, hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq ta'sis hujjatlaridagi bu o'zgarishlarni ro'yxatdan o'tkazishi kerak.

Boshqaruv kompaniyasi ustav jamg'armasidagi ulushi qolgan ishtirokchilarning roziligiga ko'ra jismoniy shaxslarning merosxo'rlariga va yuridik shaxslarning huquqiy vorislariga o'tadi.

Boshqaruv kompaniyasining mulki. Boshqaruv kompaniyasi mulki binolar, qurilmalar, inventarlar, jihozlar, transport vositalari, pul mablao'lari va qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk ob'ektlari, shuningdek qonuniy tarzda xarid qilingan boshqa mulklardan tashkil topadi.

Boshqaruv kompaniyasi mulkini shakllantirish manbalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Ishtirokchilarning pul va moddiy mablao'lari;
- ko'rsatilayotgan xizmatlar va bajarilayotgan ishlar, shuningdek boshqa turdagi xo'jalik faoliyati va boshqa ishlardan olingan daromalar;
- qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlar;
- beg'araz va hayriya badallari, yuridik va jismoniy shaxslar hayriyalari.

Boshqaruv kompaniyasi qonunchilikka va ushbu ustavga muvofiq ravishda o'ziga tegishli mulkka egalik qiladi, foydalanadi va tasarruf etadi.

Boshqaruv kompaniyasi O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan me'yorlar va qoidalarga muvofiq ravishda asosiy jamg'armalarni to'liq tiklash ishlariga amortizatsiya chegirmalarini amalga oshiradi.

Bo'lajak zararlarni qoplash, muddatli to'lovlarni amalga oshirish, ishtirokchilar ulushini xarid qilish maqsadida Boshqaruv kompaniyasi ustav jamg'armasining 15 % dan kam bo'lmagan miqdorda zaxira jamg'armasi tuzilishi mumkin. Zaxira jamg'armasi Boshqaruv kompaniyasi sof foydasi hisobidan yillik chegirmalardan Zaxira jamg'armasining belgilangan hajmiga etguncha shakllantiriladi. Yillik chegirmalar miqdori sof foydaning 5 foizdan kam bo'lmagan qismini tashkil etadi.

Boshqaruv kompaniyasi faoliyati natijasida yuzaga keladigan zararlar zaxira jamg'armasi hisobidan qoplanadi. Ushbu mablao'lar etarli bo'lmagan taqdirda zararlarni qoplash uchun Boshqaruv kompaniyasining boshqa mulkidan foydalanish mumkin.

Boshqaruv kompaniyasi oliy organi qaroriga ko'ra boshqa jamg'armalar ham tashkil etilishi mumkin. Ularni shakllantirish tartibi Boshqaruv kompaniyasining oliy organi tomonidan belgilanadi Jamg'armalar mablao'lari boshqaruv kompaniyasi to'liq ixtiyorida bo'lib, kompaniya ulardan foydalanish yo'nalishlarini mustaqil belgilaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy yio'implar va to'lovlar to'langanidan so'ng boshqaruv kompaniyasi ixtiyorida qoladigan foyda (sof foyda) jamg'armalarni tuzish va to'ldirishga yo'naltirilgan mablao'lar chegirib tashlangandan so'ng boshqaruv kompaniyasi ixtiyoriga to'liq o'tib, u mustaqil ravishda o'zining oliy organi orqali undan foydalanish yo'nalishini belgilaydi. Sof foyda Boshqaruv kompaniyasi oliy organi qaroriga ko'ra ishtirokchilar o'rtasida ularning ustav jamg'armasidagi ulushlariga mutanosib tarzda taqsimlanishi yoki boshqa maqsadlarga yo'naltirilishi mumkin.

Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilari quyidagi faoliyalarni amalga oshiradi:

- qonunchilikda va kompaniya ustavida belgilangan tartibda Boshqaruv kompaniyasini boshqarishda ishtirok etishi;

- Ishtirokchilar umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalarni kiritish bo'yicha takliflarni ilgari surish;

- Boshqaruv kompaniyasi faoliyati to'g'risida to'liq axborot olish, qonunchilikda va Boshqaruv kompaniyasining ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda uning buxgalteriya kitoblari va boshqa hujjatlari bilan tanishish;

- Boshqaruv kompaniyasi moliyaviy-xo'jalik faoliyatining navbatdan tashqari tekshirilishini talab qilish;

- moliyaviy yil yakunlariga ko'ra Boshqaruv kompaniyasi foydasidan o'zlarining ustav jamg'armasidagi ulushiga mutanosib bo'lgan qismini pul shaklida, va (yoki) natural shaklda olish;

- istalgan paytda qonunchilikda va boshqaruv kompaniyasining ta'sis hujjatlarida ko'zda tutilgan tartibda uning boshqa ishtirokchilari xohishidan qat'i nazar Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilari tarkibidan chiqish.

Ishtirokchilardan har biri Boshqaruv kompaniyasi tugatilayotgan paytda yoki uning tarkibidan chiqish vaqtida boshqaruv kompaniyasi ustav jamg'armasidagi o'z ulushini boshqaruv kompaniyasi va kreditorlar qolgan ishtirokchilar oldidagi o'z majburiyatlarini qoplaganidan-keyin, qoldiq qiymati bo'yicha pul yoki natural shaklda qaytarib olish huquqiga ega.

Ulushlari birgalikda boshqaruv kompaniyasi ustav jamg'armasining 10 foizidan kam bo'lmagan qismini tashkil etuvchi ishtirokchilar, ishtirokchilarning navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirishga, shuningdek sud orqali o'z majburiyatlarini qo'pol ravishda buzayotgan yoki o'zining harakatlari (harakatsizligi) bilan boshqaruv kompaniyasi faoliyatiga yo'l bermayotgan yoki jiddiy ravishda qiyinlashtirayotgan, yoxud boshqaruv kompaniyasi obro'siga putur etkazayotgan ishtirokchining chiqarib yuborilishini talab qilishga haqli.

Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilari majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- boshqaruv kompaniyasi ta'sis hujjatlari va amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda, miqdorda va usullarda o'z ulushlarini kiritish;

- qonunchilik, ta'sis shartnomasi va ustav talablariga rioya etish;

- boshqaruv kompaniyasiga nisbatan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarish;

- boshqaruv kompaniyasiga faoliyat yuritishda ko'maklashish;

- boshqaruv kompaniyasi faoliyatiga oid mahfiy tusga ega axborotni oshkor qilmaslik.

Ishtirokchilar ta'sis hujjatlarida va amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda o'z ulushi (ulushining bir qismi)ni bir yoki bir necha ishtirokchiga, boshqaruv kompaniyasiga yoki, boshqa ishtirokchilar roziliga ko'ra uchinchi shaxslarga sotish yoki boshqa biron-bir usulda berish huquqiga ega. Ishtirokchilar ustav jamg'armasidagi o'z ulushlariga mutanosib ravishda va Boshqaruv kompaniyasining o'zi navbatga ko'ra bu ulush (ulushning bir qismini) sotib olishda ustunlik huquqiga ega.

Boshqaruv kompaniyasi ustav jamg'armasidagi o'z ulushini sotish yoki birovga berish niyatida bo'lgan boshqaruv kompaniyasi ishtirokchisi boshqa

ishtirokchilarni bu haqda yozma ravishda ogohlantirishi va bunda narxini va sotish yoki birovga berishdan ko'zlangan maqsadini ko'rsatishi kerak. Agarda ishtirokchilar yoki Boshqaruv kompaniyasining o'zi sotuvga qo'yilayotgan ulushni xarid qilishda ustunlik huquqidan foydalanmasa, bu haqda xabar qilinganidan so'ng 30 kun ichida bunday ulush (ulushning bir qismi) ko'rsatilgan shartlarda uchinchi shaxslarga sotilishi yoki berilishi mumkin. Boshqaruv kompaniyasidagi ulush (ulushning bir qismi) xaridori yoki egasiga ishtirokchining barcha huquq va majburiyatlari ham yuklanadi.

Ulush (ulushning bir qismi) xarid qilishning ustunlik huquqi buzilgan ravishda sotilgan taqdirda boshqa ishtirokchilar yoki Boshqaruv kompaniyasi uch oy davomida sud orqali xaridorning huquq va majburiyatlarining o'ziga o'tkazilishini talab qilishga haqli.

Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilar tarkibidan chiqarib yuborilgan yoki chiqib ketgan Ishtirokchiga uning ulushining haqiqiy qiymatini chiqarib yuborish yoki chiqib ketish sanasigacha bo'lgan hisobot davriga oid buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida pul shaklida, yoki ishtirokchining roziligiga ko'ra, natural shaklda ulush (ulushning bir qismi) Boshqaruv kompaniyasiga o'tgan paytdan boshlab bir yil davomida qaytariladi.

Boshqaruv kompaniyasiga tegishli bo'lgan ulush u Boshqaruv kompaniyasi ixtiyoriga o'tgan kundan boshlab bir yil davomida ishtirokchilar umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra barcha ishtirokchilar o'rtasida ularning ustav jamg'armasidagi ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanishi yoki barcha yoxud ayrim ishtirokchilarga yoxud uchinchi shaxslarga sotilishi va qiymati to'liq to'lanishi lozim.

Ishtirokchi o'ziga tegishli ulush (ulushning biri qismi)ni ishtirokchilar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Boshqaruv kompaniyasi roziligi bilan boshqa Ishtirokchiga yoki uchinchi shaxsga garovga berishi mumkin.

Boshqaruv kompaniyasi organlarining tarkibi va boshqaruv vakolatlari. Boshqaruv kompaniyasining boshqaruv organlariga ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi (keyingi o'rinlarda - "Umumiy yig'ilish") va yagona (yoki kollegial) ijroiya organi kiradi.

Umumiy yig'ilish Boshqaruv kompaniyasi boshqaruvining oliy organidir. ishtirokchilar umumiy yig'ilishda o'zlarining ustav jamg'armasidagi ulushlari miqdoriga mutanosib bo'lgan ovozlar soniga ega bo'ladi.

Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchisi umumiy yig'ilishda shaxsan yoki notarial tarzda tasdiqlangan ishonchnoma asosida ish yurituvchi vakili orqali ishtirok etadi. Umumiy yig'ilishda boshqa ishtirokchi yoki uchinchi shaxs ishtirokchining vakili bo'lishi mumkin.

Ishtirokchilarning navbatdagi umumiy yig'ilishi kamida yiliga bir marotaba va moliyaviy yil yakunlanganidan so'ng olti oydan kechiktirilmagan holda o'tkaziladi. Qolgan barcha umumiy yig'ilishlar navbatdan tashqari yig'ilish hisoblanadi. Navbatdan tashqari umumiy yig'ilish ijroiya organi tomonidan uning tashabbusiga ko'ra yoki:

- birgalikda ishtirokchilar ovozlarining o'n foizidan kam bo'lmagan miqdorga egalik qiluvchi ishtirokchilarning;

- taftish komissiyasining (taftishchining) talabiga ko'ra chaqiriladi.

Navbatdan tashqari umumiy yig'ilish ijroiya organi tomonidan uni o'tkazish haqida talab olinganidan so'ng 30 kundan kechiktirilmagan holda chaqirilishi kerak.

Ijroiya organi umumiy yig'ilish chaqirilishi to'g'risida barcha ishtirokchilarni 30 kundan kechiktirilmagan muddatda yozma ravishda ogohlantiradi (buyurtma xat shaklida, kurer orqali, telegramma, telefonogramma shaklida, faks, elektron pochta orqali) va ushbu xabarda yig'ilishning kun tartibi, o'tkaziladigan joyi va vaqti ko'rsatiladi.

Umumiy yig'ilish unda Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilari ovozlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismiga ega bo'lgan ishtirokchilar va ularning vakillari qatnashgan taqdirda vakolatli, deb hisoblanadi.

Barcha ishtirokchilar yoki ularning vakillari qatnashayotgan umumiy yig'ilish uning kun tartibiga kirmagan har qanday qo'shimcha masalani ishtirokchilar yoki ularning vakillaridan biron kishi bunga e'tiroz bildirmagan taqdirda ko'rib chiqishga haqli.

Umumiy yig'ilishni ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylangan yig'ilish raisi olib boradi.

Ishtirokchilar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Boshqaruv kompaniyasi faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash;
- boshqa tijorat tashkilotlarida qatnashish to'g'risida qaror qabul qilish;
- ustav jamg'armasining miqdorini o'zgartirish;
- Boshqaruv kompaniyasining ta'sis hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- ijrochi organ va taftish komissiyasi (taftishchi)ni tashkil etish va vakolatini muddatidan avval bekor qilish;
- ijrochi organ va taftish komissiyasi (taftishchi) faoliyati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;
- Boshqaruv kompaniyasi faoliyati natijalari, yillik buxgalteriya balansi, shuningdek xulosalar va taftish komissiyasi (taftishchi) xulosalarini tasdiqlash;
- sof foydani taqsimlash, dividendlarni to'lash va zararlarni qoplash to'g'risida qaror qabul qilish;
- Boshqaruv kompaniyasi obligatsiyalarini joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilish;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazish, auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan haqning eng yuqori miqdorini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;
- sho'ba korxonalar, filiallar va vakolatxonalarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugallash to'g'risida qaror qabul qilish, ular to'g'risidagi nizomlar (ustavlarni) tasdiqlash;
- Boshqaruv kompaniyasini qayta tashkil etish va tugallash to'g'risida qaror qabul qilish, tugatish komissiyasini tayinlash, tugallash balansini tasdiqlash.

Umumiy yig'ilish vakolatlariga quyidagilar ham kiradi:

- Boshqaruv kompaniyasi ijroiya organi rahbari mehnatiga haq to'lash shartlarini belgilash;

- Ishtirokchilarning qo'shimcha qo'yilmalar kiritish bo'yicha ularning miqdori, shakli va tartibini tayinlash;

- zaxira jamg'armasi va boshqa jamg'armalar tuzish, ularni shakllantirish va ularning mablaolarni sarflash to'g'risida qarorlar qabul qilish;

- Boshqaruv kompaniyasining mulkini, shu jumladan, pul mablaolarni tasarruf etish bo'yicha Boshqaruv kompaniyasi ijoriya organi vakolatlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

- yirik bitimlar tuzish va qarzlarni olinishini tasdiqlash (so'nggi hisobot davri bo'yicha buxgalterlik ma'lumotlariga ko'ra Boshqaruv kompaniyasi mulki qiymatining 25 foizdan ortiq miqdorda);

- shtatlar jadvali va ichki mehnat intizomi qoidalarini tasdiqlash;

- Boshqaruv kompaniyasi ijoriya organi hisobotlari tartibini tasdiqlash;

- qonunchilikda va ustavda ko'zda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

Ta'sis hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, omonatlar qiymatini belgilash, shuningdek Boshqaruv kompaniyasini qayta tashkil etish va tugallashga doir qarorlar bir ovozdan qabul qilinadi, umumiy yig'ilish vakolatiga kiruvchi qolgan boshqa masalalar bo'yicha qarorlar - Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Umumiy yig'ilish vakolatiga kiruvchi masala bo'yicha qaror qabul qilishda umumiy yig'ilishda qatnashmayotgan ishtirokchining yozma tarzda berilgan ovozlari e'tiborga olinadi.

Ishtirokchini Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilari safidan chiqarish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishda mazkur ishtirokchi yoki uning vakili ovoz berishda qatnashmaydi.

Umumiy yig'ilishning mutlaq vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha qarorlar yig'ilish o'tkazmasdan sirtidan ovoz berish yo'li bilan (so'rovnoma orqali), xabarlarining berilishi va olinishini hujjatlar bilan tasdiqlovchi shaklda qabul qilinishi mumkin.

Boshqaruv kompaniyasining ijrochi organi 1-variant: Yagona ijrochi organi. Boshqaruv kompaniyasining yagona ijrochi organi direktor bo'lib, u umumiy yig'ilish tomonidan muddatga qayta saylanish huquqi bilan saylanadi.

Direktor boshqaruv kompaniyasi rahbari vakolatlaridan foydalanadi, boshqaruv kompaniyasining joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi va qonunchilik hamda ushbu ustav shartlariga ko'ra ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalardan tashqari boshqa masalalarni mustaqil hal qiladi.

Boshqaruv kompaniyasining ishonchnomasiz ish yurituvchi direktori:

- Boshqaruv kompaniyasi nomidan ish yuritadi, davlat organlarida va boshqa idoralarda kompaniya manfaatlarini ifodalaydi;

- tijorat banklarida hisob-kitob hisob raqamlarini va boshqa hisob raqamlarni ochadi;

- Boshqaruv kompaniyasi ish rejasi, ishtirokchilar umumiy yig'ilishi qarorlarining amalga oshirilishini tashkil etadi;

- Boshqaruv kompaniyasi mulkini, shu jumladan, pul mablaolarni ustav, ishtirokchilar umumiy yig'ilishi qarorlariga va mulkning qanday maqsadga mo'ljallanganiga ko'ra o'z vakolatlari doirasida tasarruf etadi;

- shartnomalar, shu jumladan, mehnat shartnomalarini tuzadi;
- o'z vakolatlari doirasida bitimlar tuzadi;
- Boshqaruv kompaniyasi shartnomaviy majburiyatlarining bajarilishini ta'minlaydi;
- malakali kadrlar tanlanishini ta'minlaydi, Boshqaruv kompaniyasi xodimlarini ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi;
- Boshqaruv kompaniyasi xodimlari ishini uyushtiradi va nazorat qiladi;
- Boshqaruv kompaniyasining barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;
- Boshqaruv kompaniyasi nomidan hujjatlarni imzolaydi, ishonchnomalar beradi;
- Boshqaruv kompaniyasining buxgalterlik hisoboti va hisobdorligining tashkil etilishi, talab darajasidagi holati va ishonchliligini, moliyaviy hisobotning tegishli idoralarga o'z vaqtida topshirilishini ta'minlaydi;
- Boshqaruv kompaniyasi Ishtirokchilarining uning faoliyatidan xabardorligini ta'minlaydi;
- Boshqaruv kompaniyasi faoliyati yakunlari to'g'risidagi yillik hisobotlarni, yillik buxgalteriya balanslarini, umumiy yig'ilish qarorlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlaydi va tasdiqlash uchun umumiy yig'ilish e'tiboriga xavola etadi;
- sof foydani taqsimlash, dividendlarni to'lash va xarajatlarni qoplash bo'yicha takliflarni tayyorlaydi va ishtirokchilarning umumiy yig'ilishiga havola etadi;
- taftish komissiyasi (taftishchi) va auditorga zarur ma'lumotlarning berilishi ta'minlaydi, taftish yoki audit o'tkazish uchun sharoit yaratadi;
- boshqaruv kompaniyasi hujjatlarining kerakli holatda saqlanishi va axborot mahfiyligiga rioya qilinishini ta'minlaydi;
- umumiy yig'ilish vakolatiga kirmaydigan boshqa rahbarlik vakolatlarini amalga oshiradi.

Direktor Boshqaruv kompaniyasining rentabelli faoliyatini ta'minlashi, Boshqaruv kompaniyasi manfaatlari yo'lida halol va oqilona ish yuritishi, bunda Boshqaruv kompaniyasi va uning mijozlariga to'liq hayrixohlik bildirishi kerak.

Direktor Boshqaruv kompaniyasi va uning ishtirokchilari oldida o'zining xato xatti-harakatlari (harakatsizligi) oqibatida Boshqaruvchi kompaniyaga etkazilgan zarar uchun to'liq javobgardir.

2-variant: Kollegial ijrochi organ

Direksiya (yoki boshqaruv) boshqaruv kompaniyasining kollegial ijrochi organi hisoblanadi.

Direksiya yig'ilishlari zaruratga qarab, biroq oyiga bir martadan kam bo'lmagan tarzda o'tkaziladi. Direksiya yig'ilishlari direktor yoki uning o'rinbosari tomonidan chaqiriladi va o'tkaziladi.

Direksiyaning har bir a'zosi direksiya yig'ilishida bitta ovozga ega. Direksiya qarorlari direksiya a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Direksiya qarorlari tegishli bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Direksiya a'zosi bo'lmagan boshqaruv kompaniyasi ishtirokchisi direksiya yig'ilishlarida ovoz berish huquqisiz ishtirok etishi mumkin.

Direksiya boshqaruv kompaniyasining joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi, ishtirokchilarning umumiy yig'ilishiga hisob beradi va ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan direksiya to'g'risidagi nizom asosida ish yuritadi.

Direksiya qonunchilik va mazkur ustav tomonidan ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalarni istisno qilgan holda boshqaruv kompaniyasining joriy faoliyatiga tegishli masalalarni mustaqil hal qiladi:

- Boshqaruv kompaniyasi ish rejasi. Ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qarorlarining ijrosini amalga oshiradi;

- Boshqaruv kompaniyasi faoliyatining rentabelligini ta'minlaydi;

- Boshqaruv kompaniyasi faoliyati yakunlari to'g'risidagi yillik hisobotlarni, yillik buxgalteriya balanslarini, umumiy yig'ilish qarorlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlaydi va tasdiqlash uchun umumiy yig'ilish e'tiboriga havola etadi;

- Sof foydani taqsimlash, dividendlarni to'lash va xarajatlarni qoplash bo'yicha takliflarni tayyorlaydi va ishtirokchilarning umumiy yig'ilishiga havola etadi;

- Boshqaruv kompaniyasining mulkini ustav, umumiy yig'ilish qarorlari va mulkning qanday maqsadga mo'ljallanganligidan kelib chiqqan holda o'z vakolatlari doirasida tasarruf etadi;

- o'z vakolatlari doirasida bitimlar tuzish va qarzlar to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

Boshqaruv kompaniyasining muhim jihatlaridan biri, direksiya a'zolari boshqaruv kompaniyasi manfaatlari yo'lida, halol va oqilona ish yuritishi, bunda Boshqaruv kompaniyasi va uning mijozlariga nisbatan xolis ish tutishi kerak.

Direksiya a'zolari boshqaruv kompaniyasi va uning ishtirokchilari oldida o'zining xato xatti-harakatlari (harakatsizligi) oqibatida boshqaruvchi kompaniyaga etkazilgan zarar uchun qonun oldida to'liq javobgardir.

Direktor boshqaruv kompaniyasining faoliyatiga tezkor rahbarlikni amalga oshiradi.

Ishonchnomasiz ish yurituvchi direktor esa:

- Boshqaruv kompaniyasi nomidan ish yuritadi, davlat organlari va boshqa idoralarda uning manfaatlarini ifodalaydi;

- shartnomalar, shu jumladan, mehnat shartnomalarini tuzadi;

- o'z vakolatlari doirasida bitimlarni amalga oshiradi;

- Boshqaruv kompaniyasining shartnomaviy majburiyatlarining amalga oshirilishini ta'minlaydi;

- tijorat banklarida joriy hisob raqam va boshqa hisob raqamlarni ochadi;

- Boshqaruv kompaniyasi mulkini, shu jumladan, pul mablaolarni ustav, Ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi, direksiya qarorlari asosida va mulkning qanday maqsadga mo'ljallanganligidan kelib chiqqan holda o'z vakolatlari doirasida tasarruf etadi;

- malakali kadrlar tanlovini ta'minlaydi, Boshqaruv kompaniyasi xodimlarini ishga yollaydi va ishdan bo'shatadi;
- Boshqaruv kompaniyasi xodimlarining ishini tashkillashtiradi va nazorat qiladi;
- Boshqaruv kompaniyasining barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlarni e'lon qiladi va ko'rsatmalar beradi;
- Boshqaruv kompaniyasi nomidan hujjatlarni imzolaydi, ishonchnomalar beradi;
- Boshqaruv kompaniyasining buxgalterlik hisoboti va hisobdorligining tashkil etilishi, talab darajasidagi holati va ishonchliligini, moliyaviy hisobotning tegishli idoralarga o'z vaqtida topshirilishini ta'minlaydi;
- Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilarining uning faoliyatidan xabardorligini ta'minlaydi;
- taftish komissiyasi (taftishchi) va auditorga zarur ma'lumotlarning berilishi ta'minlaydi, taftish yoki audit o'tkazish uchun sharoit yaratadi;
- Boshqaruv kompaniyasi hujjatlarining kerakli holatda saqlanishi va axborot mahfiyligiga rioya qilinishini ta'minlaydi;
- umumiy yig'ilish vakolatiga kirmaydigan boshqa rahbarlik vakolatlarini amalga oshiradi.

Taftish komissiyasi (taftishchi). Taftish komissiyasi (taftishchi) boshqaruv kompaniyasining moliyaviy va xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Taftish komissiyasi (taftishchi) ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi tomonidan ikki yil muddatga ijrochi organi a'zosi bo'lmagan uch kishidan iborat tarkibda saylanadi.

Taftish komissiyasi (taftishchi) ish tartibi ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan, rejali va rejadan tashqari tekshiruvlarni (taftishlarni) o'tkazish tartibini belgilovchi tegishli nizomga ko'ra belgilanadi.

Taftish komissiyasi barcha fikrlar va komissiya a'zolarining bildirilgan alohida fikrlari qayd etilgan batafsil bayonnomalarni yuritishi lozim.

Taftish komissiyasi (taftishchi) boshqaruv kompaniyasi faoliyatini navbatdagi moliyaviy yil yoki boshqa davr yakunlariga ko'ra, boshqaruv kompaniyasi pul mablao'lari va mulki holatiga ko'ra, shuningdek daftarlar, hisob raqamlar va hujjatlar, kompaniyaning butun ish yuritish hujjatlariga ko'ra tekshiradi.

Taftish komissiyasi (taftishchi) majburiy tartibda boshqaruv kompaniyasi yillik hisobotlari va buxgalterlik balanslarini ularning ishtirokchilarning umumiy yig'ilishida tasdiqlanishidan oldin tekshiruvdan o'tkazadi.

Tekshiruv natijalari taftish komissiyasi (taftishchi) tomonidan ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi muhokamasiga havola etiladi. Boshqaruv kompaniyasi faoliyatining taftish komissiyasi (taftishchi) yoki auditor tomonidan tekshirilishi natijalari uchinchi shaxsga faqat ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra berilishi mumkin.

Taftish komissiyasi (taftishchi) boshqaruv kompaniyasining ijroiya organidan ishtirokchilarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab etishga haqli.

Taftish komissiyasi (taftishchi) ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra o'z faoliyatiga mustaqil auditorlar va mutaxassislarni jalb etishga haqli.

Auditor moliyaviy hisobdorlikning ishonchliligini, buxgalteriya hisobdorligining belgilangan talbalarga mos holda yuritilishini tekshiradi.

Xodimlar va mehnat munosabatlari. O'z faoliyat maqsadlariga erishish uchun Boshqaruv kompaniyasi qonunchilikka rioya qilgan holda Boshqaruv kompaniyasi xodimlarini ishga yollaydi.

Boshqaruv kompaniyasining tashkiliy tarkibi, doimiy ishlovchi xodimlar soni boshqaruv kompaniyasi ijrochi organi taklifiga ko'ra Boshqaruv kompaniyasi faoliyatining joriy va istiqbol rejalariga muvofiq holda belgilanadi.

Boshqaruv kompaniyasi mehnatga haq to'lash shakli va miqdori, moddiy rag'batlantirish, ishga yollash va ishdan bo'shatish va mehnatning boshqa shartlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan fuqarolarning huquqlari va ijtimoiy kafolatlariga rioya qilgan holda belgilaydi.

Boshqaruv kompaniyasi tugallangan taqdirda ishdan bo'shatilayotgan xodimlarga ularning huquqlari va manfaatlariga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda rioya qilinishi kafolatlanadi.

Har bir ishtirokchi, shuningdek boshqaruv kompaniyasi xodimlari boshqa ishtirokchidan olingan butun texnik, moliyaviy, tijorat tusidagi va boshqa axborotlarning mahfiyligiga rioya etishi kerak, olingan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik bo'yicha barcha choralarni amalga oshirishi lozim.

11-Mavzu. Turar-joy binolari va ularning asosiy konstruktiv tuzilishi

11.1. Foydalanish maqsadlariga ko'ra binolar va inshootlar klassifikatsiyasi

11.2. Binoning konstruktiv elementlari asosida qismlarga ajratish

11.3. Binolarning asosiy muhandislik jihozlari

11.4. Bino va inshootlardan foydalanish muddatlari va ularning eskirishi

11.1. Foydalanish maqsadlariga ko'ra binolar va inshootlar klassifikatsiyasi

Foydalanish maqsadlariga ko'ra bino va inshootlar ikki guruhga, ishlab chiqarish va noishlabchiqarish ob'ektlariga bo'linadi. Noishlabchiqarish maqsadlarida foydalanilayotgan bino va inshootlarning asosiy qismini ijtimoiy soha bino va inshootlar tashkil etadi va ular qurilish tarmog'i me'yoriy hujjatlarida ***turarjoy-fuqarolik maqsadlarida foydalanilayotgan ob'ektlar*** deb nomlanadi.

Turarjoy-fuqarolik maqsadlarida foydalanilayotgan binolar o'z navbatida uch guruhga bo'linadi. Bular:

-turarjoy binolari;

-jamoatchilik-fuqarolik bino va inshootlari;

-ijtimoiy va madaniy - maishiy maqsadlarda foydalanilayotgan bino va inshootlar.

1. Turarjoy binolariga:

- a) doimiy yashash uchun mo'ljallangan hovli va ko'p xonadonli uylar;
- b) o'qish va ishlash davrida yashab turish uchun yotoqxonalar;
- v) qisqa muddatda turish uchun mo'ljallangan mehmonxonalar;
- g) mehribonlik uylari va qariyalar uylari binolari kiradi.

2. *Jamoatchilik-fuqarolik bino va inshootlariga:*

- a) san'at muassasalari binolari;
- b) ilmiy izlanish va ilmiy xizmatlar ko'rsatish maqsadlarida foydalanilayotgan binolar;
- v) moliyaviy institutlar (bank, sug'urta va boshqa) binolari;
- g) jamoatchilik tashkilotlari binolari;
- d) xizmat ko'rsatish sohasida foydalanilayotgan (umumiy ovqatlanish, savdo, aloqa va boshqa) bino va inshootlar;
- e) qurilish sohasi tashkilot va muassasalari (loyiha, qidiruv, ekspertiza va nazorat) bino va inshootlari kiradi.

3. *Ijtimoiy va madaniy-maishiy bino va inshootlarga:*

- a) ta'lim muassasalari bino va inshootlari;
- b) sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot tashkilotlari bino va inshootlari;
- v) madaniy-oqartuv muassasalari;
- g) kommunal xo'jaligi tashkilotlari korxona va muassasalari;
- d) aholiga maishiy xizmat ko'rsatish bino va inshootlari kiradi.

Ijtimoiy va madaniy-maishiy sohada foydalanilayotgan binolar turli ko'rinishi, kattaligi, hajmi, qavatlar sonidan qat'iy nazar qurilish texnologiyasiga ko'ra asosan uch guruhga bo'linadi:

1. An'anaviy usulublarda qurilgan binolar;
2. Yig'ma karkasli binolar;
3. Quyma temir-beton (monolit) binolar.

An'anaviy uslubdagi binolarga murakkab texnologiyalar asosida tayyorlangan qurilish konstruksiyalari va qurilish materiallaridan foydalanilmagan holda turli uslubda (shu jumladan milliy uslubda) qurilgan binolar kiradi. Ananaviy binolarning devor qismi qurilishida asosan pishiq g'isht, qum, tsement va ohak eritmasidan tayyorlangan qorishmadan hamda bog'lovchi metal sterjenlar (armatura)dan foydalanilgan bo'lsa, tom yopqich material sifatida g'ovakli (pustotka), qavariqli, qovirg'ali temirbeton plitalar, engil konstruksiyali tom yopqich panellar, to'sinlar, shvelerlar, bruslar va boshqa yog'och materiallaridan foydalaniladi. Qurilishda xom g'isht, paxsa va yog'och hamda boshqa turdagi mahalliy homashyolardan foydalanib qurilgan binolar ham an'anaviy uslubdagi binolar turkumiga kiritiladi.

Ikki va undan ortiq qavatli an'anaviy uslubdagi binolar qurilishida poydevorda, devorlar birlashuvchi burchaklarda va qavatlarining tutashuvchi qatlamlarida bino mustahkamligini oshiruvchi metal asosli (belbog'li) beton qovurg'alar quyiladi.

Yig'ma karkasli binolar qurilishi texnologiyasi va tarkibiy tuzilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhga qurilishda ananaviy usuldan hamda maxsus tayyorlangan

karkaslardan foydalanilgan binolar kiradi. Bunday binolar mustahkam tuzilishdagi tayanch armokarkas (nesushiy chast)ga ega bo'lib, yig'ma panellar va konstruktiv elementlar shu tayanch armokarkaslarga biriktiriladi.

Ikkinchi guruhga binoning barcha konstruktiv elementlari uysozlik kombinatlarida va temirbeton mahsulotlari zavodlarida tayyorlangan yig'ma temirbeton qismlardan iborat bo'lgan binolar kiradi. To'liq yig'ma karkasli (panelli) binolar bir xil standartdagi tuzilishga ega bo'lib seriyali tartibda quriladi.

Quyma temir-beton binolar asosan ko'p qavatli bo'lib yuqori mustahkamlikka ega bo'lgan binolar hisoblanadi. Quyma temir beton uylar ham ikki guruhga, qisman monolit va to'liq monolit uylarga bo'linadi. Qisman monolit uylarining bir qism detallari (tom yopqich plitalar, zinapoyalar, devor to'siqlari va boshqalar) yagona standartda zavodlarda tayyorlangan va montaj qilingan bo'ladi. Bunday binolarning asosiy qismlari (tayanch qismlari va devorlari) maxsus tayyorlangan temir karkaslar sirtiga qolip (opalubka)lar o'rnatilib beton qorishmasi bilan quyib tiklanadi.

To'liq monolit uylar qurilishida yig'ma panellardan deyarli foydalanilmaydi. Bunday binolar issiq va quriq iqlimga ega bo'lgan mahalliy sharoitga mos kelmaydi. Bunga sabab monolit uylarning beton devorlari issiq haroratda qo'shimcha namlikni talab etadi hamda issiq va sovuq haroratni ko'p o'tkazadi. SHu sababli monolit binolar maxsus murakkab arxitekturaviy-loyihaviy echimlarni talab etuvchi va seysmik rayonlarda quriladi.

Ijtimoiy sohada foydalanilayotgan binolar loyihaviy shakllantirish tizimlariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Umumiy karidorli loyiha tizimi;
2. Anfilad loyiha tizimi;
3. Zal asosli loyiha tizimi;
11. Yacheykali loyiha tizimi;
5. Aralash loyiha tizimlari qo'llanilgan binolar.

Umumiy karidorli loyiha tizimida binoning alohida xonalari umumiy devor bilan karidorga birlashgan bo'lib, har bir xonani umumiy karidorga chiquvchi kamida bitta eshik birlashtirib turadi. Bunday binolarga misol qilib uzun karidor atrofida joylashgan xonalardan tashkil topgan o'quv muassasalari, shifoxona binolarini keltirish mumkin.

Anfilad loyiha tizimida binoning xonalari bo'g'in-bo'g'in shaklida joylashtirilgan bo'lib ularni xonadan xonaga o'tish eshiklari tutashtiradi. Bunday binolar murakkab anfilad va chiziqli anfilad shaklida bo'lishi mumkin. Murakkab anfilad loyihada bir necha xonalar yagona tom ostida joylashgan va tutash devorlarga ega bo'lsada ularni bir eshik (yoki o'tish joyi) birlashtiradi. Murakkab anfilad binoga yagona yirik zali bo'lmagan muzey binosini keltirish mumkin. CHiziqli anfilad loyiha tizim asosida qurilgan bino xonalari poezd vagonlari kabi joylashib xonalarga ketma-ket o'tib boriladi.

Zal asosli loyiha tizimida binoning barcha xonalari yagona katta xona (zal) atrofida joylashadi. Bunday loyiha tizimida zal bino umumiy maydonining asosiy qismini egallaydi. Zal asosli loyiha tizimiga kinoteatrlar, kontsert zallari, sort zallari binolarini misol keltirish mumkin.

Yacheykali loyiha tizimida alohida kirish va chiqish joylariga ega bo'lgan bir necha bo'limlardan tashkil topgan yagona bino shakllantiriladi. Bunday binolarda har bir bo'lim boshqasi bilan yagona devorda birlashsada, bo'limlar o'rtasida umumiy o'tish joyiga ega bo'lmaydi. Binoning har bir bo'linmasining muhandislik qurilmalari (suv, gaz, issiqlik ta'minoti va boshqalar) ham alohida shakllantiriladi. Bunday binolarga ko'p podezdli turarjoy binolarini keltirish mumkin.

Aralash loyiha tizimlari qo'llanilgan binoda yuqorida keltirilgan loyiha tizimlarining kamida ikkitasidan foydalanilgan bo'ladi. Unga misol qilib umumiy karidorga ega bo'lgan o'quv binosini davom ettiruvchi sport zali joylashgan binoni keltirish mumkin.

11.2. Binoning konstruktiv elementlari asosida qismlarga ajratish

An'anaviy usulda g'ishtdan qurilgan to'rt qavatli erto'las mavjud bo'lmagan binoning konstruktiv elementlari va muxandislik kommunikatsiyalarining umumiy hajmiga nisbatan o'rtacha ulushi 3.1-jadvalda keltirilgan.

11.1-jadval.

Binoning konstruktiv elementlari va muxandislik kommunikatsiyalarining umumiy hajmiga nisbatan o'rtacha ulushi.

№	Guruhi	Nomi	Umumiy hajmiga nisbatan ulushi (foizda)
1.	Konstruktiv elementlar	1.1. Poydevorlar	6,0
		1.2. Devorlar va to'siqlar	43,0
		1.3. Qavatlar o'rtasidagi gorizontall to'siq (perekro'tiya)	11,0
		1.11. Tom konstruksiyalari va krovlya	7,0
		1.5. Pollar	11,0
		1.6. Deraza va eshiklar	7,0
		1.7. Zinapoya, balkon va boshqa elementlar	5,0
2.	Muxandislik kommunikatsiyalari	2.1. Isitish tizimi	2,9
		2.2. Issiq, sovuq suv ta'minoti	2,5
		2.3. Kanalizatsiya	1,2
		2.11. Elektr tizimlari	2,3
		2.5. Gaz ta'minoti	0,6
		2.6. Boshqa kommunikatsiyalar (ventilyasiya, yong'in xavfsizligi, aloqa)	0,5
	Jami:		100%

Ijtimoiy sohada noishlab chiqarish va fuqarolik sohalarida foydalanilayotgan binolarning poydevorlari, tayanch devorlari va tomi qurilishida

ishlatilgan qurilish materiallari sifatidan kelib chiqib kapitallilik darajasi bo'yicha quyidagi guruhlariga ajrtiladi (11.2-jadval).

11.2-jadval.

Binolarning kapitallilik darajasiga ko'ra guruhlanishi

Binoning konstruktiv elementlari	Binolarning kapitallilik guruhlari					
	I- guruh	II- guruh	III- guruh	VI- guruh	V- guruh	VI- guruh
Poydevorlari	Temirbetonli, betonli, beton blokli, -g'ishtli				YOg'ochli, toshli, xarsang-tosh qotish-mali, stolbali	SHag'alli, gruntli
Devorlari	G'ishtli, toshli va panelli		SHlako-blokli, engil g'isht va engil toshli	YOg'och qovurg'ali aralash (yog'och-g'ishtli)	SHit-simon karkasli, somonli yoki bog'lovchi qo'shilgan paxsa	Paxsa devorli, xom g'isht devorli, guvala devorli
Tomi stropilasi (qovurg'asi)	Temir-betonli, metal storopila	Metal, yog'och aralash stropilali	YOg'och stropilali			

Poydevorlar bino og'irligini erga o'tkazib beruvchi tayanch hisoblanib bino mustahkamligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Poydevor binoning ostki qismida, asosan er ostida yotqiziladi hamda binoni ko'tarib turuvchi asos va seysmik himoyalovchi vosita vazifasini bajaradi.

Poydevorlar foydalanilgan qurilish materiallari, konstruksiyasi va qurish texnologiyasidan kelib chiqib quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. **YOg'och poydevor** – Engil vaznli yog'och binolar qurilishida uzun to'sinlardan lentasimon tuzilishda devorlarning ostki qismida yotqiziladi. Odatda yog'och poydevor ostiga g'isht yoki namga chidamli materiallardan asos yotqiziladi va namlikni qaytaruvchi bitumli qog'oz bilan himoyalanaadi.

2. **Tosh poydevor** – mahalliy sharoitda xarsang toshlar, ohak, gips, dolomit va qum aralashmasidan (lentasimon va botiq stolba shaklida) quriladi.

3. **Tosh-beton poydevor** - ananaviy usuldagi qurilishlarda ko'p qo'llaniladi. Xomashyo sifatida tog' parodalari, daryo tonlari va tabiiy xarsang toshlardan foydalaniladi. Poydevor o'rni ariqsimon qazilib, toshlar tsement qorishmasi bilan loyihadagi balandlikda teriladi.

11. **G'isht poydevor** - er osti sizov suvlari uzoq bo'lgan va erning sho'rlanish darajasi past bo'lgan joylarda quriladi. G'isht poydevor lentasimon shaklda, tsementli va ohakli qorishma bilan teriladi. Poydevorning burchak va kesishgan joylariga bog'lovchilar qo'yilishi mumkin. Poydevor qurilishida ishlatiladigan turli

sifatli g'ishtlar (suvga chidamli-kvartsli, o'tga chidamli-silikat va boshqa) mavjud.

5. **Beton qorishmali poydevor** – shag'al-tosh va beton qorishmasidan qolip-taxtalar (opalubka) o'rnatib quyiladi.

6. **Monolit-temirbeton poydevorlar** – sanoat-fuqaro qurilishida keng qo'llaniladi. Bunday poydevorga loyiha bo'yicha armatura karkaslar tayyorlanib beton qorishmasi bilan quyiladi.

7. **Beton blokli poydevor** – standart razmerlardagi plitalar shaklida zavod usulida tayyorlangan beton bloklardan quriladi. Beton bloklar ikki shaklda, orasida g'ovak qoldirilgan engil bloklar va monolit quyilgan og'ir bloklarga bo'linadi. Zarur hollarda maxsus tayyorlangan zichligi 1,8 t/m.kub.dan yuqori bo'lgan og'ir bloklar ishlatiladi.

8. **Yig'ma temirbeton poydevorlar** - asosan to'liq yoki qisman zavod usulida tayyorlangan temirbeton detallardan quriladi. Ular binolar loyihasiga muvofiq montaj qilinadi. Yig'ma temirbeton poydevorlar turli shakllarda jumladan, lentasimon, stakan asosga o'rnatiluvchi, qoziq shaklida vertikal asosga o'rnatiluvchi (svayniy), ryumka ko'rinishidagi keng taklikka ega bo'lgan va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin.

Yirik, ko'p qavatli binolarda asosan lentasimon yig'ma temirbeton poydevorlardan keng foydalaniladi.

Poydevor bino og'irligini o'tkazadigan qatlam poydevor asosi deyiladi. Poydevor asosi talab darajasidagi zichlikka ega bo'lsa (er ustki yumshoq qatlami olib tashlanib) to'g'ridan to'g'ri poydevor yotqiziladi. Er zichligi va tuproq tarkibi talabga javob bermasa poydevor asosi qaziladi va shag'al, tosh va boshqa zichlikni oshiruvchi materiallar yotqiziladi. Ayrim hollarda maxsus moslamali texnika yordamida zichlashtiriladi. Tuproq qatlami yumshoq, zichligi past, sizov suvlari juda yaqin joylashgan va botqoqlik erlarda poydevor asosining uzunligi 6-28 metrgacha bo'lgan vertikal beton to'sinlarni erga qoqib hosil qilinadi.

Devorlar va to'siqlar (pardevorlar) -binoning asosiy qismini tashkil qiladi. Devorlar bino konstruksiyasida joylashgan o'rniga ko'ra ikki guruhga, ichki va tashqi devorlarga bo'linadi. Tashqi devorlar binoning tashqi ko'rinishini tashkil etadi va fasad (ko'rinish) deb ataladi. Ichki devorlar va to'siqlar binoni xonalarga, bo'limlarga ajratish uchun xizmat qiladi.

Konstruktiv jihatidan bino devorlari **tayanch** (ko'tarib turuvchi-nesushie) devor va **to'suvchi** (pardevor-nenesushie) devorlarga bo'linadi.

Tayanch devorlar bino tomidan poydevorgacha bo'lgan og'irlikni qabul qilib poydevorga o'tkazib beradi.

Bino konstruksiyasida **to'suvchi** devorlarga qo'shimcha og'irlik tushishi ko'zda tutilmaydi va ular binoning qavati doirasida katta xonalarni bo'luvchi sifatida quriladi. SHu sababli binoni qayta rekonstruksiya qilganda to'suvchi devorlarga o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Binolarning tashqi devorlari asosiy tayanch devorlar hisoblanganligi sababli aynan devorlar qurilishiga ishlatilgan materiallar binoning turi va kapitallik darajasini belgilaydi. Binolar devorlari asosan quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- paxsa devorlar (somonli va somonsiz loydan tayyorlanadi);
- to'sinlardan tayyorlangan yog'och devor;

- taxta qoplamli karkasli devorlar (o‘rtasi to‘ldiriluvchi yoki ko‘p qavatli);
- g‘isht devor (loydan tayyorlangan samonli va samonsiz xom g‘isht, turli pishiq g‘ishtlar, silikat g‘isht, tsement qorishmali, kvartslı g‘isht va boshqalar);
- shlakoblokli devor (g‘ovak tuzilishli shlak yoki boshqa engil materiallarning tsementli qorishmasidan tayyorlanadi, odatda mag‘zida bo‘sh joylar qoldiriladi;
- beton blokli (turli razmerdagi penabeton, keramzit, shag‘al aralashmali bloklardan) devor;
- panel devorlar (zavod usulida tayyorlangan, metal karkasli, panellardan yig‘iladi).

Bino tashqi devorlarining yuzasi **fasad** deb ataladi. Fasad o‘zida binoning umumiy arxitekturaviy-estetik ko‘rinishini mujassamlashtirishi bilan bir qatorda uni tashqi ta’sirlardan (iqlim, yog‘ingarchiliklar va boshqalar) himoyalovchi qobiq hisoblanadi.

Bino tashqi devorlarining pastki qismi tsokol deb nomlanadi. Sokol bino poydevorini tashqi devor bilan birlashgan qismi hisoblanib eng katta tashqi ta’sirga (erning zax qaytarishi, yog‘ingarchiliklar, tomdan tushuvchi suvlarning erga urilib qayta sachrashi va boshqalar) uchraydi. SHu sababli tsokol o‘ta mustahkam qurilish materiallari (maydalangan toshdan tayyorlangan qorishma-kroshka, keramik plitkalar, mramor va granit toshlar va boshqalar) bilan qoplanadi.

To‘siqlar (peregorodki) binoning tayanch devorlari hosil qilgan xonalarni bo‘lish, kichik xonalarga ajratish va foydalanish uchun qulay holga keltirish uchun quriladi. To‘siq devorlar qalinligi odatda bir g‘isht yoki yarim g‘isht qalinligida - g‘ishtdan va shlakoblokdan teriladi. SHuningdek, tusiqlar yog‘och karkasga qoplangan gipsokarton, fanera, metal qoplamali bo‘ladi. To‘siqlar bino qavatlarida pastki qavatning tom qoplamasi ustida quriladi va to‘siq ostida tayanch poydevor mavjud bo‘lmaydi.

Binoning qavatlar o‘rtasidagi va tomidagi **gorizotal to‘siq** (perekritiya) tayanch konstruksiya hisoblanib, ularga doimiy va vaqtinchalik tushuvchi og‘irliklarni binoning tayanch devorlari va ustunlariga o‘tkazishini inobatga olib o‘rnatiladi. Gorizotal to‘siqlar binoni qavatlariga ajratadi.

Gorizantal to‘siqlar binodagi o‘rniga ko‘ra quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

- erto‘la usti – binoning birinchi qavatı va podval o‘rtasida;
- qavatlararo – ketma-ket joylashgan ikki qavat orasida;
- ustki yopqich– binoning oxirgi qavatı va cherdak o‘rtasida.

Foydalanilgan qurilish materiallariga ko‘ra gorizotal to‘siqlar quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

- yog‘och to‘sinli va yumshoq qoplamali;
- aralash qoplamali (metal balkalarga, shvelerlarga biriktirilgan yog‘ochdan);
- yig‘ma temirbeton konstruksiyali (plitali, gorizotal qovurg‘ali panel, armokarkasli tekist va boshqalar),

Ijtimoiy sohalarda foydalanilayotgan binolarda asosan engil gorizotal to‘siqlar (g‘ovakli plitalar)dan keng foydalaniladi.

Tom bino va uning konstruksiyalarini yog‘ingarchiliklardan va atmosfera

ta'siridan himoya qiladi. CHerdakli binoning tomi ikki qismdan, tayanch konstruksiyasi va himoya qoplamasidan tashkil topadi. Tayanch konstruksiyasi **stropila** deyiladi. Stropila asosini tashqi va ichki tayanch devorlarga biriktirilgan fermalar tashkil qiladi. Fermalarning ustki tomoniga qoplama (krovlya) biriktiriladigan yog'och yoki metal tutqich panjara (obreshetka)lar yotqiziladi. Tomning himoya qoplamasi **krovlya** deb ataladi. Krovlya doimiy atmosfera harorati va yog'ingarchiliklar ta'sirida bo'lganligi sababli yuqori himoyani ta'minlashi lozim. Stropilali tomlarga qattiq asosli krovlya va yassi tomlarga esa yumshoq krovlya yotqiziladi.

Stropilali asosga yopiladigan krovlya uchun ishlatiladigan tomyopqichlarga:

- asbotsementli shifer;
- metal qoplama – maxsus ishlov berilgan, sinkali, zanglamaydigan, karroziyaga chidamli, turli qalinlikdagi metal prokatlar;
- cherepitsalar – sopol, metal, plastmassa, turli polimer va polietelin qorishmali cherepitsalar;
- shishatolali, plastmassa aralashmali shifersimon to'liqinli listlar va boshqa quyosh harorati va namgarchilikka chidamli qattiq yuzali materiallar.

YUmshoq krovlya uchun ishlatiladigan tomyopqichlarga:

- tol;
- pergamin;
- ruberoid;
- maxsus qoplamali sintetik tolali to'qimali materiallar.

YUmshoq krovlyalar bitum, smola yoki boshqa elimlovchi materiallar yordamida bir necha qatlamda yotqiziladi. YUmshoq krovlyali tomlarda kam nishabli suv qochirish qiyaligi hosil qilinadi va chiqish suv yo'llariga nov yoki har xil trubadan ochiq va yopiq usulda suv tushuvchi tarnovlar o'rnatiladi.

YAssi tomli ko'p qavatli binolarda oxirgi qavatdan keyin balandligi katta bo'lmagan texnik qavat mavjud bo'ladi. Texnik qavat binoning turli muxandislik jihozlarini joylashtirish va tomdan chakki o'tishidan qo'shimcha himoyalash uchun xizmat qiladi.

Pol - bino xonalari va karidorlarining tagligiga yotqizilgan yuza qatlam bo'lib ularida mavjud jihozlar vaznini va faoliyat jarayonida yuzaga keladigan og'irlikni binoning tayanch asoslariga o'tqazib beradi.

Ijtimoiy sohada foydalanilayotgan binolarda ishlatilgan qurilish materiallaridan kelib chiqib pollarning asosan quyidagi turlari mavjud:

• **taxta pollar** – taxtadan yotqizilgan va yuza qatlamiga silliq qilib ishlov berilgan bo'ladi. Taxta pollar yog'och to'sin yoki bruslardan tayyorlangan asos ustiga yotqiziladi. Pol o'rnatilgan asos **laga** deb nomlanadi. Pollar qurilish texnologiyasiga ko'ra ikki turga bo'linadi. Birinchi turida taxtalar jipslashtiruvchi moslama yordamida o'zidan oldingisiga juftlab qoqiladi. Ikkinchi turda taxtalarning bir chekkasiga qavariq va ikkinchi chekkasiga botiq yo'lak hosil qilinib o'rnatganda taxta chekalari bir-biriga kirib turadi. YOg'och polli binolarning birinchi qavatida poydevordan laga ostini shamollatuvchi teshiklar ochilishi shart. Aks holda pastdan ko'tariluvchi nam 3-4 yilga etmasdan pol va lagani chiritadi.

• **parket pollar** – yog‘och pol yoki laga ustiga yotqizilgan (DSP, reyka, brus va boshqa) qattiq yuzaga yuqori sifatli (sada, qayin, kedr, yong‘oq, chinor va boshqa) yog‘ochlardan tayyorlangan taxtachalardan maxsus kley yordamida yotqiziladi. Hozirgi kunda turli sun‘iy parketlar (tarketlar) keng qo‘llanilmoqda. Tarketlar asosini DVP yoki tarkibini selyuloza tashkil etuvchi materiallardan tayyorlanganligi uchun yuvganda va ho‘llab tozalaganda tez ishdan chiqadi.

• **linoleum**-parket singari qattiq yuzaga yotqiziladi. Qattiq yuza lagaga ustiga yotqizilgan yoki sementli qorishmada tekslangan (styajka) bo‘lishi mumkin. Linoleum ikki guruhga ajratiladi, birinchi guruhga turli qalinlik va keglidagi bir qavatli linoleumlar kirsas ikkinchi guruh linoleumlar ikki qavatli ya‘ni maxsus issiqlikni ushlab qoluvchi yumshoq asosga ega bo‘ladi. Yumshoq asosga ega bo‘lmagan linoleumlar turli kley va mastikalar yordamida yotqiziladi. Asosli linoleumlar kleysiz yotqiziladi. Ikkala guruh linoleumlarni ham yotqizish jarayonida tutashuvchi chekalari maxsus laminatorda bir-biriga payvandlanadi.

• **kovrolan** – gilam singari yumshoq qobig‘li bo‘lib turli asoslarga ega bo‘ladi. Kovrolanlar ham linoleum singari qattiq va tekist asosga (pol yoki sementli styajkaga) yotqiziladi.

• **plitkalar (kafellar)** – binolarning yordamchi (zinapoya, oshxona, hojatxona) va xo‘jalik xonalariga yotqiziladi. Plitkalar turli texnologiyalarda tayyorlangan (chinni, sopol, metlax, mramor, polixlorvinilli va boshqalar) va turli sifatli bo‘ladi. Pol yotqizishda yuzasi sirpanchiq bo‘lmagan (metlax, marmar va polixlorvinilli kabi) plitkalarni tanlash lozim.

Proem (teshik)lar – binoning tashqi va ichki devorida deraza va eshiklar o‘rnatilgan va o‘rnatilmagan teshiklardir. Odatda zinapoyalarga, karidordan xolga, karidordan karidorga o‘tish joylarida eshik o‘rnatilmagan proem bo‘lishi mumkin.

Derazalar - xona yorig‘ligini ta‘minlash va shamollatish uchun xizmat qiladi. Xonani etarli darajada yoriq bo‘lishi va havo almashinishini ta‘minlash derazalar yuzasining kattaligi muhim ahamiyatga ega. Ta‘lim muassasalari o‘quv xonalarining yorug‘lik darajasiga qo‘yiladigan talab “Idoraviy qurilish me‘yorlari va qoidalari” asosida me‘yorlanadi. O‘quv xonalarida derazalarning kamida bittasidan xonaga quyosh nuri tushishi lozim. Quyosh nuri ko‘pgina kasallik viruslarini o‘ldiradi. SHuningdek, binodagi haroratni yo‘qotilishini kamaytirish uchun shimol tomondagi devorlarga kamroq va janub, yoki quyosh ko‘proq tushib turuvchi tomoniga ko‘proq deraza o‘rnatish maqsadga muvofiq.

Eshiklar – binoga va xonalarga kirib chiqishni ta‘minlash va zarur hollarda etarli darajada izolyasiya qilish vazifasini bajaradi. Eshiklar kattaligi kirib chiqish tezligi va miqdoriga va xonaning hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Ta‘lim muassasalarida o‘quv xonalariga o‘rnatiladigan eshiklar soni va kattaligi “Idoraviy qurilish me‘yorlari va qoidalari” asosida me‘yorlanadi. Bunda yong‘in xavfsizligi va favqulotda hodisalardan muhofazalanish inobatga olinadi.

Binoning bosh kirish joyida eshik(lar) o‘rnatilishiga alohida talablar mavjud. Bu talablar binoning dizayni va kirib chiqish tezligining bino ichkrisidagi haroratga ta‘sirini o‘rgangan holda belgilanadi. Ko‘p qavatli yirik binolarda alohida, bino sathidan bo‘rtib chiquvchi bosh kirish joylari quriladi.

Binoning boshqa konstruktiv qismlariga bosh kirish joyi, zinapoyalar,

balkonlar, lodjalar, mansardalar va boshqalar kiradi.

11.3. Binolarning asosiy muhandislik jihozlari

Muhandislik jihozlari binolarga kommunal xizmatlar ko'rsatish va ulardan maqsadli foydalanishni tashkil etish bilan bog'liq barcha vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi.

Suv ta'minoti tizimi (vodoprovod) – ijtimoiy sohada foydalanilayotgan binolarda sanitar-gigienik holatni ta'minlash, suv iste'moliga bo'lgan ehtiyojni qondirish, yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Binolarda sovuq va issiq suv ta'minoti tarmoqlari va yong'in xavfsizligi suv tarmog'i mavjud bo'ladi.

Sovuq suv ta'minoti tizimi uch xil sxemada montaj qilinishi mumkin:

1. Pastdan tarqatiluvchi ananaviy sxema (shahar tarmog'ida suv bosimi etarli bo'lgan hollarda). Bu sxemada suv yo'lining oxiri berk yoki aylanma harakatlanuvchi bo'lishi mumkin.

2. YUqoridan tarqatiluvchi sxema. YUqori qavatli va shahar tarmog'ida suv bosimi doimiy etarli bo'lmagan binolarda ushbu sxemada montaj qilinib binoning tomida (suv ta'minotidagi uzulishlarni qoplash imkoniga ega bo'lgan) suv yig'ish baki o'rnatiladi.

3. Nasosli markazlashgan ta'minot sxemasi. Bunday sxema suv bosimi surunkali etishmaydigan, yuqori qavatlariga suv etib bormaydigan hududlarda qo'llaniladi. Bunday sxemada suv ta'minoti nasos yordamida tortish va suv yig'ish baklarida etarli suv miqdorini hosil qilib turish hisobiga amalga oshiriladi.

Yirik shaharlarda va yangi qurilishlarda binolarda va bino atrofida yong'in xavfsizligi suv tarmoqlari (gidrantlar) alohida quriladi.

Issiq suv ta'minoti – etkazib berish manbasiga ko'ra ikki guruhga, markaziy yoki alohida (lokal) ta'minot tarmog'iga bo'linadi. Markaziy tarmoqqa yirik qozonxonalar, issiqlik elektr stansiyalari yoki ishab chiqarish jarayonida ortiqcha issiqlik hosil qilinuvchi korxonalardan etkazib beriladi. Binoga issiq suv ta'minoti tizimi turli sxemalarda, alohida aylanma harakatlanuvi tarmoq, aralash yoki qisman isitish funksiyasi qo'shilgan (dush yoki oshxonalardan o'tuvchi stoyaklarda sochiq quritgichlari mavjud bo'lgan) va boshqa.

Alohida issiqlik ta'minoti ikki usulda, markazlashgan va ichki issiq suv hosil qilish manbalaridan ta'minlanadi. Markazlashgan ta'minotda bino yoki bir necha bino uchun issiq suv etkazib beruvchi kichik qozonxonalardan foydalaniladi.

Ichki issiq suv ta'minoti iste'mol nuqtalarida titanlar, suv qizdirgichlar, quyosh batareyalari, oshxona kombaynlari, kir yuvish mashinalari va boshqa man'balar orqali ta'minlanadi. Bunday energiyani iqtisod qilishga yo'naltirilgan issiq suv etkazib berish texnologiyalari so'nggi paytlarda jadal rivojlanmoqda.

Suv qochirish tizimi (kanalizatsiya) sovuq suv ta'minoti tizimiga parallel ravishda pastdan tepaga tomon montaj qilinadi. Har bir stoyakning erto'ladagi markaziy quvurga ulangan joyida chiqindi yig'uvchilar (gryazoviklar) o'rnatiladi va ular vaqti-vaqti bilan tozalab turiladi. Suv qochirish trubalarining tepa qismi bino tomidan chiqib turuvchi shamollatish trubalariga ulanadi. Bino yoki bino bo'limlaridan chiquvchi markaziy quvur hududdagi binolar orasidan o'tuvchi

magistralga borib qo'shiladi.

Isitish tizimi binoda inson yashashi va faoliyati uchun zarur haroratni ta'minlashga xizmat qiladi. Isitish tizimi issiqlik manbalaridan kelib chiqib ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga markaziy isitish tarmog'idan issiqlik bilan ta'minlanuvchi tizimlar kiradi. Har bir binoning isitish tizimi issiqlik kiritish nuqtasi (elevator) orqali magistralga ulanadi. Binodagi isitish tizimiga isitkichlar vertikal, parallel va qavatlar kesimida ulanishi mumkin. Amaliyotda uch va undan ortiq qavatli binolarda vertikal yopiq aylanish tizimi keng qo'llanilsa bir va ikki qavatli binolarda parallel va qavatlar kesimidagi isitish tizimi qo'llaniladi.

Ikkinchi guruh isitish tizimiga mahalliy (lokal) va individual qozonxonalardan issiqlik bilan ta'minlanuvchi tizimlar va isitish pechlari orqali isitish kiradi. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida yoqilg'ini tejash imkoniyati keng bo'lgan lokal isitish tizimlaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Gaz ta'minoti tizimi – ijtimoiy sohadagi binolarda ma'ishiy ehtiyojni qondirish uchun xizmat qiladi. Gaz ta'minoti asosan uy-joy binolarida, mehmonxonalarda, talabalar turar joylarida, umumiy ovqatlanish uchun xizmat qiluvchi binolarda mavjud. Gaz taqsimlagich (GRP) uskunalaridan binolarga past bosimli (0,5A gacha) gaz etkazib beriladi. Gaz taqsimlagichdan binoga gaz etkazib beruvchi tarmoqda binodan kamida 3-5 m uzoqlikda, favqulotda holatlarda gazni yopib qo'yadigan kran o'rnatilishi shart.

Binolarga elektr energiyasi ta'minoti markaziy tok taqsimlagich (transformator)dan amalga oshiriladi. Ko'p qavatli binolarga asosan to'rt yo'lakli kabellar orqali uch fazali, 380/220 volt kuchlanishli elektr energiyasi etkazib beriladi. Elektr energiyasi tizimi binodan foydalanish maqsadiga qarab tayyorlangan loyiha asosida montaj qilinadi. Binoning elektr energetika tizimi ishga tushurishdan oldin loyihada ta'minlanishi lozim bo'lgan kuchlanishli quvvat ostida to'liq sinovdan o'tkaziladi. Binodan foydalanish davomida elektr energetika tizimi har yili bir marta maxsus elektr energiyasidan foydalanishni nazorat qiluvchi tashkilotlari tomonidan tekshiruvdan o'tkazib boriladi.

Ijtimoiy yo'nalishda foydalanilayotgan binolarda yuqorida keltirilgan muxandislik kommunikatsiyalaridan tashqari liftlar, shamollatish uskunolari (ventilyasiya), qattiq ma'ishiy chiqindilarni tashlash quvurlari (musoroprovod) bo'ladi. Ularning o'rnatish ishlari va sxemasi binoning loyiha-smeta hujjatlarda keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

11.4. Bino va inshootlardan foydalanish muddatlari va ularning eskirishi

Bino va inshootlar qurib ishga tushurilganidan tugatilguniga (buzib tashlangunga) qadar bo'lgan vaqt oralig'i ularning **faoliyati davomiyligini** bildiradi. Bino faoliyatining davomiylik muddati ularning kapitallilik darajasi, loyiha hujjatlari va me'yorlari ko'rsatkichlari asosida belgilanadi.

Bino va inshootlar faoliyati davomiyligining sifat ko'rsatkichlariga bog'liq holda, ularning kapitallilik darajasidan kelib chiqib o'rtacha xizmat muddatlari me'yorlanadi. Binoning **kapitallilik darajasi**: poydevori, devorlari, to'siqlari, tomi va boshqa asosiy konstruksiyalarining sifati va xizmat muddatidan kelib chiqib

belgilanadi. Odatda bino va inshootlarning kapitallilik darajasi olti guruhga bo'linadi (3.3-jadval).

Bino va inshootlardan foydalanish davomiyligi ikki guruhga: **jismoniy va funksional** xizmat muddatlariga bo'linadi.

Jismoniy xizmat muddati – bino konstruksiyalarining jismoniy-texnik tasnifiga bog'liq bo'lib, ular jumlasiga binoning tayanch konstruktiv elementlarining baquvvatligi, tebranishga chidamliligi, bog'lovchilarning sifati, issiqlik, namlik va ovoz o'tkazishidan himoyalanganligi kabilar kiradi.

11.3-jadval.

Binolarning kapitallilik darajasi bo'yicha o'rtacha xizmat muddatlari me'yorlari

Bino turlari	Kapitallilik guruhlari					
	I	II	III	IV	V	VI
	Xizmat muddati					
Turarjoy binolari	150	125	100	50	30	15
Jamoatchilik binolari	175	150	100	50	25	15

Funksional xizmat muddati deganda binoning arxitekturaviy tuzilishi, hajmi, umumiy maydoni, obodonlashtirilganlik darajasining binodan foydalanish bo'yicha qo'yilgan funksional talablarga javob beradigan muddat tushuniladi.

Bino va inshootlar jismoniy xizmat muddati davomida eskirib boradi.

Binoning jismoniy eskirishi deganda uning konstruktiv elementlari va muhandislik jihozlari asta sekinlik bilan dastlabki quvvatini va qiymatini yo'qotib borishi tushuniladi. Binolarning konstruktiv elementlari va muhandislik jihozlarni tashkil etuvchi qurilish materiallarining sifat ko'rsatkichlariga hamda ularga ta'sir etuvchi tashqi va ichki faktorlarga bog'liq ravishda jismoniy eskirishi jarayoni bir xil tezlikda kechmaydi.


Bino va inshootlarning jismoniy eskirishi rivojlanish darajasiga ko'ra uch bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqichga bino qurib ishga tushirilishi birinchi o'n yilligi kirib, ayniqsa dastlabki 3-5 yil faol kechadi. Bu davrda bino og'irligi ta'sirida ostki asosi va er qatlamlaridagi cho'kish, tutashish joylarining zichlashuvi, qurilish konstruksiyalari va materiallarining (to'liq texnologik xususiyatini egallashi hisobiga) joylashuvi kuzatiladi.

Ikkinchi bosqich jismoniy eskirishning bir maromda (stabil) kechish davri hisoblanib, bino xizmat muddatining 50-60 % ini tashkil etadi.

Uchinchi bosqichda bino resurslarining xizmat muddati o'tib borishi hisobiga sifat ko'rsatkichlarning pasayib borishi kuzatiladi va bu o'z navbatida eskirish darajasining o'sish suratini jadallashib borishiga olib keladi (11.1-rasm).

Binoning jismoniy eskirishi tashqi va ichki ko'rsatkichlar ta'sirida sodir bo'ladi.



11.1-rasm. Binoda jismoniy eskirishi darajasining rivojlanishi.

Tashqi ta'sir ko'rsatuvchi faktorlarga:

- atmosfera (namgarliklar, yog'ingarchiliklar) ta'sir;
- er osti sizov suvlari;
- havo harorati (yuqori issiqlik va muzlash);
- texnologik jarayonlar (temir yo'l, aeroport, kuchli tebranish hosil qiluvchi ishlab chiqarish jarayoni) va boshqalar.

Ichki ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarga:

- binodan loyihada belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanilganda;
- kapital va joriy ta'mirlash ishlari (muddatidan oldin yoki kechiktirib, yoki texnologiyaga rioya qilinmasdan) bajarilishi;
- sanitar gigenik talablar buzilganda;
- loyihada belgilanganidan ko'p foydalanuvchilar (yashovchilar, xodimlar) joylashtirilganda va boshqalar.

Bino va inshootlarning asosini tashkil etuvchi (kapitallilik darajasini belgilovchi) texnologik konstruksiyalarining jismoniy eskirishini (kapital yoki joriy ta'mirlash orqali) to'liq qayta tiklab yoki ularni almashtirib bo'lmaydi. Bularga binoning poydevori, tayanch devorlar, tayanch ustunlar va kolonnalarni kiritish mumkin.

Binoning barcha konstruktiv elementlari va muxandislik jihozlarini ma'lum darajada jismoniy eskirishidan keyin qayta tiklab bo'lmaydi. Binodagi konstruktiv elementlar va muxandislik jihozlarini ta'mirlash orqali qayta tiklash mumkin bo'lgan darajasi 11.4-jadvalda keltiriladi.

Kapitallik darajasi 1-2 guruhga kiruvchi binolardagi konstruktiv elementlar va muxandislik jihozlarining eskirishni qayta tiklash imkoniyatlari

Konstruktiv element va muxandislik jihozlar nomi	Me'yoriy xizmat muddati (yilda)	Qayta tiklanishi mumkin bo'lgan jismoniy eskirish (% da)	Qayta tiklanishi mumkin bo'lmagan jismoniy eskirishning maksimal chegarasi (% da)
Poydevorlar	100	5	35
Devor va to'siqlar	100	5	35
Tom (temir-beton, yumshoq qoplama)	100	20	35
Stropila	100	5	35
Krovlya	25	30	60
Pollar	60	25	33
Deraza va eshiklar	50	15	30
Ichki bezaklar	20	30	50
Boshqa konstruksiyalar	80	10	44
Sovuq suv tarmog'i	15	10	50
Suv chetlatish oqava quvurlar	30	10	50
Issiq suv tarmog'i	15	10	50
Isitish tizimi	30	15	50
Gaz tarmog'i	75	10	20
Elektr-yoritish tizimi	67	15	30

12-mavzu. Turar-joy va jamoat binolaridan foydalanishni tashkil etish

12.1. Binolardan texnik foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari

12.2. Bino elementlarining fizik va ma'naviy emirilishi

12.3. Binoning optimal xizmat qilish muddati

12.4. Binolarga texnik xizmat ko'rsatishning umumiy masalalari

12.1. Binolardan texnik foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari

Bino va inshootlar ma'lum bir belgilanish va vazifalarga ega bo'lib, ularni loyihalash va qurish jarayonida qo'llaniladigan konstruktiv sxemalari, qavatlar soni, hajmiy-rejaviy echimlari, qurilish materiallari hamda boshqa turli omillar e'tiborga olinadi.

Binolarni loyihalash, qurish va ulardan foydalanish jarayonlari o'rtasida uzviy bog'liqliklar mavjud. Binolarga qo'yiladigan uzoq muddatga chidamlilik, yuk ko'taruvchi konstruksiyalar va muhandislik tuzilmalari hamda uskunalarining mustahkamligi, foydalanishga yaroqliligi hamda ishonchli ravishda ishlash talablari, ularni loyihalash bosqichidan boshlab e'tiborga olinadi. Foydalanish uslublari, ta'mirlash jarayonida ba'zi bir element yoki konstruksiyalarni ta'mirlash uchun ularga yondashishning texnologik jarayonlari ishlab chiqiladi. Bir so'z bilan aytganda, bino va inshootlarni loyihalash va qurish jarayonlari ularning foydalanish sifatlarini oldindan belgilab beradi. Bino va inshootlardan foydalanish davrining ularni loyihalash va tiklash jarayonlari bilan bog'liqligi yuqorida keltirilgan omillar bilan izohlanadi.

Ma'lumki, binolardan ishlab-chiqarish, ma'muriy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar va insonlarning yashashlari hamda turli maqsadlar uchun foydalaniladi.

Binolar belgilanishlari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

- fuqaro binolari, bularga turar-joy va fuqarolarning maishiy va madaniy talablarini qondiradigan (masalan, teatrlar, shifoxonalar, o'quv binolari, do'konlar va boshqalar) jamoat binolari;

- ishlab-chiqarish va transport (sex, issiqlik elektrostansiyalari, tuman va mintaqa issiqxonlari, sanoat va transport omborlari, depo binolari va boshqalar) ehtiyojlarini qondiradigan sanoat binolari;

- qishloq xo'jalik ehtiyojlarini qondiradigan (hayvonlar va parrandalarni saqlash binolari, veteraniriya shifoxonolari, issiqxonalar, qishloq xo'jalik mahsulotlari omborlari va boshqalar) qishloq xo'jalik binolari.

Aholining yashash joylariga bo'lgan ehtiyojlarning ortib borishi, ishlab-chiqarish texnologik jarayonlari va texnologiyalarining tabora takomillashib borishi, atrof-muhitning insoniyat ta'sirida o'zgarib borishi bilan birgalikda, turar-joy, jamoat va sanoat binolaridan foydalanish uslublari ham o'zgarib bormoqda. O'z-o'zidan ma'lumki,

bino va inshootlatdan foydalanish davrida ularni loyihalash va qurish davridagi kamchiliklar namoyon bo'lib boradi hamda buning asosida yangidan-yangi talablar vujudga kela boshlaydi, ya'ni loyihalash, qurish va foydalanish o'rtasida teskari bog'liqlik vujudga keladi. .

Binolardan foydalanish qurib bitkazilgan obektlarni ishlatishni nazarda tutadi, ya'ni ularning xonalaridan ma'lum bir maqsadlarda ehtiyojni qondirishni e'tiborga oladi. Masalan, kinoteatr binosi insonlarning kinofilmlar tomosha qilib, madaniy xordiq chiqarishlari uchun mo'ljallangan. Kinoteatr binosida tomoshabinlar talab darajasida hordiq chiqarishlari uchun funksional talablarni bajaradigan va ularga xizmat qiladigan barcha muhandislik tizimlari normal holda ishlab turishi ta'minlanishi lozim (yorug'lik bilan ta'minlash, shamollatish, tovush tarqalishi, tahlikali hollarda insonlarni zaldan evakuatsiya qilish, sanitariya tugunlarining ishchi holatda bo'lishi, tomoshabinlarning film boshlanishi oldidan tamaddi qilib olishlari uchun imkoniyatlar yaratilganligi va boshqalar). SHuning bilan birgalikda konstruktiv elementlarning me'yoriy hujjatlar talablariga javob berishi va o'z vazifasini loyihada belgilanganidek bajarishi lozim bo'ladi.

SHunday qilib, bino va inshootlardan foydalanish tadbirlarini alohida majmua sifatida, ya'ni ularning konstruktiv elementlarini me'yoriy xizmat qilish davrida bexato ishlashlarini ta'minlaydigan barcha omillarni e'tiborga olgan holda qarash mumkin.

Bino va inshootlarning sifatlari ularni loyihalash, qurish va foydalanish bosqichlarida shakllanadi. Binolarning sifatiga eng ko'p ta'sir qiladigan bosqich ularning foydalanish bosqichi bo'lib, bu bosqich vaqt bo'yicha eng uzoq va barcha bosqichlarning xotimasi hisoblanadi. Bunda, ya'ni foydalanish bosqichida binolarni loyihalash va qurish jarayonlaridagi xatolar namoyon bo'ladi. Binolardan foydalanish xizmatlarini tashkil etuvchi tashkilotlarning vazifasi qurilish va loyihalash tashkilotlari bilan birgalikda vujudga kelgan kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat.

Binoning sifati ko'p omillar asosida aniqlanadi (texnologik jarayonlarning joylashishi va ularni tashkil etish, bino muhandislik tizimlari va elementlarining normal faoliyat ko'rsatishi va boshqalar). Turar joy va jamoat binolari insonlarning ko'p vaqt faoliyat ko'rsatish joylari bo'lganligi sababli foydalanish jarayonlarini tashkil etish jarayoni insonlarning kayfiyatiga sezilarli darajada ta'sir etadi.

Hozirgi vaqtda bino va inshootlarning qurilish hajmi ikkita omil asosida aniqlanadi. Birinchidan, aholining yashash darajasiga bo'lgan ehtiyojlarini oshib borishi bo'lsa, ikkinchidan esa, mustaqil respublikamiz aholisining Hamdo'stlik mamlakatlariga nisbatan aholisi sonining jadal suratlar bilan o'sib borishidir. Ushbu omillar yangi qurilayotgan bino va inshootlarning hajmini kengaytirishga va mavjudlarini rekonstruksiya qilishga asosiy sabablar bo'lib hisoblanadi.

YUqorida keltirilgan omillar bilan birgalikda, mavjud bino va inshootlarning hamda ularning konstruksiyalari va elementlarini vaqt o'tishi bilan emirilib borishi ham yangi qurilishlar hajmini jadal suratlar bilan o'stirishni taqozo etadi. Mavjud bino va inshootlarni joriy, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilinishi uy xo'jaliklari hududini obodonlashtirish ishlariga katta hajmdagi mablag'lar sarflanayotganligi borasida ko'plab misollar keltirish mumkin. SHuning uchun binolardan foydalanish uchun joylardagi jamoat tashkilotlari, foydalanish xizmatlari va mahalliy qo'mitalarni jalb etish borasidagi ishlar bugungi kunda dolzarb masalalardan bin bo'lib hisoblanadi.


12.2. Bino elementlarining fizik va ma'naviy emirilishi

Vaqt o'tishi bilan binoning haqiqiy narxi pasayib boradi. Har qanday vaqt oraligida binoning narxi daslabki narx bilan tuzilmaviy elementlarning emirilishi va muhandislik tizimlarining tiklanishi uchun ketgan sarflarning yig'indisini farqini taqozo etadi (12.1-rasm), ya'ni

$$V = K - (J + M_1 - K_T - M_2), \quad (12.1)$$

bu erda V – binoning haqiqiy narxi, so'mda; K – binoning daslabki narxi, so'mda; J – fizik emirilishning narxdagi bog'liqligi, so'mda; M_1 – ma'naviy emirilish birinchi formasining narxdagi bog'liqligi, so'mda; K_T – binoni kapital ta'mirlash uchun sarfning hajmi, so'mda; M_2 – ma'naviy emirilishning ikkinchi formasini bartaraf etish uchun ketgan xarajatlar hajmi, so'mda.

12.1-rasm. Bino haqiqiy narxining ma'naviy va fizik yemirilishga bog'liq ravishda o'zgarishiga bog'liqligi
1-ikkinchi turdagi ma'naviy yemirilish;
2-mukammal ta'mirlash uchun xarajatlar hajmi;
3-birinchi turdagi ma'naviy yemirilish narxi;
4-fizik yemirilish narxi;
5- haqiqiy narx.



Fizik emirilish deganda vaqt o'tishi bilan binoning mustahkam-ligi, ustivorligini yo'qotishi, issiqlik va tovush izolyatsiyalari xossalarini, suv va havo o'tkazmovchanliklarining kamayishi tushuniladi. Fizik emirilishning asosiy omillari bo'lib tabiiy ta'sirlar hamda binodan foydalanish davridagi texnologik jarayonlar hisoblanadi.

Binolar emirilishining foizi xizmat qilish muddati tuzilmalarining haqiqiy holati bo'yicha aniqlanadi. Bunda asosiy fondni va aniqlangan emirilishni aniqlash ko'rsatmalaridan foydalaniladi.

Bino va inshootlarni hamda ularning fizik emirilishini tizimli ravishda hisobga olib borish uchun mahalliy hokimiyatlar (shahar, tuman hokimiyatlari) qoshida texnik ro'yxatdan o'tkazish byurolari mavjud. Bu tashkilot har bir bino uchun texnik pasport tuzadi. Bu pasportda binoning tuzilmaviy elementlari va uning omillari (hajmi, yashash maydoni va boshqalar) er maydoni rejasi va binoning qavatlar soni ko'rsatilgan bo'ladi.

Binoning fizik emirilishi quyidagilarga asosan belgilanadi:

- tuzilmaviy elementlarni ko'z yoki durbin bilan qarab chiqish va ularda fizik emirilish natijasida foydalanish sifatlarini kamayish foizini aniqlash asosida;
- qolgan xizmat qiladigan muddatini ekspert yo'li bilan baholash orqali;

- hisob bilan (fizik emirilishning koʻzga tashlanadigan belgilari boʻlmagan holda);

- tuzilma va muhandislik tizimlarining foydalanish xossalarini tiklash uchun kerakli boʻlgan narxlarni aniqlash bilan binoni muhandislik kuzatuvlari asosida.

Binoning fizik emirilishi alohida olingan toʻqqizta elementning oʻrta arifmetik miqdori kabi aniqlanadi:

1. Poydevorlar.
2. Devorlar.
3. Orayopmalar.
4. Tom va yopma qatlami.
12. Tomlar.
6. Deraza va eshik qurilmalari.
7. Bezak ishlari.
8. Ichki sanitariya-texnika va elektrotexnika qurilmalari.
9. Boshqa elementlar (zinapoyalar, balkonlar va boshqalar).

Konstruktiv elementlar emirilishini qayd etish uchun "Turar joy binolarni texnik emirilishini baholash qoidalari" jadvallaridan foydalaniladi. Tuzilmalarning fizik emirilishini aniqlash uchun ularning turli darajada emirilishiga ega boʻlgan joylari alohida olgan holda kuzatiladi. Butun tuzilmaning emirilishi alohida qismlarining oʻrtacha emirilishi va ular tuzilmasining umumiy hajmiga yoki muhandislik tizimidagi solishtirma miqdoriga koʻra aniqlanadi.

Fizik emirilishga koʻra bino tuzilmalari texnik holatining bahosi foiz nisbatida 12.1-jadvalda keltirilgan.

12.1-jadval

Fizik emirilishiga koʻra bino tuzilmalari texnik holatining bahosi

Konstruksiya holati	Poydevorlar, gʻisht va yogʻoch devorlar, tosh zinapoyalar, tomlar	Derazalar, eshiklar, pechkalar, markaziy tizimi suv isitish quvuri, oqava suvlar tizimi
YAxshi	0-10	0-10
Toʻliq qanoatlanarli	11-20	11-20
Qanoatlanarli	21-30	21-30
Toʻliqsiz qanoatlanarli	31-40	31-40
Qanoatlanarsiz	41-60	41-60
Eskirgan	61-80	61-80
Yaroqsiz	81-100	80 dan ortiq

Butun binoning emirilganlik foizi quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$Q_H = \sum_{i=1}^n \frac{d_j l}{100} \quad (12.2.2)$$

Bu erda: d_j – umumiy tiklash narxidagi tuzilmaviy elementning yoki muhandislik sistemasining solishtirma narxi, %; (l – texnik kuzatishlar natijasida tuzilmaviy elementning emirilishi, %).

Fizik emirilishning narx bog‘liqligi quyidagi formula orqali ifodalanadi

$$I = Q_H V' / 100, \quad (12.2.3)$$

Bu erda Q_H – fizik emirilish; V^1 – tiklash narxi, so‘mda.

Me‘yoriy muddat T ni to‘liq o‘tab bo‘lgan yoki unga yaqin muddatni o‘tab bo‘lgan binolarning fizik emirilishini baholash uchun quyidagi formulalardan foydalaniladi:

$$Q_h = T100 / (T + \Delta t); \quad (12.2.4)$$

$$Q_h = [T(T + t)/2t^2] 100, \quad (12.2.5)$$

bu erda T – me‘yoriy xizmat muddati, yilda; t – haqiqiy xizmat muddati, yilda; Δt – imkon darajasidagi qolgan xizmat qilish muddati (asboblari yoki ekspert usuli bilan aniqlanadi), yilda.

Amalda 70–75% fizik emirilishga ega bo‘lgan binolar to‘liq emirilib bo‘lgan, eskirgan deb hisoblanadi.

Fizik emirilishdan tashqari, bino ma‘naviy jihatdan eskiradi. Binolarning ma‘naviy emirilishi sanoat va qurilishdagi ilmiy-texnik taraqqiyotga bog‘liq. Ma‘naviy emirilishning ikki turi mavjud.

Ma‘naviy emirilishning birinchi turi bino narxini qurilish davridagi narxiga nisbatan kamayishini taqozo etadi. Bu narxning kamayishi kerakli bo‘lgan jamoat narxlarini xuddi shunday binolarga nisbatan pasayganligini taqozo etadi.

Ma‘naviy emirilishning ikkinchi turi binoning yoki uning elementlarini amalda baholash vaqtidagi hajmiy-rejaviy, sanitariya-gigienik, tuzilmaviy va boshqa talablar narxiga nisbatan eskirishini aniqlaydi. Masalan: eski uylarda bino qavati 6 tagacha bo‘lganda liftlar qo‘yilmagan, issiq suv ta‘minoti bo‘lmagan, uylardan kommunal xo‘jalik uylari sifatida foydalanilgan. Albatta bu omillar hoziigi uylarga nisbatan narxini kamaytiradi (fizik emirilishlar bo‘lmagan holda ham).

Birinchi turdagi ma‘naviy emirilish narxi quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$M_1 = (1 - n) K = P_1 K, \quad (12.2.6)$$

bu erda M_1 – ma‘naviy emirilish birinchi turi narxining absolyut miqdori, so‘mda; n – yangi tuzilmalar, tizim yoki binoning narxi K_{ya} ning, xuddi shunday eski elementlarning narxi K ga nisbati; $R_1 = 1 - n$ – ma‘naviy emirilishning birinchi turi koeffitsienti.

Ikkinchi turdagi ma‘naviy emirilishning narxi quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$M_2 = R_2 K, \quad (12.2.7)$$

bu erda P_2 – hisob bilan aniqlanadigan, ikkinchi turdagi ma'naviy emirilish koeffitsienti (binolarni amaldagi me'yoriy hujjatlar tala-biga mos keltirish uchun ketgan xarajatlar narxi).

Ma'lumki, bino me'yoriy xizmat davrini o'tab bo'lgunga qadar undagi jihozlar, muhandislik tizimlari bir necha marta almashtirilishi mumkin. O'z navbatida, bu binolarni kapital ta'mirlash bilan faoliyati tiklanadi. Binolarni ta'mirlash tuzilma yoki muhandislik tizimlarining fizik emirilishini bartaraf etishni nazarda tutadi. Binolarni ma'naviy emirilishini bartaraf etish uning hajmiy-rejaviy echimini o'zgartirish, yuk ko'taruvchi tuzilmalarga yuklarni taqsimlash, yangi muhandislik sistemalarini o'rnatish yoki konstruksiya materiallarini almashtirish bilan bog'liq. Bu ishlar binolarni qayta takomillashtirish bilan bog'liq bo'lib, yangi qurilishga ajratilgan mablag' bilan ta'minlanadi.

Ko'p hollarda fizik emirilishga uchramagan yoki kam uchragan tuzilmalar, ma'naviy emirilishga ko'ra almashtiriladi. Masalan, kommunal xonadonlarni izolyatsiyalangan xonadonlarga aylantirish uchun qo'shimcha eshik, derazalar, suv ta'minoti va boshqalarni o'tkazish lozim.

12.3. Binoning optimal xizmat qilish muddati

Binoning xizmat qilish muddati deganda uning buzilmasdan faoliyat ko'rsatish muddati tushuniladi. Bino elementlari, sistemalari va qurilmalarining xizmat qilish muddatlari turlicha. SHuning uchun binolarni me'yoriy xizmat qilish muddatini aniqlashda asosiy yuk ko'taruvchi elementlarning, ya'ni poydevorlar va devorlarni buzilmasdan ishlash muddati olinadi. Binodagi boshqa elementlarning xizmat qilish muddatlari me'yoriy muddatdan 2–3 marta kam bo'lishi mumkin. Binolardan buzilishsiz foydalanish uchun bu elementlarni to'liq almashtirish kerak bo'ladi. Masalan, kapitalligi bo'yicha 2-guruhga mansub bo'lgan turar joy binolarining me'yoriy xizmat qilish muddati 125 yil. Bunday binolarning poli taxtadan bo'lishi mumkin, taxta pollarning xizmat qilish muddati esa 40 yil, orayopmalari yog'ochdan bo'lishi mumkin, orayopmalarning xizmat qilish muddati esa 60 yil. Bundan ma'lumki, binoning xizmat qilish davrida polni kamida ikki marta, orayopmalarni esa bir marta almashtirishga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, muhandislik sistemalari ya ularning elementlarini bir necha marta almashtirishga to'g'ri keladi. Masalan, markazlashtirilgan isitish sistemasida radiatorlarning xizmat qilish muddati 40 yil, suv quvurlarini esa 30 yil. Binoni xizmat qilish muddatida uning elementlari va muhandislik sistemalari bir necha bor ta'mirlanadi, ularga texnik xizmat ko'rsatiladi hamda alohida olingan qismlari almashtiriladi. O'z navbatida bu qismlardan butun sistemaning emirilishiga qadar foydalanish mumkin emas. Meyoriy xizmat qilish muddati texnik xizmat ko'rsatish talablarini bajarishni etiborga olgan holda belgilanadi. Agar bu talablar bajarilmasa, element (yoki konstruksiya) muddatdan oldin ishdan chiqadi. Ayrim holarda arziyasiz bo'lib ko'ringan narsani o'z vaqtida tuzatib qo'ymaslik butun bir konstruksiyani to'liq ishdan chiqarishga olib kelishi mumkin. Masalan, tunuka torn yopmasining xizmat qilish muddati 20 yil. Bu muddatni saqlash uchun tunuka har 3–5 yilda bir marta moyli bo'yog' bilan ranglanib turilishi kerak. Agar ranglanmasa torn tunikasi

5–7 yilda ishdan chiqib bo‘ladi. Deraza yog‘ochlari har uch yilda bir marta ranglanib turilmasa ostki qismi chiriq boshlaydi. CHirigan qismi vaqtida almashtirilmasa butun derazani almashtirishga to‘g‘ri keladi.

Ta‘mirlash ishlarining tuzilma tayyorlangan materiallarning yoki muhandislik sistemasining uzoq muddatga chidamliligiga, yuklar va atrof muhit ta‘sirining intensivligiga, texnologik va boshqa jarayonlarga bog‘liq.

SHunday qilib, bino elementlarining xizmat qilish muddati ulardan texnik foydalanish tadbirlariga ko‘ra belgilanadi. Bu ishlarning o‘z vaqtida bajarilmasligi belgilangan (me‘yoriy) xizmat qilish muddatining qisqarishiga olib keladi.

YUqorida keltirilgan tadbirlarning asosiy masalalari konstruksiyalar va muhandislik sistemalarini me‘yoriy xizmat qilish davrida fizik va ma‘naviy emirilishini bartaraf etishdan iborat. Elementlarning ishonchliligi binolarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Bulardan eng muhim ahamiyatlisi rejaviy ta‘mirlashlardir.

Binoning ishonchliligi u tarkib topgan elementlar ishonchliligi bo‘yicha aniqlanadi. Bu o‘z navbatida "Texnikadagi ishonchlilik, terminlar va aniqlashlar me‘yoriy hujjati tavsiyasi" bo‘yicha asosiy uchta xossasiga ko‘ra tavsiflanadi:

- buzilmasdan ishlashi bo‘yicha – birinchi yoki navbatdagi ishdan chiqqunga qadar, berilgan vaqt oraligida majburiy tanaffuclarsiz ish qobilyatini saqlash;
- uzoq muddatga chidamliligi bo‘yicha – ta‘mirlash tuzatish ishlari va ilkis vujudga keladigan nosozliklarni bartaraf etish tanaffuzlari bilan chegaraviy holat vujudga kelguncha qadar ish qobilyatini saqlash;
- ta‘mirlashga layoqatligi bo‘yicha – texnik xizmat ko‘rsatish va rejaviy hamda norejaviy ta‘mirlashlar orqali bino elementlaridagi buzilish va lat eyishlarning oldini olish, oldindan bilish va buzilishini bartaraf etish.

Bino elementlarining buzilmasdan ishlashi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P = n_q/n, \quad (12.3.1)$$

bu erda P – berilgan vaqt oraligida bino elementining buzilmasdan ishlashi; n_q – berilgan vaqt oraligida, kuzatishlar amalga oshirilgan bir xil tipdagi elementlar ichida buzilmasdan ishlaganlarining soni; n – kuzatilgan bir xil tipdagi elementlarning umumiy soni.

Element yoki muhandislik sistemasining ishdan chiqishi deganda uning ish qobilyatini yo‘qotish voqeligi tushiniladi. Masalan, isitish davrida 500 ta radiatoridan 10 tasi ishdan chiqqan bo‘lsa, bu partiyadagi asboblarning keltirilgan muddat oraligidagi buzilmasdan ishlashi $P=490/500=0,98$ miqdorni tashkil etadi.

Ba‘zi bir elementlarni almashtirish bilan buzilmasdan ishlash darajasi oshadi, biroq u birinchi holatiga hech qachon qaytib kelmaydi, chunki konstruksiyalarda va sistemada hamma vaqt qoldiq emirilish mavjud bo‘lib, u butun xizmat qilish davrida almashtirilmaydi. Bu qonuniyat binolarni **me‘yoriy emirilishining** sababi hisoblanadi.

Binoning optimal xizmat qilish muddati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$t_{ont}=t_1 \sqrt{\frac{2Z}{\eta K}} \quad (12.3.2)$$

bu erda $\eta = 2(n-1)$ – kapital ta'mirlash narxini tartib raqamiga noproporsional bog'liqligini hisobga oluvchi koeffitsent; K - kapital ta'mirlashning o'rtacha narxi, so'mda; t_1 - ta'mirlash oralig'i vaqti, yilda; Z - binoni tiklash (qurish) uchun ketgan sarf, so'mda.

Ta'mirlash va tuzatish ishlarining davriyligi konstruksiya yoki muhandislik sistemalari tayyorlangan materiallarning chidamliligiga, yuk va atrof muhit ta'sirini intensivligiga hamda texnologik va boshqa omillarga bog'liq.

Binodan kompleks foydalanish tadbirlariga quyidagilar kiradi: uskunalarni odatiy ta'mirlash va tuzatish; oldindan belgilanmagan odatiy ta'mirlash; rejayiy kapital ta'mirlash tanlagan holda (rejasiz) kapital ta'mirlash.

Keltirilgan tadbirlar majmuasi binolarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash sistemasini tashkil etadi.


Qurilish amaliyotida odatiy va kapital ta'mirlashlarda bajariladigan ishlar o'rtasidagi farq aniq ajratilmagan, biroq ular qo'yilgan maqsadlari bilan bir-biridan farq qiladi. Odatiy ta'mirlashlarda devor va boshqa konstruksiyalarning ayrim nuqsonlari bartaraf etiladi, agarda ular konstruksiyalarning mustahkamligi yoki boshqa fizik xossalarini yo'qotishga olib kelmasa. SHu bilan birgalikda, odatiy ta'mirlashga konstruksiyalar va muhandislik sistemalarining oldindan emirilishini ogohlantiruvchi tadbirlar kiradi.

Bino va inshootlar hamda ularning elementlarini kapital tamirlash ikki guruhga bo'linadi: rejali va rejasiz.

Rejali kapital ta'mirlash konstruksiya va muhandislik sistemalarining belgilangan muddatda emirilishsiz ishlashini taminlaydi. Rejasiz kapital ta'mirlash esa, qachonki konstruksiya yoki muhandislik sistemalarining emirilishi belgilangan muddatdan oldin bo'lib, rejadagi ta'mirlash muddatlarigacha etib bormagan hollarda bajariladi.

Kapital ta'mirlash binolardan foydalanish bilan uzviy bog'liq.

Turar joy binolaridan foydalanishning tadbirlari 12.3.1-rasmda keltirilgan.




12.3.1-rasm. Binolardan foydalanish tadbirlari.

Binolarga odatiy va kapital ta'mirlash xizmatlarini ko'rsatish bilan bir qatorda, loyihada ko'rsatilgan talablarni bajarib borish lozim. Misol tariqasida poydevorni olaylik. Uning yuk ko'tarish qobiliyati tuproqning ma'lum darajadagi namligiga bog'liq. Bu namlik oshib ketmasligi uchun otmotkka va gidroizolatsiyalar qilinishi va ulardan foydalanish jarayonida ularning holatini saqlab turishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

12.4. Binolarga texnik xizmat ko'rsatishning umumiy masalalari

Binolarga texnik xizmat ko'rsatish deganda ularning xonalaridan, muhandislik tarmoqlaridan, ularga qarashli hududdan foydalanish jarayonida ularning holatini talab darajasida saqlab turish tushuniladi. Binolardan foydalanish tadbirlari ikki turga bo'linadi (12.4.1-rasm): aynan xizmat ko'rsatish va texnik foydalanish.



12.4.1-rasm. Binolarga texnik xizmat ko'rsatish chora tadbirlarining sxemasi.

Xizmat ko'rsatish pasport ishlarini olib borishni, tashkilotlar va yashovchilar bilan o'zaro hisoblarni olib borishni, uy joylashgan hududni toza holda saqlashni, binoning konstruksiyalari, muhandislik sistemalari uskunalariga qarab borishlarni o'z ichiga oladi.

Texnik ishlatish o'z ko'lamiga rejali-ogohlantiruvchi (mukamal va odatiy) va ko'zda tutilmagan ta'mirlashlarni hamda uskunalarni kuzatish va tuzatishlarni oladi.

Binolardan foydalanish jarayonida ularni o'zi va alohida olgan tuzilmalari tabiiy ornilar ta'sirida emirilib yaroqsiz bo'lib boradi. Sunday emirilish **fizik emirilish** deb ataladi. Binoning yaroqli holda ishlashini ta'minlash uchun

belgilangan tartibda emirilish jarayonini to'xtatish yoki uni bartaraf qilish chora-tadbirlari ko'rib boriladi. Biroq to'liq holda binoning dastlabki holatini mukammal ta'mirlashdan so'ng ham tiklab bo'lmaydi. Bu erda asosiy maqsad bino va ularning elementlarini me'yoriy muddat davrida normal ishlashini ta'minlashdan iborat. Ta'mirlash ishlari o'z vaqtida olib borilmasa, emirilish jarayoni tezlashadi, bu esa o'z navbatida binoning me'yoriy foydalanish muddatidan oldin ishdan chiqishiga olib keladi.

Binoning **me'yoriy xizmat qilish muddati** deganda bino asosiy tuzilmalarini o'rtacha xizmat qilish davri tushunilib, bu davrda konstruksiyalar o'z vazifasini bajaradi, ya'ni binoning uzoq muddatga chidamliligini ta'minlaydi. Binoning me'yoriy xizmat qilish muddati uning belgilanishiga hamda qo'llaniladigan materiallar va konstruksiyalariga bog'liq (12.4.1-jadval)

12.4.1-jadval.


Guruhlar bo'yicha binolarning tavsifi

Mukammalligi bo'yicha guruhlar	Bino konstruksiyaviy elementlari tavsifi	
	Turar-joy	Jamoat
1	2	3
I	Muhim mukammallikka ega bo'lgan tosh-g'ishtli binolar poydevorlar toshdan va betondan, <u>devorlar</u> – toshdan (g'ishtdan) va yirik bloklardan, orayopmalar – temirbetondan	Temirbeton yoki metall sinchli binolar bo'lib, sinchlar oraliqlari tosh materiallar bilan to'ldiriladi
II	Odatdagi tosh-g'isht binolar, poydevorlar toshdan, devorlari toshdan (g'ishtdan), yirik bloklardan va yirik panellardan, orayopmalar – temirbetondan yoki aralash hamda metall to'sinlar ustiga terilgan svodlardan	Muhim mukammallikka ega bo'lgan, donalik tosh-g'ishtlardan terilgan tosh-g'isht yoki yirik blokli devorlar, ustunlar va <u>stolbalar</u> – temirbeton yoki g'ishtdan, orayopmalar – temirbetondan yoki metall to'sinlar ustiga terilgan svodlardan
III	Engillashtirilgan tosh-g'ishtli binolar poydevorlar – toshdan va betondan, <u>devorlar</u> – engillashtirilgan g'isht terimidan, shlakobloklardan va yog'ochdan, temirbetondan yoki metall to'sinlar ustiga terilgan svodlardan.	Donalik tosh-g'ishtlardan terilgan tosh-g'isht <u>devorlar</u> yoki yirik blokli devorlar, <u>ustunlar</u> va <u>stolbalar</u> – temirbetondan yoki g'ishtdan. orayopmalar – temirbetondan yoki metall to'sinlar ustiga terilgan svodlardan

IV	Kesilgan va brusli yog'och, aralash, xom g'ishtdan tiklangan binolar povdevorlar tasmasimon chag'ir toshlardan, <u>devorlar</u> kesib tekislangan yog'och bruslardan va aralash (g'isht va yog'och), xom g'ishtdan, orayopmalar – yog'ochlardan	Devorlar-engillashtirilgan tosh- g'isht terimli, <u>ustunlar</u> va <u>stolbalar</u> – temirbetondan yoki g'ishtdan, orayopmalar- yog'ochdan
V	Yig'ma shitli, paxsali sinchli, somon va fayerverkli binolar poydevorlar yog'och stullar yoki chig'ir tosh stolbalariga o'rnatiladi, <u>devorlar</u> sinchli, paxsali va boshqalar. Orayopmalar yog'ochdan sinchli – qamishli va turli engillashtirilgan binolar	Engillashtirilgan tosh- g'ishtli <u>devorlar</u> , <u>ustunlar</u> va stolbalar- g'ishtli yoki yog'ochli, orayopmalar yog'ochdan, to'la yoki brus shaklidagi devorlar
VI	-	YOg'och engil, shitli
VII	-	Qamishli va boshqa engillashtirilgan binolar
VIII	-	Savdo tashkilotlarining engillashtirilgan binolari

Mukammal ta'mirlashning maqsadi – binoning fizik emirilishini bartaraf etish, odatiy ta'mirlashniki esa tuzilma va muhandislik tizimlarining muddatidan oldin emirilishini oldini olishdan iborat. Mukammal ta'mirlashda binolarning ma'naviy emirilishlari ham bartaraf etiladi. Ma'naviy emirilish deganda binoning hajmiy-rejaviy, sanitar-gigienik va boshqa echimlari bo'yicha o'sib kelayotgan talablarga javob bermay qolishi tushuniladi. Masalan, hozirgi paytda olti qavatdan yuqori qavatli binolarga lift o'rnatish, ularning orientatsiyalarini o'zgartirish, yashash xonalarini kengaytirish, tovush va issiqlik izolyasiyalarini oshirish, samarador va arzon materiallarni qo'llash va boshqa shunga o'xshash talablar qo'yiladi. Rejali-ogohlantiruvchi ta'mirlash ishlarini olib borish binoning mustahkamligi, ustuvorligi, me'moriy-badiiy ko'rinishi kabi ko'rsatkichlar, ya'ni uning foydalanish ishonchligini oshiradi.

Binolardan foydalanishning dastlabki davrida unga xizmat ko'rsatish chora-tadbirlari bilan cheklaniladi. Bularga aholi bilan olib boriladigan ishlar, bino hududini tozalash, kuzatishlar, muhandislik uskunalarini rostlash va sozlash kabi ishlar kiradi. Binoning emirilishi oshib borishi bilan rejali-ogohlantiruvchi ta'mirlash ishlari olib boriladi. Foydalanishining ikkinchi davri texnik xizmat ko'rsatishning barcha chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi va bino asosiy yuk ko'taruvchi tuzilmalari emirilishi 80%gacha etgan bo'ladi, bundan so'ng chegara-viy holatlar mintaqasi boshlanadi. SHunday qilib, binolarga texnik xizmat ko'rsatish chora-tadirlar majmuasidan tashkil topgan bo'lib, ularning tarkibi va maenosi binodan foydalanish jarayoni va emirilishining oshishi bo'yicha o'zgarib boradi (12.4.1-rasm).



Bino elementlarining xizmat qilish muddatlari.

12.4.2-rasm. Bino elementlarining ishdan chiqish jadalligi, ularning xizmat qilish muddatlariga bog‘liqligi: I – emirilishsiz xizmat davri, II – xuddi shunday me’yoriy emirilish davri; III - xuddi shunday tejalgan emirilish davri.

Rejali-ogohlantiruvchi ta’mirlash ishlarini olib borishda ma’lum davriylikka amal qilinadi. Mukammal ta’mirlashning davriyligi tuzilma turi va ularning materiallariga bog‘liq, yaeni bino mukammalligi bo’yicha qaysi guruhga mansub ekanligiga bog‘liq. Quyida binolarning mukammalligi bo’yicha o‘rtacha xizmat qilish muddatlari keltirilgan (12.4.2-jadval).

12.4.2-jadval

Binolarning o‘rtacha me’yoriy xizmat qilish muddatlari

Binoning mukammalligi bo’yicha guruhlari	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX
Binolarning o‘rtacha xizmat qilish muddatlari:									
turar-joy	150	125	100	50	30	15			
jamoat	175	150	125	100	80	30	25	15	10

Unda ayrim tuzilmaviy elementlar, muhandislik uskunolari, tuzilmalar va obodonlashtirishning o‘rtacha xizmat qilish muddatlari aks ettirilgan.

Texnik ishlatilayotgan binoning texnik holatini, uning ichki muhandislik qurilmalari va davriy ta’mirlashlar hajmini aniqlovchi asosiy hujat uyning va er maydonining texnik pasporti hisoblanadi. Mana shunga asosan turar joylardan foydalanish tashkiloti mukammal ta’mirlashning istiqbolli rejalarini, uylarni obodonlashtirish, yillik profilaktik ta’mirlashlar rejalarini tuzadi.

Binolarning xizmat qilish muddati uning tuzilmalarini xizmat qilish muddatiga bog‘liq. Tuzilmalarning xizmat qilish muddati uning materiallari mustahkamligi, tashqi ta’sirlar natijasida uzoq muddatli deformatsiyalanishi, emirilishi, ustuvorligi va boshqa omillarning statik va dinamik o‘zgaruvchanligini e’tiborga olgan holda belgilanadi. Bu muddat oralig‘ida har bir tuzilmaning xavfsiz xizmat qilishi kafolatlanadi.

12.4.3-jadvalda ayrim konstruktiv elementlar, muhandislik uskunalari, konstruksiyalar va obodonlashtirishning o‘rtacha xizmat qilish muddatlari keltirilgan.

12.4.3-jadval.

Konstruktiv elementlar, muhandislik uskunalari, konstruksiyalar va obodonlashtirishning o‘rtacha xizmat qilish muddat

Binolar, tuzilmaviy elementlar va ichki bezak	Bino guruhlariga mos ravishda o‘rtacha xizmat qilish muddati, yillarda					
	I	II	III	IV	V	VI
Sement qorishmasidan tiklangan tasmaimon poydevorlar	150	125	100	~	~	~
Pishgan g‘ishtdan tiklangan devorlar	125	125	—	—	—	—
Temirbeton orayopmalar	150	125	100	—	—	—
YOg‘och orayopmalar	—	60	60	50	30	15
Taxta pol	40	40	30	30	30	15
Temirbeton zinapoyalar	100	100	100	—	—	—
YOg‘och zinapoyalar	—	—	—	15	15	8
YOg‘och stropila va panjaralar	50	50	50	40	30	15
SHifer (asbest) torn	30	30	30	30	30	—
Suv ketkazish quvuri sinklangan tunukadan	8	8	8	8	—	—
Gips pardevorlar	60	60	60	—	—	—
G‘isht pardevorlar	—	40	40	40	30	15
Tashqi eshik va derazalar	50	40	40	40	30	15
Ichki eshik va derazalar	50	50	50	40	30	15
Radiatorlar	40	40	40	30	30	—
Hovli suv va kanalizatsiya tarmog‘i	40	40	40	40	30	15
Devor ichidagi elektr sim	30	30	30	—	—	—
Ichki va hovli gaz tarmog‘i	20	20	20	20	20	15
Bino fasadi suvog‘i (g‘isht devor)	30	30	30	—	—	—
Devor bo‘yoq ishlari, suvoq ustidan perxlorvinil va polivinilatsetatli	6	6	6			
Asfalt trotuarlar	15	15	15	15	15	—

Texnik ishlatishning asosiy masalalari quyidagilar:

- turar-joy binolari tuzilmalari va ularning qismlarini buzilmagan holda saqlash;
- bino muhandislik uskunalarini uzluksiz ishlashini taaminlash;
- o‘z vaqtida kuzatishlar, rejali-ogohlantiruvchi (odatiy va mukammal) ta‘mirlash ishlarini olib borish;
- uy hududi mintaqasi holatini saqlab turish.

Texnik xizmat ko'rsatish masalalariga quyidagilar kiradi:

- fuqarolar bilan turar-joy maydonini egallab turish shartnomalarini tuzish, ya'ni aholi bilan odatiy ta'mirlash ishlari, turar-joy solig'i va shunga o'xshash hisoblarni olib borish;
- maxsus ta'mirlash tashkilotlari bilan shartnomalar tuzish va ular bilan ishlash;
- pasport ishlarini olib borish.

1991-yil holatiga nisbatan respublikada vazirliklar va unga qarashli tashkilotlarda 13 ming m³ turar-joy fondi bo'lib, ularga 841 ta foydalanish tashkiloti xizmat ko'rsatgan, mahalliy hokimiyatlarga esa 21,5 mln m³ turar-joy fondi qarashli bo'lib, ularga bor yo'g'i 334 ta foydalanish tashkilotlari xizmat ko'rsatgan.

Bu nomuvofiqlikni bartaraf etish maqsadida turar-joy fondlarini mahalliy hokimiyatlar ixtiyoriga o'tkazish to'g'risida qonun ishlab chiqildi. Buning asosida respublikada "Turar - joylardan foydalanish tashkilotlarining tipovoy qoidalari" turar-joy kodeksi qabul qilindi. Bunda fuqarolarning turar-joylarga bo'lgan huquqlari, yashashdagi vazifalari, turar-joyni saqlashdagi burchlari hamda ta'mirlash-foydalanish tashkilotlarining turar-joylarni saqlashdagi maseuliyatlari aks ettirilgan.

II. AMALIY MASHG'ULOTLAR

2.1. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI

1-modul. “Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi haqida tushuncha

Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish ishlab chiqarish faoliyatining muhim sohasi sifatida. Ta’lim yo‘nalishining mazmuni va mohiyati. Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasining jamiyatdagi roli va tarixi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Sinkveyn, insert*

2-modul. Davlatning uy-joy sohasidagi siyosati va kommunal xo‘jaligi sohasidagi islohotlar

O‘zbekiston Respublikasida uy-joy sohasiga oid davlat siyosatining mazmun-mohiyati. Mamlakatimizda kommunal sohadagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlari. SHahar xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirishda kommunal xo‘jaligining o‘rni.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Sinkveyn, insert*

3-modul. Uy - joy kommunal xo‘jaligining tavsifi va uning O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotidagi o‘rni

Uy - joy kommunal xo‘jaligining o‘rni, roli hamda uning ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyati. Uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarish va sohadagi iqtisodiy islohatlar. Uy-joy kommunal xo‘jaligini boshqarishga va rivojlantirishga ta’sir etadigan omillar.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Suhbat, aqliy hujum, taqdimot, blits-so‘rov.*

4-modul. O‘zbekiston Respublikasi aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasining ahamiyati

Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatishning ahvoli va uni isloh qilish vazifalari. Kommunal xizmat ko‘rsatishni boshqarish tizimini takomillashtirish. Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini rivojlantirish. Davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning ta’minlanishi. Uy-joy-kommunal xizmatlarga haq to‘lash. Aholining ijtimoiy himoya qilinmagan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning aniqligini oshirish.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *Nazorat savollari, BBB jadvalini to‘ldirish*

5-modul. Kommunal soha va uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimida boshqaruvni tashkil etilishi

Boshqaruv zamonaviy korxonalar faoliyatida ob’ektiv zaruriyat sifatida. Mamlakatimizda uy-joy xo‘jaligini boshqarish masalalari. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligining sohani boshqarishdagi ahamiyati. "Uy-joy

kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Prezident Farmonining mazmuni va ahamiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Nazorat savollari, BBB jadvalini to'ldirish*

6-modul. Kommunal xo'jaligi tarkibi va kommunal xizmatlarni tashkil etish

Kommunal xo'jaligi tizimining tashkiliy tuzulishi va tarkibi. Uy-joy kommunal xo'jaligida suv ta'minoti va oqava quvur xizmati. O'zbekiston Respublikasida energetika tizimi va iste'molchilarga elektr energiyasi etkazib berish. Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish va etkazib berish. Uy-joy kommunal xo'jaligida tabiiy gazdan foydalanish va gaz ta'minoti tizimi. Kommunal xo'jaligi tizimida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish xizmatlari tarkibi va ularni tashkil etish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Nazorat savollari, BBB jadvalini to'ldirish*

7-modul. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanishi va uni boshqarishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi

O'zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanish imkoniyatlari va tahlil qilish. O'zbekistonda uy-joy kommunal xo'jalik korxonalarini joylashtirish va ularning mintaqaviy xususiyatlari. Respublikada elektr energetika ishlab chiqarish va resurstejamkorligi masalalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Suhbat, aqliy hujum, taqdimot, blits-so'rov.*

8-modul. Jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida uy-joy kommunal xo'jaligida resurstejamkorligini oshirish

O'zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xo'jaligini resurslarni boshqarishni takomillashtirish. Uy-joy kommunal xo'jaligida resurstejamkorligini oshirish va korxonalarining ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatini yaxshilash. Uy-joy kommunal xo'jaligini joriy ekspluatatsiya qilishni takomillashtirish va xarajatlarni kamaytirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Diskussiya, tezkor so'rov, Insert*

9-modul. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimida bahoni shakllantirish va kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlari

Kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarda uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash xarajatlarining qiymatini shakllantirish. XUJMSHning uy-joy maydoniga qilinadigan foydalanish xarajatlari qiymatini aniqlash tartibi. Aholining kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlari va ularni hisoblash uslubi. Uy-joy xo'jaligida suv iste'moli me'yori va oqavasuvni chetlashtirish. Uy-joy xo'jaligida issiqlik energiyasi iste'moli me'yorini aniqlash uslubi. Uy-joy xo'jaligida tabiiy gaz ta'minoti me'yori.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Diskussiya, tezkor so'rov, Insert*

10-modul. Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatishda "Yagona buyurtmachi xizmati" va professional boshqaruv kompaniyasi

Yagona buyurtmachi xizmati va uning vazifalari. Davlat uy-joy-fondini yagona buyurtmachi xizmatiga berish tartibi. Yagona buyurtmachi xizmatini boshqarish va xo'jalik-moliyaviy faoliyatini tashkil etish. Professional boshqaruv kompaniyasi belgilari, funksiyalari va vazifalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Diskussiya, tezkor so'rov, Insert*

11-modul. Turar-joy binolari va ularning asosiy konstruktiv tuzilishi

Foydalanish maqsadlariga ko'ra binolar va inshootlar klassifikatsiyasi. Binoning konstruktiv elementlari asosida qismlarga ajratish. Binolarning asosiy muhandislik jihozlari. Bino va inshootlardan foydalanish muddatlari va ularning eskirishi.


Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Diskussiya, tezkor so'rov, Insert*

12-modul. Turar-joy va jamoat binolaridan foydalanishni tashkil etish

Binolardan texnik foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. Bino elementlarining fizik va ma'naviy emirilishi. Binoning optimal xizmat qilish muddati. Binolarga texnik xizmat ko'rsatishning umumiy masalalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Diskussiya, tezkor so'rov, Insert*

2.2. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI



“INSERT” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.


Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

1-jadval

“Insert” metodi

Belgilar	Kasb	Kasblar tasnifi	Professiogramma
«V» – tanish ma'lumot.			
«?» – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
«+» bu ma'lumot men uchun yangilik.			
«– « bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			



“SWOT-TAHLIL” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	Кучли томонлари
W – (weakness)	Заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	Имкониятлари
T – (threat)	Тўсиқлар

2-jadval

“SWOT-tahlil” metodi

S	Kuchli tomonlari (shaxs psixologiyasi)	
W	Ojiz tomonlari (kasbiy shakllanishga to‘siq bo‘luvchi ichki omillar)	
O	Imkoniyatlar (kasbiy shakllanishga mavjud imkoniyatlar)	
T	Xavflar (kasbiy shakllanishga to‘siq bo‘luvchi tashqi faktorlar)	



“KEYS-STADI” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining echimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yoʻllarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish



“KONVERT” metodi



Konvert usuli yordamida mavzuga oid savol hamda muammolar keng yoritiladi va tahlil qilinadi.

O‘quv topshiriq: Guruh sardorlari bittadan konvertlardan tanlaysizlar, har bir konvert ichida uchtdan mavzuga oid savollar bo‘lib, barchangizni faol ishtirokingiz yordamida istagan grafik organayzer asosida savollarga javob yozasizlar va izohlaysizlar.

Namuna: (Konvert ichidagi savollar:)

1-Konvert

1. Yo‘nalishga kirishning vujudga kelish tarixiga oid ta’limotini izohlang.
2. Yo‘nalishga kirishning vazifalarini asoslang.

2-Konvert

1. Yo‘nalishga kirish nazariyalarini izohlang.
2. Yo‘nalishga kirishviy siyosatning insoniyat taraqqiyotiga ta’sirini izohlang.

3-Konvert

1. Yo‘nalishga kirishning qonuniyatlarini izohlang.
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida Yo‘nalishga kirish tushunchasini izohlang.

4-Konvert


1. Yo‘nalishga kirishning vazifalarini izohlang.
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida Yo‘nalishga kirish tizimi tushunchasini izohlang.



“KLAster” metodi

“Klaster” (gʻuncha, toʻplam, bogʻlam) grafik organayzeri puxta oʻylangan strategiya boʻlib, uni oʻquvchi (talaba)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashgʻulotlarda qoʻllash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan/oyalarni umumlashtirish, ular oʻrtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Grafik organayzerdan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:



“VENN DIAGRAMMASI” metodi




Grafik organayzer o'quvchi (talaba)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

YOzuv taxtasi o'zaro teng to'rt bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka quyidagi sxema chiziladi:

Grafik organayzer o'quvchi (talaba)lar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:




Grafik organayzerni qo'llash jarayonida har bir guruh muayyan mavzuga oid topshiriqlarni bajaradi. O'quvchi (talaba)larning e'tiborlariga quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:

Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1- guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

Namuna:






«BLITS-SO‘ROV» texnologiyasi.


Ushbu texnologiya biror jarayonning ket-ma-ketligini to‘g‘ri joylashtirishga, bu jarayon haqida guruh a‘zolari va boshqa guruhlarining a‘zolarini fikrlari bilan tanishishga imkon bera-di.

Harakatlar ketma-ketligi aval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so‘ngra o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar fikri bilan tanishiga yordam beradi.

BLITS-SO‘ROV JADVALI					
Guruh bahosi	Gurux hatosi	To‘g‘ri javob	YAkka xato	YAkka baho	Jarayon bosqichlari

«BLITS-SO‘ROV» TEXNOLOGIYASI O‘TKAZISH BOSQICHLARI





“YOZMA ISH” strategiyasi

Strategiya o‘quvchi (talaba)larda mustaqil, ijodiy fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi va har bir o‘quvchini mustaqil ravishda faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Ta’limda strategiyani qo‘llashda o‘quvchi (talaba)larga quyidagi sxema asosida ish ko‘rish taklif qilinadi:

1. Kim yoki nima haqida yozmoqchi ekanligingizni aniq belgilab oling!

2. Insho (hikoya, maqola) uchun mos sarlavha toping!


3. Insho (hikoya, maqola) ning qoralamasi (xomaki nusxasi) ni tayyorlang!

4. Insho (hikoya, maqola)ning xomaki nusxasini qayta

Strategiya asosida ishlash uchun o‘quvchi (talaba)larga 9-10 daqiqa vaqt beriladi.

Uni kichik guruhlarda ham qo‘llash mumkin. Bunda o‘quvchi (talaba)larni guruhlariga biriktirish uchun raqamli kartochkalardan foydalanish qulay. Har bir kichik guruh alohida mavzular asosida hikoya, esse yoki maqolalarni tayyorlashi mumkin. Hikoya, esse yoki maqolalarni tayyorlashda guruh a’zolarining birgalikda, o‘zaro fikr almashib faoliyat yuritishlariga erishish maqsadga muvofiqdir. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, har bir guruhning ishi taqdimot asosida namoyish etiladi. O‘qituvchi hikoyaning mazmuni, saviyasi va orfografik xatolariga e’tibor bergan holda guruh ishini baholaydi.

Strategiyani qo‘llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:



III. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

3.1. MUSTAQIL ISH MAVZULARINI TAYYORLASH TARTIBLARI

Har o'quv yilida talabalar tasdiqlangan o'quv rejasiga asosan turli fanlardan, shu jumladan «Yo'nalishga kirish» fanidan mustaqil ta'lim bo'yicha topshiriqlarni bajaradilar. Uning qay darajada muvaffaqiyatli tayyorlanishida talaba tomonidan fanning mohiyatini aniq bilishi hamda ushbu ishlarni bajarishga qo'yilgan talablarni bilishligi bilan bevosita bog'liqdir.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish jarayonida talaba tanlangan mavzu bo'yicha ish rejasini tuzishi, mavzuga tegishli adabiyotlarni chuqur o'rganishi, amaliy ma'lumotlardan keng foydalanishi va hamda ulardan turli jadvallar va chizmalar tuzishi lozim.

Mustaqil ta'lim bo'yicha mavzular kafedraning fan (mutaxassis) o'qituvchilari tomonidan talabalar o'qiyotgan fanning shakli va uning mohiyatiga asosan aniqlanib chiqiladi. Bu bo'yicha ilmiy rahbar zimmasiga talabaga mavzuni tanlash, mavzu bo'yicha ish rejasini tuzish, kerakli adabiyotlarni tanlash, ajratilgan muddat davomida ishning hajmi bo'yicha maslahat berish va metodik tomondan yordam ko'rsatish kiradi.

Mustaqil ta'lim tayyorlayotgan talabalar o'zlarining ilmiy dunyoqarashlarini chuqurlashtirishlari, o'quv-tadqiqot ishlari amaliyotining ko'nikmasini o'rganishlari, zarur kitoblardan foydalana olishlari, amaliy va statistik ma'lumotlarni tahlil eta bilishlari lozim bo'ladi.

Mustaqil ta'lim tayyorlashda talaba mavzu bo'yicha turli grafiklarni, chizmalarni, jadvallarni ilova qilishi lozim. Talaba tomonidan tayyorlanadigan referatlarida foydalanilgan adabiyotlardan to'liq ko'chirib olish ta'qiqlanadi. To'liq ommaviy axborot vositalardan olingan sitatalar haddan tashqari ko'p foydalanishlik ham tavsiya etilmaydi. Keltirilgan barcha sitatalar, statistik ma'lumotlar albatta olingan ma'lumot manbalarga izoh tarzida ko'rsatilishi shart.

SHunday qilib, talabalar mustaqil ta'limni tayyorlash jarayonida, amaliy ma'lumotlarda ishlash bo'yicha ko'nikma va tajribaga ega bo'ladi, o'z ilmiy qarashlarini mantiqan fikrlash hamda mavzu bo'yicha eng zarur holatlarni aniqlay olish qobiliyatini kuchaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari mustaqil ta'limni tayyorlash jarayonida talaba nazariy va metodologik ma'lumotlarni chuqur tahlil etish asosida masalalarni hal etish bo'yicha aniq amaliy takliflarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Fan bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari

1. Uy-joy kommunal xo'jaligi va uning aholi turmush darajasini yaxshilashdagi roli.
2. O'zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilish.
3. Uy-joy kommunal xo'jaligi uchun foydalaniladigan 1m² maydonga qilinadigan foydalanish xarajatlari mulkdorlarini aniqlash.
4. Uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish uchun boshqaruvchi kompaniyalarni konkurs asosida tanlab olish tarkibini aniqlash.

5. Aholini kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlarini aniqlash.
6. Suv bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan xizmatlar ko'rsatishdagi texnologik sarflar va yo'qotishlarni hisoblash.
7. Issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan xizmatlar ko'rsatishdagi texnologik sarflar va yo'qotishlar.
8. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi va uning aholi turmush darajasini yaxshilashdagi roli.
9. O'zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilish.
10. Turar-joy binolari va ularning asosiy konstruktiv tuzilishi.
11. Uy-joy fondi va uning klassifikatsiyasi.
12. Qurilish-ta'mirlash ishlarining asosiy turlari.
13. Kommunal xo'jaligi tarkibi va kommunal xizmatlarni tashkil etish.
14. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimida bahoni shakllantirish va kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlari.
15. Kommunal xo'jaligi tizimida elektr energiyasi ta'minoti va foydalanilgan elektr energiyasi uchun to'lovlarni tashkil etish.
16. Kommunal xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlari.
17. Kommunal xo'jaligi korxonalarining aylanma mablag'lari va xo'jalik faoliyatini baholashning sifat ko'rsatkichlari.
18. Kommunal xo'jaligi korxonalarini hududda joylashtirish va ular faoliyatini tashkil etish.
19. Xizmat ko'rsatish korxonalarida resurslarning texnologik sarfi va yo'qotishlarni hisoblash.
20. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati uy-joy fondiga xizmat ko'rsatishning mukammal shakli.
21. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati.
22. Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatishda "Yagona buyurtmachi xizmati" va professional boshqaruv kompaniyasi.
23. Boshqaruvning tashkiliy strukturasi (tuzilishi) va uning mazmuni.
24. Boshqaruvda tashkiliy struktura (tuzilishi)ning ko'rinishlari.
25. Korxonani boshqarishda tashkiliy strukturadan foydalanish.

4. GLOSSARIY

Aksiyadorlik jamiyati - aksiyadorlar va muassislar mablag'i evaziga shakllangan kapitalga ega bo'lgan huquqiy shaxs maqomiga ega kompaniya. Ishlab chiqarishni tashkil qilishning mablag'larni aksiya sotish yo'li bilan jalb etishga asoslangan shakli.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari – ishlab chiqarishda foydalaniluvchi mehnat predmetlari (xom ashyo, materiallar, o'rov materiallari, ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar va hokazo). Har bir ishlab chiqarish siklida to'liq sarflanadi hamda korxonaning aylanma mablag'lari hisobiga sotib olinadi.

Aylanma mablag'lar – ishlab chiqarish zahiralar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, yangi mahsulotni o'zlashtirish xarajatlari, kelgusi davr xarajatlariga sarflanuvchi korxona mablag'larining pul shaklida ifodalanishi.

Aksiya – aksiyadorlik jamiyati tomonidan chiqariluvchi hamda uning egasi, aksiyadorlik jamiyatining a'zosiga jamiyatni boshqarish va foydadan dividend olish huquqini beruvchi qimmatbaho qog'oz.

Aksiyadorlik kapitali – aksiyadorlik jamiyatining asosiy kapitali, uning hajmi Nizomda belgilab beriladi. Qarzga olingan mablag'lar va aksiya chiqarish hisobiga shakllantiriladi.

Amortizatsiya - asosiy fondlar qiymatini asta-sekinlik bilan ular yordamida ishlab chiqariluvchi mahsulot yoki xizmatlarga o'tkazilishi; mablag'larning maqsadli ravishda jamg'arilishi va keyinchalik eskirgan asosiy fondlarning o'rni qoplashga ishlatilishi.

Amortizatsiya vositalari - korxona asosiy fondlarini saqlash va yangilash uchun maxsus ajratiluvchi moliyaviy vositalar.

Amortizatsiya fondi - asosiy fondlarni oddiy va kengaytirilgan tarzda takror ishlab chiqarishga mo'ljallangan pul mablag'lari.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari – mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniluvchi mehnat vositalari (binolar, inshootlar, qurilma va asbob-uskunalar, transport vositalari va hokazo). Ular uzoq muddat xizmat ko'rsatib, ishlab chiqarish jarayonida o'zining natural shaklini saqlab qoladi hamda o'z qiymatini eskirish mobaynida asta-sekinlik bilan tayyor mahsulotga o'tkazadi. Kapital qo'yilmalar hisobiga to'ldiriladi.

Asosiy fondlarning eskirishi – asosiy fondlarning (binolar, qurilmalar va boshqa mehnat vositalarining) asta-sekinlik bilan foydali xususiyatlarini yo'qotishi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari eskirishining jismoniy va ma'naviy turlari mavjud.

Balans - biron-bir holatning alohida tomonlarini taqqoslash va solishtirish yo'li bilan tavsiflanuvchi ko'rsatkichlar tizimi.

Balans foydasi - korxonaning balansida aks ettiriluvchi faoliyatning barcha turlaridan olinuvchi umumiy foyda miqdori.

Bankrotlik - kasodga uchrash, korxonaning (tashkilot, bank) o'z majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni mablag'lar yo'qligi tufayli amalga oshirmasligini anglatuvchi tushuncha. Qoidaga ko'ra, korxonani yopish yoki majburan tugatish hamda mol-mulkini qarzlarini to'lash uchun sotib yuborishga

olib keladi.

Bashorat qilish - kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan turli hodisa va jarayonlarni statistik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa turdagi tadqiqotlar yordamida ilmiy asoslangan holda avvaldan aytib berish.

Biznes - bozor iqtisodiyoti sharoitlarida sub'ektning ma'lum bir mahsulot yoki xizmat turini yaratish va sotish yo'li bilan foyda olishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyati.

Biznes-reja - korxona faoliyati dasturi, kutilayotgan xarajat va daromadlar hisobini o'z ichiga oluvchi kompaniya faoliyatining muayyan maqsadlariga erishish uchun muayyan chora-tadbirlar rejasi. Marketing tadqiqotlari asosida ishlab chiqiladi.

Veksel - qimmatbaho qog'oz turi, belgilangan tartibda yozma shakldagi qarz majburiyati, o'z egasiga (veksel oluvchiga) veksel beruvchidan ko'rsatilgan pul miqdorini belgilangan muddatda gap-so'zsiz to'lanishini talab qilish huquqini beradi.

Venchur firma – tijorat bilan shug'ullanuvchi ilmiy-texnik firma, yangi texnologiyalar va mahsulotlarni daromadlarni avvaldan belgilamagan holda ishlab chiqish va qo'llash bilan shug'ullanadi (tavakkalchilikka asoslangan kapital qo'yilmasi).

Dividend - aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismi, har yili soliqlarni to'lash, ishlab chiqarishni kengaytirish, zahiralarini to'ldirish, obligatsiyalar bo'yicha foizlar to'lash va direktorlarni mukofotlashdan so'ng aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi.

Jismoniy eskirish – mehnat vositalarining foydalanish va tabiat kuchlari ta'siri ostida moddiy jihatdan emirilishi. Mehnat vositalarining ma'naviy eskirishi ularning to'liq jismoniy eskirishdan oldindanroq, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yuqoriroq va tejamkor bo'lgan mashina va qurilmalar paydo bo'lishi tufayli yuz berishi mumkin.

Ijara - mulkni ma'lum bir haq to'lash evaziga, vaqtinchalik foydalanishga berish to'g'risidagi shartnomaga asoslangan holda yollash.

Ilmiy-texnik salohiyat– mamlakatdagi fan, texnika va muhandislik ishlarining rivojlanish darajasi, jamiyatning fan-texnika muammolarini hal qilish uchun mavjud resurs va imkoniyatlarining umumiy tavsifnomasi.

Investitsion siyosat – kapital qo'yilmalarning eng ustivor yo'nalishlarini tanlash, iqtisodiyot samaradorligini oshirish, sarflangan har bir so'mga mahsulot o'sishi va milliy daromadning eng yuqori ko'rsatkichlariga erishish.

Investitsiyalar - mamlakat ichkarisi va tashqarisida yangi korxona yaratish va mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, eng yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, ishlab chiqarish darajasini oshirish va foyda olish maqsadida uzoq muddatli mablag'lar kiritilishi.

Investor - biron-bir faoliyatga, korxonaga foyda olish maqsadida uzoq muddatli kapital kiritishni amalga oshiruvchi xususiy tadbirkor, tashkilot yoki davlat.

Injiniring - tijorat asosida (shartnoma shaklida) turli xil muhandislik-maslahat xizmatlari ko'rsatilishi.

Innovatsiya - jamiyat rivojlanishi bilan o'zgarib boruvchi inson ehtiyojlarini qondirishga oid yangiliklar, ularni yaratish, tarqatish va foydalanish jarayonini majmuasi.

Infratuzilma - sanoat (yoki biron-bir boshqa) ishlab chiqarishi hamda aholiga xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik tarmoqlari majmuasi. Transport, aloqa, savdo, moddiy-texnik ta'minot, fan, ta'lim, sog'liqni saqlashni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish quvvati – asosiy ishlab chiqarish va aylanma fondlar, shuningdek, moliyaviy resurslardan iloji boricha to'liq va oqilona foydalangan holda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotning maksimal hajmi.

Ishlab chiqarish rentabelligi – umumiy (balans) foydaning asosiy ishlab chiqarish fondlari va normalashtiriluvchi aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida aniqlanuvchi ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi.

Ishlab chiqarish tuzilmasi– korxonaning mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadigan ishlab chiqarish bo'linmalari - sexlar, uchastkalar, xizmat ko'rsatish xo'jaligi aloqalarining yig'indisi.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish – yirik korxonalarda texnologiya va tuzilmasi bir xil bo'lgan mahsulotlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish.

Ishlab chiqarishni yiriklashtirish – mahsulotni yirik korxonalarda chiqarishni tashkil qilish.

Ishlab chiqarishni kimyolashtirish – mahsulot ishlab chiqarishda kimyoviy mahsulot va sun'iy materiallar, shuningdek, kimyoviy usullardan keng foydalanish.

Ishlab chiqarishning diversifikatsiyasi – bir tomonlama, ko'pincha bitta mahsulotga asoslanuvchi ishlab chiqarishni keng nomenklaturada tayyorlanuvchi mahsulotlarga asoslangan ishlab chiqarishga o'tkazish.

Kapital qurilish - asosiy fondlarni yangi korxona qurish, mavjud korxonalarni qayta tiklash, kengaytirish, texnik jihatdan qayta qurollantirish va zamonaviylashtirish yo'li bilan yaratish va mukammallashtirish jarayoni.

Kapital qo'yilmalar - asosiy fondlarni qayta tiklash va o'stirishga sarflanuvchi moddiy, mehnat va pul resurslari xarajatlari.

Kapital sig'imi - asosiy kapitalning mos keluvchi davr mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki uning biron-bir qismini - milliy daromad, sof daromad, foydaga nisbatini tavsiflovchi ko'rsatkich.

Kombinatsiyalash – bitta korxona - kombinat doirasida sanoatning bitta yoki bir nechta tarmoqlaridagi turli xil ishlab chiqarishlarni texnologik jihatdan birlashtirishda ifodalanuvchi, ishlab chiqarishni umumlashtirish shakllaridan biri.

Kompaniya - tadbirkorlarning huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan, pay kapitali asosida tashkil qilinuvchi birlashmasi.

Konversiya - korxonaning umuman boshqa turdagi mahsulot ishlab chiqarishga o'tishi.

Konsern - turli tarmoqlardagi mustaqil korxonalarning ishtirok etish tizimi, qo'shma tadqiqotlar, patent-litsenziya kelishuvlari, moliyalashtirish, ishlab chiqarish hamkorligi vositasida birlashuvi.

Kooperatsiya qilish - yakuniy mahsulotni birgalikda tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqalarini o'rnatish.

Korxonaning optimal hajmi – mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko‘rsatish) bo‘yicha imzolangan shartnoma va majburiyatlarni o‘z muddatida, eng kam xarajatlar bilan eng yuqori samaradorlikka erishgan holda bajarish imkonini beruvchi korxona hajmi.

Korxonaning tijorat sirlari– korxonaning ishlab chiqarish, texnologiyalar, boshqaruv va boshqa turdagi faoliyati bilan bog‘liq, oshkor qilinishi korxona manfaatlariga zarar etkazishi mumkin bo‘lgan, davlat sirlariga aloqasi bo‘lmagan ma’lumotlar.

Lizing - mulkka egalik qilish huquqi ijaraga beruvchida saqlangan holda, mulkni uzoq muddatli ijaraga berishga asoslangan holda investitsiyalarni moliyalashtirish shakli; mashina, uskuna va transport vositalarining o‘rta va uzoq muddatli ijarasi.

Litsenziya - qonunda belgilangan muayyan xo‘jalik operatsiyalari, jumladan, tashqi savdo (eksport va import) operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha, vakolatli davlat idoralarining huquqiy shaxslarga beruvchi maxsus ruxsatnomasi.

Marketing - korxonalarning mahsulot ishlab chiqish, ishlab chiqarish va sotish yoki xizmat ko‘rsatishga oid faoliyatini, bozorni va iste’molchilar talabiga faol ta’sir ko‘rsatishni o‘rganish asosida boshqarish tizimi.

Materiallardan foydalanish koeffitsienti – xom ashyo va materiallarning oqilona tarzda sarflanishini tavsiflovchi ko‘rsatkich. Tayyor mahsulot tarkibiga kiruvchi materiallarning ishlov berilgan materiallarning umumiy hajmiga nisbati sifatida hisoblanadi.

Mahsulot attestatsiyasi - mahsulot sifatining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini ob’ektiv baholashni tizimli ravishda amalga oshirishni ko‘zda tutuvchi, tashkiliy-texnik va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari – mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniluvchi tabiiy resurslar, xom ashyo va materiallar, yoqilg‘i va energiya, asosiy fondlar va mehnat resurslari, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish va sotishning boshqa xarajatlarning qiymat baholari.

Mahsulot rentabelligi – mahsulot sotishdan olingan foydaning mahsulot tannarxiga nisbati (foizlarda) sifatida aniqlanuvchi ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichi.

Mahsulot sertifikat - mahsulot sifatini baholash va nazorat qilishning xalqaro normalarini qabul qilish va amalga oshirish jarayoni; mahsulot ishlab chiqaruvchilarga qaram bo‘lmagan, mahsulotning xalqaro standart normalariga mos kelishini nazorat qilish uchun kerakli asbob-uskunalar bilan ta’minlangan maxsus markazlarni yaratish bilan amalga oshiriladi.

Mahsulot sifati – mahsulotning inson va jamiyatning ma’lum bir ehtiyojlarini qondirish qobiliyatlarini belgilovchi foydali xislatlari majmui.

Mahsulot sifatini boshqarish –mahsulotni yaratish va undan foydalanish yoki uni iste’mol qilishda zarur sifat darajasini belgilash, ta’minlash va qo‘llab-quvvatlash maqsadida amalga oshiriluvchi xatti-harakatlar.

Mahsulot sifatini boshqarish tizimi – sifatni boshqarish uchun zarur bo‘lgan resurslar, jarayonlar va javobgarlikni aniq taqsimlovchi tashkiliy tuzilma.

Mahsulotning material sig‘imi – xom ashyo, materiallar va boshqa moddiy

resurslarning mahsulot birligiga sarflanuvchi xarajatlari. Material sig'imini kamaytirish tayyor mahsulot va materiallarni ko'paytirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va xom ashyo tarmoqlarini rivojlantirishga sarflanuvchi xarajatlarni kamaytirishga imkon yaratadi.

Mahsulotning mehnat sig'imi—mehnat unumdorligi ko'rsatkichlariga teskari bo'lgan kattalik. Moddiy ishlab chiqarish sohasida sarflangan mehnatning ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi.

Mahsulotning texnik darajasi – baholanayotgan mahsulotning texnik takomillashganligini belgilovchi, uning bazis ko'rsatkichlariga mos keluvchi ko'rsatkichlarni taqqoslashga asoslangan mahsulot sifatining nisbiy tavsifnomasi.

Mahsulotning yashash davri – mahsulot hayotining beshta bosqichining almashinish davri: ishlab chiqish, ishlab chiqarish, bozorga chiqish, o'sish, bozorning to'yinishi va ma'naviy eskirish.

Mehnat unumdorligi –insonlar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligi; xodim moddiy ishlab chiqarish sohasida ish vaqti birligida ishlab chiqargan mahsulotlar miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt bilan o'lchanadi. Mehnatning ijtimoiy unumdorligi ishlab chiqarilgan milliy daromadning moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan har bir xodimga nisbatan hisoblanadi.

Mehnat shartnomasi – tadbirkor va ishga kiruvchi shaxs o'rtasidagi kelishuv, unda ko'ra xodimning mehnat vazifasi, ish joyi, lavozimi, oylik ish haqi, ish boshlash vaqti va hokazolar belgilab beriladi.

Nizom (ustav) - korxonani tashkil qilishning qonuniyligini tasdiqlovchi, korxona xarakteri va faoliyat turi, qoidalari, a'zolar o'rtasidagi munosabatlar va hokazolarni o'z ichiga oluvchi rasmiy hujjat.

Raqobat – bozor mexanizmining korxona va firmalarning mahsulot va xizmatlarni sotish, kapitalni foydaliroq joylashtirishda raqiblik asosida xo'jalik nisbatlarini shakllantirish bilan bog'liq elementi.

Raqobatbardoshlik – o'z faoliyatini bozor munosabatlari sharoitida amalga oshirish va bunda ishlab chiqarishni ilmiy-texnik jihatdan takomillashtirish, xodimlarni rag'batlantirish va mahsulot sifatining yuqori bo'lishini ta'minlashga etarli bo'lgan foyda olish.

Reklamatsiya - xaridor tomonidan sotuvchiga shartnoma asosida etkazib berilgan tovar sifati va miqdorining shartnomaga to'g'ri kelmasligi tufayli bildiruvchi da'vosi.

Sertifikat - mas'ul idoralar tomonidan mahsulotni ekspertiza qilish asosida beriluvchi, mahsulot sifatini belgilovchi hujjat.

Smenalilik ko'effitsienti – uskunalarining vaqt bo'yicha ish bilan ta'minlash darajasi ko'rsatkichi; sutka davomida ishlab berilgan mashina-smenalarning o'rnatilgan barcha smenalar soniga nisbati orqali aniqlanadi.

Stanadartlashtirish - ishlab chiqarishning ma'lum bir sohasida faoliyatni tartibga solish maqsadida barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida qoidalar belgilash va qo'llash. Normativ hujjatlar, standartlar, yo'riqnomalar, usullar, talablarda aks ettiriladi.

Ta'sis hujjatlari – yangi tashkil qilinuvchi korxona, kompaniya, aksiyadorlik

jamiyatini ta'sis etish va ularni belgilangan tartibda ro'yxatga olish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi hujjatlar.

Texnik qayta qurollantirish – ishlab chiqarish alohida uchastkalarining texnik imkoniyatlarni zamonaviy darajaga chiqarish jarayoni.

Uskunalarni zamonaviylashtirish – harakatdagi uskunalar konstruksiyasiga, uning texnik darajasini oshiruvchi hamda texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilovchi sezilarli o'zgarishlar kiritish. Zamonaviylashtirish ikkinchi shakldagi ma'naviy eskirishning oldini olishga ko'maklashadi.

Ustama xarajatlar – asosiy xarajatlarga qo'shimcha bo'lib, ular bilan birga ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiritiluvchi, ishlab chiqarish va korxona boshqaruviga xo'jalik xizmati ko'rsatish xarajatlari.

Fan-texnika taraqqiyoti - fan, texnika, texnologiyalar rivojlanishi, mehnat predmetlari, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning uzluksiz rivojlanish jarayoni.

Firma - huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lib, tovar ishlab chiqarish va sotishni bir umumiy boshqaruv (va umumiy firma nomi) ostida birlashtiruvchi, korxona yoki turli mulkchilik shaklidagi ixtisoslashtirilgan tashkilotlar majmuasi.

Foyda – korxona faoliyatining yakuniy moliyaiy natijalari; pul tushumi va xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Fond qaytimi – asosiy ishlab chiqarish fondlarining bir so'miga to'g'ri keluvchi mahsulot miqdori.

Fond sig'imi –fond qaytimiga teskari bo'lgan nisbat. Asosiy ishlab chiqarish fondlari o'rtacha qiymatining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati sifatida hisoblanadi.

Fondlar bilan ta'minlanganlik – asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi (asosiy ishlab chiqarish fondlarining korxonaning har bir xodimi yoki ishchisiga to'g'ri keluvchi hajmi).

Franchayzer - franchayzi bilan franchayzing shartnomasi imzolovchi yirik korxona (korporatsiya, firma va hokazo).

Franchayzi (operator) – yirik franchayzer korxona bilan bitim tuzuvchi kichik korxona.

Franchayzing - yirik va kichik tadbirkorlikning aralash shakli; o'zaro foydali hamkorlik munosabatlari.

Xolding kompaniyasi - o'z kapitalidan boshqa kompaniyalarni boshqarish, ularga rahbarlik qilish va dividend olish maqsadida ularning aksiyalarini sotib olishda foydalanuvchi aksiyadorlik kompaniyasi.

Xususiylashtirish – davlat mulkini boshqa mulkchilik shakllariga, jumladan, jamoa, aksiyadorlik va xususiy mulkka o'tkazishda mulkchilik munosabatlarning o'zgarish jarayoni.

YAlpi daromad – korxona faoliyatining yakuniy natijalarini tavsiflaydi hamda yalpi pul tushumi va mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflanuvchi barcha xarajatlar o'rtasidagi farqni ifodalaydi.

YAlpi pul tushumi – tovar mahsuloti, ish, xizmat va moddiy boyliklarni sotishdan tushuvchi pulning umumiy miqdori.

YAlpi foyda – korxona yalpi daromadining barcha majburiy to'lovlarni

chiqarib tashlagandan so'ng korxona ixtiyorida qoluvchi qismi.

Huquqiy shaxs – fuqarolik sub'ekti sifatida faoliyat yurituvchi, mustaqil balans, gerbli muhr va bankda hisob raqamiga ega, Nizom asosida faoliyat yurituvchi hamda baknrotga uchraganda o'z mulki bilan javob beruvchi korxona.

Qayta tiklash – mavjud ishlab chiqarishni texnik va tashkilish takomillashtirish, asosiy fondlarni kompleks ravishda yangilash va zamonaviylashtirish asosida to'liq qayta qurish jarayoni.

V. ILOVALAR

5.1. ISHCHI FAN DASTURI

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

Ro`yxatga olindi:
№ _____
« ____ » _____ 2021 yil

“Tasdiqlayman”
O`quv ishlari bo`yicha prorektor
_____ dots. M.Dadamirzayev
« ____ » _____ 2021 yil

YO`NALISHGA KIRISH

fanining

ISHCHI O`QUV DASTURI

Bilim sohasi:	300000 – Ishlab chiqarish-texnik soha
Ta`lim sohasi:	340000 – Arxitektura va qurilish
Ta`lim yo`nalishi:	5341300 – Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo`jaligini tashkil etish va boshqarish

Namangan - 2021

Fanning ishchi o`quv dasturi o`quv, ishchi o`quv reja va o`quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: O.A.Aripov NamMQI, Iqtisodiyot kafedrası
mudiri, dotsent, DSc.

Taqrizchilar: R.O.Ismatov NamMQI, Menejment kafedrası dotsenti,
i.f.n.
K.I.Sirojiddinov NamDU, "Iqtisodiyot" kafedrası i.f.n.,
dotsent

Fanning ishchi o`quv dasturi Iqtisodiyot kafedrasining 2021 yil "___" _____
dagi ___-son yig`ilishida muhokamadan o`tgan va fakultet kengashida muhokama
qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ O.A.Aripov

Fanning ishchi o`quv dasturi "Muhandislik kommunikatsiyalari" fakultet
kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021 yil "___"
_____ dagi ___-sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi: _____ B.Mullabayev

Kelishildi:
O`quv-uslubiy boshqarma boshlig`i _____ Q.Inoyatov

Kirish

Milliy iqtisodiyotning asosiy sohalaridan biri hisobdangan xizmat ko'rsatish sohasida olib borilayotgan tub islohotlar natijalari tufayli mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatilmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlashda chuqur o'zgarishlarga o'z bilim va tajribalari bilan moslasha oladigan, jahon andozalariga javob bera oladigan zamonaviy kadrlarni yetkazib berish muhim masala hisoblanadi. «Yo'nalishga kirish» fani bo'yicha o'quv dasturi ushbu fanni o'qitish borasida mamlakatimiz va xorijida orttirilgan tajriba asosida yozilgan bo'lib, unda bo'lajak mutaxassislarda ana shunday xususiyatlarni qaror toptirish ko'zda tutiladi.

Fanning maqsad va vazifalari

«Yo'nalishga kirish» fanidan o'quv dasturining maqsadi bo'lib, ushbu ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga o'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha dastlabki va umumiy tushunchalar asosida ularning yetuk va yuqori malakali mutaxassis bo'lishlarini hamda olingan bilimlari asosida o'qish va ilmiy izlanishlarini davom ettirishlarini ta'minlashdir.

Fanning vazifasi – iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida «Yo'nalishga kirish» fanining tutgan o'rnini, ushbu sohaning mamlakatimizda vujudga kelishi va rivojlanishi, milliy iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o'rnini, sohada korxonalar tashkil qilish tamoyillari hamda fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyatini o'rganishdir.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

“Yo'nalishga kirish” fanining o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- kommunal sohaga oid nazariy va amaliy asoslarini; sohaning boshqaruv jarayonlarini olib borish; shartnomalar tuzish asoslarini; kommunal xizmat ko'rsatish sohaiga oid qonun va tamoyillarini **bilishi kerak**;

- olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilish; kommunal xizmat ko'rsatish soha ob'ektlarining vazifalari va funktsiyalarini to'la anglab yetish; turli mulkchilik shaklida korxona va tashkilotlarda faoliyat olib borish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**;

- kommunal sohada boshqaruvning tashkiliy strukturasi; etika va madaniyatiga; sohani tashkil etish va boshqarish **malakalariga ega bo'lishi kerak**.

Fanning o'quv rejasndagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

“Yo'nalishga kirish” fani umumkasbiy fani hisoblanib, tanlov fanlari soati hisobidan 3-semestrda o'qitiladi. “Yo'nalishga kirish” fani ijtimoiy-gumanitar, tabiiy va matematik fanlar bilan uzviy aloqadordir.

Fanning nazariy-uslubiy asosini huquqshunoslik, matematika kabi fanlar belgilaydi. Bundan tashqari bu fan bir qator iqtisodiy fanlar bilan aloqadordir.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rnini

Barcha turdagi o'quv mashg'ulotlarini olib borish jarayonida o'quv dasturida keltirilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashqari yangi nashr etilayotgan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, mamlakatimiz Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, turli qoidalar hamda yo'riqnomalardan va o'tiladigan mavzularga tegishli

adabiyotlardan ham foydalanish zarurdir.

Fanni o'rganishda mamlakatimizdagi va jahon mamlakatlaridagi kommunal sohadagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlardan keng foydalanish lozim. Bunda ko'plab xalqaro iqtisodiy va gumanitar tashkilotlarning materiallaridan foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin mulokot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

“Yo'nalishga kirish” fanini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini,

dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

ASOSIY QISM

MA`RUZA MASHG`ULOTI

1-modul. «Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo'jaligini tashkil etish va boshqarish» ta'lim yo'nalishi haqida tushuncha

Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ishlab chiqarish faoliyatining muhim sohasi sifatida. Ta'lim yo'nalishining mazmuni va mohiyati. Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasining jamiyatdagi roli va tarixi.

2-modul. Davlatning uy-joy sohasidagi siyosati va kommunal xo'jaligi sohasidagi islohotlar

O'zbekiston Respublikasida uy-joy sohasiga oid davlat siyosatining mazmun-mohiyati. Mamlakatimizda kommunal sohadagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari. Shahar xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirishda kommunal xo'jaligining o'rni.

3-modul. Uy - joy kommunal xo'jaligining tavsifi va uning O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotidagi o'rni

Uy - joy kommunal xo'jaligining o'rni, roli hamda uning ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyati. Uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarish va sohadagi iqtisodiy islohatlar. Uy-joy kommunal xo'jaligini boshqarishga va rivojlantirishga ta'sir etadigan omillar.

4-modul. O'zbekiston Respublikasi aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish kontseptsiyasining ahamiyati

Aholiga kommunal xizmat ko'rsatishning ahvoli va uni isloh qilish vazifalari. Kommunal xizmat ko'rsatishni boshqarish tizimini takomillashtirish. Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini rivojlantirish. Davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning ta'minlanishi. Uy-joy-kommunal xizmatlarga haq to'lash. Aholining ijtimoiy himoya qilinmagan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning aniqligini oshirish.

5-modul. Kommunal soha va uy-joy kommunal xo'jaligi tizimida boshqaruvni tashkil etilishi

Boshqaruv zamonaviy korxonalar faoliyatida ob'ektiv zaruriyat sifatida. Mamlakatimizda uy-joy xo'jaligini boshqarish masalalari. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining sohani boshqarishdagi ahamiyati. "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Prezident Farmonining mazmuni va ahamiyati.

6-modul. Kommunal xo'jaligi tarkibi va kommunal xizmatlarni tashkil etish

Kommunal xo'jaligi tizimining tashkiliy tuzulishi va tarkibi. Uy-joy kommunal xo'jaligida suv ta'minoti va oqova quvur xizmati. O'zbekiston Respublikasida energetika tizimi va iste'molchilarga elektr energiyasi yetkazib berish. Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish va yetkazib berish. Uy-joy kommunal xo'jaligida tabiiy gazdan foydalanish va gaz ta'minoti tizimi. Kommunal xo'jaligi tizimida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish xizmatlari tarkibi va ularni tashkil etish.

7-modul. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanishi va uni boshqarishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi

O'zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanish imkoniyatlari va tahlil qilish. O'zbekistonda uy-joy kommunal xo'jalik korxonalarini joylashtirish va ularning mintaqaviy xususiyatlari. Respublikada elektr energetika ishlab chiqarish va resurstejamkorligi masalalari.

8-modul. Jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida uy-joy kommunal xo'jaligida resurstejamkorligini oshirish

O'zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xo'jaligini resurslarni boshqarishni takomillashtirish. Uy-joy kommunal xo'jaligida resurstejamkorligini oshirish va korxonalarining ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatini yaxshilash. Uy-joy kommunal xo'jaligini joriy ekspluatatsiya qilishni takomillashtirish va xarajatlarni kamaytirish.

9-modul. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimida bahoni shakllantirish va kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlari

Kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarda uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash xarajatlarining qiymatini shakllantirish. XUJMSHning uy-joy maydoniga qilinadigan foydalanish xarajatlari qiymatini aniqlash tartibi. Aholining kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlari va ularni hisoblash uslubi. Uy-joy xo'jaligida suv iste'moli me'yori va oqovasuvni chetlashtirish. Uy-joy xo'jaligida issiqlik energiyasi iste'moli me'yorini aniqlash uslubi. Uy-joy xo'jaligida tabiiy gaz ta'minoti me'yori.

10-modul. Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatishda «Yagona buyurtmachi xizmati» va professional boshqaruv kompaniyasi

Yagona buyurtmachi xizmati va uning vazifalari. Davlat uy-joy-fondini yagona buyurtmachi xizmatiga berish tartibi. Yagona buyurtmachi xizmatini boshqarish va xo'jalik-moliyaviy faoliyatini tashkil etish. Professional boshqaruv kompaniyasi belgilari, funktsiyalari va vazifalari.

11-modul. Turar-joy binolari va ularning asosiy konstruktiv tuzilishi

Foydalanish maqsadlariga ko'ra binolar va inshootlar klassifikatsiyasi. Binoning konstruktiv elementlari asosida qismlarga ajratish. Binolarning asosiy muhandislik jihozlari. Bino va inshootlardan foydalanish muddatlari va ularning eskirishi.

12-modul. Turar-joy va jamoat binolaridan foydalanishni tashkil etish

Binolardan texnik foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. Bino elementlarining fizik va ma'naviy emirilishi. Binoning optimal xizmat qilish muddati. Binolarga texnik

xizmat ko'rsatishning umumiy masalalari.

«Yo'nalishga kirish» fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi

№	Fan mavzularining nomi	Ajratilgan soat
1.	«Kommunal infratuzilma va uy-joy kommunal xo'jaligini tashkil etish va boshqarish» ta'lim yo'nalishi haqida tushuncha	2
2.	Davlatning uy-joy sohasidagi siyosati va kommunal xo'jaligi sohasidagi islohotlar	
3.	Uy - joy kommunal xo'jaligining tavsifi va uning O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotidagi o'rni	2
4.	O'zbekiston Respublikasi aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish kontseptsiyasining ahamiyati	
5.	Kommunal soha va uy-joy kommunal xo'jaligi tizimida boshqaruvni tashkil etilishi	2
6.	Kommunal xo'jaligi tarkibi va kommunal xizmatlarni tashkil etish	
7.	O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanishi va uni boshqarishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi	2
8.	Jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida uy-joy kommunal xo'jaligida resurstejamkorligini oshirish	2
9.	Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimida bahoni shakllantirish va kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlari	2
10.	Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatishda «Yagona buyurtmachi xizmati» va professional boshqaruv kompaniyasi	2
11.	Turar-joy binolari va ularning asosiy konstruktiv tuzilishi	2
12.	Turar-joy va jamoat binolaridan foydalanishni tashkil etish	2
Jami		18

Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma'ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ta'limning asosiy maqsadi - o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat, taqdimot) tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanning bo'lim yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarning o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanning bo'lim va mavzularini chuqur o'rganish;
- keys-stadilar va o'quv loyihalarini mustaqil bajara olish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish;
- ilmiy maqola, tezislari, turli ilmiy anjumanlarga ma'ruza tayyorlash va h.k.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar
1.	Uy-joy kommunal xo'jaligi va uning aholi turmush darajasini yaxshilashdagi roli.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
2.	O'zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
3.	Uy-joy kommunal xo'jaligi uchun foydalaniladigan 1m ² maydonga qilinadigan foydalanish xarajatlari mulkdorlarini aniqlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
4.	Uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish uchun boshqaruvchi kompaniyalarni konkurs aosisda tanlab olish tarkibini aniqlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
5.	Aholini kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlarini aniqlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
6.	Suv bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan xizmatlar ko'rsatishdagi texnologik sarflar va yo'qotishlarni hisoblash.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
7.	Issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan xizmatlar ko'rstishdagi texnologik sarflar va yo'qotishlar.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash

8.	Uy-joy kommunal xo`jaligi tizimi va uning aholi turmush darajasini yaxshilashdagi roli.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
9.	O`zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal xo`jaligini isloh qilish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
10.	Turar-joy binolari va ularning asosiy konstruktiv tuzilishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
11.	Uy-joy fondi va uning klassifikatsiyasi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
12.	Qurilish-ta`mirlash ishlarining asosiy turlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
13.	Kommunal xo`jaligi tarkibi va kommunal xizmatlarni tashkil etish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
14.	Uy-joy kommunal xo`jaligi tizimida bahoni shakllantirish va kommunal xizmatlardan foydalanish me`yorlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
15.	Kommunal xo`jaligi tizimida elektr energiyasi ta`minoti va foydalanilgan elektr energiyasi uchun to`lovlarni tashkil etish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
16.	Kommunal xo`jaligi korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
17.	Kommunal xo`jaligi korxonalarining aylanma mablag`lari va xo`jalik faoliyatini baholashning sifat ko`rsatkichlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
18.	Kommunal xo`jaligi korxonalarini hududda joylashtirish va ular faoliyatini tashkil etish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
19.	Xizmat ko`rsatish korxonalarida resurslarning texnologik sarfi va yo`qotishlarni hisoblash.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash

20.	Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati uy-joy fondiga xizmat ko`rsatishning mukammal shakli.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
21.	Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
22.	Uy-joy-kommunal xizmat ko`rsatishda “Yagona buyurtmachi xizmati” va professional boshqaruv kompaniyasi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
23.	Boshqaruvning tashkiliy strukturasi (tuzilishi) va uning mazmuni.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
24.	Boshqaruvda tashkiliy struktura (tuzilishi)ning ko`rinishlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash
25.	Korxonani boshqarishda tashkiliy strukturadan foydalanish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Referat, taqdimot yoki tarqatma materiallar tayyorlash

Dasturning axborot-uslubiy ta`minoti

Mazkur fanni o`qitish jarayonida ta`limning zamonaviy ilg`or interfaol usullaridan, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining prezentatsiya (taqdimot), mul timedia va elektro-didaktik texnologiyalardan foydalaniladi. Amaliy mashg`ulotlarda aqliy hujum, klaster, blits-so`rov, guruh bilan ishlash, insert, taqdimot, keys-stadi kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi.

“Yo`nalishga kirish” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezonlari.

“Yo`nalishga kirish” fani bo`yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma`lumotlar fan bo`yicha birinchi mashg`ulotda talabalarga e`lon qilinadi.

Fan bo`yicha talabalarning bilim saviyasi va o`zlashtirish darajasining Davlat ta`lim standartlariga muvofiqligini ta`minlash uchun quyidagi nazorat turlari o`tkaziladi:

- **oraliq baholash (OB)** – semestr davomida o`quv dasturini tegishli bo`limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko`nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Fan bo`yicha oraliq nazorat ikki marta o`tkaziladi va shakli yozma va og`zaki shaklda o`tkaziladi;

- **yakuniy baholash (YaB)** – semestr yakunida ushbu fan bo`yicha nazariy bilim va amaliy ko`nikmalarni talabalar tomonidan o`zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o`tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YaN ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

“Yo'nalishga kirish” fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 5 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 5 ball baholash turlari bo'yicha namunaviy mezonlar quyidagicha:

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
5	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
4	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
3	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
2	Qoniqarsiz	Fanni o'zlashtirmaganlik, fan mohiyatini bilmaslik, aniq tasavvurga ega bo'lmaslik, mustaqil fikrlay olmaslik

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi T: O'zbekiston 1998 yil.
2. O'zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal islohotlarga oid me'yoriy hujjatlarning 11-to'plami. RUMNITS «O'zkommuno'quvtashkilotchi» 2015.
3. Yodgorov V.U. “Kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti” 1-qism. O'quv qo'llanma. –T.: TAQI, 2007 y.
4. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya. “Kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti” 2-qism. O'quv qo'llanma. –T.: TAQI, 2007 y.
5. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya. Uy-joy kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi. Darslik- Toshkent: Noshir, 2012. 400 b.
6. Симионов Ю.Ф., Дрозд Н.И. Жилищно-коммунальное хозяйство. Справочник. ИКЦ «Март»; Ростов-на-Дону. 2004. -272с.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi “Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni
 2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” ги ПҚ-2900-сонли қарори.
- Статистический сборник. Жилищное хозяйство в Республике Узбекистан. Т.: Госкомстат Узбекистана. 2012-2016 гг.

3. Yodgorov V.U., Shabutaev B.A., Butunov D.Ya.. Sovremenno'e problemo' gorodskogo xozyaystva. Materialo' mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konf. YarGU., Yaroslavl . 2006.

Internet saytlari

1. www.gov.uz. (O'zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy sayti)
2. www.gkas.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi)
3. www.soliq.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi)
4. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)
5. <https://regulation.gov.uz/uz/document/13745>

5.2. TARQATMA MATERIALLAR (KEYSLAR BANKI)

1-VAZIYAT. Zamonaviy iqtisod fani korxonalarini quyidagi belgilari bo'yicha turlarga bo'ladi:

1. Ishlatiladigan xom ashyoning xarakteri bo'yicha.
2. Tayyor mahsulotning nima uchun mo'ljallanganligi bo'yicha.
3. Texnik va texnologik umumiylik belgisiga ko'ra.
4. Yil davomidagi ishlash davriga ko'ra.
5. O'rtacha ishlovchilar soniga ko'ra.
6. Bir turdagi mahsulot bo'yicha ixtisoslashuvi va ishlab chiqarish ko'lamlariga ko'ra.
7. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish uslublariga qarab quyida ushbu belgilarning ta'riflari berilgan:
 - Yirik, o'rta va kichik korxonalar;
 - Ishlab chiqarish vositalari va ehtiyoj buyumlari ishlab chiqaruvchi korxonalar;
 - Ixtisoslashgan, diversifikatsion va aralash korxonalar;
 - qazib olish va qayta ishlash sanoati korxonalari;
 - Yil bo'yi yoki mavsumiy tarzda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar;
 - Oqimli uslub, partiyalab ishlab chiqarish uslubi va donalab ishlab chiqarish uslubi ko'proq qo'llaniladigan korxonalar;
 - Uzluksiz ishlab chiqarish jarayoni, diskret ishlab chiqarish jarayoni, mexanik, kimyoviy ishlab chiqarish jarayoni qo'llaniladigan korxonalar.

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. Keltirilgan ta'riflarni korxonaning tegishli belgilariga mos tarzda ajratib oling;
2. qabul qilingan qarorlar asosida yuqorida keltirilgan belgilar bo'yicha korxonalarni turlicha ajratish (klassifikatsiya qilish) sxemasini tuzing.

2-VAZIYAT. Mashinasozlik zavodining tashkiliy tuzilishi quyidagi sexlardan iborat: quyish sexi, temirchi-presslash, model sexi, zagotovka tayyorlash, tajriba, mexanik yig'uv, asbobsozlik sexi, ta'mirlash-mexanik va transport sexlari.

Quyidagilarni aniqlash talab etiladi:

Sanab o'tilgan sexlarni asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi bo'limlarga bo'ling.

3-VAZIYAT. Mashinasozlik korxonasida quyidagi ishlab chiqarish bo'limlari va ularda band bo'lgan xodimlar bor:

- quyish sexi – 400 kishi;
- temirchi-presslash sexi – 500 kishi;
- mexanik – 700 kishi;
- yig'uv sexi – 400 kishi;
- ta'mirlash-mexanik – 150 kishi;
- energotsex – 50 kishi;
- ta'mirlash sexi – 100 kishi;
- transport sexi – 70 kishi;
- tipografiya – 30 kishi.

Quyidagilarni aniqlash talab etiladi:

1. Asosiy va yordamchi ishlab-chiqarishda band bo'lgan ishchi-xodimlar sonini aniqlang.
2. Asosiy va yordamchi sexlarda ishlovchilarining umumiy xajmdagi ulushini (foizlarda) toping.
3. Ortiqcha bo'limlarni yo'q qilish uchun qanday chora-tadbirlar talab qilinadi va ular korxona iqtisodiyotiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi.

4-VAZIYAT. Tog'-metallurgiya kombinatining ta'mirlash korxonasida quyidagi sexlar va ishchilar mavjud: po'lat quyish sexi – 72 kishi, rangli metall quyish sexi – 48 kishi, №1-ta'mirlash-mexanik sexi – 106 kishi, №2-tamirlash-mexanik sexi – 34 kishi, №3-tamirlash-mexanik sexi – 52 kishi, asbobsozlik – 85 kishi, elektrkuchlanish sexi - 72 kishi, elektr ta'mirlash – 72 kishi, transport – 180 kishi, lavozimlar uchun maoshlar quyidagicha belgilangan: sex boshliqlari 72,0 ming so'm, iqtisodchilar – 48,0 ming, me'yorlovchilar – 30,5 ming so'm.

Sexlardagi boshqaruv xodimlarning soni quyidagicha: po'lat quyish sexida – 5 kishi, rangli metall quyish – 3 kishi, №1-ta'mirlash-mexanik sexi – 9 kishi, №2-tamirlash-mexanik sexi – 3 kishi, №3-tamirlash-mexanik sexi – 4 kishi, asbobsozlik – 6 kishi, elektrkuch sexi – 2 kishi, elektr ta'mmirlash – 5 kishi, taransport – 9 kishi.

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. Tog'-metallurgiya kombinatining ta'mirlash korxonasining ishlab chiqarish tizimini soddalashtiring;

2. Har bir sexda bir boshqaruv xodimiga to'g'ri keluvchi ishchilar sonini aniqlang;
3. Korxonaning tashkiliy tizimini yaxshilash hisobiga oylik maosh jamg'armasini tejash imkoniyatlarini aniqlang.
4. Korxonaning tashkiliy tizimi takomillashgandan so'ng va bundan avvalgi ahvol bo'yicha qiyosiy sxemalar tuzishga urinib ko'ring.

5-VAZIYAT. Tadbirkor g'oyasiga muvofiq, non mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha kichik korxona tuzish ko'zda tutilgan. Ushbu loyihada quyidagi ko'rsatkichlar hisobga olinadi:

1. Investitsion loyihani amalga oshirishdan olinadigan tushum - 116 mln so'm.
2. To'liq xarajatlar-25 mln so'm.

shu jumladan:

o'zgaruvchan xarajatlar – 14 mln so'm,

doimiy xarajatlar – 11 mln so'm.

Quyidagilarni aniqlash talab etiladi:

Ushbu loyihani zarasizligini hisoblab chiqing.

6-VAZIYAT. Avtomashinalarni ta'mirlash bo'yicha xususiy korxona tashkil etish rejalashtirilgan. Loyiha integral effekti (NPV_K) oldindan hisoblab chiqilgan 5 ta ssenariyni o'z ichiga oladi, ularni amalga oshirishning ehtimolligi koeffitsenti (P_K) keltirilgan.

	NPV_K (mln. so'm)	P_K
№1 ssenariy	8,5	0,2
№2 ssenariy	3,24	0,3
№3 ssenariy	-0,5	0,2
№4 ssenariy	2,5	0,2
№5 ssenariy	-1	0,1

Quyidagilarni hisoblab chiqarish talab etiladi:

1. Loyiha bo'yicha kutilayotgan umumiy integral effekt.
2. Loyihaning samara bermaslik tavakkalchiligi.
3. Loyihani amalga oshirishdan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararining o'rtacha miqdori.
4. Barcha hisob-kitoblarni bir jadvalga umumlashtiring.

1-test VAZIYAT. V. ismli fuqaro, oylik maoshi 50 ming so'm bo'lgan muxandis lavozimidan voz kechib, kichik korxona tashkil etdi va buning uchun 150 ming so'm miqdoridagi shaxsiy jamg'armasini sarfladi. Bundan tashqari u 500 ming so'm miqdorida kredit olib, uning 300 ming so'mini asbob uskunalar sotib olishga sarfladi. Agar olingan kredit bo'yicha yillik foiz 200 % ni, fuqarolar jamg'armalari bo'yicha esa 120% ni tashkil esa, **iqtisodiy** va **buxgalteriya xarajatlari** miqdori qanchani tashkil etadi? quyidagi keltirilgan javoblardan to'g'ri variantni tanlang.

- A) 1,7 mln va 1,65 mln.
- B) 0,650 mln va 1,5 mln.
- V) 1,5 mln va 0,5 mln.
- G) 2,43 mln va 1,65 mln.

7-VAZIYAT. Davlat mashinasozlik zavodida ishchilarning umumiy soni 4000 kishini tashkil qiladi. Ularning 50% yig'uv sexida, mexanika sexida 35%, qolgan qismi boshqa sexlarda ishlaydi. Korxonaning shtat ro'yxatiga ko'ra, yig'ish sexida har 250 kishiga bir me'yorlovchi, mexanika sexida 100 kishiga bir, ta'mirlash, tayyorlash va boshqa sexlar har 130 kishiga bir me'yorlovchi ishlash kerak. Respublika miqyosida amalga oshirilayotgan ma'muriy islohatlarda boshqaruv xodimlarining 22 %ga qisqartirish ko'zda tutilgan.

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. Zavodda kerak bo'lgan me'yorlovchilar sonini aniqlang.
2. Xodimlarining 22 %ga qisqartirilgandan so'ng me'yorlovchilarning zavod bo'yicha sonini aniqlang.

8-VAZIYAT. Neftni qayta ishlash zavodida 22 ta sex faoliyat ko'rsatadi, ulardan 4 tasi – asosiy. Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining ro'yhat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi – 5802 kishini tashkil esa, ulardan 5007 kishi ishchilardir. Korxonaning butun mehnat jamoasi yillik maosh jamg'armasi – 6,1 mlrd. so'm. Zavodning ma'muriy harajatlari bir yilda 3,5 mln. so'mni tashkil etdi.

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. Zavodning boshqaruv xodimlari soni;
2. 22 foizlik qisqartirishdan so'ng zavodning boshqaruv xodimlari soni qanchani tashkil etadi;
3. Boshqaruv xodimlarini qisqartirish hisobiga mehnatga haq to'lash jamg'armasini taxminan qanchaga tejab qolish mumkin.

9-VAZIYAT. Korxonada muxandis-boqaruv mehnatini mexanizatsiyalash darajasi quyidagi jadvalda keltirilgan jadvaldagi ma'lumotlardan iborat.

Ko'rsatkichlar	Mexanizatsiyalash darajasi, yillar bo'yicha.	
	Hisobot yili	Avvalgi yilda
1. Tayyorlangan texnik hujjatlar soni, ming dona, shu jumladan mexanizatsiyalashgan usul bilan bajarilgan	197 50,2	180 -
2. Hisob-kitob ishlari, operatsiyalar soni, mln. shulardan mexanizatsiyalashgan usul bilan	300 142	270 70
3. Alohida risolalarda to'plangan hujjatlar soni, ming dona, shu jumladan mexanizatsiyalashgan usul bilan	20 30	28 10
4. Ushbu ishlarni bajarishda band bo'lgan		

ishchi-xodimlarning umumiy soni, kishi.	300	340
SHu jumladan:		
Texnik hujjatlar tayyorlashda	80	90
Hisob-kitob ishlarida	200	220
Hujjatlarni alohida risolalarga ajratish	20	30

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. Hisobot va undan avvalgi yillarda boshqaruv ishlarining mexanizatsiyalash darajasini aniqlang.
2. Ko‘rib chiqilayotgan davrlarda boshqaruv ishlarining mexanizatsiyalash darajasi qanday o‘zgarishini aniqlang.

10-VAZIYAT. Er osti usuli bilan konlarni qazishga ixtisoslashgan tog‘ korxonasida 2004 yil ishlab chiqarish unumdorligi umumiy hisobda yiliga 352 ming m³ qum bo‘lgan 6 ta shaxta ishlardi. 2005 yil oxirida zahiralari ishlanib bo‘lingan munosabati bilan 2 ta shaxta yo‘q qilinadi; ularning o‘rniga zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan va ish samaradorligi eski shaxtalardan o‘rtacha uch barobar ortiq bo‘lgan bitta yangi shaxta ochiladi.

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. Korxonaning 2004-2005 yillarda qazib olish hajmi.
2. 2 ta shaxta yo‘q qilingandan so‘ng, uch yil davomida qazib olish hajmi qanday bo‘ladi?
3. YAngi shaxtaning ishga tushirilishidan boshlab keyingi 3 yil davomida qazib olish hajmi qanday?
4. Korxonaning 2006-2010 yillarda umumiy qazib olish hajmi, shu jumladan har yilga alohida.

11-VAZIYAT. Zavod bo‘yicha joriy aprel oyiga quyidagi ma’lumotlar mavjud (mln.so‘m).

1. YAlpi mahsulot465
2. Ishlab chiqarilgan yarim fabrikatlar124
bundan chetga sotilgani32
3. Korxonaning chetga ko‘rsatgan xizmatlari24
4. YAkunlanmagan ishlab chiqarish qoldig‘i:
oy boshiga 186
oy oxiriga157

quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. Tovar mahsulot hajmi.
2. Tayyor mahsulot hajmi.

12-VAZIYAT. Mashinasozlik korxonasi faoliyatini quyidagi jadvalda keltirilgan ma’lumotlar tavsiflaydi (mln.so‘m):

Sexlar	Mahsulot ishlab chiqarish-	Mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmidan	Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig‘i
--------	----------------------------	---	---

	ning umumiy hajmi	Boshqa sexlarga berilgan	Kapital qurilishga yo'naltirilgan	CHetga sotishga ajratilgan	Yil boshiga	Yil oxiriga
Yig'ish sexi	400	-	-	400	60	50
Mexanik sex	900	200	-	100	30	25
quyish sexi	120	100	-	20	8	5
Temirchi presslash sexi	150	100	-	50	4	5
Asbobsozlik sexi	60	15	10	35	5	8
Jami	1630	415	10	605	107	93

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. YAlpi mahsulot hajmi.
2. Tovar mahsulot hajmi.

13-VAZIYAT. Hisobot yilida korxona 400 mln. so'mlik mahsulot tayyorlab sotdi, 20 mln. so'mlik asbob-uskunalar tamirlash ishlarini bajardi, buyurtmachi xom ashyosidan 45 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqardi (shu jumladan buyurtmachi xom ashyosi bahosi 28 mln. so'm), kerakli asboblarni tayyorlab, ularni asosiy vositalar hisobiga 12 mln. so'm deb kiritib qo'ydi. Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i yil boshiga 30 mln. so'm, yil oxiriga 15 mln. so'm. Hisobot yili boshida ombordagi tayyor mahsulot qoldig'i va haridorga etkazilgan, biroq haqi to'lanmagan tovarlar 25 mln. so'mlik, hisobot yili oxirida 17 mln. so'm.

quyidagilarni aniqlash talab qilinadi: tovar, yalpi va sotilgan mahsulot hajmi qancha?

14-VAZIYAT. Neftni qayta ishlash zavodi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar mavjud.

Ko'rsatkichlar	Ulgurji narx so'm/t	Ishlab chiqarilgan mahsulot, ming tonna		
		Avvalgi yil	Hisobot yili	
			Topshiriqda	Amalda
1. qayta ishlangan xom-ashyo - Jami		8700	9100	9500
SHu jumladan:				
Neft	120	8300	8550	8900
YArimfabrikatlar (chetdan keltirilgan)	150	400	550	600

2. Ishlab chiqarilgan mahsulot jami	-	7830	8235	8615
shu jumladan:				
AI-93 benzini	360	200	250	270
AI-76 benzini	320	800	900	985
AI-72 benzini	300	1570	1630	1565
Kerosin	180	105	180	160
Dizel yoqilg'isi	200	195	205	200
O'z ehtiyojlari uchun ishlatiladigan yoqilg'i		670	665	685
Talofatlar (yo'qotishlar)		200	200	200

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

quyidagi omillarning mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha olingan majburiyatni bajarishga ta'siri qanday?

1. Neftni qayta ishlash hajmining o'zgarishi;
2. Sotib olinadigan yarimfabrikatlar hajmining o'zgarishi;
3. Xom ashyodan neft mahsulotlari chiqishining o'zgarishi;
4. Ishlab chiqarilayotgan neft mahsulotlari turlarining o'zgarishi.

15-VAZIYAT. Korxona ishlab chiqarishni avtomatik tarzda boshqarish (ASUP) tizimini joriy qildi. Korxonaning ushbu tizimni joriy qilishdan avvalgi va keyingi ko'rsatgichlari quyida keltirilgan.

	Joriy qilinguncha	Undan so'ng
Sotilgan mahsulotning yillik hajmi, ming so'mda	80000	81500
1 so'mlik sotilgan mahsulotga ketgan xarajatlar, so'm.	0,90	0,89
Mahsulotni sotishdan olingan foyda, ming so'm	1100	-
Kapital xarajatlar, ming so'm	-	260

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

ASUP joriy qilinishining iqtisodiy samaradorligi qanday?

16-VAZIYAT. Korxonada ishlab-chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning 3- varianti yaratildi. Bunda kapital xarajatlar bo'yicha ko'rsatgichlar (K) va mahsulot ishlab chiqarishning yillik hajmi tannarxi (S) quyidagicha (ming so'm)

1- variant – $K_1=1250$; $S_1=7550$

2- variant - $K_2=1850$; $S_2=6950$

3- variant - $K_3=2050$; $S_3=6550$

quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

$E_{nq0,15}$ bo'lganda eng samarali (maqsadga muvofiq) variant qaysi biri bo'ladi?

17-VAZIYAT. Oqimli (potokli) ishlab chiqarishga o'tish natijasida mashinasozlik zavodining sexida mehnat unumdorligi 2004 yilda 2003 yilga nisbatan 14%ga, ishchilarning o'rtacha oylik maoshi – 6,7%ga oshdi. Sexning tovar mahsuloti tannarxi hisobot bo'yicha 708,6 ming so'm, ish haqi fondi– 284,7 ming so'mni tashkil etdi.

quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

Mehnat unumdorligining o'sishi sex mahsuloti tannarxining darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

18-VAZIYAT. Neftni qayta ishlash zavodi oltingugurtli dizel yoqilg'isi o'rniga oltingugurti kam bo'lgan yoqilg'i ishlab chiqarishga o'tadi. Ishlab chiqarishning yillik hajmi ko'rsatgichlari va boshqa ko'rsatgichlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ko'rsatkichlar	Dizel yoqilg'isi	
	Oltingu- gurtli	Kam oltingu- gurtli
Yillik i/ch hajmi, ming so'm	-	1250
1 tonna mahsulot tannarxi, ming so'm	75,0	-
1 tonna mahsulot tannarxining ortishi, %	-	5,4
Mahsulot ishlab chiqarishga solishtirma kapital quyilmalari, ming so'm	18,4	34,7
Iste'molchining ish birligiga yoqilg'i sarflanishining solishtirma ko'rsatkichi, tonna (100 t. km)	9	7,6
Neft mahsuloti sarfi birligiga ketgan istemolchining xarajati, ming so'mg'tonna	13,2	11,4
Neft mahsulotlarini sarfi birligiga iste'molchining sarflagan qo'shimcha xarajatlarning solishtirma ko'rsatkichi, ming so'mg't	21,6	20,4

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi: Kam oltingugurtli dizel yoqilg'isini yaratish va ishlab chiqarishdan olinadigan yillik iqtisodiy samara qanday bo'ladi?

19-VAZIYAT. Korxona 1995 yilda ulgurji narxda 360 ming so'mga asbob-uskunalar sotib oldi, transport va montajga harajatlar 14 ming so'mni tashkil etdi. 2004 yilda o'tkazilgan inventarizatsiya chog'ida asosiy fondlarni qayta baholash o'tkazildi va asbob uskunalarining narxi 325 ming so'm miqdorida belgilandi. Asbob uskunalaridan foydalanish davrida 500 ming so'm miqdorida amortizatsion to'lovlar yig'ildi, kapital ta'mirlashga harajatlar esa 220 ming so'mni tashkil etdi.

quyidagilarni aniqlash talab qilinadi: asbob-uskunalarining tiklash va qoldiq qiymatini toping.

20-VAZIYAT. Yil boshiga kichik korxnaning asosiy fondlari boshlang'ich qiymati 200 mln. so'mni tashkil etdi. Aprel oyida 1,9 mln. so'mlik, iyunda esa 1,5 mln. so'mlik, noyabrda 4,4 mln. so'mlik asosiy vositalarni ishga tushirish rejalashtirilgan. Mart va aprel oyida 1,1 va 1,7 mln. so'mlik asosiy vositalar ishdan chiqish ko'zda tutilgan.

quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati.
2. Asosiy vositalar yil oxiriga qiymati.
3. Asosiy vositalarning ishdan chiqish koeffitsienti.
4. Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsienti.

21-VAZIYAT. Tog'-kon korxonasi uzlukli yillik rejimda, haftasiga bir kun dam olib ishlaydi. Tozalash konlari bir kecha-kunduzda uch smenada ishlaydi, bir smena 6 soat davom etadi. Kombayn (asosiy tog' uskunasi) amaldagi o'rtacha ish vaqti hisobot yilida 4150 soatni tashkil etdi. Yil davomida kombaynning kapital ta'mirlashning me'yoriy davomiyligi 22 kundan iborat.

quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. Kombayn taqvimiy (kalendarli), rejimli va rejali ish vaqti fondini.
2. Taqvimiy, rejimli va rejali ishlash vaqti fondiga nisbatan kombaynning ekstensiv yuklanish koeffitsienti.

22-VAZIYAT. Korxona uch smenada ish yuritadi. May oyida birinchi smenada 5800 odam-kun, ikkinchi smenada 400 odam-kun, uchinchi smenada 3200 odam-kun ishlangan korxonadagi ish joylari soni 250 ta.

quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. Smenalik koeffitsienti.
2. Uzluksizlik koeffitsienti.
3. Ish joylaridan foydalanish koeffitsienti.

23-VAZIYAT. 1-mashinasozlik zavodida asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati 100 mln. so'mga teng; yillik yalpi mahsulot ishlab chiqarish 220 mln. so'mni, yillik foyda esa 6 mln. so'mni tashkil etadi.

2-mashinasozlik zavodida esa sanab o'tilgan ko'rsatkichlar 80, 168 va 4 mln. so'mni tashkil etadi.

quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. Fond sig'imi va fondga qaytish hamda asosiy fondlarning har 1 so'miga to'g'ri keladigan daromadni aniqlang.
2. qaysi zavodda asosiy ishlab chiqarish fondlardan yaxshiroq foydalaniganligini aniqlang.

24-VAZIYAT. Sexning ish maroma yiliga 256 kun, kuniga ikki smenada, bir smenaning o'rtacha davomiyligi – 8 soat. Stanoklarni rejali ta'mirlashga sarflangan

vaqt – 2%. Sexda 40 ta stanok oʻrnatilgan va ishlaydi. Mahsulot birligini tayyorlash uchun 30 daqiqa kerak. Yillik mahsulot tayyorlash dasturi 80 ming donadan iborat.

quyidagilarni aniqlash talab qilinadi: sex quvvati va asbob-uskunlarning bandlik koeffitsienti qancha?

25-VAZIYAT. Toʻqimachilik sexida yil boshida 400 ta stanok oʻrnatilgan. Aprel oyida yana 6 ta yangi stanok oʻrnatilishi, 1-avgustda esa 10 tasi ishdan chiqishi koʻzda tutilgan. Har bir stanok 1 soatda 4 m gazlama ishlab chiqarish quvvatiga ega. Sexning ish maromi: yilda 250 kun, kuniga 2 smena, har smenaning oʻrtacha davomiyligi – 8 soat. Ishchilar tomonidan belgilangan meʼyor (norma)larni bajarishning rejali foizi – 107. Yiliga gazlamalar ishlab chiqarish dasturi 7000 m.

quyidagilarni aniqlash talab qilinadi: toʻqimachilik sexining ishlab chiqarish quvvati va undan foydalanish foizi qanday?

26-VAZIYAT. Sexning umumiy maydoni 832 m². Bir dona mahsulotni yigʻish uchun kerak boʻlgan maydon – 104 m². Bir dona mahsulot yigʻish vaqti – 48 soat. Sexning ish maromi – yilda 248 kun, har biri 8 soatlik 2 smenada ishlaydi. Ishlab chiqarish dasturi yiliga – 640 dona mahsulot.

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi: sex quvvati va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti.

27-VAZIYAT. Hisobot yilida korxonaning aylanma mablagʻlari 1282,9 mln, soʻmni tashkil etdi.

SHu jumladan (mln. soʻm):

- xom ashyo, materiallar va sotib olinadigan yarimfabrikatlar – 33,1;
- yordamchi materiallar – 205,3;
- yoqilgʻi – 3,7;
- ehtiyot qismlar – 45,9;
- qimmatli past va tez eskiradigan buyumlar – 177,1;
- idishlar – 2,6;
- tugallanmagan ishlab chiqarish – 24,1;
- kelgusi davr harajatlari – 270,2;
- tayyor mahsulot – 181,5;
- haridorga joʻnatilgan tovarlar – 167,2;
- hisob-kitoblardagi mablagʻlar – 31,4;
- pul mablagʻlari – 21,0;
- qolganlari – 121,8.

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. Korxona aylanma mablagʻlarining strukturasi.
2. Normalashtiriladigan va normalashtirilmaydigan aylanma mablagʻlarning hajmi va solishtirma ogʻirligi qancha?
3. Ishlab chiqarish va muomalada boʻlgan aylanma mablagʻlarning kattaligini aniqlang.

4. Bajarilgan hisob-kitoblar jadvalini tuzing.

28-VAZIYAT. Tog‘ korxonasining qazib olish ishlari dasturida yil davomida 14,5 mln. tonna tog‘ massasini qazib olish ko‘zda tutilgan. Yil choraklari bo‘yicha u qo‘yidagi ko‘rinishga ega:

- 1-chorak – 3.5 mln. tonna
- 2-chorak – 3.3 mln. tonna
- 3-chorak – 3.8 mln. tonna
- 4-chorak – 3.9 mln. tonna

Portlatuvchi moddalar (PM)ning solishtirma sarfi – 1 kg tog‘ massasiga o‘rtacha 0.25 kg ni tashkil etadi. PM etkazib berishlar o‘rtasidagi vaqt oralig‘i 15 kunga teng. PMni jo‘nab ketish bekatidan belgilangan bekatga etib kelish vaqti – 8 kun. PMlar bo‘yicha hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va to‘lovni amalga oshirishga 3 kun vaqt ketadi. PMning sug‘urta zahirasi korxonaning 3 kecha-kunduzlik ehtiyojiga teng. 1kg PMning narxi 300 so‘m.

Quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. PMning sutkalik sarfi qancha?
2. Aylanma mablag‘larning normativi qanday?

30-VAZIYAT. Korxona bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar mavjud:

- Mahsulot sotishning yillik hajmi – 80 mln. so‘m
- Aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik miqdori – 5.4 mln. so‘m.

Tegishli chora tadbirlar ko‘rilgandan so‘ng aylanma mablag‘larning bir bor aylanish muddati bir necha kunga qisqardi.

quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

1. Aylanma mablag‘larning bir marta aylanish muddati amalda qancha?
2. Agar amalda aylanma mablag‘lar qoldig‘i:
 - 1 aprel holatiga - 280 ming so‘m
 - 1 mayga - 360 ming so‘m
 - 1 iyunga - 330 ming so‘m
 - 1 noyabrga - 380 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldig‘i 2- kvartalda qancha bo‘ladi?

5.3. “Yo’nalishga kirish” fanidan test savollari

Qiyinlik darajasi	Test topshirig'i	To'g'ri javob	Muqobil javob	Muqobil javob	Muqobil javob
2	“O'zbekiston Respublikasi uy-joy fondini sovuq va issiq suv hisoblagich asbob-uskunalar bilan jihozlash, investisiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori kachon va kim tomonidan tomonidan qabul qilingan?	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 3-yanvardagi	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15-yanvardagi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 3-yanvardagi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 15-yanvardagi
2	Turarjoy binolariga quyidagilar kiradi...	doimiy yashash uchun xizmat qiladigan hovli va ko'p xonadonli uylar; ma'lum muddat yashab turish uchun mo'ljallangan yotoqxonalar; qisqa muddatda turishga mo'ljallangan mehmonxonalar; Mehribonlik va qariyalar uylari binolari kiradi	doimiy yashash uchun xizmat qiladigan hovli va ko'p xonadonli uylar	qisqa muddatda turishga mo'ljallangan mehmonxonalar	ma'lum muddat yashab turish uchun mo'ljallangan yotoqxonalar
1	“O'zbekiston Respublikasida davlat uy-joy fondini xususiy lashtirish to'g'risida”gi qonun qachon qabul qilingan	1993 yil 7 mayda	1995 yil 10 mayda	2000 yil 20 mayda	2005 yil 30 mayda
3	Doimiy yashash uchun xizmat qiladigan turarjoy binolarini ixtisoslashuvi bilan bog'liq ko'rsatkichlar o'rganilganda ular asosan ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruxini belgilang	uqarolarning doimiy hayot kechirishlari davomida yuzaga keladigan uy-joy shart-sharoitlari bilan bog'liq ehtiyojlardan tashkil topadi.	y-joy fondidan foydalanishni tashkil etish va kommunal xizmatlar ko'rsatish uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiradi.	y-joyning obodonlashg anlik darajasini belgilovchi (el. energiyasi, gaz ta'minoti, ichimlik suvi, issiq suv va istish tizimi, sanitar uzal, dush-vanna xona mavjudligi va boshqalar)	keng darajadagi ehtiyojlarni qondiruvchi va shinamlikni ko'rsatuvchi (hommom, erto'la, yozgi oshxona, ayvon, avtogaraj va boshqalar) ko'rsatkichlar
2	Binolarni rekonstruktsiya qilish ishlarini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qachon qabul qilingan?	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 avgustdagi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 avgustdagi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 15 avgustdagi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 avgustdagi
2	turarjoy sohasi tarkibiga kiruvchi uy-joylar qanday	turarjoy sohasi tarkibiga kiruvchi	tashki kurinishiga	turarjoy sohasi	turarjoy sohasi

	xususiyatlarga ko'ra guruhlanadi?	uy-joylar ulardan foydalanish xususiyatlariga ko'ra aholini joylashtirish usuliga qarab va binolar qurilishida erdan foydalanish usuliga qarab guruhlanadi	kura va joylashuviga kura	tarkibiga kiruvchi uy-joylar ulardan foydalanish xususiyatlari ga ko'ra aholini joylashtirish usuliga qarab va tabiiy sharoitiga kura guruhlanadi	tarkibiga kiruvchi uy-joylar ulardan foydalanish xususiyatlari ga ko'ra guruhlanadi
3	Binoning ma'lum qismini yoki ma'lum bir turkumdagi muxandislik tizimini ta'mirlash ishlarini qanday tamirlashga kiradi?	qisman karital ta'mirlash	to'liq karital ta'mirlashda	Karital ta'mirlash	joriy ta'mirlash ishlari
3	Shahrisabzda Ulug' bobomiz Amir Temir tomonidan bunyod etilgan Oqsaroy ansambli tomida Nima bunyod etilgan?	Shahrisabzda Ulug' bobomiz Amir Temir tomonidan bunyod etilgan Oqsaroy ansambli tomida ko'rkam bog' bunyod etilgan va bog' o'rtasidagi favora (fontan)dan zilol suv taralib turgan	Shahrisabzda Ulug' bobomiz Amir Temir tomonidan bunyod etilgan Oqsaroy ansambli tomida ko'rkam bog' bunyod etilgan	Shahrisabzda Ulug' bobomiz Amir Temir tomonidan bunyod etilgan Oqsaroy ansambli tomida ko'rkam dam olish maskani bunyod etilgan	Shahrisabzda Ulug' bobomiz Amir Temir tomonidan bunyod etilgan Oqsaroy ansambli tomida ko'rkam xaykal bunyod etilgan
1	Doimiy yashash uchun mo'ljallangan hovli va ko'p xonadonli uylar qaysi toifadagi binolarga kiradi?	turarjoy binolariga	noturarjoy binolariga	Inshootlarga	Sport inshootlariga
3	O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi nechta bo'lim va nechta moddadan iborat?	O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 11 ta bo'lim va 141 ta moddadan iborat	O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 12 ta bo'lim va 141 ta moddadan iborat	O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 11 ta bo'lim va 142 ta moddadan iborat	O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 12 ta bo'lim va 142 ta moddadan iborat
2	Ijtimoiy va madaniy-maishiy sohada foydalanilayotgan binolar qurilish texnologiyasiga ko'ra asosan necha guruhga bo'linadi?	asosan uch guruhga bo'linadi: an'anaviy usulublarda qurilgan binolar; yig'ma karkasli binolar; quyma temir-beton (monolit) binolar	asosan ikki guruhga bo'linadi: an'anaviy usulublarda qurilgan binolar; yig'ma karkasli binolar	asosan bir guruhga bo'linadi: an'anaviy usulublarda qurilgan binolar	asosan to'rt guruhga bo'linadi: paxsa uylar; an'anaviy usulublarda qurilgan binolar; yig'ma karkasli binolar; quyma temir-beton (monolit) binolar

2	Yagona buyurtmachi xizmati faoliyatini mablag' bilan ta'minlash mahalliy budjet mablag'lari, aholi va korxonalarning uy-joy-kommunal xizmatlar uchun to'lovlari kaysi mablag'lar xisobiga amalga oshiriladi?	Yagona buyurtmachi xizmati faoliyatini mablag' bilan ta'minlash mahalliy budjet mablag'lari, aholi va korxonalarning uy-joy-kommunal xizmatlar uchun to'lovlari, shuningdek, markazlashtirilgan davlat subsidiyalari hisobiga amalga oshiriladi	Yagona buyurtmachi xizmati faoliyatini mablag' bilan ta'minlash mahalliy budjet mablag'lari, aholi va korxonalarning uy-joy-kommunal xizmatlar uchun to'lovlari, shuningdek, markazlashtirilgan davlat kreditlari hisobiga amalga oshiriladi	Yagona buyurtmachi xizmati faoliyatini mablag' bilan ta'minlash mahalliy budjet mablag'lari, aholi va korxonalarning uy-joy-kommunal xizmatlar uchun to'lovlari, shuningdek, markazlashtirilgan xomiyalar hisobiga amalga oshiriladi	Yagona buyurtmachi xizmati faoliyatini mablag' bilan ta'minlash mahalliy budjet mablag'lari, aholi va korxonalarning uy-joy-kommunal xizmatlar uchun to'lovlari, shuningdek, markazlashtirilgan uzlarini mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi
1	Ijtimoiy soha va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari qaysi infratuzilma tarkibiga kiradi?	shahar xo'jaligi infratuzilmasi tarkibiga kiradi	Mahalla xo'jaligi infratuzilmasi tarkibiga kiradi.	qishloq xo'jaligi infratuzilmasi tarkibiga kiradi.	korxona xo'jaligi infratuzilmasi tarkibiga kiradi.
2	Shirkatda ishchi-xodimlar mehnatiga haq to'lashni ta'minlash va hisobi nimaga asosan tulanadi?	Shirkatda ishchi-xodimlar mehnatiga haq to'lashni ta'minlash va hisobi tasdiqlangan Shtatlar jadvaliga muvofiq belgilangan maoshlar miqdoriga asosanib olib boriladi	Shirkatda ishchi-xodimlar mehnatiga haq to'lashni ta'minlash bajargan ishiga karab tulanadi.	Shirkatda ishchi-xodimlar mehnatiga haq to'lashni ta'minlash vaktbay asosida tulanadi.	Shirkatda ishchi-xodimlar mehnatiga haq to'lashni ta'minlash bajargan ish xajmiga karab tulanadi.
2	Ijtimoiy sohada foydalanilayotgan binolarda sanitar-gigiyenik holatni ta'minlash, suv iste'moliga bo'lgan ehtiyojni qondirish, yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun xizmat qiladigan tizim qanday nomlanadi?	suv ta'minoti tizimi	issiqlik ta'minoti tizimi	elektr ta'minoti tizimi	oqava ta'minot tizimi
1	Moliyaviy xo'jalik jarayonlarini hujjatlashtirish – bu ...	Moliyaviy xo'jalik jarayonlarini hujjatlashtirish – bu amalga oshiriladigan xo'jalik operatsiyasi to'g'risida yozma guvohlik beruvchi hujjat tuzish bo'lib, u buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga yuridik kuch "bag'ishlaydi"	Moliyaviy xo'jalik jarayonlarini hujjatlashtirish – bu amalga oshiriladigan xo'jalik operatsiya	Moliyaviy xo'jalik jarayonlarini hujjatlashtirish – bu amalga oshiriladigan xo'jalik operatsiya va buxgalteriya xujjati	Moliyaviy xo'jalik jarayonlarini hujjatlashtirish – bu yozma guvohlik beruvchi hujjat

2	Ilmiy izlanish va ilmiy xizmatlar ko'rsatish maqsadlarida foydalanilayotgan binolar;	jamoatchilik-fuqarolik bino va inshootlariga	turarjoy binolariga	noturarjoy binolariga	Inshootlarga
2	O'zbekiston Respublikasining O'RQ-581-sonli «Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan.	2019 yil 7 noyabrda qabul qilingan va 2020 yil 1 avgustdan kuchga kirgan	2019 yil 1 dekabrda qabul qilingan va 2020 yil 1 maydan kuchga kirgan	2020 yil 10 yanvarda qabul qilingan va 2020 yil 1 sentyabrda kuchga kirgan	2020 yil 20 noyabrda qabul qilingan va 2020 yil 1 oktyabrda kuchga kirgan
3	Issiq suv ta'minotini etkazib berish manbasiga ko'ra necha guruxga ta'minot tarmog'iga bo'linadi?	ikki guruxga, Markaziy yoki alohida (lokal)	bir guruxga, Markaziy	uch guruxga, Markaziy, alohida va yig'ma	turt guruxga, Markaziy, alohida, yig'ma va obekt bo'yicha
3	Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar?	Ma'muriy xarajatlar	Umumiy mulk va er uchastkasiga texnik xizmat ko'rsatish va sanitariya holatini saqlash	Chetdan yollanuvchi tashkilotlarning xizmatlari	Shirkat a'zolarining majburiy badallari
2	Yo'l xo'jaligi va shahar aholi tashish transporti qaysi infratuzilma tarkibiga kiradi?	shahar xo'jaligi infratuzilmasi tarkibiga kiradi	Mahalla xo'jaligi infratuzilmasi tarkibiga kiradi	qishloq xo'jaligi infratuzilmasi tarkibiga kiradi	korxona xo'jaligi infratuzilmasi tarkibiga kiradi
2	Shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi yiliga necha marta chaqiriladi?	Shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi yiliga kamida bir marta shirkat ustavida belgilangan tartibda chaqiriladi	Shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi yiliga kamida ikki marta shirkat ustavida belgilangan tartibda chaqiriladi	Shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi chaqirilmadi	Shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi yiliga kamida uch marta shirkat ustavida belgilangan tartibda chaqiriladi
2	Qavatlar miqdoriga ko'ra turar joy binolar necha turga bo'linadi?	to'rt turga. Kam qavatli uylar, O'rta qavatli uylar, ko'p qavatli uylar, baland qavatli uylar	bir turga. O'rta qavatli uylar	ikki turga. Kam qavatli uylar, ko'p qavatli uylar	uch turga. Kam qavatli uylar, O'rta qavatli uylar, ko'p qavatli uylar
2	Loyixalashga topshiriq kim tomonidan tuziladi?	buyurtmachi tomonidan	loyixachi tomonidan	bosh pudratchi tomonidan	yordamchi pudratchi tomonidan
2	Qisqa muddatda turish uchun mo'ljallangan mehmonxonalar qaysi toifadagi binolarga kiradi?	turarjoy binolariga	noturarjoy binolariga	Inshootlarga	Sport inshootlariga

2	Loyihalash uchun topshiriq nimalardan iborat?	qurilish joyi, homashyo va energiya bilan ta'minlash manbalari, qurilish quvvati va mahsuloti, loyihalash bosqichi, qurilish muddati va qurilish navbati	arxitekturaviy-tarx qarorlar, loyihalanadigan shaxba (ob'ekt) tasnifi ishchilar soni mashina va mexanizmlar quvvati, qurilishni suv bilan ta'minlash, qurilish tashkilotlari, qurilishni tannarhi	bosh pudratga tashkilotlar, yordamchi qurilish tashkilotlari, xom ashyolar zaxirasi, tayyor mahsulotni iste'mol qiluvchilar, qurilish muddati	bosh pudratga tashkilotlar
2	Mehribonlik uylari va qariyalar uylari binolari qaysi toifadagi binolarga kiradi?	turarjoy binolariga	noturarjoy binolariga	Inshootlarga	Sport inshootlariga
1	Oqova suvlar hosil bo'lish manbalaridan kelib chiqib qanday guruhlariga bo'linadi?	barcha javoblar to'g'ri	maishiy oqova suvlari	ishlab chiqarish jarayoni oqova suvlari	atmosfera orqali keluvchi oqova suvlar
3	Qurilishni tashkil qilish loyihasi kimlar uchun majburiy xujjat bo'lib hisoblanadi?	buyurtmachi, pudratchi, qurilishni moddiy texnik ta'minoti bilan shug'ullanuvchi va moliyaviy ishlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar uchun	qurilish mahsulotlari ni iste'mol qiluvchi, qurilishni naqliyot (transport) bilan ta'minlovchi, yordamchi tashkilotlar uchun	buyurtmachi tashkilotlari, texnologik xaritalarni ishlab chiquvchi, qurilishni moddiy-texnik ta'minoti bilan shug'ullanuvchi, uysozlik kombinati va temir-beton zavodi tashkilotlari uchun	buyurtmachi tashkilotlari
3	Respublikada 2003 yil 1-noyabrdan boshlab, aholidan tashqari, iste'molchilarning barcha toifalari uchun hududiy gaz ta'minoti korxonalari tomonidan etkazib beriladigan tabiiy gaz uchun bir oylik iste'mol hajmining necha foizi haqini majburiy ravishda to'lash joriy etildi?	15% oldindan	30% oldindan	50% oldindan	25% oldindan
2	Qurilishni tashkil qilish loyihasi nima uchun asos bo'ladi?	kapital jamg'armani rejalashtirish (resurs) va xodimlar bilan ta'minlash hamda tayyorgarlik ishlarini boshlash uchun	qurilishni xodimlar bilan ta'minlash, naqliyot (transport) bilan ta'minlash uchun	qurilish tashkilotlarida biznes reja tuzish uchun	qurilish tashkilotlarida biznes reja tuzish uchun

1	San'at muassasalari binolari qaysi toifadagi binolarga kiradi?	jamoatchilik-fuqarolik bino va inshootlariga	turarjoy binolariga	noturarjoy binolariga	Inshootlarga
2	Loyihalovchi tashkilotlarning faoliyatini baholashda nimalarga e'tibor berish zarur?	yuqori texnik iqtisodiy darajasi, mehnat unumdorligini oshirish, me'moriy-tarxlash qarorlarini yaxshilash	qurilish yig'ma ishlari hissasini kamaytirish moddiy resurslarni sarflanishini qisqartirish, qurilish muddatini qisqartirish, bosh pudratga ishini nazorat qilish	mehnat unumdorligini oshirish, moddiy manba (resurs)lar sarfini kamaytirish, yordamchi tashkilotlari ishini yo'lga qo'yish	qurilish muddatini qisqartirish, bosh pudratga ishini nazorat qilish
2	Sovuq suv ta'minoti tizimi necha xil sxemada montaj qilinishi mumkin?	uch xil sxemada: rastdan tarqatiluvchi ananaviy sxema; yuqoridan tarqatiluvchi sxema; nasosli markazlashgan ta'minot sxemasi	ikki xil sxemada: rastdan tarqatiluvchi ananaviy sxema; yuqoridan tarqatiluvchi sxema	bir xil sxemada: rastdan tarqatiluvchi ananaviy sxema	) to'rt xil sxemada: rastdan tarqatiluvchi ananaviy sxema; yuqoridan tarqatiluvchi sxema; nasosli markazlashgan ta'minot sxemasi; pastdan tarqatiluvchi sxema
3	Qurilishni tashkil qilish loyihasini ishlab chiqishda qanday dastlabki xujjatlar kerak?	loyihalar, qidiruv ashyolari, yig'ma hisob (smeta), yo'riqnoma – me'yoriy xujjatlar, yiriklashtirilgan hisobnomali me'yorlar, SNiP 3.01.01-96, SNiP 1.02.01-96, SNiP 1.04.03-96	ishga tushuvchi majmua, shaxbalar uchun ishchi chizma, manba (resurs)larni keltirish haqidagi ma'lumotlar, me'yoriy xujjatlar (SNiP 3.01.01.-96, SNiP III-1-96, YeNiR)	muhandislik qidiruv ishlari ma'lumoti, loyihalash uchun vazifa, ishchi chizma, xodim (kadr)lar haqida ma'lumot. SNiP 3.01.01-96, YeNiR	SNiP 3.01.01-96, YeNiR
2	Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot tashkilotlari bino va inshootlari qaysi toifadagi binolarga kiradi?	ijtimoiy va madaniy-maishiy bino va inshootlarga	noturarjoy binolariga	jamoatchilik-fuqarolik bino va inshootlariga	turarjoy binolariga

2	Yalpi foyda –.	korxona yalpi daromadining barcha majburiy to'lovlarni chiqarib tashlagandan so'ng korxona ixtiyorida qoluvchi qismi	korxona faoliyatining yakuniy natijalarini tavsiflaydi hamda yalpi pul tushumi va mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflanuvchi barcha xarajatlar o'rtasidagi farqni ifodalaydi	tovar mahsuloti, ish, xizmat va moddiy boyliklarni sotishdan tushuvchi pulning umumiy miqdori	jami daromad - xarajatlar
2	Ta'lim muassasalari bino va inshootlari qaysi toifadagi binolarga kiradi?	ijtimoiy va madaniy-maishiy bino va inshootlarga	noturarjoy binolariga	jamoatchilik-fuqarolik bino va inshootlariga	turarjoy binolariga
2	Yalpi daromad –	korxona faoliyatining yakuniy natijalarini tavsiflaydi hamda yalpi pul tushumi va mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflanuvchi barcha xarajatlar o'rtasidagi farqni ifodalaydi	tovar mahsuloti, ish, xizmat va moddiy boyliklarni sotishdan tushuvchi pulning umumiy miqdori	korxona yalpi daromadining barcha majburiy to'lovlarni chiqarib tashlagandan so'ng korxona ixtiyorida qoluvchi qismi	jami daromad - xarajatlar
3	Ta'mirlash ishlari qanday guruhlarga bo'linadi?	besh gurux: joriy ta'mirlash; Karital ta'mirlash; rekonstruksiya qilish; qayta uskunalash va fondlarni yangilash; yangidan jihozlash	turt gurux: joriy ta'mirlash; Karital ta'mirlash; rekonstruksiya qilish; yangidan jihozlash	uch gurux: joriy ta'mirlash; Karital ta'mirlash; rekonstruksiya qilish	ikki gurux: ta'mirlash; Karital ta'mirlash
2	Loyihalovchi tashkilotlar nimaga asosan loyihalash ishlarini bajaradi?	buyurmachi buyurtmasi va shartnomaga asosan	xokimiyat qaroriga asosan	vazirlar mahkamasi qaroriga asosan	temir-beton maxsulotlari ishlab chiqaruvchi korxona
2	Turarjoy-fuqarolik maqsadlarida foydalanilayotgan binolar o'z nechta guruhga bo'linadi.	uch guruhga bo'linadi: turarjoy binolari; jamoatchilik-fuqarolik bino va inshootlari; ijtimoiy va madaniy - maishiy maqsadlarda foydalanilayotgan bino va inshootlar	ikki guruhga bo'linadi: turarjoy binolari; jamoatchilik-fuqarolik bino va inshootlari	to'rt guruhga bo'linadi: korxonalar; turarjoy binolari; jamoatchilik-fuqarolik bino va inshootlari; ijtimoiy va madaniy - maishiy maqsadlarda foydalanilayotgan bino va inshootlar	bir guruhga bo'linadi: turarjoy binolari

1	Qurilish ishlab chiqarishni muhim vazifasi bo'lib nimalar hisoblanadi?	moliya mablag'lari, moddiy resurslarni minimal sarflab, yuqori sifatda optimal muddatda shaxbalarni ishga tushirishdir	qurilishni sifatli bajarib o'z vaqtida ishga tushirishdir	qurilishni qisqa muddatda bajarib buyurtmachi ga topshirishdir	yuqori sifatda optimal muddatda shaxbalarni ishga tushirishdir
1	Uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash qaysi idora vazifasiga kiradi?	mahalliy davlat hokimiyati organlarining	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini ng	fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining	fuqarolar va yuridik shaxslarning
1	Mehnat vositalariga nimalar kiradi?	asbob-uskuna, texnologik uskunalar, ishlab chiqarish maydoni energiya kiradi	xom ashyo, yarim tayyor maxsulotlar	kichik xizmat qiluvchi xodimlar, yordamchi ishchilar	)ishlab chiqarish maydoni energiya kiradi
2	Uy-joy fondidan foydalanish va uning asralishini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini yuritish qaysi idora vazifasiga kiradi?	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining	fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining	mahalliy davlat hokimiyati organlarining	fuqarolar va yuridik shaxslarning
1	Mehnat predmetlariga nimalar kiradi?	xom ashyo, beton, qismlar	asosiy ishchilar, kichik xizmat qiluvchilar	transport, asbob uskuna, energiya	kichik xizmat qiluvchilar
1	O'zbekiston Respublikasida uy-joy siyosati qanday asosida tartibga solinadi	uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi	mahala fuqarolar yig'ini qaroriga ko'ra tartibga solinadi	tuman va shaxar xokimligi qaroriga ko'ra tartibga solinadi	Vazirlar Mahkamasini ng qarorlariga ko'ra tartibga solinadi
1	Ishlab chiqarishning diversifikatsiyasi –	bir tomonlama, ko'pincha bitta mahsulotga asoslanuvchi ishlab chiqarishni keng nomenklaturada tayyorlanuvchi mahsulotlarga asoslangan ishlab chiqarishga o'tkazish	mahsulot ishlab chiqarishda kimyoviy mahsulot va sun'iy materiallar, shuningdek, kimyoviy usullardan keng foydalanish	mahsulotni yirik korxonalarda chiqarishni tashkil qilish	asosiy ishlab chiqarish va aylanma fondlar, shuningdek, moliyaviy resurslardan iloji boricha to'liq va oqilona foydalangan holda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotning maksimal hajmi
2	O'zbekiston Respublikasining uy-joy kodeksi qachon qabul qilingan?	1998 yil 24 dekabrda	2000 yil 10 aprelda	2010 yil 30 yanvarda	2015 yil 5 yanvarda
2	Ishlab chiqarishni yiriklashtirish	mahsulotni yirik korxonalarda chiqarishni tashkil qilish.	)mahsulot ishlab chiqarishda kimyoviy mahsulot va sun'iy	yirik korxonalarda texnologiya va tuzilmasi bir xil bo'lgan	bir tomonlama, ko'pincha bitta mahsulotga asoslanuvchi

			materiallar, shuningdek, kimyoviy usullardan keng foydalanish.	mahsulotlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish	ishlab chiqarishni keng nomenklatura da tayyorlanuvchi mahsulotlarga asoslangan ishlab chiqarishga o'tkazish
2	O'zbekiston Respublikasining uy-joy kodeksi nechta bo'lim va moddadan iborat?	uy-joy kodeksi 11 ta bo'lim va 141 ta moddadan iborat	uy-joy kodeksi 10 ta bo'lim va 110 ta moddadan iborat	uy-joy kodeksi 20 ta bo'lim va 120 ta moddadan iborat	uy-joy kodeksi 30 ta bo'lim va 130 ta moddadan iborat
2	Ishlab chiqarish rentabelligi	umumiy (balans) foydani asosiy ishlab chiqarish fondlari va normalashtiriluvchi aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida aniqlanuvchi ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi	korxonaning mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadigan ishlab chiqarish bo'linmalari - tsexlar, uchastkalar, xizmat ko'rsatish xo'jaligi aloqalarining yig'indisi	yirik korxonalarda texnologiya va tuzilmasi bir xil bo'lgan mahsulotlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish.	asosiy ishlab chiqarish va aylanma fondlar, shuningdek, moliyaviy resurslardan iloji boricha to'liq va oqilona foydalangan holda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotning maksimal hajmi
1	O'qish va ishlash davrida yashab turish uchun yotoqxonalar qaysi toifadagi binolarga kiradi?	turarjoy binolariga	noturarjoy binolariga	Inshootlarga	Sport inshootlariga
2	Asosiy fondlarni amortizatsiyasi bu - ...	Asosiy fondlarni eskirish	Asosiy fondlarni qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga o'tkazish jarayoni	Ishlab chiqarish fondlarini tiklanuvchanligi (renovatsiyasi)	Asosiy fondlarni saqlash xarajatlari
2	O'rta, ko'p va baland qavatli uylar nechta asosiy tarkibiy tuzilishga ega bo'ladi?	3 ta asosiy. bo'linmali, yo'lakli, galereyali	2 ta asosiy. bo'linmali, yo'lakli	1 ta asosiy. Yo'lakli	4 ta asosiy. bo'linmali, yo'lakli, galereyali, sek siyali
3	Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan ekstensiv foydalanish quyidagilar orqali aniqlanadi	Fond sig'imi va fond qaytimi orqali	Smenalik koeffitsiyenti, uskunalardan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti orqali	Mehnatni fond bilan ta'minlanganligi orqali	Ishlab chiqarish renabelligi orqali

3	Fuqarolarga uy-joy fondidan foydalanishda hamda uning saqlanishini ta'minlashda ko'maklashish qaysi idora vazifasiga kiradi?	fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining	mahalliy davlat hokimiyati organlarining	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining	fuqarolar va yuridik shaxslarning
3	Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlariga quyidagilar kiritiladi...	Bino inshootlar uzatish moslamalari, mashina va uskunalari, transport vositalari asbob va moslamalar, xujalik va ishlab chiqarish inventarlari	Bino, inshootlar, uzatish moslamalari, mashina va uskunalari, tugallanmagan ishlab chiqarish, asboblari va moslamalar, transport vositalari	Bino, inshootlar, uzatish moslamalari, mashina va uskunalari, transport vositalari, xom ashyo materiallari, ishlab chiqarish va xujalik inventari	Bino, inshootlar, uzatish moslamalari, mashina va uskunalari, transport vositalari, asbob uskunalari, ishlab chiqarish va o'jalik inventari, tayyor mahsulot
3	Ko'p kvartirali uyni boshqarish usuli qanday belgilanadi?	ko'p kvartirali uydagi joylar mulkdorlarining umumiy yig'ilishida belgilanadi	Davlat idoralari tomonidan belgilanadi	Mahalla fuqarolar yig'ini tomonidan belgilanadi	Mahalliy xokimiyat qarori asosida belgilanadi
2	«Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida»gi Qonunga ko'ra ko'p kvartirali uyni boshqarishning necha hil usuli belgilangan?	3 hil usuli belgilangan	5 hil usuli belgilangan	1 hil usuli belgilangan	6 hil usuli belgilangan
2	Alohida bo'lgan ob'ektning qurilish bosh rejasini tuzish uchun qanday boshlang'ich ma'lumotlar va hujjatlar zarur?	bosh rejaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, to'rsimon yoki kalen-dar reja, binoning rejasini va qirgimi	joyning bosh rejasini, binoning rejasini, mashinalarga ehtiyojlik jadvali, ishchilarga ehtiyoj qaydnomasi, suv va elektr sarfi hisoblari	umummaydon qurilish bosh rejasini, kalendar reja va texnologik xaritalar, bino yoki inshootning ishchi chizmalar va resurslarga ehtiyoj aniqlash hisobi	joyning bosh rejasini, geologik va gidrogeologik ma'lumotlar, umumiy kalendar reja, smeta, vaqtinchalik binolar hisobi
3	Qurilishning material texnik bazasi deganda nimani tushunasiz?	qurilishga material va tuzilmalar yetkazib beruvchi korxonalar tizimi, qurilish mashinalari va transportni ekspluatatsiya qilish korxonalari, qurilishning energetika va ombor xo'jaligi, qurilishga xizmat qiluvchi loyiha, ilmiy tekshirish va o'quv yurtlari tizimi	qurilishga zarur bo'lgan material, tuzilma va yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi, to'plab-jamlab qurilish tashkilotlarning buyurtmasiga ko'ra ob'ektlarga yetkazib beruvchi baza	c)qurilishga material va tuzilmalar yetkazib beruvchi korxonalar tizimi, qurilish mashinalari va transportni ekspluatatsiya qilish korxonalari, qurilishning energetika va ombor xo'jaligi tizimi	qurilishni materiallar, tuzilmalar va texnika bilan ta'minlash tizimi

2	Qurilish iqtisodiyotda qanday rol o'ynaydi?	qurilish iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan asosiy fonlarni yaratadi	qurilish iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan binolarni qurib beradi	qurilish iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan aylanma fondlarni yaratadi	qurilish iqtisodiyotni qurilish materiallari, bino va inshootlar bilan ta'minlaydi
3	Qurilishda transport vositasini tanlashda asosan qanday omillar e'tiborga olinishi kerak?	yukning turi, miqdori o'lchamlari va tashish masofasi	hech qanday omil hisobga olinmaydi	qurilish tashkilotining moddiy imkoniyati	buyurtmachi ning moddiy imkoniyati
12	Qurilishda bajariladigan ishlarning baxosini belgilash bo'yicha shartnoma (kontrakt)lar necha xil bo'ladi?	uch xil	to'rt xil	ikki xil	bir xil
	Qurilishda «yopiq» shartnomaning o'ziga xos xususiyati nimada?	bunday shartnomalar bo'yicha bajariladigan ishlarning baxosi o'zaro kelishib asosida belgilanadi va ish oxirigacha o'zgartirilmaydi	bunday shartnomalar bo'yicha bajariladigan ishlarning baxosi o'zaro kelishib asosida belgilanadi	bunday shartnomalar bo'yicha bajariladigan ishlarning baxosi mavjud me'yorlar va qoidalariga muvofiq aniqlanadi	bunday shartnomani bajarishda bosh pudratchining yordamchi pudratchilarni ishlatish xuquqi bo'lmaydi
3	Quyidagilarning qaysi biri buyurtmachi vazifasiga kirmaydi?	tugallangan ob'yekt qabul qilish olish	qurilish davrida ish sifatini tekshirish	qurilishni mablag bilan ta'minlash	qurilishni rejalashtirish
2	Qurilish pasportida nimalar bayon qilinadi?	bino nomi, hajmi, uchastka bo'yicha texnik ma'lumotlar, yer ajratish xaqida xokimiyat qarori, loyihalovchi va quruvchi tashkilotlar, nomi va x.k.	ish yurituvchi arxitektor va buyurtmachilar ismi-sharifi, qurilish maydonini o'lchamlari, shahbani quvvati, ishlarni bajarish loyihasi va x.k.	quriladigan bino yoki inshoot nomi va uni mo'ljallanishi, qurilishni kim tomonidan amalga oshirilishi, qurilishni boshlanishi va tugallanishi, qurilishni ashyolar bilan ta'minlovchi tashkilotlar nomi	qurilishni boshlanishi va tugallanishi, qurilishni ashyolar bilan ta'minlovchi tashkilotlar nomi
2	Qurilish ishtirokchilari qaysi javobda to'liq ko'rsatilgan?	buyurtmachi, loyihachi, quruvchi, qurilish materiallari va texnikasi ishlab chiqaruvchi korxonalar, transport korxonalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, qurilish banklari, maxsulot sifatini tekshiruvchi davlat boshqarmasi	buyurtmachi, loyihachi, quruvchi, qurilish materiallari va texnikasi ishlab chiqaruvchi korxonalar, transport korxonalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, qurilish banklari	buyurtmachi, loyihachi, quruvchi, qurilish materiallari va texnika ishlab chiqaruvchi korxonalar, transport korxonalari, ilmiy-tadqiqot institutlari	buyurtmachi, loyihachi, quruvchi korxonalar, transport korxonalari

3	Pudratchi qurilish va montaj tashkilotlari, ularga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar majmuasi deb nimaga aytiladi?	Qurilish kompleksi	Sanoat qurilishi kompleksi	Uy-joy qurilishi kompleksi	Madaniy-maishiy qurilish kompleksi
	Ob'ekt qurilishiga tayyorgarlik davrida qanday ishlar bajariladi?	maydon ichi va maydon tashqarisidagi tayyorgarlik ishlari bajariladi	qurilish uchun shartnoma tuziladi;	qurilish uchun yer maydoni ajratiladi;	loyiha -smeta xujjatlarini tayyorlanadi
2	Aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kim kafolatlaydi?	Mahalliy organlar	Davlat	Aksiyadorlik jamiyatini boshqarish organlari	Davlat mulkini tasarruf qilishga vakolatli bo'lgan davlat organlari
1	Alohida bo'lgan ob'ektning qurilish bosh rejasini tuzish uchun qanday boshlang'ich ma'lumotlar va xujjatlar zarur?	bosh rejaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, to'rsimon yoki kalen-dar reja, binoning rejasini va qirgimi	joyning bosh rejasini, binoning rejasini, mashinalarga ehtiyojlik jadvali, ishchilarga ehtiyoj qaydnomasi, suv va elektr sarfi hisoblari	umummaydon qurilish bosh rejasini, kalendar reja va texnologik xaritalar, bino yoki inshootning ishchi chizmalar va resurslarga ehtiyoj aniqlash hisobi	joyning bosh rejasini, geologik va gidrogeologik ma'lumotlar, umumiy kalendar reja, smeta, vaqtinchalik binolar hisobi
2	Aksiyani nominal qiymati:	Qiymati belgilanmagan	100 sumdan kam emas	100 sum	10 so'mdan ko'p emas
2	Korxonani tashkil etishning ta'sis xujjatlari	Korxona va bank tomonidan tasdiqlangan ta'sis shartnomasi	Nizom, ta'sis shartnomasi	Nizom, ta'sis shartnomasi, emissiya prospekti	Nizom va korxona pasporti
2	Korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazish kim tomonidan amalga oshiriladi?	Soliq va statistika tashkilotlari orqali	Xokimiyat va qonun chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan	Soliq tashkilotlari, xokimiyat va moliyaviy tashkilotlar tomonidan	ta'sir qilmaydi
1	Qurilish kalendar rejasini tuzishda qaysi me'yoriy xujjat (adabiyot)lardan foydalaniladi?	faqat YaMvaN va QMQLardan	faqat (ENiR) YaMvaNlardan	faqat (SNiP) QMQLardan	faqat VNiR va MNiRlardan
2	Korxona faoliyatini qarorga asosan to'xtatish.	Soliq idoralarini qarori bilan	Xo'jalik sudi	Litsenziya beruvchi tashkilot	Prokuratura
2	Alohida bo'lgan ob'ektning qurilish bosh rejasini tuzish uchun qanday boshlang'ich ma'lumotlar va xujjatlar zarur?	bosh rejaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, to'rsimon yoki kalendar reja, binoning rejasini va qirgimi.	joyning bosh rejasini, binoning rejasini, mashinalarga ehtiyojlik jadvali, ishchilarga ehtiyoj qaydnomasi, suv va elektr sarfi hisoblari	umummaydon qurilish bosh rejasini, kalendar reja va texnologik xaritalar, bino yoki inshootning ishchi chizmalar va resurslarga ehtiyoj aniqlash hisobi	joyning bosh rejasini, geologik va gidrogeologik ma'lumotlar, umumiy kalendar reja, smeta, vaqtinchalik binolar hisobi

3	Korxona kapital quyilma (K) va mehnatni (T) shunday bog'liqlikda ish pasaydiki, uning oxirgi mahsuli quyidagicha bo'ladi...	Ko'p mehnat va kam kapitaldan foydalanish	Kam mehnat va ko'p kapitaldan foydalanish	Ko'p kapital va ko'p mehnatdan foydalanish	Xodimlarni ish xaqini oshirish
2	Modernizatsiya nimani anglatadi?	Yangilanish, yangilikni tadbqiq etish	Asbob va jihozlarni tozalikda asrash	Jihozlarni ta'mirdan o'tkazish	Muddati o'tgan jihozlarni hisobdan chiqarish
2	Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar –	hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida kishilar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar	ishlab chiqarish usuli bilan jamiyat ustqurmasi majmui	mavjud iqtisodiy munosabatlar majmuasining iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikdagi tizimi	ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar bilan tabiat o'rtasidagi bog'lanishni amalga oshiruvchi shaxsiy va texnik-buyumlashgan unsurlar tizimi (ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari)
3	Ob'ektlarni qurilishga tayyorlashda qanday tadbirlar amalga oshiriladi?	qurilishni loyiha-hisobnoma (smeta) bilan ta'minlash, qurilish uchun hudud ajratish, muhandislik ishlarini bajarish, alohida shahbalar bo'yicha tadbirlar o'tkazish;	loyihalovchi tashkilotni kerak bo'lgan asosiy xujjatlar bilan ta'minlash, suv tarmoqlari va kanalizatsiya o'tkazish, qurilish maydonini tarx (planirovka)lash, qidiruv ishlarini tugatish;	bosh pudratchini kerak bo'lgan loyiha xujjatlari, asbob-uskunalar bilan ta'minlash, qurilishni ashyo va konstruksiyalar bilan ta'minlovchi tashkilotlar bilan kontrakt tuzish;	qurilishni loyiha-hisobnoma (smeta) bilan ta'minlash,
3	Hozirgi zamon sharoitlarida korxonalar mulk shakliga ko'ra quyidagilarga bo'linadi.	Davlat, qo'shma, jamoa, xususiy	Davlat va jamoa	Jamoa va munitsipial	Oilaviy, davlat, xususiy
2	Ma'suliyati cheklangan jamiyatlar	Paylarga ajratilgan ustav kapitalini miqdori ta'sis xujjatlari bilan belgilanuvchi va o'z mulki chegarasida majburiyatlar bo'yicha ma'suliyatga ega bo'lgan jamiyat	Ta'sis shartnomasi asosida tuzilgan jamiyatni ustav kapitaliga majburiy ravishda pul yoki mulkiy paylar bilan kirgan,	Paylarga ajratilgan mavjud ustav kapitali, ularning miqdori ta'sis xujjatlari bilan belgilanadi, ta'sischi va banklar orqali tan olinadi.	Ta'sischi va banklar orqali tan olinib, ustav kapitali paylarga ajratilib, ularning miqdori ta'sis xujjatlari bilan belgilanadi.

			ularning miqdori orqali har bir ta'sischini ma'suliyati belgilanadi		
2	Ta'minlovchi bo'lib qanday korxona hisoblanadi?	qurilish uchun zarar bo'lgan maxsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar;	g'isht zavodlar;	temir-beton maxsulotlari ishlab chiqaruvchi korxona;	ishlab chiqaruvchi korxonalar;
3	"Ketma-ket" usulning o'ziga xos xususiyati nimada?	bu usulda qurilish muddati maksimal, material va ishchilarga extiyoj minimal bo'ladi	bu usulda qurilish muddati qisqa, material va ishchilarga extiyoj maksimal bo'ladi	bu usulda qurilish muddati, material va ishchilarga extiyoj eng optimal miqdorda bo'ladi	bu usulda qurilish muddati xam, material va ishchilarga bo'lgan talab xam minimal bo'ladi
3	Yagona buyurtmachi xizmati va uning vazifalari?	Yagona buyurtmachi xizmati uy-joy fondini, turar-joy bo'lmagan binolar va imoratlarni, muhandislik asbob- uskunalarini, uylarga yondosh hududlarni zarur darajada saqlash va tuzatishni, barcha to'lovlarni hisobkitob qilish va yig'ishni, Pudrat tashkilotlari va xizmat ko'rsatuvchilar bilan hisob-kitob qilishni hamda fuqarolarning yashashi uchun shart sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan uy-joy fondini boshqarishni amalga oshirishga vakolatli tashkilot hisoblanadi	turar-joy bo'lmagan binolar va imoratlarni, muhandislik asbob- uskunalarini, uylarga yondosh hududlarni zarur darajada saqlash va tuzatishni, barcha to'lovlarni hisobkitob qilish va yig'ishni amalga oshiruvchi tashkilot	tashkilotlar va xizmat ko'rsatuvchila r bilan hisob- kitob qilishni hamda fuqarolarning yashashi uchun shart sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan uy-joy fondini boshqarishni amalga oshirishga vakolatli tashkilot hisoblanadi.	Uy-joy- kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha Yagona buyurtmachi xizmatining asosiy vazifalari hamda funktsiyalari, uning huquqiy maqomini, tashkil etilishini, faoliyat ko'rsatishi va tugatilishini amalga oshiradi.
2	Ishlab chiqarish omillari	ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo'llaniluvchi barcha resurslar	kishilik jamiyatining amal qilishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga	ishlabchiqari shjarayoninin guzluksizyan gilanibturishi	jamiyat miqyosida ishlab chiqarish jarayonlarini ng muntazam ravishda yangilanib va takroran amalga oshirilib turishi

			muvofoq faoliyat		
2	Qurilish ishlab chiqarilishining mobilligi – bu...	mehnat jamoalari va ishlab chiqarish quvvatining qisqa muddatlar ichida ob'ektlar bazasidan uzoq masofada joylashgan qurilishlarni amalga oshirish maqsadida yangi joylarga ko'chirilish imkoniyati bilan belgilab beradi	mehnat jamoalari quvvatining qisqa muddatlar ichida ob'ektlar bazasidan uzoq masofada joylashgan qurilishlarni amalga oshirish maqsadida yangi joylarga ko'chirilish imkoniyati bilan belgilab beradi	mehnat jamoalari va ishlab chiqarish quvvatining ob'ektlar bazasidan uzoq masofada joylashgan qurilishlarni amalga oshirish maqsadida yangi joylarga ko'chirilish imkoniyati bilan belgilab beradi	mehnat jamoalari va ishlab chiqarish quvvatining qisqa muddatlar ichida ob'ektlar bazasidan uzoq masofada joylashgan joylarga ko'chirilish imkoniyati bilan belgilab beradi
2	Menejment — bu:	boshqaruv fani va san'atidir	resurslarni boshqarish bo'yicha alohida mohirlik va ma'muriy ko'nikmadir	o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlovdir	ishlab chiqarishni boshqarish jarayoni
2	Ishlab chiqarishning kengaytirilgan asosda takrorlanishiga asosiy sabab nima?	jamiyat extiyojlarining tobora yuksala borishi	ishlab chiqaruvchilarning foyda ketidan quvish	ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz yangilanib turishi	farovonlikning ortishi
3	Jismoniy eskirish –	asosiy fondlarning ekspluatatsiya jarayonida yoki bekor turish natijasida o'zining dastlabki xarakteristikalarini asta-sekin yo'qotishidir	mashina va asbob-uskunalar qiymatining ularni ishlab chiqarishga sarflanadigan ijtimoiy zaruriy harajatlarning kamayishi ta'sirida kamayib borishi	ishlab chiqarish jarayonida uzoq davr bevosita va bilvosita qatnashadigan, moddiy boyliklar yaratishda ishtirok etadigan hamda tabiiy shaklini saqlagan holda o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga asta-sekin, to'zishdir	bu ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazib, o'z shaklini ham o'zgartiradigan, butunlay yo'qotib yuboradigan mehnat buyumlaridir
3	Ma'naviy eskirish -	mashina va asbob-uskunalar qiymatining ularni ishlab chiqarishga	ishlab chiqarish jarayonida uzoq davr	asosiy fondlarning ekspluatatsiya jarayonida	bu ishlab chiqarish jarayonida bir marta

		sarflanadigan ijtimoiy zaruriy harajatlarning kamayishi ta'sirida kamayib borishi (ma'naviy eskirishning birinchi shakli) yoki ular qiymatining yangi, ilg'or va samarali mashina va asbob-uskunalar yaratilishi natijasida kamayishidir (ma'naviy eskirishning ikkinchi shakli)	bevosita va bilvosita qatnashadigan, moddiy boyliklar yaratishda ishtirok etadigan hamda tabiiy shaklini saqlagan holda o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga asta-sekin, to'zishiga qarab o'tkazib boradigan mehnat vositalari	yoki bekor turish natijasida o'zining dastlabki xarakteristika larini asta-sekin yo'qotishidir. Bu notekis kechuvchi jarayon bo'lganligi tufayli, asosiy fondlar to'liq yoki qisman eskirishga ajratiladi	qatnashib, o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazib, o'z shaklini ham o'zgartiradigan, butunlay yo'qotib yuboradigan mehnat buyumlaridir
2	Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi quyidagilar orqali belgilanadi...	Aylanma mablag'larning qaytimi darajasi bilan	Aylanma koeffitsiyenti, bir aylanish o'rtacha davomiyligi bilan	Material sig'imi, fond sig'imi, fond qaytimi koeffitsiyentlari orqali	Aylanma mablag'larni belgilangan normativlar ramkasiga keltirish bilan
2	Aylanma mablag'larni aylanish koeffitsiyenti xarakterlaydi	1 sumlik ishlab chiqarish fondlariga to'g'ri keladigan realizatsiya qilingan mahsulot miqdori	Ishlab chiqarish fondlari aylanishining o'rtacha davomiyligi	Ma'lum bir davrda aylanma mablag'larni aylanish soni	Mablag'larni aylanishidan olinadigan foyda
2	Korxonaning aylanma mablag'lari tarkibiga quyidagilar kiritiladi...	Aylanma ishlab chiqarish fondi va muomila	Tugallanmagan ishlab chiqarish, ombordagi tayyor mahsulot	Ishlab chiqarish zapaslari, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelajakdagi xarajatlar muomila fondi	Pul mablag'lari
3	Korxonani aylanma fondlari - bu ...	Ishlab chiqarish jarayonida bir yil ishtiroq etadigan mehnat buyumlari	Ishlab chiqarish jarayonida bir necha marta qatnashib, uz qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxiga o'tkazib boradigan mehnat buyumlari	Asosiy va yordamchi materiallar, korxonada ishlab chiqarilgan yarim Fabrikatlar, butlovchi buyumlar	Ishlab chiqarish jarayonida bir marotiba qatnashib, o'zining to'liq qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotni tan narxiga o'tkazib yuboradigan ishlab chiqarish vositalarinin

					g bir qismi
2	Qurilishni boshqarishning qanday usullari bor?	hamma usullar	ijtimoiy-psixologik usul	ma'muriy usul	iqtisodiy usul
3	Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlariga quyidagilar kiritiladi	Bino, inshootlar, uzatish moslamalari, mashina va uskunalar, transport vositalari, asbob uskunalar, ishlab chiqarish va xo'jalik inventari, tayyor mahsulot	Bino inshootlar uzatish moslamalari, mashina va uskunalar, transport vositalari asbob va moslamalar, xujalik va ishlab chiqarish inventarlari	Bino, inshootlar, uzatish moslamalari, mashina va uskunalar, tugallanmagan ishlab chiqarish, asboblari va moslamalar, transport vositalari	Bino, inshootlar, uzatish moslamalari, mashina va uskunalar, transport vositalari, xom ashyo materiallari, ishlab chiqarish va xujalik inventari
3	Mehnat vositalariga nimalar kiradi?	asbob-uskuna, texnologik uskunalar, ishlab chiqarish maydoni energiya kiradi	xom ashyo, yarim tayyor maxsulotlar;	kichik xizmat qiluvchi xodimlar, yordamchi ishchilar;	ishlab chiqarish maydoni energiya kiradi;
2	Mehnat vositalariga nimalar kiradi?	asbob-uskuna, texnologik uskunalar, ishlab chiqarish maydoni energiya kiradi	xom ashyo, yarim tayyor maxsulotlar	kichik xizmat qiluvchi xodimlar, yordamchi ishchilar	ishlab chiqarish maydoni energiya kiradi
3	Ish haqining tashkiliy shakllari qaysinda to'g'ri?	ishbay va vaqtbay	ishbay va vaqtbay	ishbay va real	vaqtbay va nominal
1	Qurilishda qanday mehnat turlari mavjud?	1 va 2 javoblar to'g'ri	3 ogir mehnat	2 jismoniy mehnat	1 aqliy mehnat
3	"O'zbekiston Respublikasining uy-joy kodeksini amalga oshirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori kachon kabul kilingan?	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 24-yanvardagi 22-sonli Qarori	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 25-yanvardagi 22-sonli Qarori	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 26-yanvardagi 23-sonli Qarori	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 26-yanvardagi 24-sonli Qarori
2	Quyidagilardan qaysi biri qurilishda mehnatni tashkil qilish yo'nalishi (qoidasi) xisoblanmaydi?	ishchilarning malakasini oshirish	qurilish brigadasining optimal tarkibini tanlash	kulay mehnat sharoitini yaratish	mexnat unumdorligini oshirish
2	Mexnat resursi deb nimaga aytiladi?	Axolining iqtisodiy faol qismi	Mehnat qurollari	Mehnat predmetlari	Mehnat vositalari
2	Ish haqining asosiy elementi nima?	Stavka	smeta	Setka	Tarif koeffitsienti
	Fond qaytimi ko'rsatkichi xarakterlanadi:	1 sumlik asosiy ishlab chiqarish fondlariga to'g'ri keladigan tovar	Mehnatni texnik jihatdan qurollanganli	1 sumlik realizatsiya qilingan mahsulot	Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsienti

		mahsulotlari ulchamining xajmi orqali	k darajasi bilan	uchun asosiy fondlarni solishtirma xarajatlari	bilan
	Ishlab chiqarish tsiklining davomiyliigi – bu	Mehnat predmeti bevosita tayyorlash jarayonida bo'lishi davri	Bu jarayonda tanaffuslar vaqti	Mahsulotning navbatdagi chiqarilishi orasidagi vaqt oralig'i	Ikki detalga ishlov berish orasidagi vaqt oralig'i
2	O'zbekiston Respublikasida uy- joy siyosati qaysi qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi	O'zbekiston Respublikasida uy- joy siyosati uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi	O'zbekiston Respublikasi da uy-joy siyosati uy- joy to'g'risidagi karor asosida tartibga solinadi	O'zbekiston Respublikasid a uy-joy siyosati uy- joy to'g'risidagi farmoish asosida tartibga solinadi	O'zbekiston Respublikasid a uy-joy siyosati uy- joy to'g'risidagi maxsus qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi
2	Boshqaruvchining o'rinbosari vazifalari-?	moddiy – texnik ta'minotni tashkil qiladi, ishlab chiqarishda transport, xo'jalik xizmatlari, shuningdek trest jamoasi uchun kommunal – maishiy turmushga oid xizmatlarni tashkil qiladi	moddiy – texnik, ishlab chiqarishda transport, xo'jalik xizmatlari, shuningdek trest jamoasi uchun kommunal – maishiy turmushga oid xizmatlarni tashkil qiladi	moddiy – texnik ta'minotni tashkil qiladi, , xo'jalik xizmatlari, shuningdek trest jamoasi uchun kommunal – maishiy turmushga oid xizmatlarni tashkil qiladi	texnik ta'minotni tashkil qiladi, xo'jalik xizmatlari, shuningdek trest jamoasi uchun kommunal – maishiy turmushga oid xizmatlarni tashkil qiladi
3	Qurilish ishlab chiqarishining birinchi o'ziga xos xususiyati – bu...	ishlab chiqirilgan mahsulot – ya'ni, qurilish ob'ektlarining (bino va inshootlar) bir joydan ikkinchisiga ko'chmasligi va hududiy jihatdan muayyan o'ringa yegaligi, shu bilan birga ishlab chiqarish qurilmalari va vositalarining (ishchilar, mashinalar va boshqalar) harakatchanligi, ya'ni bitta ob'ektdan ikkinchisiga doimiy ravishda ko'chirilishi bilan bog'ligi	ishlab chiqirilgan mahsulot – ya'ni, qurilish ob'ektlarinin g bir joydan ikkinchisiga ko'chmasligi va hududiy jihatdan muayyan o'ringa yegaligi, shu bilan birga ishlab chiqarish qurilmalari harakatchanli gi, ya'ni bitta ob'ektdan ikkinchisiga doimiy ravishda ko'chirilishi bilan bog'ligi	ishlab chiqirilgan mahsulot – ya'ni, qurilish ob'ektlarinin g bir joydan ikkinchisiga ko'chmasligi va hududiy jihatdan biridir	ishlab chiqirilgan mahsulot – ya'ni, qurilish ob'ektlarinin g (bino va inshootlar) bir joydan, ya'ni bitta ob'ektdan ikkinchisiga doimiy ravishda ko'chirilishi bilan bog'ligi

3	Qurilish – bu....	mamlakat halq xo'jaligining yirik sohasi bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va halqning farovonlik darajasi o'sishida yetakchi rol o'ynaydi	kuchlarining rivojlanishi va halqning farovonlik darajasi o'sishida yetakchi rol o'ynaydi	halqning farovonlik darajasi o'sishida yetakchi rol o'ynaydi	bu mamlakat halq xo'jaligining yirik sohasi bo'lib. qurilish tashkilotlari va korxonalarida o'z faoliyatlarini olib borishadi
2	Ishlab chiqarish-bu	insoniyat jamiyatining xayot kechirishi va rivojlanishi uchun zarur moddiy ne'matlarni yaratish jarayonidir	ishlab chiqarilgan mahsulotdagi har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishtiroki, ulushini aniqlash jarayonidir	insoniyat jamiyatining xayot kechirishi va rivojlanishi jarayonidir	ishlab chiqarilgan mahsulotdagi har bir xo'jalik yurituvchi jarayonidir
2	Ishlab-chiqarish texnologik komplektlashtirish boshqarmasi (UPTK) asosan nechta funksiyani bajaradi?	uchta: ta'minot, qayta ishlash, komplektlashtirish	to'rtta: ta'minot, qayta ishlash, komplektlash tirish, sotish, xarid qilish	ikkita: ta'minot, qayta ishlash	bitta: moddiy texnik ta'minot
2	Qurilish tashkilotlarning ishlab chiqarish bazasi qanday vazifasini bajaradi?	qurilish materiallari, yarimtayyor maxsulotlar va tuzilmalar ishlab chiqarib shu tashkilot ob'ektlariga yetkazib beradi	qurilish materiallari va yarimtayyor maxsulot ishlab chiqaradi	barcha qurilish ob'ektlarini material va tuzilmalar bilan taminlab turadi	qurilish materiallari va tuzilmalarini yigib-taxlab qurilishni uzluksiz taminlab turadi
3	Qurilishni tashkil qilishning qanday usuli afzal deb xisoblaysiz va nima uchun?	potok usuli, chunki bunda qurilish muddati, material va ishchi kuchiga bo'lgan e'tiyojni optimallashtirish imkoni bo'ladi	parallel usul, chunki bunda qurilish muddati kiskarib material va ishchi kuchiga bo'lgan talab minimal bo'ladi	ketma-ket usul, chunki bunda qurilish muddati qisqarib material va ishchi kuchiga bo'lgan talab minimal bo'ladi	potok usuli, chunki bunda qurilish muddati eng kiska, material va ishchi kuchiga bo'lgan e'tiyoj eng kam bo'ladi
	Uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlariga qaysi xujjatlar kiradi?	Uy-joy kodeksidan hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat	Uy-joy nizomidan	Uy-joy nizomidan, balandsdan	Uy-joy to'g'risidagi Farmondan
	Korxonada mehnatga haq to'lash qanday shaklda amalga oshiriladi?	Ishbay-vaqtbay	Kishi-soat	Mehnat-soat	Yaratilgan mahsulotga nisbatan
3	Injiniroing -.	tijorat asosida (shartnoma shaklida) turli xil muhandislik-	jamiyat rivojlanishi bilan o'zgarib	sanoat (yoki biron-bir boshqa) ishlab	Transport, aloqa, savdo, moddiy-texnik

		maslahat xizmatlari ko'rsatilishi	boruvchi inson ehtiyojlarini qondirishga oid yangiliklar, ularni yaratish, tarqatish va foydalanish jarayonini majmuasi.	chiqarishi hamda aholiga xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik tarmoqlari majmuasi. sanoat (yoki biron-bir boshqa) ishlab chiqarishi hamda aholiga xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik tarmoqlari majmuasi.	ta'minot, fan, ta'lim, sog'liqni saqlashni o'z ichiga oladi
2	Infratuzilma -	sanoat (yoki biron-bir boshqa) ishlab chiqarishi hamda aholiga xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik tarmoqlari majmuasi	jamiyat rivojlanishi bilan o'zgarib boruvchi inson ehtiyojlarini qondirishga oid yangiliklar, ularni yaratish, tarqatish va foydalanish jarayonini majmuasi	transport, aloqa, savdo, moddiy-texnik ta'minot, fan, ta'lim, sog'liqni saqlashni o'z ichiga oladi	tijorat asosida (shartnoma shaklida) turli xil muhandislik-maslahat xizmatlari ko'rsatilishi
3	Iqtisodiy qidiruv ishlarida nimalar aniqlanadi?	mahalliy mashina va naqliyot vositalari, suv va energiya manbalari, ishchi xodimlar	qurilish tashkilotini mavjudligi, xom ashyolar zahirasi, aero rasmga olish	geologik, gidrogeologik, klimatik, yer va geobotanik sharoitlari	gidrogeologik, klimatik, yer va geobotanik sharoitlari
2	Xissadorlik jamoatida bo'lgan qurilish tresti boshqaruvchisini asosiy vazifasi nimalardan iborat?	ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi, trestni boshqaradi, va unga raxbarlik qiladi	xavfsizlik texnikasiga amal qilish, ilg'or tajribani joriy qilish, qurilish ishlab chiqarishini tashkil qilish	moddiy texnik ta'minot bilan shug'ullanadi, rejalar tuzadi, xujjatlarni tahlil qiladi	ilg'or tajribani joriy qilish, qurilish ishlab chiqarishini tashkil qilish
3	Qurilishda bosh pudratchini asosiy vazifasi nimalardan iborat?	qurilishni sifatli bajarib o'z muddatida ishga tushirish	qurilishni asbob-uskuna, xomashyo va xodimlar bilan ta'minlash	qurilish uchun kerak bo'lgan loyiha va hisobnomalarni ishlab chiqish	qurilish bajaruvchisi tomonidan
3	Bino va inshootlar qurilishini muddati qaysi xujjatda belgilangan?	SNiP 3.04.03 - 96	SNiP 3.01.01 - 96	ENiR (YaM va N)	shahba ishlarini bajarishva ishlarni

					bajarilishini taqvimli rejasi
2	Muxandislik – iqtisodiy qidiruvlar qo'yidagilarga bo'linadi?	muhandisli texnikaviy va iqtisodiy	iqtisodiy, santexnikaviy	muhandisli-texnikaviy	texnologik xaritalar
	Korxonaning raqobatlashuvi nima?	Korxonalar o'rtasida mahsulotni sotish va ishlab chiqarish bo'yicha tortishuvi va kurashi	Korxonalarning o'z huquqlarini talab qilishi	Boshqa korxonalar bilan iqtisodiy kurashi	Korxonani mahsulotiga talabgor ko'payishi borasidagi natijalar
	"Mavxum ish" deganda nimani tushunasiz?	bajarilishi uchun vaqt xam, resurslar xam talab kilin maydigan ish	bajarilishi davri va muddati mavxum (nomalum) bo'lgan ish	bajarilish uchun vaqt talab kilinmaydigan ish	bajarilishi uchun moddiy-texnik resurslar talab kilmaydigan ish
2	Korxona qanday tarzdagi muassasa hisoblanadi?	Yuridik	Jismoniy	Mustaqil sub'ekt	Xususiy
2	Foyda nima?	jami daromad - xarajatlar	harajatlarning puldagi ifodasi	narxni yuqori belgilashdan keladigan pul	pul shaklidagi daromad
2	Foyda normasi qanday belgilanadi?	foyda/umumiy xarajatlar	xarajatlar/jami daromad	harajatlar/foйда	daromadlar/harajatlar
2	Sof muomala xarajatlari	tovarni sotish bilan bog'liq bo'lib, sotuvchilarning maoshi, marketing (iste'molchilar talabini o'rganish), reklama va shu kabi xarajatlardan iborat bo'ladi	korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanish natijasida vujudga keladigan xarajatlar	ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etmaydigan, u o'zgarganda ham miqdorini o'zgartirmaydigan xarajatlar	tovarlarni sotish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, shu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazilguncha ketadigan sarflarga aytiladi
2	Quyidagilardan qaysi biri kalendar reja xisoblanmaydi?	qurilish bosh rejasi	chiziqli kalendar reja	to'rsimon grafik	qurilish bosh rejasi va to'rsimon grafik
1	Kalendar reja tuzishda asosiy maqsad nima?	qurilish ishlab chiqarishni rejaga muvofiq to'g'ri tashkil qilish	ob'ektni o'z vaqtida qurib bitkazish	ish xakini o'z vaqtida to'lash	mexnat unumdorligini oshirish
2	Quyidagilardan qaysi biri kalendar rejaning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari tarkibiga kirmaydi?	ish bajaruvchilar tarkibi	qurilish davomiyligi	umumiy mexnat sarfi	smenadagi maksimal ishchilar soni
2	Quyidagilarning qaysi biri kalendar rejada aks ettirilmaydi?	ishchilarning ish xaki	qurilish ishlarining bajarilish ketma-ketligi	smenadagi maksimal ishchilar soni	qurilish davomiyligi
2	Qurilishda mexnatni tashkil qilishning qanday formasi mavjud?	qurilish brigadasi formasi	qurilish boshqarmasi formasi	tashkiliy iqtisodiy formasi	mexnatga yarasha ish xaki tulash formasi
2	Qurilishda mexnatni tashkil	texnologik karta	lokal smeta	qurilish bosh	to'rsimon

	qilishda loyixa-smeta xujjatlaridan qaysi biri asosiy rol uynaydi?			rejasi	grafik
1	Uy–joy, madaniy - maishiy binolar qurilishida buyurtmachi bo‘lib kim ishtirok etadi?	xokimiyat	vazirlar mahkamasi	qurilish vazirligi	transport, asbob uskuna, energiya
1	qurilishni asosiy mahsuloti bu:	qurilib bitgan bino, imorat yoki inshoot	yig‘ma temir-beton mahsulotlari	sifatli beton	imorat yoki inshoot
2	Mahsulotni tarkibi va turi bo‘yicha qurilish oqimi nimalarga bo‘linadi?	qisman, ixtisoslashgan, shaxba (ob‘ekt)li va majmuaviy	ritmli va noritmli	qisqa muddatli va ko‘p (uzoq) muddatli	Ritmli
2	Quyidagilarning qaysi biri vaqtinchalik bino va inshootlar tarkibiga kiradi?	to‘g‘ri javob yo‘q	ochiq omborlar	ovqatlanish va dam olish xonalari	yuvinish xonalari va kiyimxona
2	Qurilish bosh rejasi vaqtinchalik binolarni o‘rnatishda nimalar e‘tiborga olinadi?	xamma javoblar to‘g‘ri	qurilayotgan binoning turi va o‘lchamlari	binolarning o‘rtasidagi oraliq masofalar	shamolning yo‘nalishi
2	Rentabellik ko‘rsatkichlari.....	Sof foyda bilan korxona aktivlarining nisbati	Debitorlik qarzlari aylanuvchanligini	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	Yalpi foydaning sotishdan olingan tushumdan aktivlarini chegirib tashlangan qismiga nisbati
2	Xarajatlarni doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar bo‘lishdan maqsad.	Mahsulotni bahosini aniqlash	Ishlab chiqarish hajmini prognozlash	Foydalivazar arsizishlashni bashoratqilish	Korxonani daromad va xarajat balansini tuzish uchun
2	Maxsulotning material sig‘imi belgilaydi	Materiallardan samarali foydalanishi	Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallarning umumiy og‘irligini	Maxsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar normasini	Tayyorlangan mahsulotlarning toza og‘irligini
	Qurilishni boshqarishning qanday usullari bor?	hamma usullar	ijtimoiy-psixologik usul	ma‘muriy usul	iqtisodiy usul
2	Qurilishdagi loyihalashni bosh vazifasi nimalardan iborat?	qurilishga yangi texnologiya, fan va texnika yutuqlarini joriy qilish, mehnat unumdorligini ko‘tarish	vaqtdan yutgan holda kapital jamg‘armada n foydalanish va iqtisod qilish	qurilish me‘yorlari va qoidalariga rioya qilish, qurilish jarayonini tezlashtirish	qurilishga yangi texnologiya

VI. ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi T: O'zbekiston 1998 yil.
2. O'zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal islohotlarga oid me'yoriy hujjatlarning 11-to'plami. RUMNITS «O'zkommun-o'quvtashkilotchi» 2015.
1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni
3. «Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish-eng muhim vazifamiz». «Xalq so'zi» gazetasi. 2001 yil 5-fevral.
4. Karimov I.A. «Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz». «Xalq so'zi» gazetasi. 2001 yil 17 fevral.
5. Karimov I.A. «Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish-taraqqiyot garovi». «Xalq so'zi» gazetasi. 2001 yil 18 fevral.
6. Karimov I.A. «Biz uchun xalqimiz, Vatanimiz manfaatidan ulug' maqsad yo'q». «Xalq so'zi» gazetasi. 2001 yil 7 dekabr.
7. Karimov I.A. «Iqtisodiyotni erkinlashtirish-resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish-bosh yo'limiz». «Xalq so'zi» gazetasi. 2002 yil 15 fevral.
8. Karimov I.A. «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari». «Xalq so'zi» gazetasi. 2002 yil 30 avgust.
9. Karimov I.A. «Islohotlar strategiyasi-mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir». «Xalq so'zi» gazetasi. 2003 yil 18 fevral.
10. Karimov I.A. «Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidan izchil borish-asosiy vazifamiz». «Xalq so'zi» gazetasi. 2004 yil 10 fevral.
11. Karimov I.A. «Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». «Xalq so'zi» gazetasi. 2005 yil 29 yanvar.
12. Karimov I.A. «Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari harakat qilishimiz lozim» Xalq so'zi gazetasi 2006 yil 11 fevral.
13. Karimov I.A. «YUksak ma'naviyat – engilmas kuch». T. Ma'naviyat, 2008 yil.
14. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari». T. O'zbekiston 2009 yil.
15. Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: O'zbekiston, 2005, 92 b.
16. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar .
17. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar .

18. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr .
19. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari/ I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
20. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral .
21. Karimov I.A. eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
22. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: Xalq so'zi gazetasi, 19 yanvar 2013 yil, 13 (5687)-soni.
23. Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O'zbekiston, 2012 y.
24. Karimov I. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012 y.
25. Karimov I. A. «Buyuk va muqaddassan mustaqil vatan». T.: «O'zbekiston», 2011.
26. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T.: Xalq so'zi gazetasi, 2011 yil 22 yanvar 16-son.
27. N.A.Maxmudova, X.N.Nuritdinov. Qurilish materiallari, konstruksiyalari korxonalari iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. –T.: TAQI, 2003.
28. N.A.Maxmudova. Qurilish materiallari korxonalari iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma (lotin imlosida). –T.: Arxitektura, qurilish innovasiya va integrasiya tarkazi. 2012.
29. YU.B. Monfred. Ekonomika otrasli proizvodstva stroitelnix izdeliy i konstruksiy. –M.: Stroyizdat 1990.
30. E.X.Maxmudov. Ekonomika predpriyatiy. Uchebnoe posobie. –T.: Literatura fond Soyuza pisateley, 2004.
31. N.A.Maxmudova, I.Davletov. Qurilish materiallari korxonalari iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. –T.: TAQI, 2007.
32. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU. Xodiev, A.SH. Bekmurodov, U.V. G'ofurov, B.K. Tuxliev.– T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
33. I.A.Karimov 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.G'G' T.: O'zbekiston nashriyoti. 2012 yil.
34. YOdgorov V.U. «Kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti» 1-qism. O'quv qo'llanma. –T.: TAQI, 2007 y.

35. YOdgorov V.U., Butunov D.YA. “Kommunal xo‘jaligi iqtisodiyoti” 2-qism. O‘quv qo‘llanma. –T.: TAQI, 2007 y.
36. Yodgarov V.U., Butunov D.Ya. Uy-joy kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi. Darslik- Toshkent: Noshir, 2012. 400 b.
37. Simionov YU.F., Drozd N.I. Jiliщno-kommunalnoe xozyaystvo. Spravochnik. IKS «Mart»; Rastov-na-Danu. 2004. -272s.
38. Statisticheskiy sbornik. Jiliщnoe xozyaystvo v Respublike Uzbekistan. T.: Goskomstat Uzbekistana. 2012-2016 gg.
39. YOdgorov V.U., SHabutaev B.A., Butunov D.YA.. Sovremennyye problemy gorodskogo xozyaystva. Materialy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konf. YArGU., YArosavl. 2006.
40. KMK 3.03.04-98 Yig‘ma temir-beton konstruksiyalari va buyumlarini ishlab chiqarish.
41. O‘z.RST 7473-94. Beton qorishmalari.
42. O‘z.RST 679-96. Betonlar. Tarkibni belgilash qoidalari.
43. www.gov.uz. (O‘zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy sayti)
44. www.gkas.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi)
45. www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi)
46. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi)